O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI TARIX INSTITUTI

MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI

CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMLIGI

CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

# TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

## mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

**2025-yil 29-30-may**

**Chirchiq - 2025**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI

# TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

**Chirchiq– 2025**

**Toshkent vohasi tarixiga doir zamonaviy tadqiqotlar.** Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami, II Tom. – Toshkent: «Zebo print », 2025. 305 b.

**Mas’ul muharrir:**
G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

**Tahrir hay’ati:**
R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor
Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor
D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
O.M.Normatov - tarix fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
O.H.Jaynarov - tarix fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo‘yicha falafa doktori, dotsent
S.Toshev – katta o‘qituvchi

Ushbu to‘plamda Qadimgi va o‘rta asrlarda Toshkent vohasi, XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi:zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar, mustaqillik yillarida Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, Toshkent vohasi arxeologiyasi va etnologiyasi bo’yicha tadqiqotlar va ularning yo’nalishlari, Chirchiq shahri tarixi, buguni va istiqbollari, O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqola va tezislar o‘rin olgan. Konferensiya materiallaridan tarixchilar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor- o‘qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

***Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.***

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.
© «Zebo print» nashriyoti, 2025.

## SO‘Z BOSHI

Toshkent vohasi - o‘zining qadimiy va boy tarixiy merosi, betakror tabiiy- iqlimiy sharoitlari, madaniy xilma - xilligi va strategik geografik joylashuvi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan mintaqalardan biri hisoblanadi.

Hududning tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlar, serhosil vodiysi, tog‘ etaklaridagi muhofazali hududlar, shuningdek, o‘ziga xos flora va fauna tizimi qadimdan voha aholisi hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerda asrlar davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat uyg‘unlashib borar, ijtimoiy- iqtisodiy tizim o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo‘lib xizmat qilgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo‘rg‘onlar, me’moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e’tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o‘rganish - o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Toshkent vohasi faqat tarixiy o‘tmish nuqtai nazaridan emas, balki bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar va madaniy merosni saqlab qolish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi konferensiyamizning asosiy maqsadi - Toshkent viloyati tarixini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar va ularning natijalarini muhokama qilish hamda istiqboldagi ilmiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab olishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, tarix sohasida izlanish olib borayotgan yetuk olimlar va yosh tadqiqotchilarni ushbu anjumanga taklif etdik.

Mazkur anjuman tarix fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro ilmiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi.

Shu o‘rinda, ushbu konferensiyaning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etgan barcha professor- o‘qituvchilarga, talabalarga, hamkor tashkilotlarga

chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli ushbu tadbirni yuqori saviyada o‘tkazishga erishmoqdamiz.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda ulkan zafarlar tilayman va bugungi konferensiya mazmunli, samarali hamda ilhomlantiruvchi bo‘lishiga ishonch bildiraman..

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedov**

**Azimova Shahnoza Avazbek Qizi,**
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*1- bosqich talabasi*

# XIX ASR VA XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT BOZORLARI. BOZORLARNING HOZIRGI ZAMON KO‘RINISHI.

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada XIX asr va XX asr boshlaridagi O‘rta Osiyo bozorlari, bozorlarning hozirgi ko‘rinishi, ularning tashkil topish jarayonlari, savdo munosabatlari haqida malumotlar berilib, shu davrda O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutib kelgan iqtisodiy aloqalar, milliy va mintaqaviy tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq o‘zgarishlar yoritilgan. Bozorlarning rang-barangligi va O‘rta Osiyoning madaniy aloqalari haqida tahliliy mulohazalar yuritilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Eskijo'va, Toshkent, bozor, savdo, karvon, aloqa, dòkon, rasta, shahar, hunarmand, markaz, Piyonbozor, Ekobozor, AbuSaxiy bozori, O'rikzor.*

O‘zbekistonda shunday shaharlar borki, ular hali hamon o’rganilib kelinmoqda, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va talqin qilinmoqda. Shunday shaharlardan biri ko‘hna va azim Toshkentdir. Toshkent Buyuk Ipak yo'lida joylashgan O'rta Osiyoning qadimiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy markazlaridan biri bo'lgan. Shahar muhim geografik o'rinda Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq yo'lida joylashganligi sababli, bu yerga har yili yuzlab savdo karvonlari kelib turgan.

Toshkentni istilo qilishda qatnashgan rus rassomi V.Vereshchaginning yozishicha, «Men ko'rgan Sharq shaharlarining hech birini kengligi jihatidan Toshkentliklarning bozoriga tenglashtirib bo'lmaydi. Undagi do'konlar kichkina bo'lsada, ko‘pligi, son-sanoqsizligi va fayzliligi bilan ajralib turadi. Toshkentda do'kondorlik hunari bilan shug'ullanmaydigan biron-bir kishi bormikan? Ayni tush vaqtida bozor rosa qiziydi, savdo ishlari yanada jonlanadi, odam juda tiqilinch bo'lib ketadi, ko'chalarda eshak, ot va tuyalarning ko'pligidan yurish qiyinlashadi....»

"Umuman savdo masalasiga kelsak," - deb yozadi Vereshchagin, "Toshkentning raqibi yo'q. U O'rta Osiyoning asosiy savdo yo'li ustida joylashgan bo'lib, Buxoro va Qo'qondan Rossiyaga va aksincha shu hududlardan o'tadigan karvonlar to'xtab o'tadigan shahardir."

1813 yili Toshkentda bo'lgan elchi Filipp Nazarov esa shaharni turli mamlakatlardan tinmay qatnaydigan karvonlar kelib-ketadigan yirik savdo punkti deb ta'riflaydi. Rus tarixchisi V.Masalskiy eskishahar bozorining 1908-1910 yillardagi ko'rinishini quyidagicha tasvirlaydi. Bir qismi tidan iborat bozorda 4500 ta do'kon, choyxona, oshxona, ustaxona va karvonsaroy borki, ular bozor kunlari nihoyatda tiqilinch bo'ladi. Bozorga tutashgan ko'chalar va bozorning o'zi shaharliklar, daladan kelgan dehqonlar, tuya karvonlari, otliqlar, aravalar bilan shu qadar to'lib ketganki, yurishga iloj bo'lmay qoladi. Allofu qandolatchi, kallapazu kaboppaz, bazzozu somsapaz, misgaru chilangar, novvoy-yu holvafurushlarning baqiriq chaqirig'i, gadolarning xayru sadaqa tilashi, qalandaru maddohlarning qiroatli o'qishlari, tuyalarning bo'kiris hi-yu, eshaklarning hangrashi aralash-quralash bo'lib ketadida, bu mahobatli guldiros bozordan olis-olislargacha eshitilib turadi.

Bozor faqat savdo-sotiq bilan xizmat qilibgina qolmay, shahar xalqi hordiq chiqaradigan joy ham edi. Shahar hokimining turli farmonlari masjidlarda ma'lum qilingandan tashqari, yana bozorda jarchilar tomonidan e'lon qilinardi. O'rta Osiyoning boshqa yir ik shaharlarida bo'lgani kabi bu yerda ham, hayit va ro'za kunlari bozorshab(kechki bozor) o'tardi. Bozorshabda shaharning markaziy ko'chalaridan biri, yoki maydoni bezatilib, ko'chaning ikki chetidagi choyxona va do'konlar oldiga chorporalar qo'yilib, har xil meva-cheva, oziq-ovqatlar sotilgan. Karnay-surnay va nog'oralar chalinib, maxsus jarchilar odamlarni bozorshabga chorlab turgan. Bir tomonda dorbozlar, masxarabozlik va ko'g'irchoqbozlik, bir tomonda kurash va o'rgatilgan hayvonlar tomoshasi bo'lib turgan. Choyxonalarda sozanda, xonanda, askiyachi, qiziqchi va raqqoslar o'z hunarlarini namoyish qilganlar.

XIX asrning o'rtalarida Rossiya va boshqa Yevropa savdogarlarining Toshkent bozoriga intilishi natijasida Eskijo'va bozori yanada gavjumlashadi. Natijada, turli savdo firmalari bu bozorda o'z idora va magazinlarini quradilar. Jumladan, savdogar Yaushevlarning Mahsido'zlik ko'chasidagi mahalliy firmasi va ular bilan ish olib borgan (2005 yild a buzilib ketgan) Emnil Sindelning gazlama firmasining idorasi uchun qurilgan binosi kabilar. Bino keyinchalik xalq orasida “Sindel dom” nomi bilan mashhur topgan. 1928 yilda “Sindel” firmasi joylashgan binoda “Yosh tomoshabinlar teatri” tashkil qilindi. Shunigdek, Eskijo'va bozori hududida Graxovskiy, Nikifrov, Zaxo, Yu.Davidov va Shamsi Asatulla o'g'illarining turli mahsulotlar bilan savdo qiluvchi magazinlari va idoralari o'z ishlarini boshlaydi. Eskijo'va bozori davriga qarab turli nomlar bilan atalgan. Quyida anashu Eskijo'va bozorining turli davrdagi nomlarini izohlashga harakat qilamiz:

*Piyonbozor* - 1866 yilda o'sha davrdagi shaharning ruslar yashaydigan qismi chekkasida Yakshanba bozor (Voskresenskbly bazar) ochiladi. Savdoning asosiy qismini spirtli ichimliklar bilan savdo qiluvchi do'konlar,mayxonalar tashkil qil gan.Mahaliy aholining ayrim boyvachchalari,bu joyga kelib kayfu safo qilib tu rishgan.Mahalliy xalq iborasi bilan Piyon bozor deb nomlanishi shundan.Bozo r 1930yilgacha mavjud bo'lgan. Keyinchalik bu hududda Alisher Navoiy nomli teatr qurilgan. 1947 yildan bu hudud Teatr maydoni nomi bilan atala boshlangan.

*Qaymoqbozor* - Eskijo'va bozoridan keyingi eng katta bozor hisoblangan.Toshkent hokimi Yunusxo'ja hukmronligi davrida qurilgan va 1810yilda Qo'qon xonligi bosqini davrida vayronaga aylantirilgan Kichik o'rda deb nomlanuvchi o'rda vayronalari tepaligi o'rnida bo'lgan. Shayxontohur darvozasiga yaqin bo'lgan. Asosiysavdosi chorva mahsulotlari bo'lgan.Bozorning «Qaymoqbozo》 deb nomlanishi shundan. Bozor tahminan Shayxontoxur, A.Navoiy, A.Qodiriy va Anhor kanali oralig'ida bo'lgan.

Endi biz Toshkentning borishga arziydigan eng mashhur va rang-barang bozorlari jamlanmasini tayyorladik, shuningdek, toshkentliklar bilan suhbatlashdik va ular eng ko'p qaysi bozorlar borishni yoqtirishlarini va nima uchun ularni yaxshi ko'rishlarini bilib oldik. Zamonaviy bozorlardan esa quyidagilardir:

***Parkent bozori***. Bozor Toshkent shahri, Parkent ko'chasi, 74-manzilida joylashgan. Parkent bozori yirik savdo majmuasi bo'lib, u yerda deyarli barcha zarur narsalarni topish mumkin. Bozor bir nechta uy-ro'zg'or buyumlari kichik do'konlari bilan o'ralgan bo'lib,xaridorlarga qulaylik yaratadi. Bozorda turli xil barra mahsulotlar, jumladan, mavsumiy meva va sabzavotlar mavjud. Bu yuqori sifatli mahalliy va import mahsulotlarni xarid qilish uchun ajoyib joy. Bu yerda mahalliy ishlab chiqaruvchilardan yangi go'sht, sut mahsulotlari va pishloqlar ham xarid qilish mumkin. Quruq meva va yong'oqlarning keng tanlovi Parkent bozorini sog' lom ovqatlanish ixlosmandlari uchun yoqimli maskanga aylantiradi. Eng talabchan xari dorlar ehtiyojlarini qondirgan holda turli xil yormalar,ziravorlar va qaylalar serob taqd im qilingan. Bozorda kiyim-kechak, poyabzal va turli xil uy-ro'zg'or buyumlarini ham topish mumkin. Ko'plab tashrif buyuruvchilarning ta'kidlashicha, Parkent bozori - barra mahsulotlarni oqilona narxlarda xarid qilish uchun ideal joy. Bozor tozaligi va savdo yaxshi tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Xaridorlar, shuningdek, sotuvchilarning samimiyligi va professionalligini maqtaydi,bu esa bozorga tashrif buyurishni yanada yoqimli qiladi.

***Ekobozor*** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Temur Malik ko'chasi, 3A manzilida j oylashgan. Ekobozor savdo va joy tashkil etishda ekologik toza yondashuvi bilan mashhur. Toshkentdagi ushbu bozorning asosiy maqsadi -tashrif buyuruvchilarga barra va tabiiy mahsulotlarni taklif qilish. Bu joy tozaligi, tashkil qilinishi yaxshiligi va yoqimli muhiti, shuningdek, demokratik narxlari bilan ajralib turadi, bu esa mahalliy aholini ha m, sayyohlarni ham o'ziga jalb qiladi. Ekobozor tovarlar keng assortimentini taklif qiladi, jumladan: - mahalliy va import qilingan meva va sabzavotlar; - mahsulotlarning yangi va xavfsizligini kafolatlaydigan, sinovdan o'tgan yetkazib beruvc hilardan yuqori sifatli go'sht va baliq mahsulotlari; - sut mahsulotlarining keng tanlovi,shu jumladan pishloqlar,yogurtlar va mahalliy ishlab chiqaruvchilardan sut; - turli xil organik tovarlar, masalan, yormalar,ziravorlar va quruq mevalar; uy-ro'zg'or buyumlari; - mahalliy va xalqaro shirinliklar, pishiriqlar, shuningdek parhez va glyutensiz mahsulotlar.

Mirobod bozori barra mahsulotlar va uy-ro'zg'or buyumlarining keng assortimenti bilan mashhur. Bu yerda quyidagilarni topishingiz mumkin: barra sabzavot va mevalar (mahalliy va import); go'sht va sut mahsulotlari; quruq meva va yong'oqlar; baqqollik mahsulotlari va ziravorlar; maishiy tovarlar va kiyim-kechaklardir.

***Mirobod bozori*** - barra mahsulotlar va uy-ro'zg'or buyumlari xarid qilinadigan Toshkentdagi eng yirik bozorlardan biri. O'zining qulay joylashuvi va keng assortimenti tufayli ushbu bozor mahalliy aholi va sayyohlar orasida mashhur bo'lib qolmoqda. Agar siz sharqona bozor muhitiga “sho'ng'ish”ni va sifatli mahsulotlardan bahramand bo'lishn i istasangiz,Mirobod bozori tashrif buyurish uchun ajoyib tanlov bo'ladi.

***Yunusobod bozori.*** Bozor Toshkentning eng gavjum tumanlaridan biri Yunusobod tumani Ahmad Donish ko'chasida joylashgan. U barra oziq-ovqat mahsulotlarining keng assortimenti va tova rlar xilma-xilligi bilan taniladi. Bozorda juda ko'p mahsulotlar taqdim qilingan:go'sht va sut mahsulotlari, meva va sabzavotlar,ziravor va qaylalarning keng assortimenti,shuningdek, xo'jalik mollari hamd a kiyim-kechaklar. Bozor poytaxt aholisi orasida juda mashhur, chunki u yerda tanlas h imkoniyati keng,narxlar hamyonbop va transport aloqasi qulay. So'nggi yillarda Yunusobod bozori uning qayta qurilishiga yo'naltirilgan sarmoyalar tuf ayli sezilarli o'zgarishlarga duch kelyapti Savdo sharoitlarini yaxshilash va savdo o'rinl ari sonini oshirish imkonini beradigan zamonaviy ko'p qavatli majmua barpo etish rejalashtirilyapti. Bozor yonida katta avtoturargoh joylashgan.Xarid aravachalari, imkoniyati cheklanganla r uchun panduslar mavjud.

Ekobozorning muhim xususiyati uning soat 23:00 gacha i shlashi bo'lib,bu hatto kechgacha ishlaydigan insonlarga ham bozorda xarid qilish imk onini beradi. Ekobozor tashqi ko'rinishidan zamonaviy savdo markaziga o'xshaydi, am mo ichkarida mahsulotlar katta assortimenti va sharq bozorining o'ziga xos muhiti bi lan o'sha odatiy rastalarni topasiz.

***AbuSaxiy bozori*** - O'zbekiston poytaxtining eng yirik ulgurji bozorlaridan biri, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Bunyodkor prospekti, 156A manzilida joylashgan. Ushbu bozor p oytaxtning g'arbiy chekkasida muhim hududni egallaydi. Abu Saxiy o'zining ko'lami va taklif qilinadigan mahsulotlar xilma-xilligi bilan mashhur .Ushbu bozor 60 akrdan ortiq maydonni egallaydi va 3000 ga yaqin savdo nuqtalarin i o'z ichiga oladi.Bozorning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ulgurji savdoga yo'naltiri lgan bo'lib, ham mahalliy,ham xalqaro xaridorlarni jalb qiladi. Bozor o'zining o't o'chi rish stansiyasi bilan jihozlangan, bu uning ulkan hajmi va shahar uchun ahamiyatini ta'kidlaydi. Bozorda ko'plab tovarlar taqdim qilingan: oziq-ovqat mahsulotlaridan boshlab m ebel va qurilish materiallarigacha. Tanlov juda katta, narxlar nafaqat ulgurji,balki chakana xaridorlar uchun ham mavjud.

***Chorsu bozori*** - qadimiy Toshkent yuragi va qalbi,shaharning boy madaniy va savdo tar ixi ramzi hisoblanadi. Navoiy ko'chasi, 48 manzilida joylashgan Chorsu bozori nafaqat O'zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyoning eng qadimgi va eng yirik bozorlarida n biri hisoblanadi:2 ming yildan ortiq vaqtdan beri mavjud. Chorsu nomi “to'rt yo'l” deb tarjima qilinadi,bu bozorning asosiy savdo yo'nalishlari kesishgan joyda joylashganligini aks ettiradi. Bozor tarixi bir necha asrlargga borib taqaladi va u Buyuk ipak yo'lining muhim tuguni bo'lgan. Bugun, qadimgi davrlarda bo'lgani kabi, Chorsu bozori butun mintaqadan savdogarlar va xaridorlarni jalb qilishda davom etyapti. Prof. X.X. Xasanov “Eskijo'va"-mahalla nomi, harbiy aslaxalar ombori (jo'vaxona) bo'lg anidan bu joy shunday nom olgan deydi. Xaqiqatan ham jiba "sovut" degan so'z. (S .Qorayev).

Qadimshunos olima V.A. Bulatova esa taniqli olima O.Smirnova asarlarida "eski” - so'zi so'g'd tilida “baland”degan ma'noni anglatishini uchratib qolganligini yozadi. Bu termin qadimiy Toshkentga juda mos degan xulosaga kelib,Eskijo'va - “baland bozor” degani deydi va isboti tariqasida “Toshkent” yetti soy va yetti tepalikdan qad ko'targan, degan afsonani keltiradi. Chorsu o'zining noyob me'moriy qiyofasi bilan ajralib turadi. Bozor binolari yettita gumbazga ega va bu nafaqat funksional,balki estetik xususiyat hamdir. Markaziy gu mbaz ostida go'sht, ziravorlar, quruq mevalar,sut mahsulotlari sotiladigan rastalar joylashgan. Bozorning boshqa qismlarida

barra meva va sabzavotlardan tortib yong' oqlar va an'anaviy o'zbek shirinliklarigacha bo'lgan boshqa mahsulotlarni topish mu mkin.

Chorsu bozorining asosiy diqqatga sazovor joylaridan biri-hunarmandchilik sektori. Bu yerda hunarmandlar o'zining qo'lda ishlangan buyumlari-gilamlar,keramika,zargarlik buy umlari va qo'lda tikilgan kashtachilik mahsulotlarini namoyish etadi. Shuningdek,bozor matolar va milliy liboslar pavilyoni bilan mashhur. Bu kolorit va atrofdagi atmosfera ni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi - faqatgina his qilish mumkin.

***O'rikzor bozori*** O'zbekiston poytaxtining eng gavjum bozorlaridan biri hisoblanadi.Ucht epa tumanida joylashgan, har kuni ko'plab tashrif buyuruvchilarni jalb qilib, tovarlar xilma-xilligi va faol savdo muhiti bilan mashhur. Bozor bir nechta zonalarga bo'lingan,ularning har biri ma'lum turdagi tovarlarga ixtis oslashgan.Bozorning bir qismida barra mneva,sabzavotlar,go'sht va sut mahsulotlari, ikkinchisida kiyim-kechak, poyabzal va aksessuarlar, uchinchisida maishiy texnika, elektronika va boshqalarni xarid qilish mumkin. Bozorda o'zbek oshxonasining turli xil taomlarini tatib ko'rish mumkin bo'lgan boy gastronomik zona mavjud. Qurilish seksiyasi alohida e'tiborga loyiq. Bozorning ushbu qismi Toshkentda ham, butun O'zbekistonda ham eng yiriklaridan biri . Bu yerda qurilish va ta'mirlash uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni: mayda asbo blar va pardozlash materiallaridan tortib, yirik gabaritli texnika va uskunalargacha top ish mumkin.Bu bozorni biznes egalari va qurilish pudratchilari orasida,ayniqsa,mashhur qiladi. Registon (forscha)-O'rta Sharq shaharlaridagi maydon. Turkiyda qumloq ma'nosini anglatadi. Nomiga ko'ra bu bozorning dastlabki nomi. Chunki O'rta Osiyoda odatda bozorlar unumsiz qumloq va toshloq joylarda tashkil qilingan. Labzak yoki Jangob arig'ining hozirgi bozor markazidan o'tadigan joylar pastlik va toshloq joylar bo'lgan. Shuningdek, O'rta Osiyo shaharlarida markaziy maydonlar Registon deb yuritilgan. Bu bozor haqida X asr tarixchisi Makdusiyning yozishicha, “Toshkentdan boshqa shaharlarga temir buyumlar,egar-jabduqlar va boshqa hunarmandlik mahsulotlari olib ketilardi. Toshkent kamonlari va nafis idish-tovoqlari bilan shuhrat qozongan edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Toshkent nafaqat tarixiy yodgorliklar va me'moriy diqqatga sazovor joylari bilan,balki gavjum bozorlari bilan ham mashhur.Toshkent bozorlari shahar madaniyati va iqtisodi yotining muhim qismi hisoblanadi. Bu shunchaki savdo-sotiq joylari emas, balki Sharq an'analari, ta'mlari va iforlari kesishgan ijtimoiy muloqot markazlaridir biridir..

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulaziz Muhammadkarimov – “Toshkentnoma” (2009) Bu asarda XIX–XX asr boshlarida Toshkentdagi asosiy bozorlarga oid batafsil ma’lumotlar berilgan. Registon, Chorsu, Qo‘shbozor, Eskijo‘va, Qaymoqbozor, Piyonbozor kabi bozorlarga oid tarixiy ma’lumotlar mavjud.

2. “Toshkent tarixi” maqolasi Muxlis.uz saytida chop etilgan bu maqolada Toshkentning iqtisodiy va madaniy yuksalishi, shuningdek, Chorsu bozori va boshqa savdo markazlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

3. “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent bozorlari” maqolasi Malumot.ru saytida chop etilgan bu maqolada Toshkentdagi bozorlarga oid tarixiy ma’lumotlar, jumladan, Chorsu, Qo‘shbozor, Eskijo‘va, Qaymoqbozor, Piyonbozor kabi bozorlarga oid tafsilotlar mavjud.

4. “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent me’moriy qiyofasidagi o‘zgarishlar” maqolasi Ushbu maqolada Toshkent shahrining me’moriy qiyofasidagi o‘zgarishlar, jumladan, savdo binolari va bozorlar haqida ma’lumotlar berilgan.

5. “Toshkent shaharsozlik tizimi XIX–XX asr boshi” maqolasi Scienceweb.uz saytida chop etilgan bu maqolada Toshkent shahrining shaharsozlik tizimi, jumladan, bozorlarga oid ma’lumotlar mavjud.

6. XZ Normurodovna (2025). DIGITIZATION IS A MODERN APPROACH TO THE EDUCATIONAL SYSTEM, THE NATIONAL TEACHING SYSTEM. Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, 1(Vol. 1 No), 279-287.

7. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 56-64

8. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA RAQAMLI O ‘RGANISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

9. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31

10. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA - O„QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOIY MUHIT TA’SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA.

SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

11. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O‘. (2024). RAQAMLI O‘RGANISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O‘QITUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta’lim va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,

12. Haydarova, Z. N. (2024). Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o‘quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish. Mug'allim, 3(3), 199-206.

13.Haydarova, Z. N. (2024). Ta’limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya, 1(1), 502-512.

14. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

15. Haydarova, Z. N. (2023). Ta’lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. UzMU xabarlari, 1(10), 225-227.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY – IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI

**Bahramov Shohruh Faxriddin o‘g‘li**,
ChDPU Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:*** *Tezisda Toshkent shahrining O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘nggi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi yutuqlari yoritilgan. Unda poytaxtning shaharsozlikdagi yangilanishi, xalqaro investitsiyalar jalb etilishi, infratuzilma modernizatsiyasi va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlar haqida fikr yuritiladi. Kalit so‘zlar: Toshkent, islohotlar, urbanizatsiya, madaniy taraqqiyot, investitsiya.*

***Abstract:*** *The thesis highlights the achievements in Tashkent’s social, economic, and cultural spheres following Uzbekistan’s independence. It analyzes urban development reforms, foreign investment, infrastructure modernization, and cultural advancement in the capital. Keywords: Tashkent, reforms, urbanization, cultural progress, investment.*

***Аннотация:*** *В тезисе освещаются достижения города Ташкента в социально-экономической и культурной сферах после обретения*

*независимости Узбекистаном. Рассматриваются реформы в области градостроительства, привлечение инвестиций, модернизация инфраструктуры и развитие культуры.*

***Ключевые слова:*** *Ташкент, реформы, урбанизация, культурное развитие, инвестиции.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Toshkent shahrida tub islohotlar jarayoni boshlandi. Poytaxt sifatida Toshkent nafaqat siyosiy markazga, balki iqtisodiy faollik va madaniy uyg‘onish o‘chog‘iga aylandi. Davlat tomonidan shaharni zamonaviy tarzda rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilib, qator yirik infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirildi.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda transport tizimi, suv ta'minoti, kanalizatsiya tarmoqlari yangilandi. Yangi yerosti metro liniyalari, elektrobuslar va yo‘l infratuzilmasi aholiga qulaylik yaratdi. Turar-joy qurilishi ham keng ko‘lamda amalga oshirilib, ‘Yangi Hayot’, ‘Do‘stlik’ kabi massivlar barpo etildi. Ular zamonaviy arxitektura, ekologik dizayn va yashil hududlar bilan ajralib turadi. Madaniy sohada esa teatrlar, kinoteatrlar, musiqa maktablari, galereyalar faoliyati kengaytirildi. Toshkent xalqaro kinofestivali, Hunarmandlar ko‘rgazmasi kabi tadbirlar orqali milliy madaniyatni ommalashtirishga katta e'tibor berildi.

Toshkent aholisi sonining ortishi bilan birga ijtimoiy xizmatlar sifati ham oshirildi. Maktablar, klinikalar, bog‘chalar soni ko‘paytirildi. Elektron hukumat tizimi joriy etilib, aholi bilan muloqotda ochiqlik va samaradorlik ta’minlandi. Atrof-muhit muhofazasi doirasida esa “Yashil poytaxt” kontseptsiyasi asosida millionlab daraxtlar ekildi. Ekologik markazlar, sayilgohlar, veloyo‘laklar va dam olish maskanlari qurildi. Toshkent shahri mustaqillik yillarida ko‘p qirrali rivojlanish yo‘liga kirdi. Shaharsozlikda ilg‘or texnologiyalar joriy etildi, aholining turmush darajasi oshirildi, madaniy va ijtimoiy infratuzilmalar kengaytirildi. Investitsion muhit yaxshilanib, xorijiy hamkorlar soni ortdi. Milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuv uyg‘unligi poytaxt hayotini boyitdi. Toshkent bugun O‘zbekiston taraqqiyotining timsoli, mintaqadagi ilg‘or va barqaror shaharlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shuningdek, Toshkent shahri zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda ham yetakchilik qilmoqda. Smart-shahar konsepsiyasi asosida turli xizmatlar raqamlashtirilib, aholi hayoti yengillashtirildi. Raqamli infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar shahar boshqaruvida

samaradorlikni oshirdi. Toshkent bugungi kunda nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro maydonda ham innovatsion va madaniy markaz sifatida o‘z nufuzini mustahkamlab bormoqda. Bu esa uning strategik ahamiyatini yanada oshirib, kelgusi rivojlanish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston – bizning maqsadimiz”. — T.: O‘zbekiston, 2022.
2. “Toshkent shahri ijtimoiy rivojlanish strategiyasi”. — T.: Iqtisodiy taraqqiyot, 2019.
3. Tursunov B. “Poytaxt hayoti va urbanizatsiya”. — T.: Ma’rifat, 2020.
4. www.tashkent.uz — Toshkent shahar hokimligi rasmiy veb-sayti.
5. www.stat.uz — O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari.
6. lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari bazasi.
7. “Yashil makon” loyihasi to‘g‘risidagi Prezident qarori. — T.: Adolat, 2021.
8. Islomov A. “Innovatsion infratuzilma va shahar taraqqiyoti”. — T.: Ilm ziyo, 2020.
9. Uzbekistan 2030 Strategy. — T.: Development Report, 2023.
10. Sharipova G. “Madaniyat va zamonaviylik”. — T.: O‘zbekiston madaniy merosi, 2022.

## SALIB YURISHLARI VA ULARNING YAQIN SHARQ TARIXIGA TA’SIRI

**Soatov Ulug‘bek Axmadjon o‘g‘li,**
CHirchiq davlat pedogogika unversiteti
1-kurs talabasi

***Annotatsiya****: Maqolada 11–13-asrlar oralig‘ida Yevropada boshlangan Salib yurishlari sabablari, ularning harbiy va siyosiy natijalari, hamda Yaqin Sharq mintaqasiga ko‘rsatgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta’siri tahlil qilinadi. Salibchilar va musulmonlar o‘rtasidagi tarixiy to‘qnashuvlar nafaqat o‘sha davrda, balki keyingi asrlarda ham ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi munosabatlarga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Maqolada ushbu yurishlarning qisqa va uzoq muddatli oqibatlari, ayniqsa, Yaqin Sharqdagi siyosiy tuzilmalarga, madaniy merosga va xalqlararo munosabatlarga ta’siri yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Salib yurishlari, Yaqin Sharq, Quddus, Salohiddin Ayyubiy, musulmonlar, nasroniylik, siyosiy ta’sir, madaniy almashinuv.*

***Annotation****: This article analyzes the causes and objectives of the Crusades launched in Europe during the 11th to 13th centuries, their military and political outcomes, and their social, cultural, and economic impact on the Middle East. The historical conflicts between the Crusaders and Muslims not only influenced the era in which they occurred but also significantly shaped the relationship between Western and Eastern civilizations in subsequent centuries. The article explores both the short-term and long-term consequences of the Crusades, particularly in terms of political structures, cultural heritage, and interethnic relations in the Middle East.*

***Аннотация****: В данной статье анализируются причины и цели Крестовых походов, начавшихся в Европе в XI–XIII веках, их военные и политические итоги, а также социальное, культурное и экономическое влияние на Ближний Восток. Исторические столкновения между крестоносцами и мусульманами оказали значительное влияние не только на эпоху, в которой они происходили, но и на отношения между западной и восточной цивилизациями в последующие века. В статье рассматриваются как краткосрочные, так и долгосрочные последствия походов, особенно в контексте политических структур, культурного наследия и межэтнических отношений на Ближнем Востоке.*

Salib yurishlari — Yevropa tarixining o‘rta asrlarida sodir bo‘lgan eng muhim harbiy-diniy harakatlardan biri hisoblanadi. Bu yurishlar Rim Papasi Urban II tomonidan 1095-yilda Klermon soborida e’lon qilingan nutqdan so‘ng boshlangan va deyarli ikki asr davom etgan. Yurishlarning asosiy maqsadi nasroniylar uchun muqaddas hisoblangan Quddus shahrini musulmonlar qo‘lidan ozod qilish edi. Biroq, bu yurishlar o‘z ichida murakkab va ko‘p qatlamli sabablarni mujassam etgan: diniy e’tiqod, siyosiy raqobat, iqtisodiy manfaatlar va madaniy ziddiyatlar.

*Diniy sabablar:* Salib yurishlari rasmiy ravishda diniy asosga ega edi. Rim papasi va cherkov rasmiylari musulmonlar tomonidan egallab olingan Quddus shahrini “nasroniylarning muqaddas yeri” sifatida ozod qilishni talqin qilganlar. Bu yurishlar orqali harbiylar “gunohlaridan xalos bo‘lish” va jannatga erishishlariga ishontirilgan.

*Siyosiy sabablar:* Yevropada o‘sha davrda kuchli markazlashgan davlatlar yo‘q edi, ko‘plab ritsarlar va knyazlar o‘z kuchlarini sinab ko‘rish, hokimiyatni

kengaytirish uchun imkon izlar edi. Papa esa bu yurishlar orqali Yevropadagi ichki nizolarni kamaytirish va o‘z hokimiyatini mustahkamlashga intilgan.

*Iqtisodiy sabablar:* Salib yurishlari Yevropa savdogarlari uchun Sharq savdo yo‘llariga chiqish, yangi bozorlar, boyliklar, yerlar topish uchun katta imkoniyat edi. Ayniqsa, Italiya shahar-davlatlari — Genuya, Venetsiya va Piza — Salib yurishlari orqali savdo imperiyalarini kengaytirdilar.

Birinchi Salib yurishi (1096–1099). Bu yurish eng muvaffaqiyatlisi bo‘ldi. Salibchilar Quddus shahrini egallab, 1099-yilda “Quddus qirolligi”ni tuzdilar. Bu yurishda nasroniylar ko‘plab musulmon aholini qirg‘in qilishdi. Ikkinchi Salib yurishi (1147–1149) Yurish musulmonlar tomonidan qayta bosib olingan Edessa shahrini qaytarib olish uchun tashkil etilgan edi. Biroq frantsuz va nemis qo‘shinlari yengildi, yurish muvaffaqiyatsiz tugadi. Uchinchi Salib yurishi (1189–1192)

Musulmon sarkardasi Salohiddin Ayyubiy 1187-yilda Quddusni qayta egalladi. Yevropadan Angliya qiroli Richard I (Sher Yurak), Frantsiya qiroli Filipp II va imperator Fridrix Barbarossa yetakchiligida yurish boshlangan. Ular Quddusni qayta ola olishmagan, ammo musulmonlar bilan sulh tuzilgan. To‘rtinchi yurish va keyingilari (1202–1272). Bu yurishlar diniy maqsadlarga emas, balki ko‘proq siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga yo‘naltirilgan edi. To‘rtinchi yurish davomida Salibchilar Konstantinopolni egallab, uni talon-taroj qilishdi. Bu Vizantiya imperiyasining zaiflashishiga olib keldi.

*Siyosiy ta'sir:* Salib yurishlari natijasida musulmonlar orasida birlashuv kuchaydi. Salohiddin Ayyubiy va uning vorislari siyosiy jihatdan kuchli tuzilmalarni yaratdilar. Shu bilan birga, G‘arb nasroniylari tomonidan Yaqin Sharqda tuzilgan Salibchi davlatlar uzoq yashamadi, ammo ular Yaqin Sharq siyosatida vaqtinchalik muhim rol o‘ynadi.

Ijtimoiy va madaniy ta’sirSalib yurishlari natijasida G‘arb va Sharq o‘rtasida madaniy almashinuv kuchaydi. Yevropaliklar musulmon dunyosidan tibbiyot, matematika, falsafa, arxitektura kabi ko‘plab sohalarda bilim oldilar. Shu tariqa, Salib yurishlari Yevropaning Uyg‘onish davriga tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qildi.

*Iqtisodiy ta'sir:* Salib yurishlari savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qildi. O‘rta yer dengizi bo‘ylab Yevropa va Sharq o‘rtasida yangi savdo yo‘llari ochildi. Ayniqsa, Venetsiya, Genuya, Marsel kabi port shaharlari katta foyda ko‘rdi.

*Diniy va mafkuraviy oqibatlar:* Ushbu yurishlar natijasida islom va nasroniy dunyosi o‘rtasida uzoq yillik dushmanlik va ishonchsizlik muhitining

shakllanishiga sabab bo‘ldi. Garchi madaniy almashinuv mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, bu yurishlar ikki diniy sivilizatsiya o‘rtasida chuqur yoriq hosil qildi.

Salib yurishlari o‘rta asrlar tarixida G‘arb va Sharq o‘rtasidagi eng keskin, ammo tarixiy jihatdan muhim to‘qnashuvlardan biridir. Ular qisqa muddatda musulmonlar va nasroniylar o‘rtasida keng ko‘lamli urushlarga sabab bo‘ldi, biroq uzoq muddatda madaniy almashinuv, savdo-sotiq rivoji va ilmiy taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Yaqin Sharq mintaqasining bugungi tarixiy va siyosiy holatiga ham ushbu yurishlarning aks-sadosi seziladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Riley-Smith, Jonathan. The Crusades: A History. Yale University Press, 2005.

2. Maalouf, Amin. The Crusades Through Arab Eyes. Saqi Books, 2001.

3. Tyerman, Christopher. God’s War: A New History of the Crusades. Harvard University Press, 2006.

4. Gibb, H.A.R. The Arab Conquests in Central Asia. AMS Press, 1970.

5. Asimov, M.S. Tarixiy-siyosiy nazariyalar. Toshkent, 1998.

6. Xaydarov, M. Jahon tarixi: O‘rta asrlar. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2004.

7. Nasriddinov, Sh. O‘rta asrlar jahon tarixi. Samarqand, 2010.

## ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IMPERIYAGA ASOS SOLISHI

***Bahronov Og‘abek,***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*
*bahromovogabek1@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Zahriddin Muhammad Boburning siyosiy va harbiy faoliyati, uning Movarounnahrdan Hindistonga yurishlari, shuningdek Boburiylar imperiyasiga asos solishidagi roli yoritilgan. Boburning siyosiy tafakkuri, davlat boshqaruvi, madaniyat va adabiyot sohasidagi xizmatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Boburning shaxsiyati buyuk sarkarda, adib va davlat arbobi sifatida ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Zahriddin Muhammad Bobur, Boburiylar imperiyasi, Movarounnahr, Hind yurishi, sarkardalik, davlat boshqaruvi, tarixiy shaxs, adabiyot, meros.*

XVI asrda Hindistonda siyosiy tarqoqlik hukm surardi. O‘zaro ichki nizolar va urushlar mamlakatni kuchsizlantirgan edi. Hindistondagi ichki siyosiy ahvolni sinchkovlik bilan kuzatib turgan Kobul hukmdori Zahriddin Muhammad Bobur vaziyatdan foydalanib qaror qildi va Hindistonni egallash uchun harbiy yurish boshladi. Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida lo‘diylar sulolasi hukmronlik qilardi. Bobur Mirzoning Hindistonga qarshi harbiy yurishi 1525-yilning oxirida boshlandi. 1526-yilning 21- aprelida panipat jangida Ibrohim Lo‘diy qo‘shini tor mor keltirdi. 27-aprel kuni esa Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o‘qildi.. Boburiylar — Hindistonda (1526—1858) hukmronlik qilgan sulola. Temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur asos slogan [1, 37-b]

Hind sarzaminida Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan markazlashgan davlatning tarixi haqida so‘z yuritganda, mavzuni tarixan «Hind yurishi»ga zaminyaratgan quyidagi uch omil zikridan boshlashni farz, deb bildik: Biri, bu temuriylar inqirozidan keyin yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik sharoitida gi feodal tarqoqligi asoratlari. Ikkinchisi, bu - temuriyeodalarnig sobik saltanat xududida o‘z davlatlarini barpo etish maqsadidagi xatti-harakatlari. Uchinchisi, bu - nihoyat, Hindistonda «qotib qolgan diniy aqidalar va turmush asosini tashkil qilgan o‘zgarmas ijtimoiy tartibning taraqqiyot jarayonini Ma’lumki, Boburning Hindistonni tasarruf etishidan muqaddam uning to‘rt bor hind viloyatlariga qilgan hujumlari aksariyat tadqiqotlarda negadir xuddi «Rano Sango taxmin qilgan»idek, go‘yo faqat moddiy manfaatlar maqsadi ruhida e’tirof etilgan:

1.1519- yili Bajur va Behra viloyatlarining bo‘ysundirilishi.

2.1519- yilning o‘zida yana Peshavorgacha kirib borilishi.

3.1520 -yili Panjobdagi qal’alarni bo‘ysundirilishi.

4.1524- yili Lahorgacha bo‘lgan hududni egallanishi.

Xolbuki, «Hindga to‘rt marotaba cherik tortilishi»,moddiy manfaatlardan tashqari - balki avvaldan rejalashtirilgan yurish uchun maxalliy vaziyat va xarbiy jihatdan zarur bo‘lgan ma’lumotlar to‘plashga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Chunki «Boburnoma»da beril gan o‘sha vaqtdagi mavjud hind davlatlari soni va tavsifi garchi rasman «Hindiston fathi tarixi» bayonidan boshlangan bo‘lsa-da, lekin ular haqidagi tegishli xabarlar fotihga ancha ilgaridan ma’lum bo‘lgan ko‘rinadi: «Bu tarixdakim, men Hindustonni fath qildim, besh musulmon podshoh va ikki kofir Hindustonda saltanat qilurlar edi... «Bir afgonlar edikim, Dehli poytaxtlalarda edi... ” «Ikkinchi, Gujaratga Sulton Muzaffar edi.,». «Uchinchi, Dekanda Bahianiylar edi...» «To‘rtinchi,

Malva viloyatidakim, Mandav ham derlar, Sulton Maxmud edi...» «Beshinchi, Bangala viloyatida Nusratshoh edi...»[2,59-b]

Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining Hindistondagi qisqa hukmronligi davrida davlatda siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, bog‘- rog`lar yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Uning davrida Hindistonda kutubxonalar, karvonsaroylar, me’moriy inshootlar qurildi. Hindiston arxitekturasiga Markaziy Osiyo uslubini olib kirdi. Fikrimizning dalili sifatida –“Bobur Hindistonga kelgandan so‘ng katta siljishlar yuz berdi va yangi rag`batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir – birlariga tutashib ketdi” - deydi Hindistonning davlat, siyosiy va jamoat arbobi Javaharlal Neru. Bobur Mirzo saroy g`aznasini go`zal inshootlar barpo etishga sarfladi. Keyinchalik bu odat esa har bir Boburiy hukmdorning fazilatiga aylandi. Natijada, Toj Mahal, Qizil Masjid, Humoyun maqbarasi shuningdek, bir biridan go`zal bog`u-rog`lar barpo etildi.“Mirzo Boburning Hindistondagi qudrati uning bosib olgan yerlari bilan emas, u hind xalqining ko`nglida uyg`ota olgan hurmat-ehtirom bilan o`lchanadi [3]

Boburiy podshohlar ilm-fan, bunyodkorlik sohasida boshqalarga o‘rnak hisoblanadi. Ular homiyligida qurilgan binolar bugun Hindiston, Pokiston, Bangladesh xalqlarining faxridir. Shuningdek, boburiylar aql-zakavot, ijodiy ishlarda ko‘pchilikka o‘rnak Ushbu sulola vakillari tomonidan qoldirilgan bebaho ma'naviy meros hind va o‘zbek xalqlari boyligi. Rampur Raza kutubxonasida saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasiga oid tarixiy ashyolar madaniy ildizlarimiz, tariximiz o‘xshashligidan dalolat.

Ma’lumki, butun dunyo bo‘yicha o‘zbek davlatchiligi tarixiy dalillarni yaxshi o‘rganmasdan turli sulolaviy shajaralarni mo‘g‘ul xonliklari avlodlariga olib boorish urf tusiga kirgan. Bu borada sohibqiron Amir Temurni ham mo‘g‘ul deb yuritishga xorijiy tarixchilar odatlanib qolishgan aslida esa, Amir Temur o‘zbek xalqi tarkiiga kirgan “barlos” urig‘idan bo‘lgan

Boburning ilmiy va adabiy merosi O‘rta Osiyo va Hindiston madaniy hayotida katta o‘rin tutadi. Bundan tashqari, u Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan feudal madaniyatining eng yaxshi va katta hissa qo‘shgan vakillardan biri bo`lgan. Hind-musulmon madaniyati, ayniqsa Markaziy Osiyo va Hind tarixshunosligining rivojlanishiga kata hissa qo`shdi. "Boburnoma" noyob tarixiy hujjat, Bobur tomonidan yozilgan ilmiy risola va yaratilgan asosiy ahamiyatga ega merosdir Zahiriddin Muhammad Boburning tarixchi, geograf, etnograf, nosir va shoir sifatidagi xizmatlari bugungi kunda jahon

sharqshunoslari orasida tan olingan, bundan tashqari, u olim sifatida ham tan olingan buyuk shaxs. Uning merosi Sharqni o‘rganish markazlarida deyarli butun dunyoda (MDH, Chexiya, Slovakiya, Germaniya, Turkiya, Italiya, Frantsiya, AQSh, Angliya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston) o‘rganilmoqda. Buning amaliy tasdig‘i sifatida "Boburnoma" YUNESKO shafeligi ostida 1980-yilda fransuz tiliga tarjima qilingan, 1985 yilda Parijda nashr etilgani bunga yaqqol misoldir. Mashhur fransuz sharqshunosi Lui Bazan o‘zining fransuzcha tarjimasida yozgan (1980)"Boburnoma-bu avtobiografik risola, bu Islom adabiyotida juda kam uchraydigan janr" ekanligini qayd etgan[6]

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash lozimki Boburning Hindistonda keng ko‘lamli ishlarni olib borgan.Uning Hindistonda qisqa davr ichida juda kata keng ko‘lamli ishlar olib borishi bu Zahiriddin Muhammad Boburning kuchli siyosatchi, davlat arbobi, mutafakkir, mohir sarkarda kabi xususiyatlari jam bo‘lgan yetuk shaxsligini bilib olamiz Hindistonga yurishidan keyin Boburiylar imperiyasiga asos solishi u yerdagi axoliga juda kata yengilliklar keltirishi, hind aholisi osoyishta yashashligiga olib kelgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Nuritdinov. M. Boburiy sulolalar. -Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashiryoti. 1994.

2. Н.Г.Низомиддинов. Буюк бобурийлар тарихи. Т.2007.

3. Musahhib Alihon “Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va she’riyati”. 2004.

4. Aripova A. notiqlikning lingvistik-uslubiy vositalari. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. - Toshkent, 2002 yil.

## BO‘STONLIQ TUMAN MARKAZI G‘AZALKENTDA “ELBEK BOG‘I”

***Baxronova Samira Furqat qizi***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*1-bosqich talabasi*
*Ilmiy rahbar: Rasulova Rayxon Baxritdinovna*

***Annotatsiya****: Maqolada Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani go‘zal Xumson qishlog‘ining serqirra ijodkorlaridan biri, iste’dodli shoir va yozuvchi Elbek (Mashriq Yunusov) va uning ijodi haqida keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *xumsonlik olimlar, professor, akademik,“Armug‘on yolqinlar” to‘plami, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa” masali.*

Elbek, Mashriq Yunusov 1898-yili Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanining go‘zal Xumson qishlog‘ida, kambag‘al dehqon oilasida dunyoga kelgan. U bolalar adabiyotini yoniq she’rlari, didaktik masallari, hikoyalari va dostonlari bilan boyitdi. U til va adabiyot o‘qituvchisi, islohotchi pedagogdir.

Elbek ijodini o‘rgangan xumsonlik professor, akademik Ortiqboy Abdullayev, tovoqsoylik shoir Hamidulla Murodovlar Elbek ijodi haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishgan. Ayniqsa, Ortiqboy Abdullayevning quyidagi so‘zlari qimmatlidir:“Elbek qatag‘on qurbonlarining katta vakillaridan biri, begunoh, hech qanday aybsiz qatag‘on qilinib, hayoti fojiali tarzda tamom bo‘lgan shoir, folklorchi, pedagog olim va tilshunos sifatida o‘zbek adabiyotida juda katta hissa qo‘shgan. U Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriylarning qadrdon do‘sti, maslakdoshi sifatida bir vaqtda qamoqqa olinib, bir vaqtda tergov qiynoqlarini boshidan kechirgan. O‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida Elbekning munosib hissasi bor. Shoir Xumson qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan, shu yerda eski maktabda o‘qigan va muhtojliklar tufayli Toshkentga ketib, juda qiyinchiliklar bilan odamlar eshigida xizmatlar qilgan. Non topish og‘ir bo‘lgan zamonda va boshqa qiyinchiliklar bilan amallab jadidlar maktabiga kirib ta’lim olgan, bular haqida Naim Karimovning maqolasida batafsil yozilgan. Keyinchalik, 1921-yildan Elbek pedagogika bilim yurtlarida rahbar lavozimlarda ishlab O‘zbekistonda maktab maorifining rivojlanishi uchun katta hissa qo‘shgan. Uning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tuzgan “Sovg‘a” degan darsligi o‘n yillab, o‘n martalab qayta-qayta nashr qilingan. Mashhur yozuvchimiz Pirimqul Qodirov “Men maktabga borganimda birinchi o‘qigan kitobim Elbekning “Sovg‘a” kitobi bo‘lgan, Elbek esa g‘oyaviy ustozlarimdan biri edi”,- deb eslardi. Bunday insonlar ijodini o‘rganish bugungi kunda hammamizning burchimiz, ayniqsa, yosh pedagoglar, yosh ijodkorlar bu ishga tashabbuskor bo‘lishi kerak, ustozlarimiz yonida turib yordamchi bo‘lishimiz kerak.

O‘zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov kasalxonada yotib “Elbek bog‘i” degan maqola yozgan, maqola “Qishloq hayoti” nomli gazetaning 3 ta sonida bosilib chiqqan. Shoirlarimiz Elbek she’rlarini tayyorlashsa, pedagogik ishlarni pedagoglar o‘rganishsa maqsmadga muvofiq bo‘lardi. Elbekning “Shakldosh so‘zlar lug‘ati” degan juda go‘zal kitobi bor, maqollar, xalq qo‘shiqlarini butun O‘zbekistonning ko‘p joylaridan to‘plagan.

Ortiqboy Abdullayev “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”, Filogiya fanlari nomzodi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Elbekning nomidagi maktab va bog‘ uchun chin yurakdan kurashgan insondir. Elbekning (Mashriq Yunusov, ba’zi manbalarda Yusupov deb

berilgan) ijodi Haydarali Uzoqov (tarixshunos olim), Nurmuhammad Qobulov, Salohiddin Mamajonov, Sherali Turdiyev, Rahmatilla Inog‘omov, Tohir Qahhor 2 , Salimxon Tillaxonov, Siddiq Asqarov, Abul Bozorov, Ahmad Aliyev, G‘afurjon Mahmudov, Jo‘ra Xudoyberdiyev, Hilola Zoirova, Gulchehra Aliyeva, Ibrohim Rahim, Ashurali Zohiriy, Abdulaziz Ahmedov, Ulug‘bek Dolimov (pedagogika fanlari doktori), Ulug‘murod Amonov (PhD, Buxoro davlat Pedagogika Instituti dotsenti) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ayniqsa, Ulug‘bek Dolimovning “Elbek-ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasining asoschisi” maqolasida Elbekning bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasiga qay darajada hissa qo‘shgani haqida ma’lumot berilgan. “Olimning “Imlo masalasi”, “Boshlang‘ich maktabda ona tili”, “Yozuv yo‘llari” kabi asarlarisiz ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi fani taraqqiyotini to‘la tasavvur qilish qiyin. Elbek-bolalar adabiyotining yaratuvchilaridan biri. U qisqa umri davomida o‘nlab badiiy, ilmiy-pedagogik, filologik asarlar qoldirdi.”

“Armug‘on yolqinlar” to‘plamida Elbekning 2 ta to‘plami 1921 -yildagi “Armug‘on” va 1925-yilda nashr qilingan “Yolqinlar” to‘plami arab yozuvidan amaldagi yozuvga tabdil qilinib tahlil qilingan. Elbekning dastlabki to‘plami «Armug‘on»dagi masallar bolalar uchun yaratilgani, bolalarni yaxshilik bilan yomonlikni ilg‘ab olishga, axloq-odob va ziyraklikni tarbiyalashga qaratilgani bilan diqqatga sazovordir. To‘plamga 17 ta she’r kiritilib, ular o‘z ruhiga ko‘ra masallar sanalib, quyidagicha nomlanadi:“Bir -ikki so‘z”, “Qaysi biri bo‘ri”, “Kuchsizlar dunyosi”, “Sichqonlar kengashi”, “Quyruqsiz maymun”, “Maymunning qoziligi”, “Jinning olov yoqishi”, “Chol bilan kampir”, “Kim aldamchi”, “Kampirning tovuqlari”, ‘Ikki tulki”, “Itlarning o‘rtoqligi”, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa”, “Qo‘ychi bilan bo‘ri”, “Kemachi bilan hakim”, “Ongli eshak”, “Sichqonning qiz uzatishi”. Shulardan “Armug‘on” to‘plamidagi “Kuchsizlar dunyosi”, “Sichqonlar kengashi”, “Maymunning qoziligi”, “Jinning olov yoqishi”, “Chol bilan kampir”, “Qo‘ychi bilan bo‘ri” masallari Haydarali Uzoqov tomonidan to‘planib nashr etilgan “Momaguldurak” hamda “Elbek. Tanlangan asarlar” kitoblarida uchramaydi. Bu masallar ilk bor Ulug‘murod Sultonovich Amonov tomonidan arab yozuvidan amaldagi Lotin alifbosiga asoslangan yozuvda tabdil qilinib, “Elbek. Armug‘on yolqinlar” nomi ostida nashr qilindi.

Elbekning «Armug‘on» (1921) masallar, «Ko‘zgu» (1925), «Yolqinlar» (1927), «Sezgilar» (1927), «Bahor» (1929), «Mehnat kuylari» (1930), «She’rlar» (1934), «Chirchiq bo‘ylarida» (1935), «G‘unchalar» (1935) she’rlar to‘plamlari, «Qo‘shchi Turg‘un» (1925), «Dadamat» (1936) hikoyalar

majmualari, «Tozagul» (1934), «Bog‘bon», «Etik», «Mergan» (1935) poemalar alohida kitoblar tarzida arab va lotin alifbolarida bosilib chiqdi. Uning she’rlari «Chig‘atoy gurungi» uyushmasi chop etgan “O‘zbek yosh ijodkorlari” (1922) to‘plamidan joy oldi.

Elbek xalq ertaklarini to‘plar va o‘rganar ekan, ularga o‘zi o‘zbekchaga o‘girgan Aleksendr Sergeyevich Pushkinning «Baliqchi va baliq haqidagi ertak», «Oltin xo‘roz», «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak» tajribasi asosida yondashib, ertak syujetini nazmda bayon etish an’anasini o‘zbek bolalar dostonchiligini yuzaga keltirishga tatbiq etdi. Bu jihatdan uning 1935-yilda nashrdan chiqqan «Ertaklar» to‘plamini tashkil etgan «Kambag‘al yigit va par dasturxon», «Erksiz folchi», «Omonat» she’riy ertaklari alohida ahamiyatga molik.

Tarixshunos olim Haydarali Uzoqov adib ijodining qirralari xususida gapirar ekan, uning birinchi o‘zbek masalnavisi ekanligini o‘sha davrning yetuk adabiyotshunosi A.Sa’diy mulohazalari bilan tasdiqlaydi: “Masalchilikni Elbek boshlab berdi. Tarjima yo‘li bilan emas, balki masalchilikni tug‘dirish yo‘lini tutdi. Hali bu yo‘lda undan boshqa kishi ko‘rinmagan” Haqiqatan, o‘tgan asrning 20-yillarida Elbek “Ot ila odam”, “Qaysi biri bo‘ri”, “Sichqonxonning qiz uzatishi”, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa”, “Quyon bilan toshbaqa”, “Itlarning o‘rtoqligi” singari masal janrining o‘ziga xos namunalarini yaratdi.

Elbekning “Olaqarg‘a bilan qurbaqa” masali qahramonlari olaqarg‘a bilan qurbaqa.

Olaqarg‘a bir kun ko‘ldan qurbaqani
Tutub ketdi, yemak istab suyunub uni…
Tumshug‘indan suvi sachrab, ichi yonib,
Suyunubgina yemak bo‘ldi juda qonib…

Masal sujetidan ko‘rinib turibdiki, olaqarg‘a ko‘ldan qurbaqani tutib oladi hamda uni yemoqchi bo‘ladi. Qurbaqa “o‘lishlig‘ini sezib qolg‘ach”, qarg‘ani maqtashga tushadi:

Dedi: - Ey, barcha qushning sen go‘zali!
Dunyoda ko‘rmadim men senday qushni.
Barcha qushdan go‘zaldirsan, go‘zallikda
Senga tengi yo‘q, yerda emas, ko‘k ustida

Shunday deya qurbaqa uning sayrab berishini so‘raydi. Maqtovlardan keyin qarg‘a sayray boshlashi bilan og‘zi ochiladi va qurbaqa yerga tushib qochadi. Bunda adib qurbaqa timsolida tadbirkorlikni ulug‘laydi.

Adibning mahorati shundaki, hayotiy saboq bolalarga xos mushohadakorlik zaminida ifodalangan. Yoki 1922-1925-1927-yillarda 25 ming nusxada bosilgan "O‘zbekcha o‘qish kitobi"ning birinchisiga kirgan "Yo‘ldoshning tegirmoni", "Totli sho‘rva" va "Jo‘jalar" hikoyalari ham shu xildagi fazilatlarga ega. Chunki "Yo‘ldoshning tegirmoni"da bolalar ijodkorligi o‘yin jarayonida ochib beriladi. Adib voqea bayoni bilan cheklanmadi, Yo‘ldosh xatti-harakatini tengqurlari nuqtai nazaridan belgilar ekan, buni qahramon xarakterini shakllanishidagi ta’sirini ko‘rsatishga yo‘naltirdi. Yo‘ldoshning bu o‘yini tengdoshlari havasini uyg‘otganidan qahramon taltaymadi, balki "Siz shoshmangiz, katta bo‘lg‘onimda yaxshi chinakam tegirmon yasarmen, o‘zim tegirmonchi bo‘larmen", -deya kamtarlik qiladi, bu ishidan qoniqmaganini bildirib, kelajakda yana ulkanroq orzularga maqsad qilib yashayotganini izhor etadi. Muhimi bolalarni orzular qanotida kelajakka tayyorlash, bunyodkorlikka chorlash zarurdir.

Ijod va pedagoglik bilan bir qatorda Elbekning shaxsiy hayotida Shermuhamedovlarning (Mirmulla, Mirmuhsin, Mirmuslim va Muborak) o‘rni katta. Ularning Maxsido‘zlik mahallasidagi shinam hovlisi Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Mannon Uyg‘ur, Sobirjon va Shokirjon Raximiy, Elbeklar ishtirokida o‘tadigan gurunglar bilan gavjum bo‘lar edi. 1921-yilda Elbek Muborak Shermuhamedovaga uylandi. 1922-yilda farzand ko‘rishdi, unga katta umid bilan Ulug‘bek deb ism qo‘yishdi. Ulug‘bekning avji yigitlik yillari o‘tgan asrning 30–40-yillariga to‘g‘ri keldi: "xalq dushmani"ning farzandi sifatida Ikkinchi jahon urushi yillari Rossiyaning Ivanovo viloyatida mehnat frontida bo‘ldi, ta’qib va haydovlar ostida o‘qishni oxiriga yetkazdi, o‘qituvchi bo‘lib yetishdi. Ulug‘bek Elbekov 2006-yilda 84 yoshida vafot etdi.

Elbek til va adabiyotimiz bo‘stoniga turfa gullar ekib o‘z hissasini qo‘shgan. Ayniqsa, bolalar uchun, hamda boshlang‘ich maktab ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi fani taraqqiyotiga "Armug‘on"(1921), "Yolqinlar"(1925), "Yozuv yo‘llari"(1-bo‘lak, 1921), "Boshlang‘ich maktabda ona tili"(1923), "Go‘zal yozg‘ichlar"(1925), "Imlo masalasi"(1920), "O‘zbekcha o‘qish kitobi"(F.Sayfiy, G‘arifxonov bilan hamkorlikda), "Bilim" o‘qish kitobi(bu ham hamkorlikda), "O‘rnak"(boshlang‘ich maktablarning 1,2,3-yili uchun) kabi asarlari bilan o‘chmas iz qoldirdi. Bu kabi qo‘llanma va darsliklarning paydo bo‘lishida ustozi Abdurauf Fitratning 1918-yil dekabrida tuzgan "Chig‘atoy gurungi" nomli ilmiy-ma’rifiy tashkiloti asos bo‘ldi.

Elbek bolalarni juda sevardi. Yuqorida nomi tilga olingan darsliklardagi asarlari yosh avlodni adolat, ezgu niyat uchun kurashga chaqirish bilan birga 20-30-yillarda maorif xodimlari uchun asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tagan.

Atoqli pedagog, shoir, yozuvchi va folklorshunos olim Mashriq Yunusov -Elbek ijodining avj pallasiga ko‘tarilayotgan bir davrda – 1937-yilning 13-avgustida dahshatli qatag‘on mashinasi uni ham o‘z komiga tortdi. Elbek 1942-yilda sobiq sho‘ro davlatining eng chekka va eng sovuq o‘lkasi – Magadanning jazo lagerlaridan birida o‘pka shamollashi kasaliga uchrab hayot bilan vidolashdi. Istiqlol, mustaqillik uning o‘lmas asarlarini ona xalqiga qaytardi, u tug‘ilib o‘sgan Bo‘stonliq tumanining markazi G‘azalkentda “Elbek bog‘i” majmuasi tashkil etildi, uning muhtasham haykali qad ko‘tardi. Shoirning “Armug‘on” masallar to‘plami e’lon qilindi, eng sara asarlarini o‘z ichiga olgan “Tanlangan asarlar”i ijodkorning 100 yilligi munosabati bilan 1999-yilda nashr etildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Aliyev A. Elbek va davr adabiy jarayoni. “O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1989-yil, oktabr.

2. Amonov U.S. O‘zbek folklorshunosligi xrestomatiyasi. Toshkent: “Paradigma”, 2018-yil, 99-120- betlar.

3. Amonov U.S. Armug‘on yolqinlar. Toshkent: “Turon zamin ziyo” 2017.

4. Amonov U.S. O‘zbek tili. Toshkent: “Muharrir” nashriyoti. 2011.

5. Amonov U. S. Turkiston o‘lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.

## ANQARA JANGI HAQIDA QISQACHA MULOHAZALAR

***Bazarova Ko‘rkem,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika*
*Universiteti Gumanitar Fanlar*
*Fakulteti tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

***Anotatsiya;*** *Usbu maqolda O‘zbekiston va jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan Amir Temurning o‘rtaasrlardagi buyuk imperiya hukumdori Yildirim Boyazid bilan olib borgan jangi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. 35 yillik faoliyati davrida Movorounnahr, Xorazm, Kasbiy atroflari viloyatlari, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Iroq, Turkiya, Hindiston, Janubiy Rossiya, Kavkaz va Garbiy Osiyoning bir qator mamalakatlaridan jami 27 ta o‘lka hududlarini egallab, sharqiy chegarasi Usmonlilar davlatihududiga borib taqalgach ikki o*

*‘rtada bo‘lgan jang holati haqida ma’lumot beriladi. Yurish davomida bo‘lgan jang taktikasi va voqealar o‘rganilib tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar;*** *Amir Temur, Usmonli Sulton, Boyazid I Yildirim, Anqara jangi, Sinas Chobuk*

Anqara jangi uzoq yillar davomida dunyo tarixchilarini o‘ziga jalb qilib kelgan bo‘lib, nizolarning kelib chiqishi haqida turli qarashlar,yondashuvlar, tahlillar shakillangan va ular o‘rtasida tafovutlar ham mavjud. Jumladan, Yevropa tarixchilari asosiy diqqat e`tiborni Usmoniylar davlatini butun mintaqaga tahdidiga alohida e’tibor qaratadigan bo‘lsa, turk tarixchilari Amir Temurni buyuk davlat qurishiga Usmonli davlatining yuksalishini tahdid sifatida ko‘rgan. Arab tarixchilari Amir Temurni chig‘atoy ulusi ustiga davlat qurganligiga e’tibor qaratishib, uning yurishlarining asosiy sababini faqat Chingizxon kabi buyuk davlat qurishga intilganligiga bog‘laydi.[1]

Anqara jangi dunyo tarixiga katta ta’sirini o‘tkazgan voqealardan biri hisoblanadi. Zamonasining eng qudratli armiyalariga ega davlatlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ushbu jangda ikki buyuk sarkarda o‘z mahoratlarini muhoraba maydonida namoyish qildilar. Yakunda Amir Temur boshchiligidagi qo‘shin g‘alabaga erishdi.Ushbu jang haqida manbalarda shunday qayd etiladi: “jang ko‘targan chang, moviy osmonni shu qadar bulg‘agandiki, Quyosh bu qorong‘ulikda jangni tomosha qilishdan mahrum edi, qushlar kabi uchar otlarga mingan yigitlarga samolar lol qolgan edi,” yoki “Qilichlarning chako-chak ovozi va paydarpay ayovsiz zarbalaridan mahshar kuni namunasi ko‘rindi,” degan malumotlar uchraydi.[2]

Amir Temurning 1398-1399-yillarda Hindiston safarida ekanligidan foydalanmoqchi bo‘lgan Jaloyirlar hukmdori Bag‘dodni qaytarib olib Iroqda mustaqil davlat tuzish harakatlarini boshlab yubordi. Bu esa Amir Temurning takror Bag‘dodga yurish tashkil qilishiga sabab bo‘ldi. Bag‘dod shahrini qaytadan fath qilgan va shimoldagi Turkman davlati bo‘lmish Qoraqo‘yunlilarning hududlarini ham qo‘lgan kiritgan Amir Temur sharqiy Anatoliya chegarasi bo‘ylab o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. Jaloyirlar hukmdori Ahmad Jaloyir va Qo‘raqo‘yunlilar raisi Qora Yusuf, Usmoniylar davlati hududiga qochib Yildirim Boyazid huzurida boshpana topdilar. Hindistondan Kichik Osiyogacha bo‘lgan hududlarda o‘z hokimiyatini o‘rnatgan Amir Temurning navbatdagi maqsadi Kichik Osiyo hududini qo‘lga kiritmoq edi. Bu davrda Kichik Osiyodagi beyliklar orasida haligacha siyosiy birlik ta’minlanmagan edi. Temur, Qoraqo‘yunli davlatini ag‘dargandan so‘ng ushbu hududdagi ba’zi, beyliklarni o‘ziga bo‘ysundirdi. Usmoniylar davlatiga ham o‘z ustunligini qabul ettirish uchun bir qator diplomatik va harbiy tadbirlarni

boshlagan edi. Amir Temurning Usmoniylarga qarshi harbiy yurishlardagi ilk nishonga aylangan hudud Sivas shahri bo'ldi 1400-yil. Sivasgacha bo'lgan hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatgandan so'ng Misr Mamluklar davlatidagi ichki nizolar oqibatida mamlakatning zayiflashganini qulay fursat deb hisoblagan Temur Halab, Hama, Humus va Shomni fath qildi.[3]

Shom yurishini muvaffaqiyatli tugatib Tabrizga qaytgan AmirTemur, bir muddatdan so'ng Yildirim Boyazidning Sivas va Erzurum viloyatlarida qaytadan o'z hokimiyatini o'rnatganligi xabarini oldi. Ikki davlat o'rtasidagi ba'zi kelishmovchiliklar sababli Temur va Yildirim Boyazid orasida bir qator maktub almashinuvi bo'lib o'tadi. Sivas, Erzurumda Temur hokimiyatining o'rnatilishi, Ahmad Jaloyir, Qoraqo'yunli Qora Yusufning qaytarilishi va Boyazidning o'g'illaridan birining yuborilishi maktublardagi Amir Temurning talablaridan asosiylari edi. Usmoniy hukmdori esa bu talablarni qabul qilmaydi va haqoratlar bilan javob maktubini yo'llaydi. Ikki hukmdor orasidagi bu kelishmovchiliklar Anqara urushining bir sababi o'laroq tarixiy manbalarda ifoda etiladi.[3]

Anqara jangida Amir Temurning taxminan 200 ming, Turkiya sultonining 160 ming askari qatnashgan. Amir Temur Anqara jangiga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi: 1399-yil Rumga yuzlanadi va Boyazid tomonidan fath qilingan Kamoh qalasini qamal qiladi. Kamoh fath etilgach, ko'p fursat o'tmay Amir Temur Anqarani qamal qiladi. Sohibqironning bu harakati aslida taktik tadbir bo'lib, tajribali sarkardaning asosiy maqsadi Boyazidni asosiy kuchlarini shahar mudofasiga tashlashga majbur etib, so'ng unga qaqshatqich zarba berish edi. To'qat shahri yonida asosiy harbiy kuchlari bilan turgan Boyazid I Sohibqiron askarlarining Anqarani muhosara qilganligidan xabar topadi va qamaldagilarga ko'mak berishga oshiqadi. Amir Temur Anqara qamalini bekor qiladi va raqibini kutib olish taraddudini ko'radi. Qo'shin qismlarini janggohning (Chibukobod degan yerda) qulay yerlariga joylashtiradi. Lashkargoh atrofida xandaklar qazilib, xavfsizlik choralari ko'riladi. Natijada Boyazid I qo'shini o'zi uchun o'ta noqulay shart-sharoitda jangga kirishga majbur bo'ladi. Sulton qo'shini ayniqsa, suv tanqisligi tufayli vujudga kelgan tashnalikdan qattiq azob chekadi.[4]

Sohibqiron qo'shini o'zining an'anaviy jangovar tartibi – yasodda harakat qiladi. Qo'shinning qirq qismdan tashkil topgan markaziy qismiga Amir Temur bevosita rahbarlik qiladi. So'l qo'l – juvang'arga Shohrux mirzo va Xalil Sulton mirzo, juvang'ar hiravuli – ilg'origa Sulton Husayn mirzo, o'ng qo'l – barang'arga Mironshoh mirzo, barang'ar hiravuliga Abu Bakr mirzo yetakchilik qiladi. Markaz – qo'lning o'ng tarafida Umarshayx mirzoning

o‘g‘li Ahmad mirzo, Toshtemir o‘g‘lon, Shohsuvor singari sarkardalar joylashadi. Qo‘lning chap tomonidan Jalol Islom, Tavakkal qarqara, Ali Muhammad kabi bahodirlar o‘rin oladi. Qo‘shinning saflari oldida 30 ta jangovar fil muhorabaga shay qilingan edi.[5]

Qarshi tarafda Boyazid I Rum va Farang mamlakatlaridan jamlangan cherikiga tartib berib, jangga hozir bo‘lib turdi. Qo‘shinning o‘ng qanoti – barang‘arda serb knyazi Stefan (Boyazid Ining qaynisi) 20 ming kishilik farangliklar bilan, chap qanoti – juvangarda esa Musulmon (Sulaymon) Chalabiy (Boyazid Ining o‘g‘li) Rum lashkari bilan saf tortib turdi. Sulton Boyazid Ining o‘zi qo‘shin markazida qolib, uch o‘g‘li Muso, Iso va Mustafolarni chag‘davul (qo‘shin orti)ga qo‘ydi. Jang Mironshoh mirzo qo‘l ostidagi barang‘arning dushman juvang‘ariga qilgan shiddatli hujumi bilan boshlandi.Boyazid I qismi amir Jahonshoh va amir Qora Usmon rahbarligidagi Geydar tomonidan qilingan hujumga bardosh bera olmay jang maydonini tashlab qochadi. Boyazid I qo‘shini saflarida paydo bo‘lgan sarosimalikni payqagan Amir Temur barcha amirzodalar, umarolar, no‘yonlarning birgalikda dushmanga hujum qilishlariga hukm qiladi. Shiddatli to‘qnashuv uzoq va keskin davom etadi. Nihoyat, Sohibqiron kuchlarining qisuviga bardoshi qolmagan sulton askarlari chekina boshlaydi. Boyazid I qo‘mondonligidagi jangchilar so‘nggi damgacha qarshilik ko‘rsatadilar. Yanicharlar bitta qolmay qirib tashlangandan so‘ng Boyazid I va uning ikkinchi o‘g‘li Musoni Amir Temur tomonidan asir olinadi. Sohibqiron Boyazid I qo‘shinlarining qolgan-qutgan qismini ta’qib etib, Bursa, Izmirni egallaydi va Marmar dengizi sohillariga chiqadi.Amir Temur tomonidan Boyazid I qo‘shinining tormor etilishi Usmonli turk saltanatining ma’lum muddatga zaiflashishiga sabab bo‘ldi. Konstantinopolning turklar tasarrufiga kirishini hamda ularning Markaziy va G‘arbiy Yevropaga qilmoqchi bo‘lgan yurishlarini birmuncha fursatga orqaga surdi.[6]

Xulosa qilib aytganda har qanday saltanat aql , adolat va kuch poydevorida qad tiklaydi. Tangri saltanat tegirmonini yurgizishni hamma xalqning birdek peshonasiga bitgan emas. Eski birdaniga eskiligi uchun yodlansa,eskiligicha qoladi. Meros qayta tiklanishi avlod qoniga payvand qilinsa tiklanadi, yangilanadi,chinakam ota meros mulkka aylanadi. Biz bu o‘rinda saltanat poydevorining muhim tayanchi kuch va uning aql-zakovat, tadbirkorlik bilan uyg‘unligi xususida chuqur anglamog‘imiz lozim. Saltanat kuchi avvalo shijoatli,jasur sarkardada namoyon bo‘ladi.Tarixning Ko‘z yumib bo‘lmas bir xaqiqati borki,Amir Temur dunyoning to‘rt jaxongiradan biridir. U xech bir jangda yengilmagan buyuk sarkarda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Ibn Arabshoh, Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur, T., 1992;

2.Shomiy Nizomiddin, Zafarnoma, T., 1996;

3.A.Muhammadjonov,K Rajabov.Amir Temur Toshkent,2015

4. Vatan tarixi1 Sharq nashriyoti Rustambek Shamsiddinov,(Shodi Karimov)

5. Sharofiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma. So'z boshi, tadbil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari: Ashraf Ahmedov, Haydarbek Bobobekov, Toshkent: Sharq, 1997. –384 b.

6. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCEInternational scientific-online conference

## QO'QON XONLIGIGA QARSHI HARBIY YURISHLAR, XONLIKNING TUGATILISHI

**Karimova Zarina Rustamovna,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Qoqon xonligiga Rossiya tarafidan olib borilgan harbiy hujumlar natijasi xalq podsho hukumatidan norozi bo'lishdi Ma'lumki o'sha paytlari ıjod qilgan va voqelikni tasvirlagan insonlarni undan tashqariAliquli qancha katta jasorati korsatgani Toshkentliklar imperiyaga qarshi kurashgani mhaqida ulohazlar haqida ko'rib chiqishimiz mumkin.*

***Kalit so'zlar:*** *Orenburg harbiy okrugi, Avliyoota va Turkiston, Mirzo Davlat Yusufbek,Aliquli*

***Annotation:*** *In this article, the result of the military attacks on the Qocan Khanate on the part of Russia, the people were dissatisfied with the Tsarist government-it is known that the people who created and described the reality beyond it, we can consider how much great courage The Tashkent people had fought against the Empire.*

***Keywords:*** *Orenburg Military District, Avliyoata and Turkestan, Mirzo Davlat Yusufbek, Aliquli*

***Аннотация:*** *В этой статье результат военных нападений на Казанское ханство со стороны России народ был недоволен царским правительством.*

***Ключевые слова:*** *оренбургский военный округ, Святая Гора и Туркестан, Мирза Давлет Юсуфбек,Аликули*

Qo‘qon xonligi Buxoro amirligi bilan olib borilgan kurashlar va taxt uchun kurashlarning avj olishi hamda ichki siyosiy vaziyatning keskinlashuvi natijasida XIX asrning 60–yillari boshlariga kelib iqtisodiy va siyosiy jihatdan tang ahvolda qolgan. Ayni vaqtda hokimiyatni egallab turgan qipchoqlardan yirik siyosiy guruhlarning o‘zaro birlashishi uchun jiddiy To‘sqinlik bo‘ldi. Mamlakat fuqarolari ham o‘z navbatida markaziy hokimiyatdan noroziliklarini turli ko‘rinishlarda namoyon eta boshladi.

Xonlikning shimoliy hududlarida Rossiya imperiyasi tarafdorlari ko‘payib borayotgan bo‘lsa, Toshkent va unga tutash hududlardagi aholi orasida bir vaqtning o‘zida Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligining tarafdorlari ham yuzaga kela boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa mamlakatda umumiy parokandalik holatlarini yanada kuchaytirib yubordi. Qo‘qon xonligi uchun shunday og’ir bir sharoitda hokimiyat butun diqqat e‘tiborini barqarorlikni mustahkamlash va Rossiya imperiyasi mustamlakachilik harbiy bosqiniga qarshi mudofaani kuchaytirishga qaratdi. 1864 yil boshlariga kelib, Qo‘qon xonligi asta-sekin ichki siyosiy barqarorlikka erisha boshlaydi. Bu esa xalqning hukumatga nisbatan ishonchi ortib borishiga, qo‘shinlarning harbiy tayyorgarligi va qurollarning bir oz takomillashuviga olib keladi. Bu haqida Orenburg harbiy okrugi qo‘mondoni imperiya harbiy vaziriga yuborgan bayonnomasida (1864 yil 4 aprel) Qo‘qon xonligining harbiy va siyosiy jihatdan avvalgi vaqtlarga nisbatan nihoyatda kuchayib ketganligi haqida alohida ta‘kidlab o‘tgan edi. Ushbu bayonnomada 1864 yil bahorida Buxoro amiri ham Qo‘qonga harbiy yurish uyushtirmoqchi ekanligi va bunday siyosiy vaziyatda Avliyoota va Turkistonni bosib olishda Toshkentdan harbiy yordam yuborilmasligi imperiya qo‘shinlariga Qo‘l kelishi ham eslatib o‘tilgan edi [1,23-24].

Mirzo Olim Mushrif o‘z asarida Mirzo Davlatning Turkistonni tashlab ketgani, Aliquli Amirlashkar qo‘shin bilan bu yerga otlangan vaqtda Avliyoota ham qo‘ldan ketganligini eshitib, Turkiston mudofaasi rahbarlarini qattiq jazolaganligi haqida yozsa, Avaz Muhammad Attor o‘z asarida Mirzo Davlatning Rossiya imperiyasi mustamlakachilariga qarshi shijoat va mardlik bilan kurashgani va ayrim buzg‘unchi kimsalarning aybi bilan Turkiston boy berilganligini yozadi.

Toshkent va Dashti Qipchoq qo‘shinlari bilan birgalikda Rossiya imperiyasi harbiy qo‘shinlariga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatganligi va bir necha kishining buzg‘unchiligi va xiyonati tufayli Toshkentga chekinishga majbur bo‘lganligini yozadi[2].

Tarixchilarning bunday qarama-qarshi fikrlari mavjud bo‘lsada, arxiv manbalaridagi Turkistonda bo‘lib o‘tgan janglar haqidagi ma‘lumotlar Mirzo Davlat boshchiligidagi Turkiston shahri mudofaachilari dushmanga qarshi nihoyatda jonbozlik bilan qarshilik ko‘rsatganliklarini H.Ziyoyev o‘z asarida arxiv manbalariga asoslangan holda 1864 yil 12 iyunda Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Turkistonni bosib olganliklari va 4 zambarak, 117 ta miltiq, 200 pud porox, 100 pud qo‘rg‘oshinni va boshqalarni o‘lja olganliklari, imperiya qo‘shinlaridan besh kishi o‘ldirilib, o‘ttiz uch nafar kishi jarohatlanganligini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek Turkiston shahrini bosib olish paytida podsho armiyasi tomonidan shaharga 1495 snaryad va 43208 miltiq o‘qi otilganligini ta‘kidlab o‘tadi.[3].

Bu ma‘lumotlar ham Turkiston himoyasida mudofaachilar chor qo‘shinlariga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatganliklarini va jang juda dahshatli kechganligini tasdiqlaydi. —Biz, deb yozgan edi Turkistonni bosib olishda ishtirok etgan rus zobitlaridan biri kapitan Meyer, - Turkistonni bosib olish bilan kifoyalanmasligimiz lozim. Chunki, Turkiston ko‘chmanchi qozoq xonlarining va ruhoniylarning shahridir, shuning uchun u siyosiy va savdo-iqtisodiy jihatdan hech qachon Toshkent bilan tenglasha olmaydi. Toshkentni egallash biz uchun albatta Qo‘qon xonligining ichki siyosati bilan bog‘liqdi[4]

Aliquli Amirlashkarning halokati bilan Qo‘qon xonligining halokati ham yaqqol ko‘rinib qolgan edi. Bunday holning yuzaga kelishini oldindan his qilgan general Chernyayev shunday ta‘kidlagan edi: - «Aliqulining O‘limini biz uchun favqulodda ahamiyatga ega bo‘lgan hol deb hisoblash zarur. Bu hol mening Qo‘qon xonligini bundan buyongi taqdiri hal etildi, deb xulosa chiqarishimga asos bo‘ladi». Mudofaa ishlarining butun og‘irligi shahar aholisi ustiga tushadi. Shahar ulamolarining sayharakatlari bilan Buxoro amiridan so‘ralishi ham natijasiz tugaydi.

Shu zayilda Toshkentliklar dushmanga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Biroq kuchlarning teng emasligi, oziq-ovqat va suvsizlik, qurol-yarog‘larning yetishmasligi mudofaachilarning mag‘lubiyatiga sabab bo‘ladi. Buxoro amirligining qo‘shinlari Toshkentga tomon yo‘lga chiqqani haqida xabar yetishi bilan Rossiya imperiyasi qo‘shinlari 1865 yilning 15 iyunga o‘tar kechasi Toshkent shahriga kuchli hujum boshladilar, Kamolon darvozasi orqali shahar ichiga kirishga muvaffaq bo‘lgan imperiya qo‘shinlari bilan 16-17 iyun kunlari ham Toshkent shahrining ko‘chalarida shiddatli janglar davom etdi, 17 iyun kuni Toshkent shahrini bosib olindi. M.Chernyayev boshchiligidagi Rossiya imperiyasi qo‘mondonlari Toshkentning nufuzli ulamolari va ayonlari bilan muzokara olib boradi va zo‘ravonlik bilan shahar o‘z ixtiyoriga ko‘ra

imperiya qo‘shinlariga taslim bo‘lgani, shahar aholisi o‘z dinida qolishi, ishlar shariat asosida olib borilishi, hovli va bog‘lar o‘z egalari qo‘lida qolishi to‘g‘risida ikki tomonlama ahdnoma imzolandi va bosib olingan yerlarning barchasi Rossiya imperiyasining mulki deb e‘lon qilindi[5]

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Ўрта Осиѐнинг босиб олиниши тўғрисида тарихий тадрижий маълумотнома. 23-24-бб.

2.Тарихи жадиди Тошканд. –Б.443.

3.F.A.Axmadjonov Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda. T.”Ta’lim manbai” jamiyati 2003 270b

4.Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Б.128-129.

5. Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. Тошкент, —Нур‖, 1992. 8-б..

## MINGO‘RIK QADIMGI SHAHAR

***Berdinazarov Azizbek Rustam o‘g‘li***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*Gumanitar Fanlar Fakulteti*
*tarix yo‘nalishi 1- bosqich talabasi*

***Anotatsiya:*** *Ushbu maqolada hozirgi Toshkent hududida joylashgan qadimiy shahar mingo‘rik haqida gap ketadi. Bunda shaharning joylashuvi aholi turmush tarzi savdo- sotiqi munosabatlari hamda bu shaharni urganilish tarixi haqida gap ketadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Salor, Chirchiq,madinat ash-shosh, Qorasuv, zardushtiylik,bandi Chimyon,j’g‘anrik,choch(shosh), haykaltaroshlik.*

*Eramiz boshlarida qadimgi Toshkent vohasida shahar madaniyati kengayib, Qo‘rasuv, Salor va J’g‘anrik sug‘orish tarmoqlari bo‘ylab qator shahar tipidagi aholi yashaydigan joylar qad ko‘tardi. Bu shubhasiz Chirchiq daryosining qadimgi tabiiy tarmoqlari hisoblangan Qo‘rasuv va Salor kabi anhorlarning har ikki sohillari bo‘ylab barpo etilgan dehqonchilik maydonlarining kengayib borishi bilan chambarchas bog‘liq edi. Xuddi shu davrlarda Qo‘rasuv va Salor anhorlarining Chirchiq daryosidan ajralib chiqqan eng qadimgi tarmoqlari qurilib, qadimgi Toshkent va uning atroflari doimiy sun’iy sug‘orish tarmog‘iga aylangan, bu ikki anhorning iyillik suvi ta’minoti tartibga solingan.*

Ezma manbalarda tilga olinishicha, bu tugun “Bandi Chimiyon”, shuningdek “Chinobod” nomi bilan nomlangan bo‘lib, shahardan 3 fazax (24—27 km) masofada janubi-sharqda, Chirchiq daryosining yuqorisida joylashgan.

Bu qadimgi anhorlar sohillarida qad ko‘targan shahar tipidagi obidalar Quyg‘aytepa (Nuykuyg‘ron), Tovkastepa, Buzgontepa, Mingurik va boshqa joylardan topib tekshirildi.

Afsuski, Nuykuyg‘ron kabi Toshkentning qadimiy tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan yodgorliklar bizning davrimizgacha yaxshi saqlanmagan. Buning ustiga ularning, ayniqsa Quyg‘aytepaning ostki qatlamlari har tomonlama kengroq, ochib o‘rganilmaganligi tufayli bu yodgorliklar to‘g‘risida mufassal ma’lumotlar keltirib, hamda poytaxtimizning qadimiy manzarasini tiklashda ulardan iloji boricha to‘laroq foydalanish imkoniga ega emasmiz. Bu yodgorliklar orasida bir muncha yaxshi o‘rganilgan Mingurik bo‘lib, u Toshkent temir yo‘li vokzali yaqinida, Salor kanali bo‘yida joylashgandir. Mingo‘rik shahar xarobasi 1865 yildan so‘ng qad ko‘targan “Yangi shahar”ning sharqiy chekkasida, ya’ni hozirgi mashina zavodi yaqinida arxeologik izlanishlar natijasida aniqlangan.Mingurikning yetti to‘qqiz yerida arxeologik shurf (kesma) tashlanib ikki yeridan keng ko‘lamda qazilma ishlari olib borildi. Arxeologik qazilmalardan ma’lum bo‘lishicha, Salor anqori bo‘yida milodning I–II asrlarida dastavval atrofi devor bilan o‘ralgan, unchalik katta bo‘lmagan chorbuqalik qo‘rg‘on qad ko‘targan. Qo‘rg‘on ichida tashqi devor bo‘yida yoysimon hamda ravozkli soxta darchalar ishlangan xonalar bo‘lgan.[1]

Shunday qilib, Mingo‘rik shahar xarobasining osti qatlamidan ochilgan obidalar milodning birinchi asrlariga taalluqli bo‘lib, undagi dastlabki binolar hozirgi kunda roppa-rosa XVIII-XIX asr ilgari qad ko‘targan.

Aftidan, milodning III—IV asrlarida Mingurikdagi qadimgi qo‘rg‘on bir muncha kengayib, uning tashqi mudofaa devori ta’mir etilgan. Bu davrda lo‘lilarga somon qo‘shilgan yirik xom g‘isht va paxsadan yangi binolar qurilgan. Ochilgan xonalardan topilgan, chala yo‘nilgan yog‘ochlarga qaraganda, xonalarining tomi to‘sin va ustunli bo‘lib, sathi (poli) somonli loy bilan suvalgan. Mingurikda, ayniqsa ilk o‘rta asrlarga oid qasr binosining bir qismi yaxshi saqlangan. Bu yerdan bir necha xona ochilib, xom g‘isht va paxsadan bino qilingan devorlar balandligi 2 metrgacha saqlanib qolgan, xonalarining eni bir metr, balandligi 0,5 metr bo‘lgan somonli loy bilan suvalgan supalar bo‘lib, ulardan birining supasi va sathi (poli)ga 25 ta xum qator terib qo‘yilgan. Xumlarning birida kuyib ko‘mirga aylangan mosh donlari saqlangan. Xonalardan birining devorida oq bo‘yoq bilan qoshin

tortilib, ustiga qizil rang bilan kishining naqsh berilgan devoriy rasmlarning qoliplari qayd etilgan. Bu rasmlar VI—VII asrlarga mansub bo‘lib, yaxshi saqlanmaganligi sababli, kimga so‘zlanganini aniqlab bo‘lmadi.

Xullas, Mingo‘rik tepaligining saqlanib qolgan qismi yirik shahar xarobalarining qoldiqlari bo‘lib, maydon jihatdan anchagina katta. Arxaik davrga oid diqqatga sazovor topilmalar va ravozkli qilib ishlangan darchalarning borligi va qulochlarga mo‘ljallab qurilgan devorlar, shuningdek u vaqtlardayoq bu yerda turmush taraqqiy etganini ko‘rsatadi.[1]

Mingo’rik yodgorligi I—XIII Asrlarga oid qadimiy shahardir. Tarixiy manbalarga ko’ra. Uning hududi 35ga bolganligi aniqlangan.Mingo’rik nomi qadimiy obidaga nisbatan XIX asrda berilgan. Ilgarilari uni maxalliy axoli Afrosiyob nomi bilan atagan. Arab yozma Manbalarida bu shahar «Madinat ash-Shosh» nomi bilan tilga olinsa, Boshqa yozma manbalarda «Choch», xitoy yozma manbalarida «DjeShe» va «Shi» deb nomlangan.Shahar qalin paxsa va xom gishtdan qilingan mustaxkam mudofaa Devori bilan o’ralgan. Shahriston ichida ham mustahkam mudofaa Inshootlariga ega bolgan baland ark-qasr bolgan. U zinapoyalar Shaklidagi to’g’ri burchakli minoralarga ega boMgan. Ark-qasr 0.5 Gektarni, shahriston I 5 gektar maydonni egallagan[2].

Arxeologik yodgorliklarga qaraganda, hozirgi Toshkent shahri hududida butunlay o‘zlashtirilib, unda 50 dan ortiq katta-kichik istehkom, feodal ko‘r-gonlari va ko‘shklari, obod qishloqlar qad ko‘targan. Shahrimiz hududida hozirgacha saqlanib kelayotgan Oqtepalarning o‘sha davrdagi qasr va ko‘shk-qurilmalarning vayronasidir.

Chochning mohir ustalari metallardan qurol-yarog‘, uy-ro‘zg‘or buyumlari, oltin va kumushlardan turli xil-dagi zeb-ziynatlar yasaganlar, teri ishlab, charm ishlirib, paxta va jun-dan matolar to‘qib, sopol va shisha buyumlar ishlab, ular ichki va tashqi bozorlni hunarmand-chilik mahsulotlari bilan ta’minlab turganlar. Bu davrda Cho‘ch savdogarlari Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan bog‘langan, qadimgi “Ipak yo‘li” orqali jahon savdosida faol ishtirok etganlar. Cho‘chdan oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, galla, quritilgan meva va ilikqlar chetga chiqarilgan.

Shahar aholisining bir qismi savdogarlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. O‘sha vaqtlarda Sharqiy Turkiston o‘lkasida tashkil topgan nufuzli savdo-sotiq jihatidan Cho‘ch savdogarlari Samarqand va Buxoro savdogarlaridan keyin uchinchi o‘rinda turgan. Cho‘ch shahrining o‘zi ulkan savdo munosabatlarining markazi hisoblangan. Toshkent vohasidan topilgan qadimgi bo‘yra, sopol buyumlar, turli-tuman chaga va tangalar shundan dalolat be-radiki, bu joy poytaxtlar darajasida bo‘lgan, madaniyat yuksak rivojlangan. Arxeologik

qazilmalardan ma'lum bo'lishicha, bu yerda o'ziga xos shahar qurilishi va me'morchilik tashkil topgan. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, turli yo'nalishlar bo'yicha san'at maktablari shakllangan. Cho'lda monumental devoriy rasmchilik ham san'at va madaniyatning boshqa sohalari singari taraqqiy etgan. Unda hayotni haqqoniy aks ettirish, voqelikki obrazli ifodalash va davrning tipik hodisalarini badiiy ko'rsatish an'anaga aylangan. Cho'ch shaharlarida bu davrda musiqa va raqs san'ati ayniqsa ko'zga ko'ringan ekan. Cho'ch raqslari o'ziga xos uslub va ritmga ega bo'lgan. Bu erkak xonanda, sozanda va raqqosalarning dovrug'i Cho'chdan tashqari yurtlarga tarqalgan. Manbalarda qayd qilinishicha, o'sha vaqtlarda Xitoyning Tan imperiyasi Cho'ch raqqosalari, bastakorlari, sozandalarini Xitoy saroylarida vaqti-vaqti bilan madx qilganlar.

Bu arxeologik va yozma manbalar guvohlik be-radiki, Cho'ch shahri o'sha davrda taraqqiy etgan madaniyat, hunarmandchilik, ilm-fan va san'at markazi bo'lgan.

1957-yildan boshlab O'zbekiston arxeologlari bu hududda sistematik tadqiqotlar olib bordilar. Arxeolog M.E. Masson boshchiligidagi guruh qazish ishlari natijasida mudofaa devorlari, ibodatxonalar, sopol buyumlar, tangalar va boshqa tarixiy topilmalarni aniqladi [3].

Topilmalar orasida zardushtiylikka oid olovxonalar, qopqoqli sopol idishlar, metall qurollar va qadimgi yozuvlar bo'lib, bular shahar hayotining rivojlanganligini ko'rsatadi .

Mingurik shahri Buyuk Ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri bo'lib, bu yerda hunarmandchilik, savdo va ma'naviy hayot rivojlangan. Shahar aholisining diniy qarashlari Zardushtiylik, keyinchalik esa islom dini bilan bog'liq bo'lgan [4].

Tadqiqotlar natijasida shaharda hayot uch asosiy davrda davom

Etganligi aniqlangan:1-davr mil. I-IV asrlarga mansub bo'lib, bu davrga oid uzun yo'lakli, ikki qatorli qal'a devorlari qoldig'i topilgan. Devor tashqarisida to'rtburchak shaklda burj va m o'lalar bo'lib, ulaming orasi 12 metrga teng bolgan. Bu davrda shahar hunarmandchilik va savdo sotiq markazi sifatida nom chiqargan.2-davr V-Vl asrlarga oid bo'lib, bunda shahar tez sur'atlarda Rivojlanib, axoli soni oshib borgan. Shu davrda shahar ark va Shahristonga ega bolgan yirik markazga aylangan. VI asr oxirlaridan Esa shahar Chochning poytaxtiga aylangan.3-davr VII-VIII asrlarga oid bolib, bu davr shahaming eng Yuksalgan davri boMgan. Bu davrda muxtasham saroy barpo etilgan. Shu Davr saroyi birmuncha to'liiq o 'rganilgan. Saroyda ko'plab xonalar, zal, Keng daxlizlar va omborxonalardan iborat bolgan. Xona devorlari

turli Bezaklar, haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. Bu erdan Muqaddas olovga sig'inish bilan bog'liq buyumlar ham topilgan. Shahristondan axoli turar joylarining izlari, hunarmandchilik ustaxonasi Qoldiqlari topilgan.[2]

XX asrning oxiriga kelib shahar inshootidan faqatgina kichik tepaliklar qolgan. Qishloqning katta qismiga zamonaviy uylar qurilgan.

2008-yilda mahalliy hokimiyat qadimiy shahar qoldiqlarini saqlab qolish va ularga sayyohlarni ko'rsatish uchun qulayroq ko'rinish berishga qaror qildi. Shu maqsadda tepalik atrofi loy g'ishtdan qad ko'targan devor bilan o'ralgan va qo'rg'on qoldiqlari ustiga yog'ingarchilikdan himoya qilish uchun soyabon qurilgan.2009-yil 27-oktyabrda aholi punkti hududida „zamonaviy" san'at ko'rgazmasi ochildi.

Shahar 1896-yil (Y. T. Smirnov, N. S. Likoshin tomonidan), keyin 1912-yil (A. I. Dobrosmislov, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolari tomonidan) qayd qilingan. XX asrda M. Y. Masson arxeologik kuzatish ishlari olib borgan. Qazish ishlari O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti (Y. F. Buryakov, D. G. Zilper, O. V. Obelchenko) tomonidan o'tkazilgan. 1968-yildan Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi davom ettirmoqda. [5]

Xulosa. Mingo'rik O'zbekistonning Toshkent hududida joylashgan qadimiy shahar bo'lib Toshkentning qadimiy xazinasidir. Mingo'rik buyuk ipak yo'lining markazida joylashganligi uchun savdo-sotiq juda Mingo'rik aholisi dehqonchilik hunarmandchilik va chorvachilik bilan ham shug'ullangan. Ayniqsa shahar III-VI asrlarda gullab-yashnagan . Mingo'rik O'zbekiston hamda Toshkent viloyati tarixini o'rganishda muhim tarixiy manbalardan biri buzib qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1.А.Мухаммаджонов Кадимги Тошкент- Узбекистон ССР фан наширийоти 1988.

2.N.A.EGAMBERDIEVA arxeologiya o'quv qo'llanm Toshkent 2011

3.o'zbekiston tarixi (1-jild)akademik nashr, Toshkent -2014

4 .Shermuhammedov.R. Choch vohasi va qadimiy Toshkent – Toshkent sharq 2002.

5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-2005.

# VI-VIII ASRLARDA CHOCHNING SIYOSIY VA IQTISODIY MAVQEYI

***Yuldashova Indira Faxratdin qizi***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*Gumanitar Fanlar Fakulteti*
*tarix yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

***Annotatsiya**: Mazkur maqoladaChoch (hozirgi Toshkent vohasi)ning 6–8 asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy holati yoritilgan. Unda G'arbiy Turk xoqonligi, Tang imperiyasi va Arab xalifaligi bilan bo'lgan aloqalari, Chochning strategik ahamiyati, yarim mustaqil hokimiyat tuzumi, savdo va hunarmandchilik rivoji, shuningdek, arab bosqinlaridan keyingi siyosiy o'zgarishlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Choch, Shosh, , G'arbiy Turk xoqonligi, Tang imperiyasi, Arab xalifaligi, siyosiy tarix, savdo yo'llari, hunarmandchilik, Toshkent vohasi.*

Choch (hozirgi Toshkent vohasi) Markaziy Osiyodagi eng qadimiy va strategik jihatdan muhim vohalardan biridir. U tarixiy-geografik joylashuvi, savdo yo'llari, tabiiy resurslari va madaniyati bilan turli sivilizatsiyalar e'tiborini tortgan. Ayniqsa, milodiy 6–8 asrlar oralig'ida bu hudud siyosiy jihatdan bir necha yirik imperiyalar kurash markazida bo'lib, mintaqadagi umumiy siyosiy barqarorlik va beqarorlik jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrda Choch G'arbiy Turk xoqonligi, Tang imperiyasi va Arab xalifaligi o'rtasidagi raqobatga guvoh bo'lgan.

G'arbiy Turk xoqonligi 6-asrda Eftalitlar davlatining qulashidan so'ng vujudga kelgan. Xoqonlik tarkibida Choch muhim iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan. **Saydullaev N.**ning ta'kidlashicha, bu davrda Chochda mustaqil siyosiy tuzumga ega bo'lgan mahalliy hukmdorlar hukmronlik qilgan, ammo ular G'arbiy Turk xoqonligiga bo'ysunganlar.[1]

Choch hududi xoqonlik uchun savdo va harbiy jihatdan katta ahamiyatga ega edi. Bu yerda zarbxonalar faoliyat yuritgan, shaharlar rivojlangan. G'aybulla Boboyorov o'z tadqiqotida ta'kidlaydiki, G'arbiy Turklar ushbu hududni o'zining g'arbiy chegarasi sifatida ko'rgan va bu orqali Eron va Vizantiya bilan savdo-siyosiy aloqalarni amalga oshirganlar.

Mahalliy hukmdorlar nomidan tanga zarb qilingani, Chochda mustaqil siyosiy-iqtisodiy tizim mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Chochda mustahkam qal'alar, ibodatxonalar va savdo markazlari mavjud bo'lgan. Shu bois, xoqonlik Chochni to'liq egallash emas, balki unga sodiq bo'lgan noiblar orqali boshqarishni afzal ko'rgan.[3]

7-asr boshlarida Xitoydagi Tang sulolasi o‘z ta’sirini Markaziy Osiyoga yoyishga urinadi. Tang imperiyasi arxivlarida Choch “Shi-shi” deb nomlangan va bu hudud bilan diplomatik aloqalar bo‘lganligi qayd etilgan. Tang manbalariga ko‘ra, 650-yillarda Choch hukmdorlari Tang imperatoriga elchilar yuborgan.

Tang siyosiy strategiyasi shunday bo‘lganki, ular bevosita harbiy kuch ishlatmasdan, diplomatik va iqtisodiy ta’sir orqali Chochni o‘z ta’sir doirasiga kiritmoqchi bo‘lgan. Bu davrda Xitoy bilan savdo-sotiq kuchaygan, buddizm dini tarqalgan.

Biroq Tang imperiyasi Arab xalifaligining mintaqadagi faollashuviga javoban 8-asrda harbiy ekspeditsiyalar uyushtirgan bo‘lsa-da, ular Chochda uzoq muddatga siyosiy nazoratni saqlay olishmagan.[4]

8-asr boshlarida Arab xalifaligi Markaziy Osiyoda, xususan, Movarounnahrda mustahkamlana boshladi. Bu harakatlarga Qutayba ibn Muslim rahbarlik qilgan. 712-yilda arab qo‘shinlari Choch ustiga yurish qiladi. Arab tarixchisi At-Tabariy yozishicha, Choch hukmdori qattiq qarshilik ko‘rsatgan, biroq oxir-oqibatda mag‘lubiyatga uchrab, Arab xalifaligiga bo‘ysunishga majbur bo‘lgan.

Bu bosqin mintaqada katta siyosiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan:

– Mahalliy hukmdorlar lavozimidan chetlatilgan yoki arab hokimlari bilan ittifoqqa kirgan.

– Choch Arab xalifaligiga tobe’ viloyatga aylantirilgan, unga yangi soliq tizimi joriy etilgan (xaraj va jizya).[5]

– Harbiy garnizonlar va musulmon aholi guruhlari ko‘chirib keltirilgan.

– Islom dini asta-sekin tarqala boshlagan, ammo zardushtiylik, buddizm va boshqa qadimgi e’tiqodlar hali hanuz mavjud bo‘lgan.

8-asrning ikkinchi yarmida Arablar tomonidan bosib olingan Choch xalifalik ichki siyosatining bir qismiga aylangan. Shu bilan birga, ba’zi tarixchilar Chochda arab hukmronligi mutlaq bo‘lmaganini, mahalliy zodagonlar o‘z mavqeini saqlab qolganini ta’kidlaydi.[6]

6–8 asrlarda Choch hududi siyosiy jihatdan juda muhim va serqirra o‘zgarishlarga boy bo‘lgan. G‘arbiy Turk xoqonligi davrida yarim mustaqil hukmronlik qilgan bo‘lsa, Tang imperiyasi bilan diplomatik aloqalar orqali o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga intilgan. 8-asrda esa Arab xalifaligi tomonidan harbiy bosib olinib, islomiy madaniyat va siyosiy tizim ta’siriga o‘tgan. Ushbu jarayonlar Chochni mintaqadagi eng muhim siyosiy-harbiy markazlardan biriga aylantirgan.

Choch (yoki Shosh) qadimda Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-geografik viloyati bo‘lib, hozirgi Toshkent shahri va uning atroflarini o‘z ichiga olgan. Bu hudud Sir daryoning quyi oqimiga yaqin joyda, O‘rta Osiyoning sharqiy qismida joylashgan edi.[1]

Choch hududi shimolda O‘rta Sirdaryo, janubda esa Ko‘kchadaryo vodiysi, sharqda esa Farg‘ona vodiysi bilan chegaradosh bo‘lgan. Bu yer Yettisuv (hozirgi Janubiy Qozog‘iston) bilan bog‘lovchi savdo yo‘llari kesishgan nuqtada joylashgani bois muhim strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan.[2]

Choch viloyatining markazi choch shahri (hozirgi Toshkent) bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri karvon yo‘llari orqali Sug‘d, Farg‘ona, Isfijob, Yettisuv va hatto Xitoy bilan bog‘langan edi. Bu yo‘llar orqali ipak, qurol-aslaha, ipak matolar va boshqa mahsulotlar savdosi amalga oshirilgan.

Choch 6–8 asrlarda G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan. Bu davrda u yarim mustaqil beklik sifatida mavjud bo‘lgan va mahalliy hokimlar (ba’zida “Shosh xudolari” deb atalgan) hukmronlik qilgan. Ular xoqonlikka tobe bo‘lib, soliq to‘lagan va harbiy yordam ko‘rsatgan.[1]

Bu davrda Choch Sug‘d bilan yaqin aloqada bo‘lgan va bu aloqalar madaniy, iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan. Sug‘diylar Chochda faol savdo olib borib, u yerdagi mahalliy hukmdorlar saroylarida xizmat qilganlar.[2]

Choch hududida 7–8 asrlarda arablar bilan bo‘lgan janglar ham bu viloyatning tarixiy ahamiyatini oshirdi. Arab tarixchilarining yozishicha, bu yerda arab qo‘shinlariga qarshi kuchli qarshilik ko‘rsatilgan. Ayniqsa, Choch hokimi ibn Bashir rahbarligida arablar bilan bo‘lgan qarama-qarshiliklar Chochning siyosiy faolligini ko‘rsatadi.[3]

6–8 asrlarda Choch (hozirgi Toshkent vohasi) Markaziy Osiyoning muhim siyosiy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu davrda Choch hududi dastlab G‘arbiy Turk xoqonligi, so‘ngra esa uning parchalanganidan so‘ng mustaqil yoki yarim mustaqil mahalliy hokimlar tomonidan boshqarilgan.

Chochning siyosiy holatini tahlil qilganda, birinchi navbatda uning G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo‘lganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu xoqonlik VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sirdaryo bo‘ylarida mustahkam o‘rnashgan bo‘lib, Choch ham xoqonlik tarkibida muhim iqtisodiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan viloyatlardan biri edi[17]. Xoqonlikning boshqaruv tizimi markazlashmagan bo‘lib, Chochda mahalliy noiblar va bekliklar faoliyat yuritgan.

VII asr o‘rtalarida G‘arbiy Turk xoqonligi zaiflashgach, Chochda mahalliy sulolaviy hukmdorlar mustaqillikka intilgan. Bu davrda Chochda hokimiyatni turli sulolalar, jumladan, mahalliy erkin shahar aristokratiyasi vakillari qo‘lga olgan. Jumladan, Tabariy asarlarida zikr qilinishicha, arablar bilan bo‘lgan ilk to‘qnashuvlar paytida Chochda o‘z hukmdori bo‘lib, u arablar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga uringan.

8-asr boshlarida arablar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi jarayonida Choch strategik hudud sifatida alohida rol o‘ynagan. 722-yilda arab sarkardasi Said ibn Abdurahmon Chochga yurish qilgan, ammo Choch hokimi arablar bilan murosa yo‘li bilan ishlashga harakat qilgan. Bu holat Choch hokimlarining o‘z hududiy mustaqilligini saqlab qolish istagini ko‘rsatadi[5]

Shuningdek, G‘aybulla Boboyorov yozganidek, Chochdagi siyosiy hayot arab istilosidan so‘ng murakkab bosqichlarga yuz tutgan. Arablar hududni nazorat ostiga olgan bo‘lsa-da, mahalliy hokimlar qisman avtonomlikni saqlab qolgan. Arab xalifaligining Choch ustidagi nazorati asosan harbiy garnizonlar va soliq yig‘ish orqali amalga oshirilgan, ammo mahalliy boshqaruv tuzumi saqlanib qolgan[2]

6–8 asrlarda Choch vohasi iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan hududlardan biri bo‘lgan. Uning asosiy iqtisodiy tayanchi sug‘orma dehqonchilik edi. Zarafshon daryosi orqali sug‘oriladigan yerlar bug‘doy, arpa, uzum, sabzavot va paxta yetishtirish imkonini bergan. Qovunchi tepaligidan topilgan arxeologik topilmalar Chochda qishloq xo‘jaligi madaniyati ancha taraqqiy etganini isbotlaydi.[1]

Shuningdek, Chochda hunarmandchilik sohalari ham yuksak darajada bo‘lgan. Ayniqsa, kulolchilik, temirchilik, to‘qimachilik va teri ishlash an’anaviy hunar sifatida keng yoyilgan. Qovunchi va Bo‘zsuv arxeologik yodgorliklaridan topilgan qurollar, maishiy buyumlar va ish qurollari bu hududda mahalliy ustalarning faoliyati kuchli bo‘lganini tasdiqlaydi.[2]

Choch vohasi Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmog‘i ustida joylashgan bo‘lib, uning orqali Xitoy, Hindiston, Erondan kelgan tovarlar Markaziy Osiyo va undan tashqariga olib o‘tilgan. Chochdan o‘tgan savdo yo‘llari orqali ipak, ziravorlar, temir buyumlar, zargarlik mahsulotlari va qimmatbaho toshlar savdosi amalga oshirilgan.Arab muarrixlarining yozishicha, Chochdan boshqa viloyatlarga temir buyumlar, asboblar, terilar va oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilingan.[5]

Alohida e’tiborli jihat shuki, Chochda o‘z zarbxonalari bo‘lgan. Bu yerda zarb etilgan mis va kumush tangalar Turk xoqonligi va keyinchalik Arab xalifaligiga tegishli hududlarda ham muomalada bo‘lgan. Tangalardagi

yozuvlar va ramzlar Choch hukmdorlarining siyosiy mustaqilligini va iqtisodiy mustahkamligini aks ettirgan.[7]

Choch vohasi geografik jihatdan Movarounnahrning shimoli-sharqiy qismida, Serdaryo daryosi havzasida joylashgan bo‘lib, qadimdan Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari va dasht xalqlari (turk qabilalari) o‘rtasidagi tabiiy ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan.[6] U G‘arbiy Turk xoqonligi va Xitoy o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarda markaziy o‘rin tutgan.

Choch aholisi erkin qabilalar ittifoqi shaklida yashagan bo‘lib, ularning ba’zilari mustaqil hukmdorlar tomonidan boshqarilgan. Tabariy ma’lumotlariga ko‘ra, arablar bu hududga bir necha marta yurish qilgan bo‘lib, bu yurishlar Chochning siyosiy jihatdan kuchli va strategik jihatdan muhim mintaqa bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 722-yildagi jangda Choch hokimi arablar tomonidan mag‘lub etilgan bo‘lsa-da, ular bir necha yil davomida qarshilik ko‘rsatgan.[5]

Chochning mintaqaviy ahamiyati nafaqat siyosiy va harbiy, balki madaniy va savdo jihatidan ham yuqori bo‘lgan. Bu yerdan o‘tuvchi karvon yo‘llari xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning rivojlanishiga olib kelgan. Buryakov olib borgan arxeologik tadqiqotlarda Choch vohasida turli millat va din vakillarining yashagani, ularning o‘zaro aloqada bo‘lgani aniqlangan.[8]

Xulosa

6–8 asrlar mobaynida Choch vohasi Markaziy Osiyoning muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu davrda G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida yarim mustaqil beklik sifatida mavjud bo‘lgan Choch, Tang imperiyasi bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan, 8-asrda esa Arab xalifaligi tomonidan bosib olingan. Har bir bosqich Choch vohasining ijtimoiy va siyosiy tizimida muhim iz qoldirgan. Choch hududi o‘zining boy tabiiy resurslari, rivojlangan sug‘orma dehqonchiligi, hunarmandchiligi va xalqaro savdo aloqalari bilan o‘z davrining taraqqiy etgan vohalaridan biri bo‘lgan. Bu omillar Chochni tarixiy jihatdan barqaror va strategik jihatdan muhim mintaqa sifatida namoyon etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Saydullaev N. O‘zbekiston tarixi (I qism). Toshkent: «O‘qituvchi», 2001.

2. Boboyorov G. G‘arbiy Turk xoqonligi tarixi. Toshkent: Akademnashr, 2020.

3. Buryakov. Yu.F. Sredneaziatskie goroda na Shelkovom puti. Tashkent: FAN, 1991 .

4. Tang shu (Xitoy manbalari). Tarixiy tarjimalar orqali .

5. At-Tabariy. Tarix ar-Rusul val-Muluk. Arab tilidan tarjima qilingan.

6. Barthold V.V. Turkiston arablar istilosi davrida. – Toshkent: Sharq, 2004.

7. Altheim F. – "Die Araber in der Alten Welt" (Qadimgi dunyodagi arablar). – Berlin, 1964.

8. Tolstov S.P. "O'rta Osiyoning qadimgi tarixi". – Toshkent: 1985.

## O'RTA ASIRLARDA TURKIYA

**Bobomurodov Nodir Mansur o'g'li,**
ChDPU Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi,

***Annotatsiya:*** *Mazkur tezisda O'rta asrlarda Turkiya hududida sodir bo'lgan siyosiy va madaniy jarayonlar, Saljuqiylar va Usmoniylar imperiyasi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, diniy va harbiy siyosat kabi masalalar yoritiladi. Turkiya hududi o'rta asrlarda G'arb va Sharq sivilizatsiyalari chorrahasida joylashgani uchun strategik va madaniy jihatdan muhim rol o'ynagan.*

***Kalit so'zlar****: O'rta asrlar, Turkiya, Saljuqiylar, Usmoniylar, imperiya, islom, siyosat.*

***Аннотация:*** *В данном тезисе рассматриваются политические и культурные процессы, происходившие на территории Турции в Средние века, а также социально-экономическое развитие в период Сельджукской и Османской империй. Особое внимание уделяется вопросам религиозной и военной политики. Будучи перекрёстком восточной и западной цивилизаций, территория Турции играла важную стратегическую и культурную роль в этот период.*

***Ключевые слова:*** *Средние века, Турция, сельджуки, османы, империя, ислам, политика.*

***Annotation:*** *This thesis explores the political and cultural processes that took place in the territory of present-day Turkey during the Middle Ages, with a focus on the socio-economic development during the Seljuk and Ottoman periods. It also examines religious and military policies of the time. Due to its location at the crossroads of Western and Eastern civilizations, the region played a significant strategic and cultural role in medieval history.*

***Keywords:*** *Middle Ages, Turkey, Seljuks, Ottomans, empire, Islam, politics.*

O‘rta asrlar davrida Turkiya hududi, ayniqsa, Anado‘lu (Kichik Osiyo) o‘zining strategik geografik joylashuvi sababli ko‘plab imperiyalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu mintaqa Sharq bilan G‘arb, musulmon dunyosi bilan xristian dunyosi o‘rtasida madaniy, iqtisodiy va siyosiy ko‘prik vazifasini bajargan. XI asrda Saljuqiylarning bu hududga kirib kelishi bilan Turkiya tarixida yangi davr boshlangan bo‘lib, ular tomonidan Rum sultonligi tashkil etildi [1, B.110].

Saljuqiylar davrida Turkiya hududida islom dini keng yoyildi, urbanizatsiya kuchayib, ilm-fan va dini hayot rivojlandi. Savdo yo‘llari xavfsizligi ta’minlanib, ko‘plab karvonsaroylar, madrasa va masjidlar qurildi. Bu esa o‘z navbatida madaniy va ijtimoiy yuksalishga olib keldi. shaharlar rivojlandi va madaniyat yuksaldi. Rum sultonligi davrida savdo yo‘llari himoya qilinib, karvonsaroylar, masjidlar va madrasalar qurildi. Bu jarayonlar ilm-fan va dini hayotning rivojlanishiga zamin yaratdi. [1, B.111].

XIII asrning oxiri va XIV asr boshlarida siyosiy kuchlar o‘rtasida bo‘shliq vujudga keldi. Aynan mana shu davrda Usmoniylar sulolasi tarix maydoniga chiqdi. Ular dastlab kichik beylik sifatida siyosiy harakatni boshlagan bo‘lsalar-da, qisqa vaqt ichida markazlashgan qudratli imperiyaga aylandilar [2, B.594].

Usmoniylarning asoschisi Usmon G‘oziy (1258–1326) bo‘lib, u saljuqiylar va Vizantiya o‘rtasida joylashgan beylikni mustahkamlab, yangi davlatga asos soldi. U 1299-yilda o‘z beyligini mustaqil deb e’lon qildi va keyinchalik bu sanani Usmoniylar imperiyasining rasmiy tashkil topgan yili deb e’tirof etdilar [3, B.431].

Usmon o‘z siyosatini Vizantiyaga qarshi yurishlar bilan boshladi. 1291-yilda Melanpiya shahrini egalladi va bu hududni o‘ziga qarorgoh sifatida tanladi. Shahar aholisi ko‘chirilgan va soborlar masjidga aylantirildi. Bu Usmoniylarning diniy va siyosiy yondashuvini aks ettiradi [3, B.432].

1301-yilda Usmon Yenishehrni zabt etdi va bu joyda mudofaa qal’asi qurdi. Bu davrda Usmon shoh Vizantiyaga qarshi yurishlar bilan bir qatorda ichki siyosatni ham mustahkamladi. 1302-yilgi Vafeya jangi Usmoniylar tarixida muhim burilish bo‘lib, Vizantiyaning ilk jiddiy mag‘lubiyati hisoblanadi. Ushbu muvaffaqiyat Usmon beyligiga yangi hududlarni qo‘shib olish imkonini berdi [4, B.148].

1305-yili Levke jangi vaqtida Usmoniylar vaqtinchalik orqaga chekinishga majbur bo‘ldilar, biroq Vizantiya imperiyasidagi ichki ziddiyatlar

(toj-taxt uchun kurashlar) ularga yangi yurishlar uchun qulay muhit yaratdi. Usmoniylar Qora dengiz bo‘ylaridagi Vizantiya shaharlari ustidan nazoratni kuchaytirdi hamda ilk bor Vizantiyaning Yevropa qismiga yurish boshladilar [4, B.149].

Usmoniylar Rum sultonligining zaiflashgan tuzilmasi fonida tez o‘sib bordilar. Dastlab Usmon, keyinchalik uning o‘g‘li Urxon G‘oziy tomonidan Bursa shahri egallandi va 1326-yilda poytaxt deb e’lon qilindi. Urxon davrida birinchi kumush tangalar – *aqcha* zarb qilinib, iqtisodiy mustaqillik asoslari shakllantirildi [5, B.198].

Usmoniylar imperiyasi 1453-yilda Vizantiya poytaxti bo‘lgan Konstantinopolni egallab, uni Istanbul deb atadi. Bu voqea nafaqat Turkiya, balki Yevropa va Osiyo tarixida ham yangi siyosiy davr boshlanishiga sabab bo‘ldi. Endilikda Usmoniylar imperiyasi nafaqat mintaqaviy, balki global siyosiy kuchga aylandi [6, B.260].

O‘rta asrlarda Turkiya hududida yuz bergan siyosiy va madaniy jarayonlar nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ahamiyatli bo‘lgan. Saljuqiylar va Usmoniylar imperiyalari tomonidan yaratilgan siyosiy tizim, diniy va harbiy boshqaruv shakllari bugungi Turkiya tarixining asosini tashkil qiladi. Bu davr Turkiya taraqqiyotining muhim bosqichi bo‘lib xizmat qilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jahon tarixi (O‘rta asrlar tarixi). O‘quv-uslubiy majmua. Denov (2019). – B.110–117.
2. O‘rta asrlar tarixi. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti. Semyonev (1973). – B.594–600.
3. Yangi davr. 1-qism. XVI–XVIII asrlar. T.: “O‘zbekiston”, Shuhrat Ergashev (2013). – B.431–433.
4. Jahon tarixi. T.: “O‘zbekiston savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”. Sarimsoqov A. (2021). – B.148–150.
5. O‘rta asrlar tarixi. O‘quv metodik qo‘llanma. Qurbonaliyeva R.R. T.: (1991). – B.197–198.
6. O‘rta asrlar tarixi. T.: “MASHHUR-PRESS”, B. Mirkomilov, F. Aqchayev, O. Mamirov (2016). – B.257–264.

# BUXORO AMIRLIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGIDA AHMAD DONISH ASARLARINING O‘RNI

***Boboxonov Boboxon Ranjit o‘g‘li,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Uneverseteti*
*Gumanitar fanlar fakulteteti*
*tarix yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Buxoro Amirligi tarixining o‘rganilishida Ahmad Donishning ilmiy va ma’rifiy merosi tahlil etilgan. Asosiy e’tibor Ahmad Donishning tarixiy-madaniy muhitga bergan hissasi, islohotlar haqidagi qarashlari hamda u yaratgan asarlarning tarixshunoslik uchun manba sifatidagi ahamiyatiga qaratilgan. Maqolada “Navodir ul-vako‘ye’”, “Risolai islohiya” va boshqa asarlar asosida Buxoro Amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holat yoritilib, Ahmad Donishning tarixiy tafakkuri va zamonasining tanqidiy tahlili o‘rganiladi. Shuningdek, sovet va mustaqillik davri tarixshunosligida Ahmad Donishga bo‘lgan yondashuvlar ham solishtirma tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar****: Ahmad Donish, Buxoro Amirligi, tarixshunoslik, islohot g‘oyalari, Navodir ul-vako‘ye’, tarixiy*

***Annotation.*** *This article analyzes the scientific and educational legacy of Ahmad Donish in the study of the history of the Bukhara Emirate. Special attention is given to his contribution to the historical and cultural environment, his views on reforms, and the importance of his works as sources for historiography. Based on texts such as Navodir al-Vaqoe and Risola-i Islohiya, the article explores the political, social, and economic conditions of the Bukhara Emirate, as well as a critical assessment of Donish’s historical thinking and his perception of contemporary society. The article also includes a comparative analysis of how Ahmad Donish has been approached in Soviet and post-independence historiography.*

***Keywords:*** *Ahmad Donish, Bukhara Emirate, historiography, reform ideas, Navodir al-Vaqoe, historical source.*

***Аннотация.*** *В статье анализируется научное и просветительское наследие Ахмада Дониша в контексте изучения истории Бухарского эмирата. Особое внимание уделено его вкладу в историко-культурную среду, взглядам на реформы, а также значению его трудов как источников для историографии. На основе таких произведений, как Наводир аль-Вақое и Рисолаи ислоҳия, в статье рассматриваются политические, социальные и экономические условия в Бухарском эмирате,*

*а также проводится критический анализ исторического мышления Ахмада Дониша и его восприятия современности. Также проводится сравнительный анализ подходов к наследию Дониша в советской и постсоветской историографии.*

***Ключевые слова:*** *Ахмад Дониш, Бухарский эмират, историография, реформаторские идеи, Наводир аль-Вақое, исторический источник.*

XIX asrda Buxoro Amirligi o‘zining murakkab siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tuzumi bilan mintaqaning eng muhim davlatlaridan biri bo‘lib, bu davr tarixi bugungi kunda ham o‘rganilishga muhtoj sohalardan biri sanaladi. Ayniqsa, bu tarixni mahalliy mualliflar qoldirgan asarlar orqali o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ahmad Donish ana shunday zamonaviy tafakkur va tanqidiy qarashlarga ega bo‘lgan, tarixchi, mutafakkir va islohotparvar sifatida tarixda o‘z nomini qoldirgan shaxsdir.

Uning “Navodir ul-vako‘ye’” (“G‘aroyib voqealar”) va “Risolai islohiya” kabi asarlari o‘z davrining voqeliklarini teran tahlil qilgani, amirlik tuzumining salbiy jihatlarini tanqid qilgani bilan ajralib turadi. Bu asarlar orqali biz Buxoro Amirligidagi siyosiy boshqaruv, xalqning ijtimoiy holati, ma’naviy hayot, ilm-fan darajasi kabi qator jihatlar haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Ahmad Donish 1827 yilda Buxoroda tug‘ilgan. U dastlab madrasada tahsil olgan, so‘ngra amirlik xizmatiga kirib, diplomatik safarlarda bo‘lgan. Ayniqsa, 1857–1860-yillardagi Rossiyaga qilgan elchilik safarlari uning dunyoqarashi shakllanishida katta rol o‘ynagan. U Rossiya imperiyasining taraqqiyoti, sanoati, ta’lim tizimi bilan tanishgan va bu bilimlarni Buxoro jamiyatiga tatbiq etish zarurligini anglagan.

Ahmad Donish Buxoro ijtimoiy-siyosiy hayotining inqirozga yuz tutganini chuqur anglagan va islohotlar zarurligini yozgan. U amirning mutlaq hokimiyati, mansabdorlarning poraxo‘rligi, diniy fanlar ustuvorligi va dunyoviy fanlarga bepisandlik kabi muammolarni keskin tanqid qilgan. Bu qarashlari sababli u hukumat doirasidan chetlashtirilgan bo‘lsa-da, o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyatini to‘xtatmagan.

“Navodir ul-vako‘ye’” asari Ahmad Donishning eng mashhur va muhim tarixiy asaridir. Ushbu asarda muallif o‘z boshidan o‘tkazgan voqealar, Buxoro amirligidagi siyosiy voqealar, amirlarning faoliyati, ijtimoiy muammolar va xorijiy davlatlarga qilgan safarlari haqida tafsilotli ma’lumotlar beradi. Bu asar sub’yektiv bo‘lsa-da, muallifning zamonaviy tafakkuri, tanqidiy yondashuvi va realistik tahlillari bilan ajralib turadi.

Shuningdek, “Risolai islohiya” (“Islohotlar risolasi”) nomli asarida muallif Buxoroni isloh qilish uchun aniq takliflar bildiradi. Bu takliflar ichida

dunyoviy ta’lim, adolatli soliq tizimi, korruptsiyaga qarshi kurash, xalq bilan muloqotga asoslangan boshqaruv kabi g‘oyalar bor edi. Bu g‘oyalar o‘z davri uchun nihoyatda ilg‘or edi va bugungi kun nuqtai nazaridan ham dolzarb sanaladi.

Ahmad Donishning asarlari sovet davrida ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, u ko‘pincha diniy va konservativ muhitning mahsuli sifatida baholangan. Biroq, 1990-yillardan keyin, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Ahmad Donish merosiga yangicha yondashuv shakllandi. Uning islohotparvarlik g‘oyalari, tanqidiy tahlili va ma’naviy-ma’rifiy qarashlari chuqur o‘rganila boshlandi.

Bugungi kunda Ahmad Donish asarlari tarixshunoslikda nafaqat muhim tarixiy manba, balki mintaqaning tafakkur evolyutsiyasi, modernizatsiyaga intilish va milliy o‘zlikni anglashda muhim o‘rin tutuvchi manba sifatida qaralmoqda.

Ahmad Donish Buxoro Amirligi tarixida o‘zining ilmiy, ma’rifiy va islohotparvarlik faoliyati bilan muhim o‘rin egallagan. Uning asarlari, xususan “Navodir ul-vako‘ye’” Buxoro jamiyatining turli jabhalarini yorituvchi noyob tarixiy manbadir. Tarixshunoslikda bu asarlar orqali Buxoro Amirligining siyosiy va ijtimoiy tuzilmasini, xalqning hayot tarzini, jamiyatdagi muammolarni chuqur o‘rganish imkoniyati mavjud.

Bugungi kunda Ahmad Donish merosini o‘rganish, uni tarixiy va zamonaviy kontekstda baholash, O‘zbekiston tarixiy tafakkuri va milliy o‘zlikni chuqur anglash yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Donish, Ahmad. Navodir ul-vako‘ye’. Toshkent: Fan, 1960.

2. Donish, Ahmad. Risolai islohiya. Buxoro, qo‘lyozma nusxalari asosida.

3. Ziyayev, H. Ahmad Donish va uning davri. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

4. Qosimova, D. Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Toshkent: Ma’naviyat, 2014.

5. Karimov, I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.nba.

# SALIB YURISHLARI BOSHLANISHI VA ULARNING OQIBATLARI

***Ummataliyeva Adolatxon Ubaydullo qizi,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2- bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Maqolada XI–XIII-asrlar oralig‘ida Yevropada boshlangan Salib yurishlari sabablari, ularning harbiy va siyosiy natijalari, hamda Yaqin Sharq mintaqasiga ko‘rsatgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta’siri tahlil qilinadi. Salibchilar va musulmonlar o‘rtasidagi tarixiy to‘qnashuvlar nafaqat o‘sha davrda, balki keyingi asrlarda ham ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi munosabatlarga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Maqolada ushbu yurishlarning qisqa va uzoq muddatli oqibatlari, ayniqsa, Yaqin Sharqdagi siyosiy tuzilmalarga, madaniy merosga va xalqlararo munosabatlarga ta’siri yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Salib yurishlari, Yaqin Sharq, Quddus, Salohiddin Ayyubiy, musulmonlar, nasroniylik, siyosiy ta’sir, madaniy almashinuv.*

***Annotation:*** *This article analyzes the causes and objectives of the Crusades launched in Europe during the XIth to XIII th centuries, their military and political outcomes, and their social, cultural, and economic impact on the Middle East. The historical conflicts between the Crusaders and Muslims not only influenced the era in which they occurred but also significantly shaped the relationship between Western and Eastern civilizations in subsequent centuries. The article explores both the short-term and long-term consequences of the Crusades, particularly in terms of political structures, cultural heritage, and interethnic relations in the Middle East.*

***Keywords:*** *Crusades, Middle East, Jerusalem, Saladin, Muslims, Christianity, political influence, cultural exchange.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются причины и цели Крестовых походов, начавшихся в Европе в XI–XIII веках, их военные и политические итоги, а также социальное, культурное и экономическое влияние на Ближний Восток. Исторические столкновения между крестоносцами и мусульманами оказали значительное влияние не только на эпоху, в которой они происходили, но и на отношения между западной и восточной цивилизациями в последующие века. В статье рассматриваются как краткосрочные, так и долгосрочные последствия походов, особенно в контексте политических структур, культурного наследия и межэтнических отношений на Ближнем Востоке.*

***Keywords:*** *Crusades, Middle East, Jerusalem, Saladin, Muslims, Christianity, political influence, cultural exchange.*

Salib yurishlari — Yevropa tarixining o‘rta asrlarida sodir bo‘lgan eng muhim harbiy-diniy harakatlardan biri hisoblanadi. Bu yurishlar Rim Papasi Urban II tomonidan 1095-yilda Klermon soborida e’lon qilingan nutqdan so‘ng boshlangan va deyarli ikki asr davom etgan. Yurishlarning asosiy maqsadi nasroniylar uchun muqaddas hisoblangan Quddus shahrini musulmonlar qo‘lidan ozod qilish edi. Biroq, bu yurishlar o‘z ichida murakkab va ko‘p qatlamli sabablarni mujassam etgan: diniy e’tiqod, siyosiy raqobat, iqtisodiy manfaatlar va madaniy ziddiyatlar.

Diniy sabablar: Salib yurishlari rasmiy ravishda diniy asosga ega edi. Rim papasi va cherkov rasmiylari musulmonlar tomonidan egallab olingan Quddus shahrini “nasroniylarning muqaddas yeri” sifatida ozod qilishni talqin qilganlar. Bu yurishlar orqali harbiylar “gunohlaridan xalos bo‘lish” va jannatga erishishlariga ishontirilgan.

Siyosiy sabablar: Yevropada o‘sha davrda kuchli markazlashgan davlatlar yo‘q edi, ko‘plab ritsarlar va knyazlar o‘z kuchlarini sinab ko‘rish, hokimiyatni kengaytirish uchun imkon izlar edi. Papa esa bu yurishlar orqali Yevropadagi ichki nizolarni kamaytirish va o‘z hokimiyatini mustahkamlashga intilgan.

Iqtisodiy sabablar: Salib yurishlari Yevropa savdogarlari uchun Sharq savdo yo‘llariga chiqish, yangi bozorlar, boyliklar, yerlar topish uchun katta imkoniyat edi. Ayniqsa, Italiya shahar-davlatlari — Genuya, Venetsiya va Piza — Salib yurishlari orqali savdo imperiyalarini kengaytirdilar.

Birinchi Salib yurishi (1096–1099). Bu yurish eng muvaffaqiyatlisi bo‘ldi. Salibchilar Quddus shahrini egallab, 1099-yilda “Quddus qirolligi”ni tuzdilar. Bu yurishda nasroniylar ko‘plab musulmon aholini qirg‘in qilishdi.

Ikkinchi Salib yurishi (1147–1149). Yurish musulmonlar tomonidan qayta bosib olingan Edessa shahrini qaytarib olish uchun tashkil etilgan edi. Biroq frantsuz va nemis qo‘shinlari yengildi, yurish muvaffaqiyatsiz tugadi.

Uchinchi Salib yurishi (1189–1192). Musulmon sarkardasi Salohiddin Ayyubiy 1187-yilda Quddusni qayta egalladi. Yevropadan Angliya qiroli Richard I (Sher Yurak), Frantsiya qiroli Filipp II va imperator Fridrix Barbarossa yetakchiligida yurish boshlangan. Ular Quddusni qayta ola olishmagan, ammo musulmonlar bilan sulh tuzilgan.

To‘rtinchi yurish va keyingilari (1202–1272) . Bu yurishlar diniy maqsadlarga emas, balki ko‘proq siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga yo‘naltirilgan edi. To‘rtinchi yurish davomida Salibchilar Konstantinopolni egallab, uni talon-taroj qilishdi. Bu Vizantiya imperiyasining zaiflashishiga olib keldi.

Salib yurishlari natijasida musulmonlar orasida birlashuv kuchaydi. Salohiddin Ayyubiy va uning vorislari siyosiy jihatdan kuchli tuzilmalarni yaratdilar. Shu bilan birga, G‘arb nasroniylari tomonidan Yaqin Sharqda tuzilgan Salibchi davlatlar uzoq yashamadi, ammo ular Yaqin Sharq siyosatida vaqtinchalik muhim rol o‘ynadi.

Ijtimoiy va madaniy ta’sirSalib yurishlari natijasida G‘arb va Sharq o‘rtasida madaniy almashinuv kuchaydi. Yevropaliklar musulmon dunyosidan tibbiyot, matematika, falsafa, arxitektura kabi ko‘plab sohalarda bilim oldilar. Shu tariqa, Salib yurishlari Yevropaning Uyg‘onish davriga tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qildi.

Salib yurishlari savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qildi. O‘rta yer dengizi bo‘ylab Yevropa va Sharq o‘rtasida yangi savdo yo‘llari ochildi. Ayniqsa, Venetsiya, Genuya, Marsel kabi port shaharlari katta foyda ko‘rdi.

Ushbu yurishlar natijasida islom va nasroniy dunyosi o‘rtasida uzoq yillik dushmanlik va ishonchsizlik muhitining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Garchi madaniy almashinuv mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, bu yurishlar ikki diniy sivilizatsiya o‘rtasida chuqur yoriq hosil qildi.

Salib yurishlari o‘rta asrlar tarixida G‘arb va Sharq o‘rtasidagi eng keskin, ammo tarixiy jihatdan muhim to‘qnashuvlardan biridir. Ular qisqa muddatda musulmonlar va nasroniylar o‘rtasida keng ko‘lamli urushlarga sabab bo‘ldi, biroq uzoq muddatda madaniy almashinuv, savdo-sotiq rivoji va ilmiy taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Yaqin Sharq mintaqasining bugungi tarixiy va siyosiy holatiga ham ushbu yurishlarning aks-sadosi seziladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Riley-Smith, Jonathan. The Crusades: A History. Yale University Press, 2005.

2. Maalouf, Amin. The Crusades Through Arab Eyes. Saqi Books, 2001.

3. Tyerman, Christopher. God’s War: A New History of the Crusades. Harvard University Press, 2006.

4. Gibb, H.A.R. The Arab Conquests in Central Asia. AMS Press, 1970.

5. Asimov, M.S. Tarixiy-siyosiy nazariyalar. Toshkent, 1998.

6. Xaydarov, M. Jahon tarixi: O‘rta asrlar. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2004.

7. Nasriddinov, Sh. O‘rta asrlar jahon tarixi. Samarqand, 2010.

# MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENTNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY AHVOLI.

***Boltayeva O'g'iloy Ulug'bek qizi,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1- bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Toshkent shahrida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi muhim o'zgarishlar, yutuqlar va taraqqiyot yo'llari yoritilgan. Shahar hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Toshkent, mustaqillik, taraqqiyot, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, madaniyat, islohotlar, infratuzilma.*

***Аннотация:*** *В статье освещаются значительные изменения, достижения и пути развития в социальной, экономической и культурной сферах, произошедшие в Ташкенте после обретения Узбекистаном независимости. Будут проанализированы реформы, реализуемые во всех аспектах городской жизни.*

***Ключевые слова:*** *Ташкент, независимость, развитие, экономика, социальная сфера, культура, реформы, инфраструктура.*

*Abstract: This article highlights the significant changes, achievements, and development paths in the social, economic, and cultural spheres that have occurred in Tashkent since Uzbekistan gained independence. It analyzes the reforms implemented in all aspects of city life.*

***Keywords:*** *Tashkent, independence, development, economy, social sphere, culture, reforms, infrastructure.*

1991-yil 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni sifatida tarixga muhrlandi. Bu tarixiy voqea mamlakatimiz hayotida tub burilish yasadi. Ayniqsa, poytaxt Toshkent shahri ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda yangi bosqichga ko'tarildi. Mustaqillik Toshkentga yangi imkoniyatlar, zamonaviy infratuzilma, erkin iqtisodiy va madaniy muhit olib keldi.

Ijtimoiy sohadagi taraqqiyot Mustaqillikdan so'ng Toshkentda ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Ta'lim tizimida yangi zamonaviy maktablar, litseylar va oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Sog'liqni saqlash tizimida yuqori texnologiyali davolash markazlari, diagnostika klinikalari ochildi. Aholining ijtimoiy himoyasi kuchaytirilib, pensiya, nafaqa va yordam dasturlari kengaytirildi.

Iqtisodiy rivojlanish. Toshkent iqtisodiy hayotining yuragi sifatida sanoat, qurilish, transport va xizmat ko'rsatish sohalarida katta o'zgarishlarga yuz

tutdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun soliq yengilliklari yaratildi. Metro liniyalari kengaytirildi, yo‘llar rekonstruksiya qilindi. Xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, ko‘plab zamonaviy savdo markazlari, mehmonxonalar va zavodlar barpo etildi.

Madaniy taraqqiyot Mustaqillik Toshkent madaniy hayotiga ham ulkan o‘zgarishlar olib keldi. San’at va adabiyotga qaratilgan e’tibor natijasida ko‘plab teatrlar, madaniyat saroylari va kutubxonalar yangilandi. Xalqaro madaniy tadbirlar, festivallar o‘tkazilishi Toshkentni madaniy markazga aylantirdi. Tarixiy merosni asrash va uni targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘plab loyihalar amalga oshirildi. Milliy tariximizning eng keskin va tahlikali davrida, turli ziddiyatlar avj olgan, mamlakatimizda millatlar va fuqarolar o‘rtasida urush xavfi yuzaga kelib, iqtisodiyot og‘ir ahvolga tushib qolgan ana shunday o‘ta murakkab sharoitda Islom Karimov respublikamizdagi qaltis va tahlikali vaziyatni o‘nglash, ijtimoiy adolatni tiklash, odamlar ko‘nglida kelajakka ishonch uyg‘otish maqsadida misli ko‘rilmagan g‘ayrat-shijoat bilan oqilona siyosat olib bordi. Va tom ma’nodagi bu tarixiy islohotlar O‘zbekistonning, o‘zbekxalqiningkeyingi taqdiri va taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublikaga og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatda rahbar etib tayinlangan I.Karimov davridan boshlab ushbu voqealarning oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan jadal chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobi 2011-yil avgust oyida mamlakatimiz mustaqilligining 20 yillik bayrami arafasida nashr etilgan bo‘lib, ushbu kitobdan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1989-yilning 24-iyunidan 1992-yilning 4-yanvariga qadar, ya’ni uning respublikamiz rahbari sifatidagi faoliyatining ilk kunidan to mamlakatimiz istiqlolga erishganidan so‘ng umumxalq saylovi asosida mustaqil O‘zbekiston Prezidenti etib saylanishi va o‘z vazifasini bajarishga kirishish sanasigacha bo‘lgan davrda so‘zlagan nutqlari, ma’ruzalari, maqola va intervyulari, I.Karimov tomonidan imzolangan farmon va qonunlar o‘rin olgan.

1991-yil 20-iyun kuni “Diniy bayram “Qurbon hayit”ni dam olish kuni deb e’lon qilish haqida”, 1992-yil 7-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo‘yicha komitet tashkil etish to‘g‘risida”, shu yil 27-martda esa “Ro‘za hayitini dam olish kuni, deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi farmonlari e’lon qilindi. Xalqimizning eng qadimiy tarixiy an’analaridan biri bo‘lib e’zozlanib kelgan Navro‘z bayrami qayta tiklandi. 1990-yilning 2-mayda Navro‘z bayramini qayta tiklash va 21-martni dam olish kuni deb e’lon qilish to‘g‘risida

Prezident Farmoni e'lon qilindi. Bunday tadbirlar O'zbekiston hukumatiga xalqning munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirdi va mamlakatda ijtimoiysiyosiy muhitni barqarorlashtirishga o'z hissasini qo'shdi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri 1990-yil 20-iyunda respublika Oliy Soveti tomonidan "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi edi. Mazkur hujjat O'zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunidan ustunligini ta'minladi. Shu bilan birga, "Mustaqillik Deklaratsiyasi" O'zbekistonning 1991-yil 31-avgustga qadar mavjud bo'lgan boshqaruv, huquqiy faoliyatini ta'minladi, barcha sohalarda mustaqil siyosat olib borish imkonini berdi. Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti e'lon qilindi.

Xulosa: Toshkent shahri mustaqillik yillarida yangi taraqqiyot yo'lidan bordi. U nafaqat iqtisodiy markaz, balki ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy taraqqiyotning yirik o'chog'iga aylandi. Bugungi kunda Toshkent nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda o'z o'rniga ega zamonaviy megapolisga aylandi.Toshkent shahrida mustaqillik yillarida har tomonlama rivojlanib, zamonaviy infratuzilmaga, ilg'or ijtimoiy xizmatlarga va boy madaniy hayotga ega poytaxtga aylandi. Aholi farovonligini oshirish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashuvi shaharning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirdi. Ayniqsa, yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, ta'lim muassasalarining modernizatsiyasi va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar ijtimoiy barqarorlikning mustahkam asosiga aylandi.

Madaniy hayotda ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Teatrlar, kutubxonalar, muzeylar faoliyati jonlanib, xalqaro madaniy aloqalar kengaydi. Toshkent nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyoning madaniy, iqtisodiy va siyosiy markazlaridan biriga aylandi.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR***

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishlari va farmonlari, 1991–2024-yillar.

2. "Toshkent ensiklopediyasi", O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.

3. "Mustaqillik yillarida O'zbekiston taraqqiyoti" – Ijtimoiy-iqtisodiy tahliliy to'plam, 2022.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy hisobotlari.

5. OAV materiallari – gazeta.uz, daryo.uz, kun.uz.

# ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING BIZGA QOLDIRGAN ILMIY VA QOMUSIY MEROSI

**Durmonova Husnora G‘ayrat qizi**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada buyuk alloma va davlat arbobi Zahriddin Muhammad Boburning ilmiy va qomusiy merosi tahlil qilinadi. Boburning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy manba, balki adabiy, geografik, etnografik va tabiiy fanlarga oid muhim axborotlarni o‘z ichiga olgan ensiklopedik asar sifatida o‘rganiladi. Shuningdek, uning adabiyot, tilshunoslik, musiqa, tabiatshunoslik va bog‘dorchilik sohalaridagi bilimlari, kuzatuvchanligi va o‘z zamonasining ilg‘or tafakkur egasi sifatidagi jihatlari yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Afg‘oniston, Hindiston va Eron, “Boburnoma”, “Mubayyin” “Xatti Boburiy”.*

***Аннотация:*** *В этой статье анализируется научное и комусийное наследие великого ученого и государственного деятеля Захриддина Мухаммеда Бабура. “Бабурнома” Бабура изучается не только как исторический источник, но и как энциклопедический труд, содержащий важную информацию по литературным, географическим, этнографическим и естественным наукам. Также будут освещены его знания в области литературы, лингвистики, музыки, естествознания и садоводства, наблюдательность и аспекты его времени как прогрессивного мыслителя.*

***Ключевые слова:*** *Афганистан, Индия и Иран, “Бабурнома”, “Мубайин”, “Хатти Бабури”.*

***Abstract:*** *This article analyzes the scientific and communal legacy of the great scientist and statesman Zahriddin Muhammad Babur. Babur's Babournoma is studied not only as a historical source, but also as an encyclopedic work containing important information on literary, geographical, ethnographic and natural sciences. His knowledge of literature, linguistics, music, natural sciences, and gardening, his powers of observation, and aspects of his time as a progressive thinker will also be highlighted.*

***Keywords:*** *Afghanistan, India and Iran, “Babournoma", “Mubayin", “Hatti Baburi”.*

Dunyo tarixi, adabiyoti, madaniyati va san’ati xazinasini bunyod etish hamda boyitishda qadimiy va boy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining ham munosib o‘rni, beqiyos hissasi bor. Bashariyat tarixining ijtimoiy-siyosiy,

ilmiy-madaniy sohalarida salmoqli o‘rin tutgan siymolardan biri buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qaramaqarshiliklari murakkab va qisqa hayoti davomida anchagina asarlar yozib qoldirgan bo‘lsada, ming afsuski ularning hammasi bizgacha yetib kelmagan. Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli malumotlarni o‘z ichiga olgan va o‘sha davr o‘zbek adabiyotida va adabiy tilining yorqin namunasi bo‘lgan “Boburnoma” asaridir [1,197]

Ma’lumotlarning ko‘pligi aniq va to‘laligi tarixiy voqealarning rostgo‘ylik bilan ifoda etilishi xronologik izchillik, ifodaning sodda va ravonligi “Boburnoma”ning tarixiy manba sifatidagi afzalliklari va jozibasini yanada oshiradi. Bu jihatdan u ko‘pgina Sharq tarixchilarining kitoblaridan ustun turadi. Malumki Sharq muarrixlarining aksariyat kitoblarida tarixiy dalillar afsona va rivoyatlar bilan bog‘lanib ketadi,qalamga olinayotgan voqealar muallifning podsho va hukmdorlarga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib tasvirlanadi,birovlarni ataylab ko‘kka kotarish boshqalarni kamsitish, yerga urish tamoyili ustunlik qiladi. “Boburnoma”da esa bunday biryoqlama qarashlarni ko‘rmaymiz, aksincha unda ijtimoiy-siyosiy voqealar xolis va izchil tasvirlangani tufayli o‘sha davrdagi xokim tabaqalarning fazilat va kamchiliklari xam aniq ravshan aks etadi. Bularning barchasi “Boburnoma”nianiq tarixiy dalillarga boy bo‘lgan beqiyos bir tarixiy asar deb aytishga asos beradi. Xullas, “Boburnoma” 4 marta ingliz, 3 marta fransuz va 1 marta nemis tiliga o‘girilib nashr etilgan. Unga asoslanib Boburning hayoti va faoliyatini yorituvchi o‘nlab badiiy asarlar yaratildi. Keyingi yillarda Boburnomaning professor B.Tekston tomonidan AQSHda (Kembrij sh., Xarvard unversiteti 1993) hamda ikki jild xajmda mukammal so‘zlik, ko‘rsatkich va sharx izoxlar bilan Yaponiyada (Kioto,1995-1996) ilmiy tanqidiy matni chop etildi. [2].

“Boburnoma” o‘zbek va umumturkiy adabiyotning mashhur qomusiy asarlaridandir. Unda Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko‘plab ma’lumotlar jamlangan. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqealarni; ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afg‘onistonda ro‘y bergan hodisalarni; uchinchisi esa Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiga doir lavhalarni o‘z ichiga oladi. “Boburnoma” – 1500 ga yaqin tarixiy shaxs hamda o‘simlik va

hayvonot olamiga doir yuzlab nodir ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan qomusiy asar bo'lib, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan.

Muxtasar aytganda, "Boburnoma" o'quvchiga Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlari tarixi, o'sha davrda boburiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti, tabiati va geografiyasi bilan tanishish imkonini beradi. "Boburnoma"ning tarjima qilgan ingliz olimi Uilyam Erskin: "Osiyoda saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fanga, san'atga mehri va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi". Boburning ulkan ijodkorligi shundaki, asarlarida shaxsiy kechinmalarini bayon etish barobarida yuksak g'oyalar, umuminsoniy qadriyatlarni olg'a suradi. Uning ijodida, xususan, she'riyatida ona yurtni chin dildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, musofirlik iztiroblaridan hasrat, yoru diyor sog'inchi katta nafosat bilan badiiy talqin etiladi[3.67-68].

Zahiriddin Muhammad Bobur hayotida ro'y bergan keskinliklarning, og'ir tushkunliklarning ruhiyatga ta'siri, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi she'rlarida mohirona tarzda aks etgan. Boburning 1522 yilda o'g'li Humoyunga atab yozilgan "Mubayyin" nomli asari o'sha davr soliq tizimiga doir shar'iy qonun-qoidalar bayoniga bag'ishlangan. Mumtoz adabiyotshunoslik qoidalariga bag'ishlangan "Aruz risolasi"da esa 537 ta she'rni tahlil qilgan. "Xatti Boburiy" deb atalgan risolasida arab alifbosi ta'limi turkiy tillar, xususan, o'zbek tili asosida birmuncha soddalashtirib berilgan. Shoir Qur'oni karimni o'zi ishlab chiqqan "Xatti Boburiy" alifbosida ko'chirtirgan. Bobur she'riyatida ko'pchilik mutafakkirlar asarlariga xos bo'lgan jihat yaqqol namoyon etilgan – insonning axloqi va barkamolligi masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Shoir inson qadrini ko'tarib, unga ulkan hurmat bilan munosabatda bo'lishni yoqlaydi. Buning ziddi bo'lgan sifatlarni qoralaydi. Boburning fikricha, xudbinlik, izzattalablik, baxillik, manmanlik noqobil sifatlardir. Shoir ruboiylarida insonning ma'naviy tarbiyasi haqida qimmatli maslahatlar beradi. Bobur ko'z o'ngida yuz berayotgan voqea va hodisalarni ziyraklik bilan kuzatgan. O'zini qiynagan his-tuyg'ularni chuqur tanqidiy tahlil qilib, ularni yaxshilik va adolat, haqiqat va go'zallik tamoyillariga xizmat qilishga yo'naltira olgan. Adabiyot, tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan Bobur doim olimu fozillar davrasida bo'lgan, ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rsatib, homiylik (metsenatlik) qilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, ingliz tarixchisi Eduard Xolden unga "Bobur fe'li-saviyasiga ko'ra Sezarga qaraganda suyukliroq bo'lishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb

bitib qo‘yilgan”, deb ta’rif bergan. Mirzo Muhammad Haydar esa “Tarixi Rashidiy” asarida bunday yozadi: “…U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtovli xislatlarga ega bo‘lgan bir podshoh edi. Barcha fazilatlari orasida shijoat va muruvvati ustunroq turardi. Turkiy she’rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas”. Ijod va san’at odamlariga bunday mehrli munosabat bejiz emas edi, albatta. Boburning o‘zi tabiatan ijodkor bo‘lgan. Navqironlik yillaridan umrining oxirigacha ijod bilan shug‘ullangan. Hech bir sharoit va vaziyatda ijoddan to‘xtamagan, natijada avlodlarga har jihatdan takomilga yetkazilgan boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan. Bobur buyuk sarkarda bo‘libgina qolmay, o‘zining mashhur asarlari bilan keng fikrli tarixnavis, yetuk adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan katta olim sifatida dunyo ilm-fani ravnaqi va ma’naviyma’rifiy rivojida munosib o‘rin egallaydi[4].

Bobur Mirzo va uning uch yuz o’ttiz ikki yillik sulolasi inglizlar bosqiniga qadar Hindistonda kuchli va markazlashgan davlatni qurdi va taraqqiyotini ta'minladi. Hindistonning buyuk davlat arbobi Javaharla'l Neru o’zining mashhur asari "Hindistonning kashf etilishi"da shunday yozgan: Mirzo Bobur va boburiylarning Hindiston tarixidagi buyuk rolini yuksak baholagan. Bobur va uning nabirasi Akbarshohni ma'rifatparvar, taraqqiyparvar, xalqparvar siyosatchi va hukmdorlar sifatida ta'riflagan [5,109].

Zahriddin Muhammad Bobur o‘zining boy ilmiy va qomusiy merosi bilan nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kun ilm-fani va madaniyatining ham bebaho xazinasiga aylangan shaxsdir. Uning “Boburnoma” asari orqali biz 16-asr Markaziy Osiyo, Hindiston va Afg‘oniston hududlarining tabiati, xalqlari, urf-odatlari, siyosiy hayoti haqida chuqur ma’lumotga ega bo‘lamiz. Boburning ko‘p qirrali bilim sohibi, nozik didli adib, tafakkur egasi sifatida qoldirgan merosi hozirgi va kelajak avlodlar uchun ilmiy-ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning ilmiy qarashlari va kuzatuvlari bizga nafaqat tarixni, balki fanlararo bog‘liqlikni ham chuqur anglashga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlikkompaniyasi bosh tahririyati, 2014.

2. . Хайриддин Султон. Бобурийнома. «Шарқ» нашриет-матбаа концернининг Бош таҳририяти 1997. -В. 377.

3. Жаваҳарлаъл Неру. Открытие Индии. М., “Мысл”, 1989

4. Захриддин Бабур. Бабур-наме. / пер. М. Сале. – Баку : Нагыл-Еви, 2011.

5. Хасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур.- Тошкент. Ўзбекистон. 2011. Б-14.

## O‘TGAN ASRDA GERMANIYADA TAHSIL OLGAN TALABALARIMIZ FAOLIYATI HAQIDA MULOHAZALAR

***Bo‘riyev Sardorbek Elmurod o‘g‘li***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:****Siz ushbu maqolada bizning hududimizdan yevropa hududlariga o‘qishga borib ko‘plab yutuqlarga erishgan. Ularga rus hukumati qanday munosabatda bo‘lganligini ulardan biri Ibrohim Yorqin faoliyati haqida ma’lumot olishingiz mumkin.*

***Kalit so‘zlar:*** *Petr Velikiy, “Sartlar Ovrupada nima qiladir?”, “Rur” gazetasi, Ibroxim Yorqin, “Zvezda Vostoka”*

***Аннотация****:вы достигли многих успехов в этой статье, отправившись учиться в европейские регионы из нашей области. О том, как к ним относилось российское правительство, можно узнать по яркой деятельности одного из них-Авраама.*

***Ключевые слова:*** *Петр Великий, “чем занимаются сарты в Европе?“, Газета”Рур", Ибрагим яркий, "Звезда Востока"*

***Annotation:*** *you have made many achievements in this article by going to study from our territory to European territories. You can learn about the bright activities of one of them, Abraham, how the Russian government reacted to them.*

***Keywords:*** *Petr Velikiy, “What do Sartlar do in Europe?” ,” Rur "newspaper, Ibroxim bright," Zvezda Vostoka*

Biz o‘rta Ovrupoda o‘qib turgan bir to‘da o‘quvchilarimizning ahvollaridan yozib vatandoshlarimizga tanitmoqchi bo‘ldik. Biz 1922-yilning so‘nggi oylarida Germaniyaga kelgach avvaldan tayrligimiz bo‘lmagan uchun til bilmas edik. Buyuk Turkistonni talab, yondirib, ezib kelgan rus monarxistlari, Petr Velikiy Ovrupoga yuborish uchun talaba topa olmagan vaqtlarini eslariga olmasdan “Sartlar Ovrupada nima qiladir?” degan istehzolar bilan matbuotda (Berlinda chiqadirgan “Rur” gazetasida) qichqirishib o‘tgan edilar. U qorni katta janoblar bizni Ovrupo madaniyatiga munosib ko‘rmagan edilar. Rus millatchilarining bu sovuq va qo‘pol qarashlariga qarshi Germanlar tomonidan yaxshi kutib olindik. Matbuot “Turkiston uyg‘ondi, uyg‘onsun!” kabi undovlar bilan qizg‘in maqolalar yozib o‘tdi. Germaniyaga yangigina kelganimizda ko‘p millat muxbirlari biz bilan ko‘rishib ham ketdilar. Mana bu

hollar istiqbolda yurtimizning qanday rol o‘ynagusini ko‘rsatsa kerak. Har qanday nemis bizni oilasiga qo‘shib olish uchun eshiklarini ochib qo‘ydi. Oddiy muallimlardan boshlab, do‘xtiri, professorlari til o‘rganishimiz uchun qo‘lidan kelgan yordamini ayamadi.

Germanlar dunyoni sevganlari kabi Turkistonga ham juda qiziqqanlar ekanlar. Ko‘zimiz bilan ko‘rganimiz uchun bu erda ochib aytishimiz kerak kim ular mamlakatimizni, tariximizni, istiqbolimizni biz turkistonliklardan ortiq biladilar, taniydilar. Yurtimiz to‘g‘risida biz uchun eng muhim kitoblar yozib, boshqa tillardan ham tarjima qilganlar. O‘z zamon o‘tgach tilni o‘rganib maktab darslarini tinglashga loyiq bo‘lganimizdan so‘ng, har kim o‘z yo‘lini tutib oldi. Keyin 1923 yil semestrasi (yangi o‘quv yili)dan o‘qishga boshladik [1.90-91-b]

Muqaddas kitoblarda naql etilishicha, saxovat daraxtining ildizlari jannatda bo‘lib, shoxlari esa bu foniy dunyoda gullab-yashnar. barcha beva-bechoralar, nogiron va musofirlarni ne’matlaridan baxramand etar emish. Kimki mana shu daraxt singari xayru exsonini mazlumlardan ayamasa. uning uchun jannat eshiklari doimo ochik ekan. Xorij mamlakatlarida ham shunday savobtalab mumin-musulmonlar ko‘p ekan. Ular Germaniyada mablag‘siz qolgan, ammo yurtiga qaytib nobud bo‘lishni istamagan buxorolik, umuman turkistonlik yoshlarni mexr ardog‘iga olishdi. Germaniyada fashizm tuzumi urgatilgunga qadar xorijda qolgan xamyurtlarimizning, deyarli barchasi bu mamlakatni tark etib ulgurgan edi. Vali Qayumxon xotiralarida yozilishicha. xamyurtlarimizdan 15-16 kishi Turkiyaga yo‘l olishdi. Axmadjon Ibroximov. Ibroxim Yorqin, Toxir Chig‘atoy va boshqalar shular jumlasidandirlar.[2]

Germaniyaga o‘quvchilar yuborish fikri 1922 yil yoz kuni paydo bo‘lib, Turkiston hay’at rayosatining va Buxoro hukumatining qaroriga binoan Germaniyaga 40–50 o‘quvchi yuborilgan edi. Chet ellarga o‘quvchilar yuborishga qarshi kelguvchilar bo‘lsa ham ko‘pchilik yuborish fikrini ma’qul topdi. O‘shal vaqtda Qirg‘iziston, Tatariston va boshqa jumhuriyatlarda ham Germaniyaga o‘quvchilar yuborish fikri bor edi. Undan keyin Germaniyaga borgan o‘quvchilar maktabga kira olmay, Turkiya va boshqa siyosiy qochqinlarning ta’siriga berilgan degan xabarlar tarqatildi. Ikinchidan Germaniyaga o‘quvchilar o‘zlarining muxtojliklarini yozib, moddiy yordam ko‘rsatishni so‘radilar. Shuning uchun ularning ahvoli bilan yaqindan tanishib, Germaniyada o‘qishlarining foydalik yoki foydasiz ekanligi to‘g‘risida natija chiqarmoq lozim bo‘ldi. Turkiston o‘quvchilari 11, Buxoro o‘quvchilari 47 kishidir. Turkistonliklarning 7 nafari o‘zbek, 4 nafari qozoqdir. Turkiston o‘quvchilarining yoshi yetgan bo‘lib o‘z vazifalarini yaxshi tushunadirlar.

Hammasida yaxshi ma'lumot olish (ayniqsa, amaliy) undan ilm olib, yurtlariga qaytib, o'z xalqi va hukumatiga foyda keltirish harakati bor. Ularning hammasi Turkiston sharoitiga to'g'ri keladigan maktablarda o'qiydirlar. 4 nafar o'zbek texnika akademiyasida (bu maktab Germaniyada atoqli bo'lib, 4 yil nazariy va bir yil amaliy ish qilinadir), 2 nafar qirg'iz qishloq xo'jaligi akademiyasida (3 yil o'qish va 1 yil amaliy ish), 2 qirg'iz ko'nchilik maktabida o'qiydir (Rustenburg'da 2 yil tajriba oladir), 2 o'zbek (1i qiz) gimnaziyada (1 yil o'qish, 3 yil tajriba), 1 o'zbek dorulfununda (tibbiyot sho'basida, 5 yil o'qish va 1 yil tajriba) tahsil oladir[3].

Ulardan biri haqida gap ketganda Ibroxim Yorqin Berlin qishloq xo'jalik akademiyasini tugatganidan keyin Vengriyaga ko'chib ketdi. Bu yerda Turkiston chorvachiligi mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Keyinchalik Turkiyaga ketib Anqara universiteti professori sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1993 yilda Anqarada vafot etdi. Toxir Chig'atoy Geydelburg universiteti ijtimoiyot, falsafa va iktisodiyot fakultetini tugatib, 1930-yilda doktorlik dissertatsiyasini yoqladi, so'ngra Turkiya qishloq ho'jalik vazirligida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik Anqara universiteti kafedrasini boshqardi. 1984-yilda Anqarada vafot etdi.Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin.

Ulardan yana birini misol qilib olishimiz mumkin Ahmadjon Ibrohimov 1900 yilda Toshkentda tug'ilib, 1907 yilgacha eski usul maktabda, 1911-1914 yillarda esa rus-tuzem maktabida o'qigan, milliy adabiyotimiz, tariximiz bilan birga rus tili va adabiyotini ham o'rgangan. Uning tarjimai holini yozgan - zamondoshi, Anqara universiteti profeosori Ibrohim Yorqinning qayd etishicha, Ahmadjon Ibrohimov o'sha kezlarda kechalari Ruscha o'rganib, o'rta tahsilni oladi va 1921 yilda Turkiston Davlat universiteti muhandislik fakultetining ma'danchilik bo'limiga o'qishga kiradi. Ahmadjon Ibrohimov 1922 yilda bir guruh turkistonlik talabalar bilan birga Germaniyaga yuboriladi va Berlindagi oliy muhandislik maktabiga o'qishga kiradi. Ahmadjon mazkur maktabni bitirgach, bir muncha muddat ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi, germaniyalik do'stlari bilan turkologiya, Turkiston tarixi, istihaolchilik harakati va bolshevistik targ'ibotning bu boradagi yolg'onlari hahida maqolalar yozadi[4]

Xulosa qilib aytganda esa ularning barchalari aqlu zakovatlari, ilmu qobiliyatlari tufayli musofirchilikda ham katta obrosi bor qozondilar. Ammo ona yurt firog'ini chekib, dunyodan ko'z yumishdi. Endi ularning farzandlari ham o'zga yurtning fuqarolaridir. Sherali Turdiyev "Zvezda Vostoka" jurnalida Ablon qilgan maqolasida ular to'risida batafsil ma'lumot bergan. Xo'sh, boshqalarning taqdiri ne kechdi? Xammasi bo'lib Buxoro Xalk

Respublikasining Berlindagi vakolatxonasi orqali Germaniya ta'lim dargohlariga o'qishga kirganlar soni keyinchalik kelib qo'shilganlar bilan birga 47 kishi. Turkiston Respublikasi yo'llanmasi bilan tahsil ko'rganlar 12 kishi bo'lgan. Ulardan 43 kishi uzbek, 8 tatar, 4 qozoq, biri yaxudiy millatiga mansub bo'lgan. Biz xissamizda ularning armi ismi sharifini bayon etdik, xolos. Boshkalar kim edi? O'n gulidan bir guli ochilmay xazon bo'lgan g'unchalardan bu foniy dunyoda biron iz kolganmi? Afsuski hozircha bu savollarga javob topganimiz yo'q Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro jadidlarning farzandlari nafaqat Germaniya va Turkiya, balki Amerika Qo'shma Shtatlari, Arabiston, Pokiston, Eron va boshqa mamlakatlarida ham yashamoqdlar. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin xorijdagi yurtdoshlarimizning avlodlari ota yurtiga kelib mamlakatimiz istiqlol tufayli iqdisodiyot va madaniyat soxasida erishayotgan muvaffaqiyatlardan mamnun bo'lmoqdalar.O'zbekiston yoshlari endilikda nafaqat Germaniya balkim Aqsh Angliya Fransiya, yaponiya, Italiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida tahsil ko'rib Vatanga qaytmoqdalar. Ota yurti ularni quchoq kerib kutib olib nufuzli vazifalarni ishonib topshirmoqda. Bundan sakson yil muqaddam katta umid bilan boshlangan hayrli ishlar mana shunday qilib bugun ro'yobga chiqmoqda.[5 .44-45]

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki bu davrda jadidlarimiz zamonaviy ta'limga katta e'tibor berganligi va keyinchalik buni samarasi tufatli Turkiya, Germaniya davlatlariga bizning talabalarimiz ta'lim olish uchun u yerlarda tahsil olganlar. Ammo rus davlati hukumat tepasidagilar bu narsani ko'rolmaganlar ular aqli pastlik tufayli ular yashaydigan uylardan shu davlatlarga tegishlik kitob izlaganlar. Bu tabiyki ularning xonadonidan bunaqa kitoblar chiqishi keyin esa, ularni jazolagan men xulosam shuki agar shunday kadrlarga yo'l qoyib berganda bizning davlatimizda rivojlanish ancha tezroq bo'lardi deb o'ylayman.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Улар Германияда ўқиган эдилар. - Т.: 2006. - 256 б.
2. Туркистон жадидларининг «Кўмак» ташкилоти [Матн] / Б. Ирзаев. - Тошкент : Тошкент ислом университети, 2016. - 148 б.
3. Сарвар Очилов Файзулло Собиров, Ташкент: Тошкент исломуниверситети, 2016.-216-b
4. 1 Ibrohim Yorqin. Professor. doktor A^madjon Ibroxim (1900-1981), - «Turk madaniyati» jurnali. 1981 yil, 223-224-son, 122-bsg.
5. Nusratillo Naimov "Buxoro jadidlari" Fan Toshkent 2000-y 50-b

# SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDINING MOG'ULLAR BOSQINIGA QARSHI HARAKATI.

**Bo'riyeva Marjona Baxtiyor qizi,**
CHirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

***Annotatsiya:*** *Jaloliddin Manguberdi XIII asr boshlarida yashagan Xorazmshohlar sulolasining so'ngi vakili bo'lib,mo'g'illar istilosiga qarshi jasoratli kurash bilan tarixda muhum o'rin egallagan.U 1219-1221 yillardagi mo'g'il bosqinidan kiyin,Xorazmshohlar davlatining,saqlanib qolgan kuchlarini,birlashtirib dushmanga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatgan.*

***Kalit so'zlari:*** *Xorazmshohlar, Alovuddin Muhammad,Jaloliddin Manguberdi,Sind jangi,CHingizxon,Parvon jangi,Mahmud Yalovach.Jaloliddin Manguberdi ordeni.*

***Annotation:*** *Jalaluddin Manguberdi was the last representative of the Khorezmshah dynasty, who lived at the beginning of the 13th century, and occupied an important place in history with his courageous struggle against the Mongol invasion. After the Mongol invasion of 1219-1221, the Khorezmshahs faced a fierce enemy.*

***Keywords:*** *Khorezmshahs, Alovuddin Muhammad, Jalaluddin Manguberdi, Battle of Sindh, Genghis Khan, Battle of Parvon, Mahmud Yalovach. Order of Jalaluddin Manguberdi.*

Tarixiy shaxslar orasida ba'zilari bor – ularning shon-shuhrati jang maydonidagina emas, balki qarshilik ruhi, matonat va erkinlikka bo'lgan intilish bilan o'lchanadi. Sulton Jaloliddin Manguberdi aynan shunday siymolardan biridir. U haqida ko'p yozilgan: qahramon, so'nggi xorazmshoh, jasorat namunasi. Ammo men uni boshqa bir jihatdan ko'raman – u nafaqat mo'g'ullarga qarshi kurashgan, balki o'sha davrdagi umidsizlik va itoatga moyil kayfiyatga qarshi ham turgan ruhiy inqilobchi edi. U o'z xalqining tafakkurini «mag'lubiyat taqdirdan emas, ruhiy taslimlikdan keladi» degan g'oyaga uyg'otgan bir buyuk ongdir, deb bilaman. Yurtimizning ko'p yillik bebaho tarixiga ko'z tashlar ekanmiz, elyurtimizni bosqinchi, yovuz kuchlardan ximoya qilish, millatimizning mustaqilligi va erkinligini asrashdek buyuk ishda, kurashlarda matonat, mardlik, fidoiylik ko'rsatgan vatandoshlarimiz, sohibqironlarimiz, millatimiz ko'rki bo'lgan mardu-maydon o'g'lonlarimiz juda ko'p bo'lib, ularning borligidan faxr xislarini tuyamiz. Shulardan biri Anushteginiylar sulolasining yorqin va so'nggi vakili, kuchli

siyosatdon, buyuk diplomat Jaloliddin Manguberdi edi. Chingizxon e‘tirofiga sazovar bo‘lgan, mo‘g‘ullar istibdodiga qarshi kurashgan bu shaxs nafaqat O‘rta Osiyo, balki Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Kavkaz xalqlari tarixida muhim o‘rin egalladi. Bor yo‘gi 32 yil umr korgan ammo dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan Jaloliddinning aniq tug‘ilgan sanasi ma’lum emas, ammo uning tavvaludi rasman 1198-yil deyiladi. XIII asr insoniyat tarixida eng halokatli istilolardan biri — mo‘g‘ullar bosqini bilan boshlandi. Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari 1219–1221-yillar oralig‘ida Markaziy Osiyo, Xorazm, Eron, Afg‘oniston va boshqa mintaqalarni yovuzlarcha istilo qildi. Bu istilo natijasida minglab shaharlar vayron qilindi, millionlab odamlar qirilib ketdi, boy madaniy meros yo‘q qilindi. Aynan ana shunday tarixiy fojia manzarasida Vatan himoyasi uchun boshini tikkan, jasorat va sadoqat timsoliga aylangan buyuk sarkarda — Sulton Jaloliddin Manguberdi tarix maydoniga chiqdi.Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar sulolasining vakili bo‘lib, mo‘g‘ullarning kuchli va yengilmas hisoblangan qo‘shinlariga qarshi mardonavor kurash olib bordi. U o‘zining jasorati, harbiy strategiyasi va mustaqillikka bo‘lgan intilishi bilan Sharq tarixida alohida o‘rin egallaydi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, u faqat jang maydonida emas, balki siyosiy va ma’naviy jihatdan ham o‘z zamonasining yetuk yetakchisi bo‘lgan. Jaloliddin ko‘plab og‘ir janglardan so‘ng ham taslim bo‘lmay, xalqining ozodligi uchun so‘nggi nafasigacha kurashdi.Uning hayoti va faoliyati haqida ko‘plab tarixiy manbalar — arab, fors, mo‘g‘ul va yevropa tarixchilari asarlarida ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Ibn al-Asir, Juvayniy, Rashid ad-Din, Nasaviy kabi muarrixlar Jaloliddin Manguberdiyning jasoratini yuksak baholaganlar. Ayniqsa, Nasaviy o‘zining “Siyrat Jaloliddin” asarida bu sarkardaning hayoti va faoliyatiga batafsil to‘xtalgan.Bugungi kunda Sulton Jaloliddin Manguberdi o‘zbek xalqining milliy qahramoni sifatida e’tirof etiladi. U mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashgan birinchi yirik musulmon sarkarda sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Uning harbiy harakatlarini o‘rganish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki bugungi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega.

Mo‘g‘ullar bosqini va Jaloliddinning taxtga chiqishi. Buxoro, Samarqand, Xo‘jand singari buyuk shaharlarning qo‘ldan ketishi Muhammad Xorazmshohni larzaga soladi. Xorazmshoh endi janubi g‘arbiy hududlarga chekina boshlaydi. Sulton Muhammad yakkalanib qoladi. Ko‘plab ishonchli amirlari xiyonat yo‘lini tutadi. Undan Qunduz va Badaxshon viloyati hokimlari yuz o‘giradi. 1220-yilning aprelida Muhammad Xorazmshoh Nishopurga keladi. Ammo mo‘g‘ullar ta’qib etib kelayotganini eshitgan hukmdor bir

qancha shahar va qal'alarda yashirinib yurdi.Hech qayerda uni iliq kutib olishmadi. Oxiri Kaspiy dengizidagi Ashura orolida o'g'li Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlaydi va 1220-yilning dekabr oyida vafot etadi..1219-yilda Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Xorazmshohlar davlatiga hujum boshladi. Bu bosqin natijasida davlatning ko'plab shahar va qishloqlari vayron qilindi. Xorazmshoh Muhammad II mo'g'ullarga qarshi muvaffaqiyatli qarshilik ko'rsata olmay, oxir-oqibat o'z o'g'li Jaloliddinni taxtga tayinladi.

Parvon jangi va mo'g'ullarga qarshi g'alaba.1221-yilda Jaloliddin Manguberdi Parvon yaqinida mo'g'ul qo'shinlariga qarshi jang olib bordi. Bu jangda u mo'g'ullarga qarshi yirik g'alabaga erishdi. Bu g'alaba musulmon dunyosida katta ruhiy ko'tarinkilik uyg'otdi va mo'g'ullarning yengilmasligi haqidagi afsonani rad etdi .Jaloliddin o'zining turli qabilalardan tashkil topgan qo'shini (60—70 ming kishi) bilan mo'g'ullarga qarshi chiqib, Parvon yaqinida jang maydonini egallagan. U bu yerda turib dastavval Toharistondagi Valiyon (yoki Valishton) qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinini tormor etgan. Chingizxon Jaloliddinga qarshi Shiki-Xutuxu no'yon boshchiligida qo'shin (30 ming, boshqa manbaga ko'ra, 45 ming kishi) jo'natgan.Parvondan bir farsax (6–7 km) masofadagi yerda bo'lgan jangda musulmonlarning o'ng qanotiga Jaloliddinning qaynotasi, qang'lilar qo'shini sardori Amin al-mulk, so'l qanotiga Sayfuddin Ag'roq xalajlardan tashkil topgan qo'shinga boshchilik qilgan. Jang ikki kun davom etgan, Juvayniyning hikoya qilishicha, Shiki-Xutuxu no'yon ikkinchi kunga o'tar kechasi dushman mo'g'ullarga madad kuchlari yetib kelibdi deb o'ylashi uchun o'z qo'shiniga kigiz va choponlar orasiga poxol solib va bosh kiyim qo'shimchaib qo'riqchi yasashni, ularni qo'shimcha otlar ustiga o'tqazib, tuyalar karvoni va aravalar orasiga saflashni amr qilgan. Dastlabiga bu ayyorlik ish bergan, ammo, Jaloliddin qo'shiniga dalda berib ularni olg'a boshlagan. Mo'g'ullar qattiq jangdan holdan toyganlarida Jaloliddin karnay chaldirib qo'shi-niga otlarga minishga farmon bergan va umumiy hujumga o'tgan, shu bilan jang taqdiri hal bo'lgan. Shiki-Xutuxu faqat ozgina jangchilari bilan Chingizxon huzuriga qaytib kelgan.Parvon jangi mo'g'ullarning bu urushdagi eng katta mag'lubiyati bo'lgan.

Sind daryosidagi jangda u 3 kunlik jang olib boradi,jang 1221-yil 25 noyabrdan to 27 noyabrgacha davom etadi. Aynan uchinchi kuni jangni boy bergan Jaloliddin, o'z lashkarlari va ahli oilasi or-nomusi mo'g'ullar qo'lida toptalishini istamadi, onasi Oychechakning iltimosi va talabi bilan ularni Sind daryosiga g'arq qilish farmonini beradi, o'zi esadaryoni kechib, Chingiz qo'shini turgan qirg'oqning qarama-qarshisiga o'tib oladi. U qirg'oqda

turganicha, dushmanga asir tushib qolgan askarlari, singlisi va norasida o‘g‘lining ayanchli fojeyasi, qismatiga guvoh bo‘ladi, ruhi azoblanadi, chuqur qayg‘uga tushadi. Sind daryosi bo‘yida bo‘lib o‘tgan jangda Jaloliddin mag‘lubiyatga uchradi.Biroq, u o‘zining jasorati bilan daryodan suzib o‘tib, mo‘g‘ullardan qutulishga muvaffaq bo‘ldi. Bu voqea Chingizxonni hayratda qoldirdi va u o‘z o‘g‘illariga: “Ota o‘g‘il mana shunday bo‘lishi lozim!” degan edi.Jaloliddin hukmdor sifatida ko‘plab masaqqatli yo‘llarni bosib o‘tdi. U yo‘lda sarkardalari, otasi-onasi, ukalari, opasi, rafiqasi, farzandlari, askarlarini yo‘qotdi, ayonlarining xiyonatlarini ko‘rdi. Insonni o‘yga soluvchi tomoni shundaki, nega musulmon amirlari Jaloliddinga bo‘ysunishni u bilan birga jangujadalga kirishni,mo‘g‘ullar qo‘ida qaram bo‘lmay, Xorazmshoh qo‘lida erkin viloyat bo‘lib yashashni xohlamadilar? Axir sultonning maqsadi nafaqat markazlashgan davlat tashkil etish, balki musulmonlar dunyosini yovuz dushman, bosqinchi mo‘g‘ullar isti’losidan ozod qilish edi.

Sind daryosidan o‘tgan Jaloliddinni tabiiyki Hindiston rojalari quchoq ochib kutib olishmaydi. U Shatra viloyati hokimi bilan jang qilishga majbur bo‘ladi, Shatra hokimi ham tajribali sarkarda edi, ammo Jaloliddin jangchilarining ko‘z o’ngida uni o‘ldiradi va qo‘shin unga so‘zsiz taslim bo‘ladi,shu bilan birgalikda Sind,Uchcha, Mo‘lton, Lohur, Peshov hokimi Nosiriddin Kubacha va Shamsiddin Eltutmish bilan ham aloqalar olib boradi. Hindistondagi faoliyati va qaytish.Sind daryosidan o‘tib, Jaloliddin Hindistonga yo‘l oldi. Bu yerda u mo‘g‘ullarga qarshi kurashni davom ettirdi. Biroq, ichki nizolar va ittifoqchilarning xiyonati sababli uning kuchi zaiflashdi. Shundan so‘ng, u yana G‘azna, Fors, Iroq va Ozarbayjon hududlariga qaytib, mo‘g‘ullarga qarshi kurashni davom ettirdi . Oxirgi yillar va halok bo‘lishi.1230-yil 10-avgustda Arzinjon yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda Jaloliddin Manguberdi mag‘lubiyatga uchradi. 1231-yilda mo‘g‘ullar Ozarbayjonga bostirib kirib, Jaloliddinni ta’qib etdilar. U Kurdiston tog‘lariga chekinib, bu yerda kurd qaroqchilari tomonidan o‘ldirildi. Bugingi kenga kelib Mustaqil O‘zbekistonimizning tarixi olimlarimiz tomonidan tatqiq qilinayotgan Jaloliddin Manguberdi hayoti bilan bog‘liq ilmiy yangiliklar, yangi tarix zarvaraqlari bilan boyitildi, uning obro‘si va shani yanada tiklandi. Baddiy asarlar, kinofil’mlar,san’at asarlar yaratildi, xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumahlar tashkil etildi. Davlatimiz tomonidan Jaloliddin Manguberdining Vatanimiz ozodligi va obodligi yo‘lida olib borgan mardona kurashi va hayot yo‘liga xolisona baho berildi.1999 yil uning 800 yillik tavaluddi munosabati bilan esdalik yubiley tangasi zarb etildi,2000 yil O‘zbekiston Respublikasining oily mukofati hisoblangan “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etildi, Qurolli

Kuchlarimizning timsoliga aylandi. 2015 yil taniqli olim va publitsist Jumaboy Rahimov tomonidan Jaloliddin Manguberdining hayoti keng va yorqin bayon qilingan “Vatanning sheryurak bahodiri” nomi ostida kitob-al’bom chop qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butin O‘zbekistonning faxru-g‘ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi bo‘lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig‘i va timsolidir.

Sulton Jaloliddin Manguberdi XIII asrning og‘ir va tahlikali davrida butun islom olami uchun mardlik va jasorat timsoliga aylandi. Mo‘g‘ullar bosqinining halokatli oqibatlariga qaramay, u Vatan himoyasi yo‘lida so‘nggi nafasigacha kurashdi. Uning harbiy salohiyati, strategik fikrlashi va xalqqa bo‘lgan sadoqati tarixiy manbalarda alohida e’tirof etilgan. Jaloliddinning mo’g’illar bosqiniga qarshi jangovar harakati,Parvon jangidagi g‘alabasi, Sind daryosidan suzib qochgan jasorati, Hindistonda ham kurashni davom ettirgani — bularning barchasi uni yengilmas, irodali sarkarda sifatida tarixda muhrladi.Bugungi kunda Sulton Jaloliddin Manguberdi nafaqat tarixiy shaxs, balki milliy g‘urur va ozodlik ramzi sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning siymosiga yangicha yondashuv paydo bo‘ldi. Haykallar o‘rnatildi, asarlar chop etildi, hatto poytaxtimizdagi yirik tumanlardan biri uning nomi bilan atalmoqda. Shu bilan birga, Jaloliddinning jasorati yosh avlodni vatanparvarlik, mardlik va erkinlik g‘oyalarida tarbiyalashda muhim tarixiy namuna bo‘lib xizmat qilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Marimov Muzaffar Erkinovich.

2. Насавий, Ш. Сийрат ус-Султон Жалолиддин Манкубурни / Шамс ад-Дин Муҳаммад ан-Насавий. – Тошкент: Фан, 1997. – 144 б.

3. Юлайев, Б. Жалолиддин Манкубурни — тарихий шахс ва афсона. // “Тарих ва ҳақиқат” журнали. – 2020. – №3. – Б. 28–34.

4. Ҳайитметов, А. Ўзбекистон тарихи: XIII–XIV асрлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 256 б.

5. Ziyouz.com – “Жалолиддин Манкубурди” ҳақида маълумотлар. O‘zbekiston tarixiy portali.

# QADIMGI SHARQ TARIXI MANBAASHUNOSLIGI

**Boymatova Rayxon Muxammadi qizi,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi

***Annotatsiya***: *Ushbu maqolada Qadimgi Sharq tarixini o‘rganishda manbaashunoslik fanining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor qadimgi davrda yaratilgan yozma va arxeologik manbalar, ularning turlari, mazmuni va ilmiy baholash mezonlariga qaratiladi. Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Eron, Hindiston va Xitoyda yaratilgan tarixiy manbalar, ularning o‘ziga xosliklari va tarixiy faktlarni aniqlashdagi roli chuqur yoritiladi. Shuningdek, qadimiy yozuvlar — mixxat, iyeroglif, sanskrit va boshqa yozuv tizimlarining manba sıfatidagi ilmiy qiymati ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar***: *Qadimgi Sharq, manbaashunoslik, yozma manbalar, arxeologiya, Mesopotamiya, Misr, tarixiy tafakkur, qadimiy yozuvlar, arxiv materiallari*

Qadimgi Sharq — insoniyat sivilizatsiyasining ilk beshiklaridan biri hisoblanadi. Mesopotamiya, Misr, Hind vodiysi, Eron va Xitoy kabi hududlarda miloddan avvalgi ming yilliklarda shakllangan siyosiy tuzilmalar, diniy tushunchalar, ijtimoiy qatlamlar va iqtisodiy tizimlar bugungi tarixshunoslik uchun beqiyos ilmiy ahamiyatga ega. Ana shu tarixiy merosni o‘rganishda asosiy vositalardan biri — manbaashunoslik hisoblanadi. Tarixiy manbalarni to‘plash, o‘rganish, tahlil qilish va baholash orqali biz qadimgi jamiyatlar haqida aniq tasavvurlar hosil qilamiz. Ayniqsa, yozma manbalar va moddiy yodgorliklar Qadimgi Sharq tarixini tiklashda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Qadimgi Sharq tarixini o‘rganishda birinchi navbatda yozma manbalarga tayaniladi. Mesopotamiya zaminida miloddan avvalgi IV ming yillikda ilk yozuv shakli — mixxat vujudga kelgan. Uruk va Ur shaharlaridan topilgan loy lavhalar, xo‘jalik hujjatlari va qonun to‘plamlari qadimgi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini ochib beradi.

Misol uchun, shumerlar davridagi “Uruk lavhalari” hamda miloddan avvalgi XVIII asrga oid “Hammurapi qonunlari” — qadimgi huquq tizimini yorituvchi muhim manbalardir. Ushbu manbalar orqali mulkchilik shakllari, ijtimoiy tabaqalanish, huquqiy normalar haqida chuqur ma’lumot olinadi.

Qadimgi Sharqda yaratilgan diniy va adabiy matnlar ham tarixiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, **“Enuma Elish”** —

Mesopotamiya yaratilish dostoni, yoki **“O‘liklar kitobi”** — Misrning diniy-falsafiy matni tarixiy tafakkurni, diniy tasavvurlarni yoritadi.

Hindiston hududidagi **“Rigveda”** va **“Mahabharata”** asarlari, Xitoydagi **Konfutsiy asarlari** qadimgi jamiyatning axloqiy, siyosiy va falsafiy qarashlarini anglashga xizmat qiladi.

Yozma manbalar bilan bir qatorda arxeologik topilmalar ham manbaashunoslikning muhim qismidir. Qadimgi Misrda piramidalar, ibodatxonalar, qabrtosh yozuvlari; Mesopotamiyada zikkuratlar, haykaltaroshlik namunalari tarixiy jarayonlarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi.

Xususan, Hind vodiysidagi **Mohenjo-Daro va Harappa**, Eronning **Persepolis** shahri va Xitoyning qadimgi ibodatxonalari arxeologik manbalar orqali qadimgi davlatlar hayotini aks ettiradi.

Manbaashunoslikda har qanday manbani tahlil qilishda quyidagi mezonlar qo‘llaniladi:

- Manbaning muallifi va yaratilgan davri;
- Mazmun va maqsad;
- Manbaning ishonchliligi va tarafkashligi;
- Qiyosiy tahlil: boshqa manbalar bilan solishtirish.

Bu uslub tarixiy ma’lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilishdan saqlaydi va tarixiy haqiqatga yaqin bo‘lish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda manbaashunoslikka zamonaviy texnologiyalar — raqamlashtirish, sun’iy intellekt, 3D skanerlash, fotogrammetriya kabi vositalar kirib kelmoqda. Ular qadimgi hujjatlarni tiklash, o‘qish va saqlash imkonini kengaytiradi.

Masalan, Misrda topilgan parchalanib ketgan papiruslar raqamli usullar bilan tiklanmoqda. Xitoy va Hindistondagi qadimiy qo‘lyozmalar sun’iy intellekt yordamida tarjima qilinmoqda.

Qadimgi Sharq tarixi manbaashunosligi — insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki bosqichlarini ilmiy asosda o‘rganish imkonini beruvchi muhim sohaga aylanmoqda. Yozma, arxeologik va og‘zaki manbalarni tahlil qilish orqali biz qadimgi jamiyatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmasini anglaymiz. Manbaashunoslik nafaqat tarix fanining asosiy uslubiy yo‘nalishi, balki madaniy merosni saqlash va uni yangi avlodlarga yetkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barxold V.V. “Turkiston tarixi”. Toshkent: Fan, 1994.

2. Sultonov R. “Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2016.
3. Alimov K. “Sharq tarixining manbalari”. Toshkent: Ilm ziyo, 20204. Assman J. “Misr sivilizatsiyasi va diniy tafakkur”. Kembrij: CUP, 1997.
5. Kramer S.N. “Tarix Shumerda boshlanadi”. Chicago: University of Chicago Press, 1981.
6. Van De Mieroop M. “A History of the Ancient Near East”. Wiley-Blackwell, 2015.
7. Sayidov A. “Manbaashunoslik asoslari”. Toshkent: Yangi asr, 2021.

## AXSIKENT YODGORLIGI TARIXIDAN

**Boymurodova Muborak,**
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti
4-bosqich talabasi

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada qadimda Farg‘ona vodiysining eng yirik markazi hisoblangan va ayni paytda o‘zbek davlatchiligi tarixi haqida ma’lumot beruvchi Axsikent yodgorligining ayrim xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Markaziy Osiyo, Farg‘ona, Axsikent, Buyuk Ipak yo‘li, Axsikat, shaharlar, mamuriy binolar, qadimiy yodgorliklar.*

***Аннотация****: В данной статье рассматриваются некоторые особенности памятника Ахсикент, который некогда был крупнейшим центром Ферганской долины и в то же время дает сведения об истории узбекской государственности.*

***Ключевые слова:*** *Средняя Азия, Фергана, Ахсикент, Великий Шелковый путь, Ахсикэт, города, административные здания, древние памятники.*

***Abstract:*** *This article examines some features of the Akhsikent monument, which was once the largest center of the Fergana Valley and at the same time provides information about the history of Uzbek statehood.*

***Key words:*** *Central Asia, Fergana, Akhsikent, the Great Silk Road, Akhsikent, cities, administrative buildings, ancient monuments.*

O‘zbek davlatchilik tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. O‘zbekiston hududida Qadimgi Baqtriyadan boshlab bugungi mustaqil

O‘zbekistonimizga qadar bir qancha davlatlar mavjud bo‘lgan. Yurtimiz hududida joylashgan hamda bugungi kunda xarobaralari saqlanib qolgan shahar va kentlarga oid manbalarda ham yurtimiz davlatchiligi tarixi mingyilliklarga borib taqalishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ana shunday shaharlardan biri haqida ma’lumot beruvchi qadimiy yodgorliklardan biri – Axsikent yodgorligi hisoblanadi.

Ushbu qadimiy kentdan qolgan xarobalar buyuk tariximizdan so‘zlaydi. Axsikent yodgorligi bugungi kunda Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shaxan qishlog‘i hududida, Sirdaryoning o‘ng sohilida joylashgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha ushbu yodgorlik mil.avv. III-II asrlarda vujudga kelgan. IX-X asrlarga kelib esa Farg‘ona vodiysining markaziga aylangan. 1620-yilda esa zilzila tufayli vayron bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘lining asosiy shaharlaridan biri bo‘lgan Axsikent haqida tarixiy manbalarda, ayniqsa temuriylar sulolasining yirik namoyondasi hisoblangan Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asarida ham ko‘pgina ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

“Axsikent Farg‘ona vodiysining yirik shaharlaridan biri hisoblanib, uning topografik qiyofasi yozma manbalarda o‘z aksini topgan. Xususan, Ishtaxri va ibn Xavqal asarlarida shahar ark, shahriston, raboddan ibrorat ekanligi qayd etilgan. Ayni vaqtda bu ma’lumotlar hozirga qadar amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar jarayonida o‘z tasdig’ini topgan.”[1]

Axsikentni ilmiy jihatdan o‘rganish XIX asr oxxiri-XX asr boshlarida boshlangan. Shaharning arxitektik tuzilishiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, arxeologik tadqiqotlar natijasida shahar uch qismdan, ya’ni “ark”, “rabot”, “shahriston” qismlaridan iborat bo‘lganligi aniqlangan. Qismlarning har biri alohida devorlar orqali bir birida ajratilgan. Ularning har birida tegishli ma'muriy binolar joylashgan. Masalan, arkda-hokim saroyi, zindon; shahristonda-ichki bozor, jome masjid, pishiq g‘ishtdan ishlangan hovuz va ariqlar; rabodda- hunarmandlar yashaydigan mahallalari va tashqi bozor mavjudligi aniqlandi. “Shahar hududida shuningdek mamuriy binolar ham joylashgan. Jumladan, arki a'loning sharqiy tomonida, ichki shahriston hududida X-XII asrlarga oid Jome masjid joylashgan. U to‘rtburchak shaklda bo‘lib, uning ichki qismida aylanasiga ayvon bo‘lgan. Masjid hovlisining o‘rtasida to‘rtburchak shaklda hovuz bo‘lib, hovuz qirg‘oqlari va masjid hovlisi pishiq g‘isht bilan qoplangan. Yuqorida qayd qilinganidek, asosiy katta bozor shahristonda joylashgan. Rabotda esa Istaxriy qayd etganidek, mavsumiy bozorlar bo‘lgan”[2]. "Farg‘ona oblastida qadimgi zamonlarda poytaxt bo‘lib

turgan Axsi yoki Axsikat degan katta shahar bo'lgan ekan. Bul kunlarda mazkur shaharning o'rni va atrofi yaxshi malumdir ”[3].

Ushbu so‘zlarni "Turkiston viloyatining gazeti"ning 1913 yilgi sonida berar ekan, avvalo Zahiriddin Muhammad Bobur keltirib o‘tgan “Sayhun suvining shimoli tarafidagi kasabalar: bir Axsidir. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar” degan so‘zlarini yana bir karra tasdiqlab, Axsi, Axsikat, Axsikent bitta makonga nisbatan aytilayotganligiga ishora qilgan. Olim shahar tarixiga oid risola bitishni niyat qilganligini izhor etar ekan, gazeta o‘quvchilariga Axsi shahri haqida kimda qanday ma’lumotlar borligini, shahar dastlab qachon vujudga kelgani, qaysi xon va beklar hukmronlik qilgani, aholining turmush tarzi qanday bo‘lgani, kabi savollariga javob topish maqsadida hamda shuningdek, shaharning vayron bo‘lish sabablari haqida o‘z bilganlarini yozib qoldirgan. Yuqorida qayd etilganidek Axsi ulkan shahar bo‘lgan. Keyingi davrlarda Eski Axsi vayronaga aylangach uning o’rnida 15 ta yangi qishloq bino bo‘lgan.

Yuqorida manbalar asosida keltirilgan ushbu ma’lumotlar orqali Axsikentning butun o’rta asrlardagi holatini qisman bo‘lsada yoritib o‘tdik. Prezidentimizning 2019-yilgi Namangan viloyatiga tashriflari davomida Axsikentning haqqoniy tarixini o‘rganish, mazkur hududni turizm makoniga aylantirish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu say harakatlar natijasi o‘laroq 2023-yilning 1-fevral sanasida Axsikentda hali o’rganilmagan hamda ko‘pchilik uchun sir bo‘lgan noyob tangalar hamda ming yillik tarixga ega bo‘lgan Damashq qilichlari topildi. Ushbu topilma o‘zbek davlatchiligi tarixi haqida qarashlarning yanada boyishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda Namangan viloyatining turistik salohiyatini oshirishga ham o‘zining ulkan hissasini qo‘shadi.

Shu o‘rinda “Farg‘ona vodiysi Afrosiyobi” deb e’tirof etiladigan qadimiy Axsikent shahrida ham antik davrdan boshlab hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik va qurol-yarog‘ ishlab chiqarishga ixtisoslashgan temirchilik sohalari taraqqiy etgan. Axsikent temirchi hunarmandlari tomonidan tayyorlangan qilichlar o‘rta asr G‘arbiy Yevropa adabiyotlarida “Damashq qilichlari” nomi bilan tilga olingan.

Toshga ursa, uni kesadigan, egilsa ham sinmaydigan g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan qilichlar haqida har xil rivoyatlar to‘qilgan. Aslida bu Axsikentlik usta hunarmandlarning mohirligidan dalolatdir. Farg‘onadan Buyuk Ipak yo‘li orqali qurollar ham eksport qilingan, degan umumiy gaplar ham mavjud. Axsikent yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishmalar ushbu muammoga aniqlik kiritibgina qolmay, balki Farg‘onaning bosh poytaxti haqida ham buyuk

kashfiyotlarga olib keldi. Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, X-XII asrning boshlarida Axsikent metallurg-temirchi ustalari temirchilik ishlab chiqarish sohasida ulkan muvafaqqiyatlarga erishadi. Tabiiyki, temirdan qurol tayyorlash ustadan katta mahorat talab qilgan. Qilichga ishlov berish jarayonida, usta temirchilar juda katta mashaqqat chekishgan. Bunga o‘xshash qilichlar o‘ta keskir bo‘lishi bilan birga, mo‘jizaviy san’at asari ham hisoblanib, dunyo bozorida yuqori baholangan. Shuning uchun ham uning sopi va g‘ilofiga alohida ishlov berilib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bunday qilichning narxi juda yuqori bo‘lib, unga ega bo‘lish faqat podsho askarlari va boy-badavlat odamlargagina nasib qilgan. Damashq qilichi Axsi osori-atiqalar muzeyiga 510-eksponat sifatida ro‘yxatga kiritildi. Shuni ta’kidlash joizki, Axsikentda tayyorlangan qurollar “Damashq qilichlari” nomi bilan dunyoga mashhur bo‘lib, G‘arbda Damashq, Sharqda Xitoy bozorlarida sotilgan.

Xulosa qilib aytganda, Axsikent yuqorida qayd etilganidek vatanimiz davlatchiligi tarixining bir necha ming yilliklarga borib taqalishini tasdiqlaydi. Ayni paytda Axsikent shahrining arxeologik tuzilishi Markaziy Osiyodagi o’rta asr shaharsozligi qay darajada yuksak taraqqiy etganidan dalolat beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. “Farg‘ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda”, ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Farg‘ona. 2012.

2. T. Qozoqboyev, A. Vohidov, B. Ro‘zinov. Ibrat nigohidagi Axsikent. “Navro‘z”, Toshkent. 2018.

3. T. Qozoqboyev, A. Vohidov, B. Ro‘zinov- “Ibrat nigohidagi Axsikent”. “Navro‘z”, Toshkent. 2018.

## AMIR TEMUR VA MUHAMMAD SHAYBONIYXON SHAXSIYATLARI HAMID ZIYOYEV TALQINIDA

***Boyqabilov Norpulot Bozarovich,***
*Oriental universiteti 70220301-Tarix ixtisosligi II kurs Magistranti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada XX asr o‘zbek milliy tarixshunosligining ulug‘ vakili, buyuk ma’rifatparvar olim, donishmand inson, o‘zbek milliy tarixshunosligining yirik vakili Hamid Ziyoyev ilmiy tadqiqotchilik faoliyatidagi eng dolzarb mavzu milliy tariximizdagi ikki dudratli sarkarda, buyuk davlat arboblari shaxsiyatiga haqqoniy yondashganligi hamda bu haqida olimning ilmiy mulohazalari orqali ko‘rib o‘tamiz.*

***Kalit so‘zi:*** *Amir Temur tarixiy siymosi. Amir Temur saltanati. Amir Temurning dunyo tarixidagi o‘rni. Muhammad Shayboniyxon siymosi va shaxsiyati. Olim Hamid Ziyoyev ilmiy faoliyati.*

***Abstract:*** *In this article, Hamid Ziyoyev, a great representative of the Uzbek national historiography of the 20th century, a great enlightened scientist, a wise man, a great representative of the Uzbek national historiography, Hamid Ziyoyev, is the most relevant topic in the scientific research activity of two brave leaders in our national history, true to the personalities of great statesmen. approach and the scientist's scientific opinions about it*

***Key word:*** *Historical figure of Amir Temur. The reign of Amir Temur. Amir Temur's role in world history. Muhammad Shaibani Khan's image and personality. Scientist Hamid Ziyoyev's scientific activity.*

Milliy tariximizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, avvallo, yuksak sivilizatiyalar (Biror bir shahar-davlatning yoki yuksak bir madaniyatning vujudga kelishi jarayoni bilan bog'liq tushuncha, atama) ni ham, tanazzulga yuz tutgan davrlarni ham ajdodlarmiz ko'p ko'rishgan. Shunday yuksak tamaddunlardan biri bu vatanimiz tarixidagi buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi Amir Temur tomonidan asos solingan qudratli davlat birlashmasi hamda Temuriylar davri madaniyatidir. Bundan tashqari temuriylar saltanatini zavolga yuz tutdirgan dashtiy turkiylarning qipchoq urug'i sardori Muhammad Shayboniyxon va bu tarixiy shaxs haqidagi turli tarixiy yondashuvlar (Ba'zi tarixiy manbalarda salbiy xususiyat sohibi bo'lsa, ba'zi tarixiy manbalarda esa ma'lum ijobiy xususiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan) ham mavjuddir mana shunday ikki qudratli sarkarda va davlat arbobi haqida ko'plab tarixshunos olimlar, yirik tarix ilmi mutaxassislari ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida ilmiy jihatda tadqiq etib o'rganganlar. Shunday zabardast tarixshunos olimlardan biri bu yetuk olim, benazir inson Hamid Ziyoyev ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Olim Hamid Ziyoyev haqiqiy ilm-fan egasi bo'lib, o'zbek milliy tarixining va tarixshunoslik ilmining rivojiga o'zining beqiyos hizmatlari bilan ham ajralib turadi hamda domla haqiqiy ilm-fan fidoyisi bo'lib, sobiq sho'rolar davrida nomlari "qora ro'yxat" ga kiritilgan tarixiy shaxslar haqida xolis turib, haqqoniy tarzida yondashishdan sira ham cho'chimagan zabardast olim edi. Bilamizki , sobiq ittifoq davrida kommunistik sotsializm mafkurasiga ko'ra ittifoq tarkibidagi 15 ta milliy "respubliklar" o'zlarining milliy qadriyatlari bilan faxrlanish tuyg'usidan benasib edi, chunki bu sobiq sovetlar hukmati olib borayotgan

mustamlakachilik siyosatiga zid g'oya va qarashlar hisoblanar edi. Shu sababli ham O'zbekiston SSR da milliy haqqoniy tarix va qadriyatlar ustida mustabid sovet hukumati senzurasi (Adabiyotga, tarixga, ilm-fanga, san'atga qo'yilgan davlatning kuchli nazorati) o'rnatilgan edi. O'tgan asrimizning 40-50-yillarida O'zbekiston SSR da Amir Temur shaxsiyati borasida turli salbiy qarashlar va uning shaxsiyatiga qarshi ko'plab, nohaq ayblar taqash kuchayib ketdi. Mustabid sovet hukumati tomonidan nomi "qora ro'yxat"ga kiritilgan asosiy shaxs bu Amir Temur va uning shaxsiyati bilan bog'liq qarashlar edi. Chunki mustabid sovet hukumati olib borayotgan mustamlakachilik siyosatiga ko'ra har qanday milliy g'oya ular uchun xavfli edi, bundan juda cho'chir edi ( Chunki inson o'zining milliy tarixi hamda qadriyatlarini qanchalik kuchli bilsa, u insonda o'ziga bo'lgan ishonchi ortib boradi, bu esa uning qultabiatlilikdan, manqurtlikdan saqlab qoladi hamda o'zining haqi-huquqi uchun kurash tuyg'usi shakllanadi, bu esa bora-bora insonda erk-ozodlik g'oyasiga borib ulanar edi), nihoyatda qo'rqar edi. Shuning uchun ham mustabid sovet hukumati davrida Amir Temur va uning shaxsiyati faqat va faqat "qora ranglar" bilan berib, borildi. Chunki mustabid sovet hukumati ayniqsa turkiy xalqlar, qavmlar va ularning o'tmishdagi shonli tarixidan judayam nafratlanar edi. XX asr 30-40-yillarida SSSR xalqlari dohiysi Stalin (Jugashveli Iosif Vesionorovich) tomonidan eng ko'p qirg'inga va ta'qibga uchragan xalqlar - mana shu turkiy xalqlar bo'ldi. Olim Hamid Ziyoyev esa XX asrning 50-60-yillarida mustabid sovet hukumati tomonidan ta'qiqlangan mavzu - Amir Temurning hayoti va uning shaxsiyati haqida ilmiy izlanishlar qilishga kirishadi. O'zbek taricxhi va faylasuf olmilaridan birinchilardan bo'lib, Amir Temur shaxsiyatiga murojaat qilgan zabardast olim va faylasuf inson, olim Hamid Ziyoyevning dastlabki maslakdoshi hamda ustozi Ibrohim Mo'minov hisoblanadi. Olim Hamid Ziyoyev o'z maslakdoshi faylasuf olim Ibrohim Mo'minovning Amir Temur va uning shaxsiyati bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarini davom ettirdi. Shuning uchun ham olim Hamid Ziyoyev mustabid sovet hukumati davrida Amir Temur shaxsiyatini haqqoniy holda ochib bera boshlaydi. Avvallo, olim Hamid Ziyoyev Amir Temurni XIV asr sharoyitida parchalanib ketgan Movaraunnahr, Sharqiy Turkiston, Xorazm hududlarida hukmronlik qilgan mo'g'ullarning istibdodiga, ular shu hudud aholisiga nisbatan jabr-zulmiga nuqta qo'yib, bu hududlarini birlashtirib, qudratli davlat birlashmasiga asos solgan buyuk davlat arbobi sifatida bilar edi. Bundan tashqari olim Hamid Ziyoyev Amir Temurdan tashqari hali hech kim bunday murakkab davrda yashab, qutratli davlat birlashmasini tuza olmaganiligini ham alohida ta'kidlab o'tadi. Chunki XIV asrning 30-40-yillarida Movaraunnahr, Xorazm, Sharqiy Turkiston hududlari

feodal tarqoqlik davrida edi Mana shunday murakkab bir davrda tarix maydoniga Amir Temur kirib keldi hamda feodal tarqoqlikni boshidan kechirayotgan Movaraunnahr, Sharqiy Turkiston, Xorazm hududlarini birlashtirib, ishni dastlab o'zining ichki g'animlarini tor-mor etishdan boshlaydi: Amir Bayon Sulduz, Amir Xoji Barlos, Amir O'ljayatu Sulduz, Amir Zinda Chashm, Amir Yasavuriy kabi ichki g'animlarini birin-ketin yengib, 1357-yildan to 1370-yilgacha bo'lgan davrda 13 yil ichida Movaraunnahr, Sharqiy Turkiston, Xorazm, Xuroson hududlarini birlashtirib qudratli Temuriylar saltanatiga asos solgan edi. Olim Hamid Ziyoyev Amir Temurni aynan shu jihatini ya'ni tarqoq va parchalanib ketgan davlatni birlashtirib, markazlshgan qudratli davlati tashabbuskori ekanligiga alohida urg'u bergan edi. Bundan tashqari Amir Temurning buyukligi va mohir sarkardalik qobliyati, uzoqni ko'ra oluvchi inson hamda bunyodkor inson ekanligiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Mustabid sovet hukumati davrida nomi va shaxsiyati faqat "qora bo'yoqlar" da berilgan bu buyuk ajdodimizning shaxsiyatini oqlash uchun mustabid sovet hukumati tazyiqlaridan cho'chimadi hamda Amir Temur va uning shaxsiyatini turli salbiy qusur va bo'xtonlardan oqlashga qisman bo'lsa-da, erishadi (Shu yerda bir tabiiy savol tug'iladi, mustabid sovetlar aynan turkiy xalqlarning tarixidagi buyuk davlat arboblari, yirik sarkardalari, mashhur shaxslarning shaxsiyatini atayin "qora bo'yoq" larda ko'rsatib, uni yer bilan bitta qilishga bunchalik orzumand bo'lishgan?!!! Masalan, SSSR xalqlari orasidagi ulug' "katta og'alar" deya o'zlarini shu maqomda tutgan rus millati tarixidagi XVI asrda hukmronlik qilgan Ivan IV Grozniy o'z xalqiga qarshi shafqatsiz terror va qirg'in siyosatini boshqarmadimi, natijada minglab begunoh odamlar qatl etildi va ta'qib etildi. Bundan tashqari 1556-yil Qozon xonligini, 1557-1558-yillarda esa Astraxan xonligini (Xojitarxon), 1582-1583-yillarda esa Sibir xonliklarini bosib olish mobaynida qanchadan qancha begunoh odamlarning qoni to'kildi, qirib tashlandi. Mana shu haqqoniy tarixiy ma'lumotlarni iloji boricha olib tashlab, unga ijobiy "sayqal" berishadi hamda bu haqida hech kimga gapirtirishmaydi, faqat va faqat turkiy xalqlarning shonli tarixini loyga chaplash bilan ovora bo'lishadi.....Izoh ) Amir Temurning hayoti faoliyatida 1370-yildan to 1404-yilga qadar bo'lgan davrda 34 yillik hukmronlik davrida 27 ta davlatni buysundirib, qudratli yirik saltanat (Imperiya) ga asos soladi hamda o'z zamonasining eng qudratli qo'shinlari deya tan olingan Oltin O'rda va Oq O'rda mo'g'ul-tatar qo'shinlarini ( 1389-yilda Jizzaxning Achchiq mavzesidagi jangi, 1392-yildagi Qunduzcha jangi, 1395-yildagi Shimoliy Kavkazning Terek daryosi bo'yidagi janglarda), Misr mamluk qo'shinlarini (1400-yildagi jangida),

Usmonli Turk sultonining qudratli qo'shinlarini (1402-yil 20-iyundagi Anqara jangida) mag'lubiyatga uchratganligini olim Hamid Ziyoyev ilmiy izlanishlari orqali Amir Temurning buyuk sarkardalik harbiy yurishlarini mustabid sovet hukumatidan qo'rqmasdan keltirib o'tadi. Bundan tashqari milliy tariximizda yana bir qudratli sarkarda borki, uning shaxsiyatiga ham mustabid sovet hukumati tomonidan o'zlarining salbiy xususiyatlaridan holi bo'magan tarixiy shaxs, XVI asrda yashagan yirik davlat arbobi Muhammad Shayboniyxondir. Bu tarixiy shaxs haqida ko'plab tarixshunos olimlar turlicha yondashishgan (Ham ijobiy, ham salbiy munosabat berishgan). Olim Hamid Ziyoyev Muhammad Shayboniyxon shaxsiyatini, avvallo, bir jihat bilan qoralaydi, ya'ni Muhammad Shayboniyxonni Amir Temurga nisbatan solishtirib ko'rar ekan. Bunda ,eng avvallo, qudratli Temuriylar saltanatini zavolga yuz tutdirgan shaxs sifatida ko'radi (Buning sababi aynan Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi dashtiy turkiylarning qipchoq urug'i va boshqa turkiy qabilalardan tashkil topgan yirik jangovar qo'shinlar Temuriylar saltanatini zavolga uchratadi hamda Amir Temur va Temuriylar davridagi yuksak tamaddunga xolis baho bera olmaganidan so'ng ko'plab tarixiy binolarni, yuksak san'at na'munalarni vayron qilishadi hamda Temuriylarga munosib voris bo'la olmaganidan olim Hamid Ziyoyev domla shunday munosabatda yondashgan bo'lsa kerak). Albatta, Muhammad Shayboniyxon Temuriylarga munosib voris bo'la olmadi, buni tan olishimiz kerak. Biroq bir haqiqatni tan olishimiz kerak, ya'ni Amir Temur vafotidan keyin uning vorislari-nabiralari o'rtasida o'zaro toji-taxt uchun qonli urushlar boshlab yuboriladi hamda uzoq vaqt 1405-yildan to 1410-yilgacha o'zaro qonli urushlarga sabab bo'ladi. Faqat Amir Temurning kenja farzandi Shohruh Mirzo otasi hokimiyatini qayta tiklab temuriylar saltanatini 40 yillar boshqaradi. Biroq uning ham o'limidan so'ng saltanat toji-taxti uchun temuriy shahzodalar o'rtasida o'zaro kurash boshlanib ketadi hamda oddiy fuqarolarning tinchligi buzilib, ularning mol-mulki talanishi, ko'plab shahar va qishloqlar, binolar vayron qilinishiga olib keladi. Mana shu vaziyatda mamlakat aholisi bundan judayam norozilik keltirib chiqarilganligiga sabab bo'lganligini ham tan olishimiz kerak. Biz xolisona bitta haqiqatga e'tibor qaratmog'imiz lozim, ya'ni o'sha davr muarrixlarining bergan tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Temuriylar saltanatini zavolga yuz burilishiga asl sababchilar: temuriy shahzodalar o'rtasidagi saltanat toji-taxti uchun o'zaro qonli urushlari bo'lgani natijada esa yurt fuqarolarining bundan esa jonidan o'tar darajaga borib yetganligini qayd etib o'tadi. Mana shunday sharoitda yurt tinchligini ta'minlay oladigan qudratli bir yo'lboshchiga muhtoj edi. Shu qulay vaziyatda kurash maydoniga Muhammad Shayboniyxon

boshchiligidagi dashtiy ko'chmanchi turkiylarning qipchoq urug'-qabilasi va boshqa turkiy qabilalardan iborat birlashgan kuchli jangovar qo'shinlari bilan Sharqiy Turkiston orqali Movaraunnahr sarhadiga bostirib kiradi va temuriy shahzodalarning o'zaro nizolaridan va ittifoqligi, birligi yo'qligidan unumli foydalanib, temuriylar saltanati hududini birin-ketin qo'lga kiritadi ( 1500-yilda Samarqand, 1502-1503-yillarda Toshkent va Shohruxiya 1504-1505-yillarda Buxoro, 1505-yilda Xorazm, 1506-yil Xirot egallanadi). Muhammad Shayboniyxon o'zbek davlatchiligi tarixida buyuk davlat arbobi Amir Temurdan so'ng tanazzulga uchrayotgan davlatni birlashtirib markazlashgan qadratli davlatga asos sola olgan mashhur sarkarda va davlat arbobi sifatida baho bersak, adolatli bo'larmidi. Olim Hamid Ziyoyev Muhammad Shayboniyxon shaxsiyati hamda shayboniylarga nisbatan qarashlarida ham asli haqiqat ham bor edi, chunki shayboniylar temuriylar davrdagi yuksak madaniyatga munosib baho bera olishmadi va munosib voris bo'la olishmgan edi. Aynan shayboniylar davrida temuriylar davridagi adabiyot, san'at, ilm-fan, madaniyatga ko'plab zarar yetkazildi. Bu ham asli haqiqat!!! Umuman xulosa o'rnida shuni aytadigan bo'lsak, o'zbek davlatchiligi tarixida ikki buyuk tarixiy shaxs, buruk davlat arboblari bo'lgan Amir Temur va Muhammad Shayboniyxon shaxsiyatiga xolisona va haqqoniy baho bershimiz kerak....

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI***

*1. "Hamid Ziyoyevning ilmiy-pedogogik faoliyati"* 2003-yil "Toshkent". "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyoti. (Mualliflari: A.Sharafiddinov. Z. Fayziyeva. L.Kravets)

*2. "Tarixning ochilmagan sahifalari".* 2003-yil . Toshkent-"Mehnat"-Nashriyoti. (Hamid Ziyoyev)

*3. "Sibir, Volga, Ural bo'yidagi o'zbeklar".* Mas'ul muharir: A.Sharafiddinov. *T.: - "Sharq", 2003. – 416 b*

**INTERNET SAYTLARI**

*4.* Www.ziyo.net

*5.* Www.wikipedia.uz

*6.* Www.kitob.uz

*7.* Www.ref.uz saytlari

# IX-XII ASRLARDA MAMLAKATIMIZ HUDUDIDA RO‘Y BERGAN MADANIY UYG‘ONISH, BUYUK ALLOMALARNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO‘SHGAN HISSASI

***Chariyeva Asilabonu***
***Aminjonova Mehribonu***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabalari*
***Ilmiy rahbar:*** *Qandov Bahodir Mirzayevich CHDPU dotsenti f f d (PhD)*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan madaniy uyg‘onish va ilm-fan rivojlanishi haqida so‘z boradi. Maqolada buyuk allomalar, ularning ilmiy merosi, va ilmiy markazlarning ahamiyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, ilm-fan va madaniyatning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi hamda Renessansning boshlanishiga ta’siri ta’riflanadi.*

***Аннотация:*** *В статье рассматривается культурное возрождение и развитие науки, произошедшие в Средней Азии в IX-XII веках. В статье рассказывается о великих ученых, их научном наследии и значении научных центров. В нем также описывается вклад науки и культуры в мировую цивилизацию и их влияние на начало эпохи Возрождения.*

***Abstract****: This article discusses the cultural revival and development of science in Central Asia in the 9th-12th centuries. The article highlights the great scholars, their scientific heritage, and the importance of scientific centers. It also describes the contribution of science and culture to world civilization and their influence on the beginning of the Renaissance.*

***Kalit so‘zlar:*** *Madaniy uyg‘onish, Ilmiy meros, Markaziy Osiyo, Buyuk allomalar, Ilmiy markazlar, Jahon sivilizatsiyasi, Yevropadagi Renessans, Matematika, Astronomiya, Ipak yo‘li.*

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo, ayniqsa O‘zbekiston hududida madaniy uyg‘onish, ilmfan, san’at, adabiyot va texnologiyalar sohasidagi yuksalishlar bilan ajralib turdi. Bu davrda ilmiy va madaniy yuksalish asosan buyuk allomalar va ularning ijodlari orqali amalga oshdi. Renessansga o‘xshash jarayonlar boshlangan, chunki ilm-fan va san'atning rivojlanishi, jahondagi ilmiy bilimlarga katta ta'sir ko‘rsatgan. IX-XII asrlarda ilmfan,ta'lim va madaniyat sohasidagi yuksalish Markaziy Osiyoning ilmiy markazlarida, xususan Buxoro, Samarqand, Xorazm va Nishapurda yuz berdi. Bu davrda ilm-fan o‘zbek, fors, arab va boshqa xalqlartomonidan qo‘llanilgan. Ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga asosiy hissa qo‘shgan allomalardan ba'zilarini

ko‘rib chiqamiz: Al-Xorazmiy (780–850): Matematik, astronom, geograflar va faylasuf sifatida mashhur. Uning asarlari, xususan "Al-Kitob al Mukhtasarfi Hisab al-Jabr va’lMuqabala" (al-Jabr va algebra kitobi), matematikada algebraning asoslarini yaratgan va uning ilmiy merosi, Yevropada Renessans davrida o‘rganilgan. Abu Rayhon Beruniy (973–1048): Beruniy juda ko‘p ilmiy sohalarda, jumladan astronomiya, matematika, geologiya,tibbiyot va tarixda ish olib borgan. U "Hindiston" asarida hindlar madaniyatini o‘rganib, Sharq va G‘arb olamlarida keng tanilgan. Avicenna (Ibn Sino) (980–1037): Tibbiyot, falsafa, matematika va astronomiya bo‘yicha katta ilmiy meros qoldirdi. Uning "Tibbitibbiyot kanoni" asari Yevropada o‘rganilgan va uzoq vaqt davomida tibbiyotda asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Al-Farg‘oniy: Astronomiya va matematika sohasida ishlagan, xususan, yulduzlarnitasvirlash va ularni hisoblashda katta yutuqlarga erishgan. AlMuqaddasi (945–1000): Geograf va tarixchi, uning "Ahsan al-Taqasim fi Ma’rifat al-Aqalim" asari Markaziy Osiyo va butun musulmon dunyosining geografiyasini o‘rganishga asos bo‘lgan. Ushbu allomalar va ularning asarlari, nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham yuksak ilmiy va madaniy yuksalishga sabab bo‘lgan [1,2]. Adabiyot va San’at: Adabiyotda ushbu davrda turli janrlarrivojlandi. Al-Farobiy va Ibn Sino kabi buyuk faylasuflarning adabiyotga qo‘shgan hissasi juda katta bo‘ldi. Ular nafaqatfalsafiy asarlar yaratgan, balki san’at, adabiyot va musiqa haqida ham yozgan. Bu davrda shuningdek,turli she’riyat, nasr va hikmatlarni o‘zichiga olgan asarlar yaratildi. Alisher Navoiy (1441–1501) kabi buyuk shoirlar, ularning asarlari esa keyingi asrlarda yuzaga kelgan o‘zbek adabiyotining poydevoriga aylangan. Navoiy o‘zining "Xamsa" asari bilan butun Sharq dunyosida mashhur bo‘ldi.

IXXII asrlarda Markaziy Osiyoda arxitektura o‘zining eng yuksak nuqtasiga yetdi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda qurilgan madrasa, masjid va boshqa inshootlar bu davr madaniy yuksalishini ko‘rsatadi. Bu davr arxitekturasining eng yirik namunalari: Samarqanddagi Registon majmuasi: Bu majmua o‘zining ulkan portallari va go‘zal koshinlari bilan mashhur bo‘lib, bu davrning eng yuksak arxitekturaviy yodgorliklaridan biridir. Buxorodagi Islom Madaniyati markazlari: Bu yerda ko‘plab madrasalar, masjidlar va maqbaralar qurilgan, ular Markaziy Osiyodagi islom madaniyatining kuchli markazlari bo‘lib xizmat qilgan. Bu davrda texnologiya va tibbiyot sohasida ham sezilarli yutuqlar mavjud. Tibbiyot sohasida Ibn Sinoning "Tibbiyot kanoni" asari, shuningdek, davolashning yangi usullari va jarrohlik amaliyotlaririvojlangan. Astronomiya va geografiya sohasida esa alKhwarizmi va Beruniy kabi

allomalartomonidan yulduzlar, yerning shakli va xaritalar haqida aniq ma'lumotlar yaratildi.

Ilm-fan, falsafa va diniy qarashlarjuda muhim o‘rin tutgan. AlFarobiy, Ibn Sinoga qo‘shimcha ravishda, Shayx Muxtor va Avitsenna kabi faylasuflar hayot va mavjudlik haqida yangitasavvurlarni ishlab chiqdilar. Ularning asarlari Sharq va G‘arb o‘rtasida mantiqiy tafakkur va ilmiy qarashlarni o‘zaro bog‘lashda katta rol o‘ynadi. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy va siyosiy struktura ham rivojlandi. Umuman olganda, bu davrda xalqlar orasidagi aloqalar kuchayib, madaniy, iqtisodiy va ilmiy integratsiya yanada chuqurlashdi. Bu jarayonlar siyosiy tuzumlartomonidan qo‘llab-quvvatlandi, chunki musulmon hukmdorlari ilm-fan va san’atnirivojlantirishga katta e’tibor berishdi [2,3]. Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda ilmiy va madaniy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash siyosatining amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu shaharlarda qurilgan madrasalar va ilmiy markazlar(masalan, Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi) ilm-fan va ta’limga katta turtki bo‘ldi.

Samarqandda Ulug‘bek tomonidan tashkil etilgan observatoriya o‘sha davrilmiy yuksalishining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Ulug‘bekning astronomik tadqiqotlari va yulduzlar katalogi nafaqat Sharqda, balki Yevropada ham keng tarqaldi. Ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi aloqalar kuchayib, ilm-fan va madaniyat markazlarining rivojlanishiga imkon yaratdi. Madaniy va ilmiy inshootlar qurilishi, savdo yo‘llarining rivojlanishi, aholi o‘rtasida o‘zaro madaniy almashuvlar bu davrda amalga oshdi. Tibbiyot sohasida buyuk alloma Ibn Sino ("Avicenna") o‘zining "Tibbiyot kanoni" asarida yuqori sifatlitibbiy bilimlarni jamlagan. Ushbu asar uzun vaqt davomida Yevropaning tibbiy ta’limida asosiy qo‘llanma sifatida ishlatilgan. Ibn Sinoning ilmiy merosi nafaqat Sharqda, balki Yevropada ham tibbiyotning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.Jarrohlik va farmakologiya sohalarida ham alohida yutuqlar qayd etilgan. Alisher Navoiy, Ibn Sina kabi ilm-fan va tibbiyot sohasidagi buyuk allomalar, ko‘plab muolajalar, dorilarni ishlab chiqish va sog‘liqni saqlash usullarinitakomillashtirishda katta hissa qo‘shdilar. San’at va tasviriy san’atda ham yangi yutuqlar yuzaga keldi. Bu davrda tasviriy san’atda naqshinkorlik, miniaturalar va deyarli barcha sohalarda arab-islom san’atining o‘ziga xos uslubi shakllandi. Ushbu tasviriy san’at elementlari Markaziy Osiyo madaniyatini o‘zgacha bir o‘lchovga olib chiqdi. Samarqand va Buxoro – Ilmiy va Madaniy Markazlar: Samarqand va Buxoro shaharlarining ilmiy va madaniy markaz sifatida o‘rni beqiyosdir. Samarqand Ulug‘bekning astronomiya observatoriyasi bilan, Buxoro esa o‘zining ilmiy muassasalari, masalan, Mir

Arab madrasasi, Buxoro madrasasi va boshqa ilmiy markazlar bilan mashhur edi [1,3,4]. Samarqandda Ulug‘bekning astronomik tadqiqotlari ko‘plab yulduzlarning aniq xaritalarini yaratishga olib keldi. Ulug‘bekning bu ishlariga, ayniqsa, "Zij-i-Sultoni" asari Xorazmiylar, Avitsennalar kabi buyuk allomalarning ilmiy meroslari asos bo‘lib xizmat qildi. Buxoro esa o‘zining ilmiy an’analari, madrasalari, kutubxonalari bilan Shahrisabz, Xiva kabi boshqa madaniy markazlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatdi.

Savdo yo‘llarining rivojlanishi, yangitexnologiyalar va ilmiy bilimlarning almashinuvi hamda ilmiy hamkorlikning kengayishi shaharlarning iqtisodiy va madaniy hayotini kuchaytirdi. Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda bo‘lgan ilmiy va madaniy almashuvlar, nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yevropa bilan ham ticarat, ilmiy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Silk Road (Ipak yo‘li) orqali savdo va madaniy almashinuvlar yanada faol bo‘ldi. Bu savdo yo‘li orqaliturli xalqlar, jumladan, hindlar, arablar, forslar,turklar, yevropaliklar o‘rtasida ilmiy va madaniy almashuvlar amalga oshirildi. Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda savdo va ilmfan markazlarining birlashishi, ilmiy bilimlarning keng tarqalishiga imkon yaratdi. Bu markazlarda nafaqatilmiy, balki san’at va arxitektura ham rivojlandi. IX-XII asrlar Markaziy Osiyo hududida Renessansning birinchi bosqichlarining yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. Bu davrda ilm-fan, san’at, adabiyot,tibbiyot va texnologiyalarda erishilgan yutuqlar bugungi kunda ham o‘rganilib, ularning ta’siri butun dunyo madaniyatiga o‘chmas iz qoldirdi. Buyuk allomalar va ularning asarlari bugungi ilm-fan va madaniyattaraqqiyotiga muhim hissa qo‘shdi, va bu davrda Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan. Markaziy Osiyo hududida yuz bergan madaniy uyg‘onish, ilm-fan, san’at va texnologiyaning rivojlanishi nafaqat musulmon dunyosining, balki butun dunyoning madaniy merosiga katta hissa qo‘shdi. Bu davrda yaratilgan asarlar va yutuqlar Renessansning dastlabki bosqichlari sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Bu ilmiy va madaniy rivojlanish Yevropaga ta’sir qilib, keyingi asrlarda Renessansning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi [2,4].

Xulosa qilib aytganda, IX–XII asrlar — O‘rta Osiyo tarixida madaniy va ilmiy uyg‘onish davri bo‘lib, bu davrda yashab o‘tgan buyuk allomalar nafaqat o‘z zamonasining, balki jahon tamaddunining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shganlar. Muhammad al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg‘oniy, Zamaxshariy kabi mutafakkirlar matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa, tilshunoslik va boshqa ko‘plab sohalarda noyob ilmiy asarlar yaratganlar. Ularning ilmiy merosi asrlar davomida G‘arb va Sharq olimlariga ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu davr madaniy uyg‘onishi nafaqat ilm-fan

rivojiga, balki umuman insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham bu boy ilmiy va madaniy meros xalqimiz uchun faxr va ibrat manbai bo‘lib, uni chuqur o‘rganish va asrab-avaylash dolzarb vazifalardan biridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Inatov M.N., Xolnazarova L.S., Maxammadiyeva S.I. “O‘zbekistonning eng yangitarixi” Toshkent, ToshDTU.2021.

2. Jo‘rayev.N. “Mustaqil O‘zbekiston tarixi”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2013.

3. Sabirov. A “O‘zbekiston tarixi” Toshkent: Akademiya 2013.

4. Abdullayev R., Rajabov Q., Rahimov M. “O‘zbekistonning tarixi” - Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

## TOSHKENT VOHASIDAGI KO‘LBULOQ VA SHOSHTEPA MANZILGOHINING O’RGANILISH TARIXI

***Choriyeva Kamola Baxtiyor qizi,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya****: Toshkent vohasida joylashgan Ko‘lbuloq paleolit manzilgohining ilmiy o‘rganilish tarixi bilan bir qatorda, uning arxeologik anatomiyasi – madaniy qatlamlar, yashash joylari, topografik va stratigrafik tuzilishi hamda qadimgi ekologik sharoitlar tahliliga bag‘ishlangan. Manzilgohda olib borilgan qazilma ishlari natijasida qadimgi insonlarning yashash faoliyati, mehnat qurollari ishlab chiqarish texnologiyasi va iqlim sharoitiga moslashuv xususiyatlari aniqlangan.*

***Kalit so’zlar:*** *Ko’lbuloq, anatomiya, paleolit, qatlamlar, muster madaniyati, ekalogik muhit, yashash joylari, arxiologik topografiya.*

Ko‘lbuloq manzilgohi - O‘zbekiston paleolit arxeologiyasida eng qadimgi va eng yaxshi o‘rganilgan manzillardan biridir. U nafaqat tarixiy ma’lumotlar manbai, balki arxeologik jihatdan mukammal tahlilga mos obidadir. Ko‘lbuloqning stratigrafiyasi, topografiyasi va tarkibiy qismlarining tahlili, qadimgi insonlarning bu hududda qanday yashaganini aniq tasavvur qilishga imkon beradi. Ko'lbuloq makoni Angren shahridan 10-12 km g'arbda joylashgan Oblik qishlog'idan 5 km shimoliy-g'arbdagi qirlikda joylashgan. Ko'lbuloq nianzilgohi ko'p qatlamli bo'lib, ilk, o'rta va so'nggi paleolit davriga oid qatlamlari bo'lib. u yerdan bugungi kunda 49 madaniy qatlam topilgan. Bu

makon 1963 yilda dastlab aniqlangan. Hozirgacha uning 19 m chuqurlikkacha bo'lgan joyida tadqiqot o'tkazilib. ilk. o'rta va so'nggi paleolit davrlariga oid asholar topib o'rganildi. Ilk paleolit davriga oid qatlamidan qo'l cho'qmorlari, ishlanish texnikasi o'ziga xos bo'lgan sodda tosh qirg'ichlari topilgan. Shuningdek, bu erdan kul, ko'mir qoldiqlari va har xil hayvon suyaklari topilgan. Koʻlbuloqda istiqomat qilgan odamlar ovchilik, termachilik bilan hayot kechirganlar. Mustaqillik yillarda ilk paleolit davrini o'rganishda koʻplab yutuqlar qoʻlga kiritildi. Bunda arxeolog olimlar Oʻ. Islomov, K.Kraxmalning xizmatlari kattadir. Koʻlbuloq makonining 4- 8 qatlamlarigina muste davriga oiddir.

Madaniy qatlamlardan 8300 dan ortiq tosh qurollari: har xil shakldagi nukleuslar, siniq uchrindilar, qirg'ichlar, qoʻl choʻqmorlari va boshqalar topilgan. Koʻlbuloqdan topilgan mehnat qurollari son va sifat jihatdan Toshkent vohasi-ning boshqa joylaridan topilgan makonlardagi mehnat qurollardan farq qiladi. Faqat tishli qirgʻichlar Boʻzsuvdagi muste davri qurol-lariga oʻxshash hisoblanadi. Ko'lbuloq madaniy qatlamlaridan togʻ echkisi, ayiq, arhar va boshqa hayvonlaming suyak parchalari, kul va gulxan qoldiqlari topilgan. Toshkent vohasidan Zogʻariq, Boʻzsuv, Koʻhisim mazilgohlari va Qoraqamish topilmalari, jami 30 dan ortiq makon qayd qilingan. Bu ayniqsa Toshkent shahrining 2200 yilligi munosabati bilan keng arxeologik qidiriv ishlari bajarildi. Bu erlarda arxeologik tadqiqot ishlari hozirda ham davom etmoqda.

Muste davri yodgorliklari Fargʻona vodiysida ham keng tarqalgan. Ularni tadqiq qilishda A.P.Okladnikov, P.T.Konoplya, M.R.Qosimov, OM.lslomov, V.A.Ranov, Yu.A.Zadneprovskiylaming xizmatlari kattadir. 1954-yilda P.T.Konoplya Sharqiy Farg'onada birinchi marta paleolit qurollarini topdi. Shu yili A.P.Okladnikov G'arbiy Farg'onada tadqiqot ishlarini olib borib Qayroqqum manzilgohlarini aniqladi va tadqiqot ishlarini 1961-yillragacha davom qildirdi. Olim Qayroqqum dalasining 31 punktidan tosh qurollarini topdi. Ayniqsa, Buloqchap va Sho'rko'l punktlari topilmalari diqqatga sazovordir. Bu joylardan ko'plab tosh o'zaklar, sixchalar, tosh siniqlari topildi. Topilmalar shuni ko'rsatdiki. neandertal odamlar Sirdaryoning qadimgi irmoqlar bo'ylab, bir necha joylarda o'z manzilgohlarini qurganlar va ovchilik, termachilik bilan shug'ullanganlar. Koʻlbuloq makoni - qadimgi tosh davriga oid koʻp qatlamli yodgorlik boMib, uning yuqori 1, 2, 3 qatlamlaridan soʻnggi paleolit davriga oid materiallar topilgan. U erdan gulxan, ko'mir qoldiqlari, tosh buyumlardan - nukleuslar. qirg'ichlar. sixchalar, tosh pichoqlar, tosh siniqlari va hayvon suyaklari topildi. Makondan eng ko'p miqdorda nukleuslar

topilgan, chunki ibtidoiy odamlar nukleuslarni ajratib olishning yangi texnikasini kashf etganlar. llgaridagidek, paraqalami tosh bolg‘a bilan emas, balki tosh pona bilan ajratib olganlar.

Bu bilan ular xohlagan shakldagi paraqani toshdan ajratib olish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Qo'lbuloqdan topilgan tosh qurollar o'zining ishlanishi jihatidan Samarqand, Bo‘zsuv va Tuyabo'g'iz makonlaridan topilgan so'nggi tosh davri qurollariga o'xshaydi. Arxeolog M.R.Qosimovning ta’kidlashicha, Toshkent vohasida ilmiy ahamiyati jihatidan Ko'lbuloqqa teng keladigan yodgorlik topilganicha yo‘q. 2001-2002 yillar mobaynida Ko‘lbuloq makonida qayta tadqiqot ishlari olib borildi va so'ngi paleolit dariga oid retushlangan mehnat qurollari, turli shakllardagi nukleuslar topildi. Toshkent vohasidan so‘nggi paleolit davriga oid Bo‘zsuv I, Bo‘zsuv II, Bo'zsuv VI, Tuyabo‘g‘iz II, III, IV, V, VI makonlari ham topib o ‘rganilgan. Ulardan topilgan tosh buyumlar KoMbuloqdan topilgan tosh buyumlariga o'xshaydi. Bular asosida arxeologlar Toshkent vohasida ibtidoiy odamlar paleolit davrining barcha bosqichlarida isteqomat qilib, bir-biri bilan yaqin aloqada boMganlar va ovchilik xo‘jaligi bilan shug‘ullanganlar degan xulosaga kelishgan. So‘nggi paleolit davriga oid Fransiya, Ispaniya, Janubiy Italiya xududlaridan g‘orlarga ishlangan rasmlar topilgan. Qoya tosh rasmlar o ‘sha davr odamlariining diniy e ’tiqodi bilan bogMiq holda ishlangan. Ba’zida rasmlar g‘orlarning yorug‘ tushmaydigan joylariga, ya’ni 900 m.gacha boMgan joylaridan ham topilgan. Franciyaning Losel g‘oridan odam va hayvonlar tasviri qizil va sariq ranglar ishlangan. Angl-syurL'Anglandan esa, 35m kenglikda bizon, ot, tog‘ echkisi tabiiy hajmda aks ettirilgan. Ularni uchta ayol kuzatib turibdi. Bu tasvirlar urib-o‘yish yo‘li bilan ishlangan. Ispaniyada Altamir g‘oridan topilgan tasvirlar butunlay o‘zgacha bo‘lib, qizil rang bilan ishlangan. Ramziy ma’nolarga ega bo‘lgan turli shakllar ham aks ettirilgan.

So‘nggi paleolit davrida, mil.avv. 30-20 ming ilgari Shimoli - Sharqiy Osiyo xududidagi ibtidoiy odamlar Bering bo‘g‘ozi orqali Alyaskaga kirib borib, Amerika xududlari bo‘ylab tarqaladilar va o‘ziga xos madaniyatni yaratganlar. O‘zbekiston hududida qadimdan rivojlangan shahar sivilizatsiyalari mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, Toshkent vohasi o‘zining iqlimi, geografik joylashuvi va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Toshkent - qadimiy davrlarda Shosh nomi bilan tanilgan. Uning ilk shakllanish bosqichlariga oid asosiy manzilgoh esa Shoshtepa hisoblanadi. Shoshtepa yodgorligi arxeologik jihatdan Shosh shahrining (hozirgi Toshkentning) dastlabki markazi bo‘lib, uning miloddan avvalgi davrlardan boshlab shahar sifatida shakllanganini isbotlab beradi. Ushbu referatda Shoshtepa

manzilgohining topilishi, o‘rganilishi, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, u yerda aniqlangan topilmalar va uning tarixiy ahamiyati yoritiladi. Shoshtepa manzilgohi hozirgi Toshkent shahrining Chilonzor tumani hududida, Zarqaynar kanali yaqinida joylashgan. Bu tepalik shaklidagi yodgorlik diametri 350–400 metr, balandligi esa 8–10 metr atrofida. Uning shakli to‘rtburchak yoki notekis oval ko‘rinishda bo‘lib, atrofida qadimgi mudofaa devorlarining izlari, minoralar, xandaqlar aniqlangan. Tadqiqotlar natijasida Shoshtepa manzilgohi ilk shahar tipidagi turar-joy majmuasi bo‘lgan, ya'ni bu yerda aholi zich yashagan, ularning hunarmandchilik, savdo va dehqonchilik faoliyatlari mavjud bo‘lgan.

Shoshtepa manzilgohi haqida ilk yozma qaydlar 19-asrning oxirlariga to‘g‘ri keladi. Rossiyalik sayyohlar va tadqiqotchilar - jumladan N.I. Veselovskiy va V.V. Bartold tomonidan bu hududda qadimgi arxeologik yodgorliklar mavjudligi qayd etilgan. Shoshtepa o‘sha paytlarda "eski qal’a" sifatida tilga olingan bo‘lsa-da, uning arxeologik ahamiyati hali chuqur anglanmagan edi. 20-asrning 30–40-yillarida Shoshtepa ilmiy jihatdan o‘rganila boshlandi. Sovet arxeologi A.N. Bernshtam bu yodgorlikni ilmiy asosda o‘rganishga kirishgan. Uning rahbarligida olib borilgan dastlabki qazish ishlari Shosh shahrining tarixiy markazi aynan Shoshtepa bo‘lganligini isbotladi. Shundan so‘ng yodgorlik Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi rejasiga kiritildi.

1960–1980-yillar oralig‘ida O‘zbekiston arxeologlari tomonidan keng ko‘lamli qazish ishlari olib borildi. Bu davrda quyidagi muhim ishlar amalga oshirildi: Qadimgi turar-joy uylarining poydevorlari topildi Mudofaa devorlarining tuzilmasi o‘rganildi Neolit va bronza davriga oid sopol buyumlar, tangalar, metall va suyakdan yasalgan ashyolar topildi Tabiiy suv inshootlari va sug‘orish tizimlari izlari qayd etildi. Bu ishlar natijasida Shoshtepa hududida aholi miloddan avvalgi III–I asrlardan boshlab yashab kelgani, ularning ishlab chiqarish madaniyati mavjud bo‘lgani aniqlandi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarix va madaniyatga e’tibor kuchaydi. 1990-yillardan boshlab Shoshtepa yodgorligida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti tomonidan yangi bosqichdagi izlanishlar boshlandi.

Arxeologlar - E. Rtveladze, K. Xoldorov, A. Hakimov kabi mutaxassislar bu yodgorlikni tubdan o‘rganishga kirishdi. Yangi qazishlarda quyidagi muhim topilmalar aniqlangan: Kushonlar davriga oid tangalar (I–IV asrlar) Mahalliy ishlab chiqarilgan sopol idishlar Ibodat marosimlariga oid diniy buyumlar Hunarmandchilik buyumlari - temirchilik, kulolchilik, to‘qimachilik

mahsulotlari Bu topilmalar orqali Shosh shahri qadimda mustahkam siyosiy va iqtisodiy markaz bo‘lganligi, diniy urf-odatlar va madaniy qatlamlarning shakllangani oydinlashdi. Shoshtepa yodgorligi Toshkent (Shosh) shahrining ikki ming yillik tarixini ilmiy asosda isbotlovchi asosiy obidalardan biridir. Uning o‘rganilishi orqali: Toshkentning ilk shahar sifatidagi shakllanishi, Savdo va madaniy aloqalar (Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liq), Hududiy boshqaruv va ijtimoiy qatlamlar tuzilishi, Hunarmandchilik va diniy e’tiqodlar rivoji kabi jihatlar yoritildi. Bugungi kunda bu yodgorlik milliy madaniy meros sifatida davlat muhofazasiga olingan.

Ko‘lbuloq va Shoshtepa manzilgohlari Toshkent vohasining qadimiy tarixini o‘rganishda muhim arxeologik manbalardan hisoblanadi. Ular orqali vohaning taraqqiyot bosqichlari, odamzodning dastlabki faoliyati, shahar madaniyatining shakllanishi va Markaziy Osiyo tarixidagi Toshkentning o‘rni haqida chuqur ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Ko‘lbuloq manzilgohi - Toshkent viloyatining eng qadimgi neolit va eneolit davriga oid yodgorligidir. Bu yodgorlik orqali Toshkent vohasida miloddan avvalgi VI–IV mingyilliklarda ilk odamlar istiqomat qilgani, ular ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi aniqlandi. Ushbu joyning topilishi va o‘rganilishi vohada qadimdan tabiiy resurslar va ekologik qulayliklar mavjud bo‘lib, ilk ijtimoiy tuzilmalar shakllangani haqida ma’lumot beradi. Shoshtepa esa Toshkent shahrining antik davrdagi markazi sifatida tarixiy va madaniy jihatdan ulkan ahamiyatga ega. Bu manzilgohda olib borilgan qazish ishlari orqali qadimgi Shosh shahri (Toshkent) miloddan avvalgi III asrda shahar markazi sifatida mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Topilgan tangalar, uy-joylar, devorlar, hunarmandchilik buyumlari va diniy atributlar bu hududda yuqori darajada taraqqiy etgan shahar madaniyati bo‘lganini tasdiqlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABYOTLAR**

1. Bernshtam A.N. Drevniy Tashkent (Shosh). - Tashkent: Fan, 1951.

2. Rtveladze E.V. Shosh - drevniy gorod Sredney Azii. - Tashkent: Fan, 1997.

3. Formozov A.A. Neolit i rannyaya bronza Sredney Azii. - Moskva: Nauka, 1970.

4. Suleymanov R. Ko‘lbuloq madaniyati va uning arxeologik ahamiyati. - Toshkent: Fan, 1983.

5. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti. O‘zbekiston tarixi (1–3 jildlar). - Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” nashriyoti, 2000–2005.

# SOSONIYLAR VA EFTALIYLAR O‘RTASIDAGI SIYOSIY MUNOSABATLAR

***Bozorov Bekzod Murodjon o‘g‘li,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Sosoniylar imperiyasi va Eftaliylar davlati o‘rtasida 5–6-asrlarda kechgan harbiy-siyosiy kurashlarning tarixiy jarayonini o‘rganadi. Maqolada ikki davlatning siyosiy tuzilmasi, iqtisodiy manfaatlari, harbiy yurishlari va diplomatik aloqalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Peroz I davridagi halokatli mag‘lubiyat va Xusrav I Anushirvon davrida Eftaliylarning tor-mor etilishi yoritiladi. Ushbu voqealar Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘lgan. Maqola arxeologik topilmalar, numizmatika, forsiy va xitoy manbalariga tayangan holda boyitilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Sosoniylar, Eftaliylar, Xusrav Anushirvon, Peroz, Heftalitlar, Markaziy Osiyo, Eran-shahr, tarixiy kurashlar.*

Sosoniylar imperiyasi (224–651--yillar) Arshakiylar sulolasini ag‘darib, Eron hududida tashkil topgan kuchli markazlashgan davlat edi. Ular Vizantiya imperiyasi, Kushonlar, Eftaliylar va keyinchalik Arab xalifaligi bilan kurash olib borgan. Sosoniylar o‘zini "Eron shohi, Eron va Not-Eron shohlari" deb atagan, bu esa ularning imperialistik maqsadlarini anglatadi. Eftaliylar esa xuniy kelib chiqishga ega bo‘lgan ko‘chmanchi qabilalar birlashmasidir. Ular dastlab Altay va Sharqiy Turkiston atrofida yashagan bo‘lib, keyinchalik Amudaryo vodiysiga ko‘chib o‘tib, o‘zlarining ilk siyosiy tuzilmalarini yaratganlar. Davlat markazi Balx atrofida joylashgan.

Sosoniylar davlati - Yaqin va O‘rta Sharqda sosoniylar sulolasi boshqargan davlat (3-7-asrlar). 224 -yil Ardasher I Parfiya shohi Artabon V ni mag‘lubiyatga uchratib, 226 -yil poytaxt Ktesifon shahrini egallab, yangi davlat taxtiga utiradi. Bu davlatning barcha hukmdorlari "shahanshoh" unvoni bilan taxtni boshqarganlar, davlat Eronshahr ("oriylar podsholigi" yoki "eroniylar shoxligi") deb atalgan. Eron, uning g‘arb va sharqidan hududlar (Ardasher I va Shopur I davrida) birlashtirilgan. Sosoniylar davlatida shoxlar kohinlarga tayanib ish ko‘rishgan, yangi otashkada ("olov saroylari") bunyod etilgan, Ardasher I davrida zardushtiylik davlat dini deb e’lon etilgan, zardushtiy ruhoniylar davlatda katta siyosiy, iqtisodiy ta’sir kuchiga ega bo'lishgan, boshqa dinlar ta’qib qilingan. 3-asrning oxiri - 4-asrning boshlarida Sosoniylar davlati inqirozi boshlangan. Bahrom II Rim bilan bo‘lgan jang (282 -yil)da mag‘lubiyatga uchragan. Sosoniylar davlati sharqdagi bir qancha

viloyatlaridan ajragan. Shopur II davrida ular qayta bosib olingan. Mesopotamiyaning ayrim viloyatlari, Armaniston podsholigining bir qismi Rim bilan bo‘lgan urushlarda Sosoniylar davlati tobeligiga o‘tgan. Shopur II davrida Sosoniylar davlati markazlashtirilgan, majusiylik kuchaygan. Sosoniylar davlati sharqiy va shimoliy qabilalar birlashmasi (xioniylar, kidariylar va boshqalar)ga qarshi 5-asr o‘rtalarigacha muvaffaqiyatli kurash olib borgan, lekin eftaliylar bilan bo‘lgan jangda yengilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha 457-yildan e’tiboran eftaliy podshosi Vaxshunvor Chog‘oniyon, Tohariston va Badaxshonni o‘ziga bo‘ysundiradi. Kuch-qudrat jihatdan mustahkamlanib olgan Eftallar O`rta Osiyo va Shimoliy Hindistondagi katta yerlarni ishg`ol etishga kirishadilar. Eftallarning janubdagi asosiy raqiblari Eron sosoniylari edi. Eftallar asta sekin janubiy hududlarni o`zlariga bo`ysundirar ekanlar, ularning sosoniylar bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Eftallar va sosoniylar o`rtasidagi kurashlar podsho Pero`z (459-484 yy.) davriga to`g`ri keladi. Perozni o’zi hokimiyatga kelishida eftallardam foydalangan edi. Eftallarning tobora kuchayib borayotgan tajovuzidan xavfsiragan sosoniylar ularga qarshi 468-yilda yurish qiladi. Jang chog’ida sosoniylar hukmdori asirga tushib qoladi va Vizantiya imperatori Zenonga o"z jonini xalos qilinishi uchun yordam so'rab murojaat qiladi. Vizantiya hukmdori tovon to’lab, uni qutqarib qoladi. Pero‘z chegaradagi Talikon shahrini eftallarga berish va bundan buyon Varaxran tomonidan belgilangan chegara Toshminordan o‘tmaslik shartini o‘z zimmasiga oladi. Ammo bu shartlarni bajarmaydi.

482-yilda ikkinchi marta eftallarga qarshi qo‘shin tortadi. Pero‘zning ikkinchi yurishida ittifoqdosh Vizantiyaning elchisi Yevsiviy ishtirok qiladi. Ikkinchi yurish ham muvaffakiyatsiz tugaydi. Sosoniylar qo’shinlari bu gal qopqon o'raga tushib qolishadi va askarlarning ko‘pchiligi bu yerda halok bo’ladi. Mazkur mag’lubiyat natijasida Xuroson hududi to’liq ravishda eftaliylar qo’li ostiga tushib qolishadi. Ikkinchi marta asirlikka olingan Pero‘z 30 xachir dirham o‘lpon to‘lash majburiyatini ham oladi. Biroq uning deyarli bo‘shab qolgan xazinasidan faqat 20 xachirga yuk bo‘ladigan mablag‘ topiladi, xolos. Shohning Kubod ismli yosh o‘g‘li eftallar yurtiga garovga yuborilib, Pero‘z tutqunliqdan ozod etiladi. Ikki yil davomida eftallarga o‘lpon to‘lab turiladi. O‘lponni shoh aholi jon boshiga og‘ir soliq solish yo‘li bilan to‘playdi. Yozma manbalarda bu voqealar Pero‘z tomonidan Eronning eftallarga sotilib oyoq osti qilingani va mazlumlikdan abadulabad eroniylar yurti xalos bo‘la olmasligi alam bilan qayd etiladi.

Belgilangan o‘lponni to‘lab bo‘lgach, Pero‘z eftallar bilan aloqani yaxshilashga harakat qiladi. Ular bilan quda andachilik ipini bog‘lash maqsadida raqibiga singlisini xotinlikka taklif etadi. Eftallarning iltimosiga binoan 300 nafar harbiy instruktor yuboriladi. Ammo eftallar hokimi Kunxa Eronlik instruktorlarning bir qismini o‘ldirishga, qolganlarini esa urib, mayib qilishga buyuradi. Chunki shoh singlisi o‘rniga cho‘rilaridan birini yuborib, eftallar hukmdorining izzat-nafsiga tekkan va bunday hiyla-nayrangi bilan uni nihoyatda ranjitgan edi

Vizantiya yordamidagi uchinchi, 484-yili Marv yaqinidagi so‘nggi yurishida Peroz o‘z harbiy qismilari bilan ular uchun maxsus tayyorlangan o'ralariga tushib halok bo’lishadi. Perozning mag’lubiyatga uchrashi sosoniylar qudratiga eftaliylar tomonidan chek qo‘yilishiga olib keldi. Marv ishg‘ol qilinib, Eron ustiga juda og‘ir o‘lpon yuklanadi. Eftaliylar qo‘li ostida tarbiyalangan Perozning o‘g‘li Kubod davrida Eron eftaliylarga hiroj to‘lashda davom etdi, Kubod hukmronligi davridagi (488–531-yillar) tengsizlik va ekspluatasiya zulmiga qarshi xalq ommasi o‘rtasida norozilik qo‘zg‘olonlari bo‘lgan.

Xusrav I Anushirvon (531-579) davrida harbiy va iqtisodiy islohotlar bilan birga milliy tiklanish harakatini yuzaga keltiradi. Xusrav I Istami xoqon (G‘arbiy Turk xoqoni) bilan ittifoq tuzadi. 560-yilda ular Balx yaqinida Eftaliylar ustidan hal qiluvchi jangda g‘alaba qozonishadi. Eftaliylar davlati parchalandi, yerlarining bir qismi Eronga, qolgani Turk xoqonligiga qo‘shildi. Bu g‘alaba Eronning sharqiy chegaralarini xavfsizlantirdi, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minladi. Shuningdek, bu ittifoq orqali turkiy xalqlar Eron siyosatiga faol qo‘shila boshladi. Bu kurashlar Eron va Markaziy Osiyo tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Eftaliylar tarix sahnasidan chiqdi, ularning o‘rnini turkiy davlatlar egalladi. Sosoniylar esa g‘arbda Vizantiya bilan, sharqda esa turklar bilan diplomatik muvozanatga erishdi. Xusrav I ning islohotlari, adolatli boshqaruvi va xalqni ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishga yetaklashi bu davrni "Anushirvon adolati" sifatida tarixda muhrladi.

Sosoniylar va Eftaliylar o‘rtasidagi kurashlar Eron va Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qilgan. Bu kurash faqat ikki davlat o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuv emas, balki madaniy, iqtisodiy va siyosiy ta’sir doirasi uchun olib borilgan uzoq muddatli raqobat edi. Eftaliylar yengilgach, ularning madaniy merosi barbod bo‘lmagan, balki keyinchalik o‘zbek, tojik, afg‘on va boshqa xalqlar madaniyatiga singib ketgan. Shu bilan birga, Sosoniylar davlati ham bu g‘alaba tufayli o‘z siyosiy mavqeini

mustahkamladi va Eron tarixida eng qudratli davlatlardan biri sifatida tarix sahnasida o‘z o‘rnini egalladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. - T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. Frye R.N. The Cambridge history of Iran, volume 4. Cambridge university press. 2008.

4. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

5. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad. Buxoro tarixi. / Tarjimon A.Rasulov, nashrga tayyorlovchilar H.Maqsud, N.Asqaraliyeva. T.: Oydin tafakkur, 2022.

## SAKKOKIY VA O‘ZBEK MUMTOZ G’AZALCHILIK AN’ANALARI

**Davronova Komila,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti talabasi
**Ilmiy rahbar:** Rasulova R. B.
Pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori(P.H.D)dots.v.b

***Annotatsiya****: Ushbu maqolada Alisher Navoiy davrining yetuk vakillaridan biri – Sakkokiy ijodining o‘zbek mumtoz adabiyoti, ayniqsa gazalchilik an’analariga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Uning badiiy mahorati, estetik tafakkuri, gazal janridagi ijodiy yondashuvi tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:****Sakkokiy, gazal, mumtoz adabiyot, badiiy tafakkur, Navoiy maktabi.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается вклад Саккокий – одного из ярких представителей эпохи Алишера Навои – в развитие узбекской классической поэзии, особенно в жанре газели. Анализируются его художественное мастерство и эстетическое мышление.*

***Ключевые слова:*** *Саккокий, газель, классическая литература, художественное мышление, школа Навои.*

***Annotation:*** *This article explores the contribution of Sakkokiy, one of the prominent figures of Alisher Navoi's era, to Uzbek classical poetry, especially*

*to the tradition of ghazals. His poetic skills and aesthetic approach in the ghazal genre are analyzed.*

***Keywords:*** *Sakkokiy, ghazal, classical literature, poetic thought, Navoi school.*

O‘zbek mumtoz adabiyotining shakllanishida va yuksalishida gazal janrining tutgan o‘rni beqiyosdir. Bu janr orqali shoirlar o‘z estetik dunyoqarashini, muhabbat, sadoqat, ilohiy ishq singari yuksak tushunchalarni ifodalaganlar. Aynan shu yo‘nalishda Alisher Navoiy maktabi doirasida yetishib chiqqan shoirlardan biri – Sakkokiy o‘zining badiiy mahorati bilan ajralib turadi.

Sakkokiy (taxminan XV asr) o‘z davrining eng nufuzli shoirlaridan biri bo‘lib, gazalchilikda o‘ziga xos uslubga ega edi. U nafaqat o‘zbek tilidagi, balki fors-tojik tilidagi asarlari bilan ham tanilgan. Uning gazallarida lirizm, badiiy tasvir, istiora va tashbehlar keng o‘rin olgan.

Sakkokiy gazallarida ko‘pincha ishqiy mavzular, yor sifati, sadoqat, ayriliq kabi mavzular yoritilgan bo‘lib, ularni o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos ohangda ifodalagan. Jumladan, uning bir gazalida quyidagicha misralar uchraydi:

**Ko‘nglim ichra hasrat otashin yoqdim, ey ma’vo,**
**Yondirur har dam meni, tutmas bu jism hech panjo.**

Bu misralardan ko‘rinadiki, shoirning ifoda uslubi, his-hayajonlarning obrazli ifodasi, badiiy vositalardan mohirona foydalanish – Sakkokiy gazallarini mumtoz adabiyot namunasi sifatida e’tirof etish imkonini beradi.

Sakkokiy ijodida Navoiy an’anasi aniq ko‘zga tashlanadi. U o‘z ijodida Navoiydan ilhomlangan bo‘lsa-da, bu izdoshlik ko‘r-ko‘rona emas, balki ijodiy yondashuv, uslubiy mustaqillik asosida yuzaga chiqqan. Uning ayrim gazallarida Navoiy gazallariga ohangdoshlik seziladi, bu esa mumtoz adabiyotda “nazira” yozish an’anasining davomchiligi sifatida baholanadi.

Sakkokiy gazallarida zamonaviy til uslubi, fonetik musiqiylik va ohangdorlik, qofiya tanlovi ham muhim rol o‘ynaydi. Shoir, ayniqsa, radifli gazal yozishda yuqori darajadagi badiiy mahorat namunasini ko‘rsatgan. Bu holat uning shoir sifatida shakllanganini va adabiy jarayonlarda faol ishtirok etganini anglatadi.

Sakkokiy (taxminan 1400–1450-yillar) – Temuriylar davrida yashab ijod qilgan yirik shoirlardan biridir. To‘liq ismi Muhammad Sakkokiy bo‘lib, tarixiy manbalarda uning hayoti haqida ko‘p ma’lumotlar saqlanmagan. Biroq u Alisher Navoiy davri adabiy muhitining faol ishtirokchilaridan bo‘lgan.

Uning ijodida o‘sha davr estetik qarashlari, sufiyona g‘oyalar, ishqiy-falsafiy obrazlar yaqqol aks etgan.

Sakkokiy Alisher Navoiy uni o‘z asarlarida iliq so‘zlar bilan tilga olgan kam sonli zamondoshlardan biridir. Bu esa Sakkokiyning o‘z davrida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan shoir ekanligini ko‘rsatadi. Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Sakkokiyni yuqori baholaydi va uni o‘ziga hamnafas ijodkor sifatida ko‘rsatadi.

**Sakkokiy gazallarining badiiy xususiyatlari**

**Obrazlilik:** Sakkokiy obrazlar yaratishda, ayniqsa yor, gul, bulbul, dard, ishq kabi mumtoz motivlarni qo‘llashda mahorat ko‘rsatadi. Bu obrazlar orqali u o‘zining ichki kechinmalari va falsafiy qarashlarini bayon etadi.

**Tashbeh va istiora:** Uning gazallarida poetik tasvir vositalari – tashbeh (o‘xshatish), istiora (kinoya), tazod (qarama-qarshilik) keng ishlatilgan.

**Radif va qofiya tanlovi:** Radifli gazallarida ohangdorlik va ritm uyg‘unligi yuqori. Bu xususiyat o‘quvchi yoki tinglovchining e’tiborini tortadi va she’riy musiqiylikni ta’minlaydi.

**Sufiyona g‘oyalar:** Ayrim gazallarida Sakkokiy tasavvuf g‘oyalariga murojaat qiladi. Bu esa uni faqat ishqiy emas, balki falsafiy shoir sifatida ham baholashga asos beradi.

**Sakkokiy va boshqa mumtoz shoirlar bilan bog‘liqligi**

Sakkokiy ijodi Alisher Navoiy, Lutfiy, Atoiyning ijodiy an’analari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli ularning gazallarini o‘rganishda Sakkokiy asarlari muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, gazalchilikda mavzu tanlovi, uslub va badiiy vositalar taqqoslab o‘rganilganda, Sakkokiy o‘zining betakrorligi bilan ajralib turadi.

Sakkokiy mumtoz o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri sifatida gazal janrining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning ijodi orqali Navoiy maktabining davomiyligi va rivojlanish jarayoni ko‘rinadi. Shoirning gazallarida badiiy uslub, lirizm, obrazlilik, va estetik tafakkur uyg‘unlashgan bo‘lib, bugungi adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy-tahliliy manbadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdullaev, M. *O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi.* – Toshkent: Fan, 2010.

2. Jo‘rayev, A. *Sakkokiy ijodi va gazalchilik an’analari.* – Samarqand: Zarafshon, 2016.

3. Navoiy, A. *Xazoyin ul-maoniy.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005.

4. Qodirov, B. *Mumtoz adabiyotda badiiy tafakkur.* – Toshkent: Universitet, 2012.

5. Xolmirzayev, H. *O‘zbek gazalchiligi va an’ana.* – Buxoro: Ilm ziyo, 2018.

## BO‘STONLIQ TUMANI “SIJJAK” MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA

**Dilmurod Normurodov,**
O‘zMU dotsenti PhD.,

Qadimdan ilk o‘rta asrlarga qadar Choch, 9–12-asrlarda Shosh-Iloq deb yuritilgan Toshkent vohasining o‘ziga xos o‘tmishi bor. Vohaning qulay tabiiy-geografik joylashuvi va turli resurslarga boyligi odamlar tomonidan tosh davridan muntazam o‘zlashtirib kelishlariga sabab bo‘lgin. Keyinchalik Toshkent vohasida aholi soni oshib qishloq va shaharlarga asos solingan. Bular haqida darak beruvchi turli arxeologik yodgorliklarining o‘rni haligacha saqlanib qolgan. Ular g‘or-makoni, ochiq manzillar, tosh davri ustaxonalari, qoyatosh sur’atlari, shaharlar, qishloqlar, konlar, qabr-qo‘rg‘onlari va boshqalardan iborat bo‘lib, ularning umumiy hisobda 750 dan ortig‘i ilmiy muomalaga olib kirilgan [1]. Bu madaniy meros obyektlaridan bir qismi qabristonlarga aylantirilgan bo‘lsa, bir qismi esa so‘ngi 200-yil orasida o‘zlashtirilib yo‘q qilib yuborilgan. Ulardan saqlanib qolganlarining aksariyati O‘zbekistonning arxeologik yodgorliklari sifatida davlat muhofazasiga olingan.

Shuni qayd qilish kerak-ki, Toshkent vohasidagi yerlarni sug‘orma dehqonchilik maydonlariga aylantirish maqsadida o‘tgan asrning o‘rtalarida suv ombor qurish ishlariga katta e’tibor qaratilgan. Natijada, Toshkent vohaning asosiy daryolari – Chirchiq va Ohangaron daryolari havzalarida bir qancha suv omborlari qurilgan. Jumladan, Chirchiq daryosi havzasida – daryoning yuqorisida “Chorvoq suv ombori”, daryoning bosh qismidagi Xo‘jakent havzaning tekislashgan qismidagi Bo‘zsuv omborlari, Ohangaron daryosi havzasida – daryoning yuqori oqimida Ohangaron suv ombori, daryoning tekislikka tutash qismida “Tuyabo‘g‘iz suv ombori (Toshkent dengizi) tashkil qilingan. Ana shu suv omborlarining tashkil qilinishi munosabati bilan tashkil qilingan arxeologik tadqiqotlarda vohaning asosiy arxeologik yodgorliklari hisobga olingan, ulardan ayrimlarida qazuv ishlari ham olib borilgan. Tadqiqotlarda aniqlangan yodgorliklarning bir nechtasi vohada tashkil qilingan suv omborlarning suv ostida qolib ketgan. Ularning xarobalarida saqlanib qolgan ashyolar suv omborlarning suvi sathi pasaygan

mavsumda ochilib qolmoqda. Ayniqsa, so‘ngi yillarda ichki va tashqi turizm maskanlariga aylangan Chorvoq suv ombori sohillarida bunday ashyolarning turistlar tomonidan topilishi holatlari tez-tez kuzatilib turibdi. Bu kabi arxeologik ashyolarni yig‘ib olib muzeylarga topshirish maqsadida joriy yilning bahor oyida Chorvoq suv ombori suvi sathining pasaygan mavsumda, suv omborning qirg‘oqlari bo‘ylab yangi arxeologik qidiruv ishlari olib borildi.

2025-yil 27-mart kuni Chorvoq suv omboriga shimoldan kelib qo‘shiladigan Piskomsoyning o‘ng irmog‘i bo‘lgan Sijjaksoyning chap sohili, Piskomsoyning Bo‘stonliq tumani, “Sijjak” MFYga tutash qirg‘og‘i kuzdan kechirilganda oq, sariq, yashil va ko‘k rangda sirlangan va qizg‘ish rangdagi sirsiz sopol parchalari, pishirilgan g‘ishtlar, temir toshqollari uchratildi. Tekshirilar paytida ushbu ashyolar sochilib yotgan hududda turli kattalikdagi, ko‘p sonli doirasimon shaklli toshlarni eritib metall ajratib olishda foydalanilgan o‘choq va sopol buyumlarni pishirishda foydalanilgan xumdonlarning o‘rni ko‘zga tashlandi. Yangi tadqiqotlarda suv ombor suvining pasayganligidan foydalanib, suv bosadigan qismidagi moddiy ashyolardan sirli va sirsiz sopol buyumlar, suyakdan yasalgan buyumning sinig‘i va kamon o‘qlarining uchlari yig‘ib olindi. 12–13-aprel kunlari esa mavsumda suv ostida qolib ketadigan kulolchilik xumdonlarining tuzilishiga oydinlik kiritish uchun ulardan ikkitasida arxeologik qazish-tozalash ishlarini olib borildi[1]. Bu tadqiqot natijasida qazib o‘rganilgan har ikkala xumdonlarning ovalsimon shakldaligi, olov yoqishga moslashtirib biroz kengaygan tomoni daryo ya’ni, sharq tomondaligi aniqlandi. Xumdonlar ikki yarusli bo‘lib, uning 1-pasiki qismi (yarusi) xumdonni qizitish uchun o‘t-olov yoqiladigan, 2-tepa qismi (yarusi) kulolchilik buyumlarini terib-taxlab quyib pishiriladigan qismi bo‘lgan. Xumdonlarning devorini yuzasi yuqori darajadagi olov yonishi natijasida ko‘kimtir-shaffof rangga, ichki arkibi esa qizg‘ish ranga kelib qolgan. Afsuski, ustki yarusini devori deyarli saqlqnmagan. Ushbu kulolchilik xumdonlar quyidagicha o‘lchamga ega:

1-xumdon. Yirik hajmda bo‘lib, uning diametri – 2,8 m, saqlangan umumiy chuqurligi – 1,4 m, shundan pastki qisminiki – 1,2 m., yuqori qisminiki – 20 sm, devorining qalinligi – 10–15 sm.dan iborat (1-rasm).

2-xumdon. 1-sidan 50 m janubda joylashgan bo‘lib, uning diametri – 1,2 m, saqlangan pastki qismini chuqurligi – 0,5 m (yuqori qismi saqlanmagan),

[1] Bu qazish ishlarida ishtirok etgan arxeolog Konstantin Andreevich Kraxmalga, O‘zMU “Arxeologiya” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich kechki guruhi talabalari – Abrorjon Ilxomjon o‘g‘li Sharobboyev, Davronbek Xayitboy o‘g‘li Sayfutdinov, Axmadjon tuxliboy o‘g‘li Tovasharov, Asadbek Abduraxmon o‘g‘li Norqulov, Shahzod asror o‘g‘lilar Salimjonovga, 3-bosqich kechki guruhi talabasi – Ozodjon Yunus o‘g‘li Xudaynazarovga chuqur minnatdorlik bildiramiz.

devorining qalinligi – 10–14 sm.dan iborat. Bu xumdonning o‘tin solishga moslangan old tomoni 0,5 m.ga kengaygan (2-rasm).

Chorvoq suv omborining “Sijjak” MFYga tutash maydonidagi yangi qidiruv ishlari paytida uchratilgan ashyolar orasida bir dona ishlov berilgan tosh quroli ham bo‘lib, uning ishlov berilishi tosh davrining muste madaniyati ashyolariga o‘xshash [4] (3-rasm). Topilmalar orasidagi kulolchilik charxi yordamida yupqa devorli va pishiq qilib yasalgan, oq, sariq va yashil rangda sirlangan idishlar Toshkent vohasida 9–12-asrlarda keng tarqalgan kulolchilik buyumlariga o‘xshash [2]. Kulolchilik buyumlarining kulolchilik charxida yasalgan devori ancha qalin va dag‘alroq yasalib, qora va yashil rangda o‘simliksimon bezaklar berilgan va ustidan shaffof rangdagi sir bilan qoplangan idishlar esa 14–18-asrlarda vohada keng tarqalgan idishlar bilan bir xil o‘xshashlikda [3]. Topilmalar orasida suyakdan ishlangan buyumning dastasi ham bo‘lib, ungan tirnab naqsh chizilgan (4-rasm).

Umuman, Sijjakda yangi olib borilgan qisqa muddatli tadqiqotlarga, hududda sochilgan sopol parchalarining dastlabki tahlili ushbu hudud tosh davridayoq qadimgi odamlar tomonidan o‘zlashtirilganligini, 9-asrdan to 18-asrgacha hunarmandlar xususan, kulollarning va metallsozlarning mahsulot ishlab chiqarish ustaxonalari bo‘lganligidan guvohlik bermoqda. Kelgusida maydonda arxeologik tadqiqotlar olib borilishi jarayonida bu masalaga yanada aniqlik kiritilishi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Normurodov D. Toshkent vohasining qadimgi va o‘rta asrlar davri moddiy madaniyati (miloddan avvalgi XIII asr – milodiy XIII asrning boshlari). Toshkent, 2023. 1-ilova.

2. Брусенко Л.Г. Глазурованная керамика Чача IX – XII вв. – Ташкент, 1986. 136 с.

3. Буряков Ю. Ф. Канка и Шахрухия древнейшие города Ташкентского оазиса. – Ташкент, 2010.

4. Сулейманов Р. Статистическое изучение культуры грота Обирахмат. – Ташкент, 1972.



1-rasm. 1-xumdon.



2-rasm. 2-xumdon.




a



b

3-rasm. Muste davri madaniyatiga tegishli tosh quroli




4-rasm. Buyumning suyakdan ishlangan dastasi.

# TOSHKENT VILOYATI HAQIDA

**Dilso‘z Muhammadiyeva,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
1-bosqich talabasi Dilso‘z Muhammadiyeva

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Toshkent viloyatining etimologiyasi, iqlimi, ma’muriy bo‘linishi, mustaqillik davridagi ahvoli, maorifi va madaniyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlari:*** *Toshkent , investitsion, YIM, kontinental, deportatsiya, toponim.*

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti va eng yirik shahri bo‘lib, aholisi bo‘yicha Markaziy Osiyodagi eng yirik qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning shimoli-sharqiy qismida, Qozog‘iston bilan chegaraga yaqin qismda joylashgan bo‘lib, maydoni 631.29 km2 ni tashkil etadi. 2024-yilning 1-iyulidagi ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent aholisi 3 075 000 nafar kishini (O‘zbekiston aholisining qariyb 9 foizi) tashkil etadi. 2024-yilning birinchi kvartal ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent shahrining YIMi $25 milliardni tashkil etadi va bu ko‘rsatkich O‘zbekistondagi eng katta YIMga ega shahar bo‘lib kelmoqda.Milodiy VIII asr o‘rtalarida islomiy ta’sir boshlangunga qadar, Toshkentga sug‘d va turkiy madaniyat ta’sir ko‘rsatgan. 1219-yilda Chingizxon Toshkentni vayron qilganidan so‘ng, shahar qayta tiklandi va Buyuk Ipak yo‘lidan foyda ko‘rdi. XVI-XVII asrlarda Toshkent Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlati tarkibida bo‘lgan. XVIII–XIX asrlardan boshlab ushbu shahar Qo‘qon xonligi tomonidan zabt etilgunga qadar, mustaqil shahar-davlatga aylangan edi. 1865-yilda Toshkent Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi hamda Turkiston general-gubernatorligi markazi bo‘ldi. Sovet davrida bu shahar butun Sovet Ittifoqining majburiy deportatsiyasi tufayli katta o‘sish va demografik o‘zgarishlarga guvoh bo‘lgan. 1966-yilda bo‘lgan Toshkent zilzilasi tufayli Toshkentning katta qismi vayron bo‘lgan edi, biroq u na’munali Sovet shahri o‘laroq qayta qurilgan.Toshkent 2200-yildan ortiq tarixga ega[10]. Bu davr ichida u mudofaa devori bilan o‘ralgan qal’adan jahondagi yirik shaharlardan biri, O‘zbekiston Respublikasining poytaxtigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Asrlar davomida shahar o‘zining tinch hayotidagi muhim voqealarni va suronli jangu jadallarni, yuksalish va inqiroz davrlarini boshidan kechirdi. Necha bor shahar vayron bo‘lib, qayta qad ko‘tardi. Toshkent o‘rnidan necha bor siljib, nomi xam bir necha marta o‘zgardi. Xoja Ahror Valiy, Shayx Umar Bog‘istoniy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokatiy,

Hofiz Koʻhakiy kabi buyuk allomalar shu hududda yashab, ijod etganlar. Viloyatda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yangi ta'lim tizimi shakllanmoqda. 2000-yilda viloyatning 45 nafar oʻquvchisi „Umid" jamgʻarmasi orqali chet ellardagi nufuzli oliy oʻquv yurtlariga joʻnatildi. 2004-yilda Boʻstonliq tumanidagi 38maktab qoshida AQSH USAJD tashkilotining Oʻrta Osiyo va Qozogʻistonda sport va sogʻlomlashtirishni targʻibot qilish dasturi asosida maktab oʻquvchilari bilan sport haftaligi oʻtkazildi. Toshkent viloyatining barcha shaharlarida hamda Qibray, Piskent tumanlarida „Bogʻchamaktab" majmualari tashkil etilgan. Bu majmualarda bolalarga chet tili, kompyuter savodxonligini oʻrgatish, alifbosiz oʻqishga e'tibor berilgan. „Mehr va muruvvat yili" munosabati bilan Olmaliq shahridagi 80sonli maxsus internat maktabi binosini mukammal ta'mirlash uchun Olmaliq togʻmetallurgiya kombinati tomonidan 350 mln soʻm miqdorida mablagʻ ajratilib, ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Toshkentning uzoq oʻtmishi va u qad koʻtargan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda xilma-xil hamda uzuq-yuluq tarzda aks etgan. Zardushtiylarning qadimgi muqaddas kitobi Avesmona Sirdaryo havzasidagi mamlakat „Turon", aholisi esa „tur"lar deb yuritilgan. Bu oʻlkada tur qavmlari urugʻ va qabila oqsoqollarining diniy va siyosiy qarorgohi – Qangʻxa (Qangʻa) shahri borligi tilga olinadi.Shahar „Toshkent" nomi bilan dastavval 11-asrning mashhur allomalari – Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshgʻariyning asarlarida tilga olinadi. Beruniy „Hindiston" asarida Toshkent nomining kelib chiqishi toʻgʻrisida soʻz yuritib, „Tosh" soʻzi asli turkcha boʻlib, Shosh koʻrinishini olgan. „Toshkand – toshli qishloq demakdir", deb izohlaydi. Mahmud Qoshgʻariyning ma'lumoti boʻyicha, Toshkent 11-12-asrlarda „Tarkan" deb ham yuritilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur „Boburnoma"da Toshkent nomi ustida toʻxtalib, asarlarda Toshkent nomini Shosh, ba'zan Choch yozadilar" deb qayd etadi. Biroq 16-asr oxiri va 17-asr boshlarida Toshkent toponimi shuhrat topib, uning qadimgi Choch, Shosh va Binkat nomlari asta-sekin muomaladan tushib qoldi.1867-yilda Toshkent Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylandi. 1930-yildan 1991-yilgacha Toshkent Oʻzbekiston SSR poytaxti boʻlgan. Toshkent vohasi Tyan-Shanning gʻarbiy yonbagʻirlaridan boshlanib Sirdaryo etaklariga tushadigan keng togʻoldi tekisligining bir qismida joylashgan. Toshkent vohasida barcha tarixiy davrlarda suv moʻl-koʻl boʻlgan. Tarixan tarkib topgan kanallar tarmogʻi shaharni suv bilan ta'minlab turgan. Shu bois shahar xech qachon suv taqchilligini sezmagan. Buni oʻrta asrlardan to XIX asrgacha Toshkent toʻgʻrisida yozgan mualliflar xamisha ta'kidlab kelganlar. Bu yerdagi iqlim

hozirgi odamlarning ajdodlari paydo bo‘lgan, ya’ni bir necha o‘n ming yil muqaddam mavjud bo‘lgan iqlimdan farq qilgan. Issiq quruq yoz bilan yillik yog‘in miqdorining asosiy qismi yog‘adigan qahraton qish almashinib turgan. Shaharning iqlimi kontinental, jazirama, quruq yoz kunlari hamda sovuq qish iqlimi bilan Shahar boshqa dunyo shaharlaridan ajralib turadi. Yillik o‘rtacha harorat 13,5 °C. Yozda esa harorat 35 °C gacha yetish bilan birga, qish oylarida buning aksini kuzatish mumkin. Havo harorati −25… −30 C° gacha boradi. Asosiy yog‘inlar noyabr hamda mart oylarida kuzatiladi. Uchtepa tumani (sobiq Akmal Ikromov) tumani – Toshkentdagi ma’muriy-hududiy birlik. 1977-yilda Chilonzor va Oktabr (hozirgi Shayxontohur) tumanlarini ixchamlashtirish maqsadida, ular hududida tashkil etilgan. Olmazor (sobiq Sobir Rahimov) tumani – Toshkentdagi ma’muriy-hududiy birlik. Sergeli tumani – shahardagi ma’muriy-hududiy birlik. 1967-yilda tashkil etilgan. Mirobod tumani (1992-yilgacha Lenin tumani) – Toshkentdagi ma’muriy-hududiy birlik. 1929-yil Shayxontohur tumani bilan birgalikda tashkil etilgan. Mirzo Ulug‘bek tumani (1935-yilgacha – Proletar tumani, 1992-yilgacha Kuybishev tumani; 1992-yil maydan Mirzo Ulug‘bek tumani) – Toshkentdagi ma’muriy-hududiy birlik. Bektemir tumani (1990-yilgacha Narimonov) – Toshkentdagi ma’muriy-hududiy birlik. Toshkent bir necha nufuzli shaharlar bilan hamdo‘stlik a’loqalariga egadir.

Toshkent viloyati O‘zbekistonning sanoat markazlaridan biri hisoblanadi, ya’ni sanoat ishlab chiqarish hajmi yuqori. Eng yirik rivojlangan shahardir. Toshkent viloyatida o‘zgaruvchan va innovatsion iqtisodiy tendensiyalarni qo‘llab-quvvatlaydigan yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Toshkent [ensiklopediya], T., 1992;

2.Azadayev F., Tashkent vo vtoroy polovine XIXveka, T., 1959;

3.Sokolov Yu. A..Tashkent, tashkentsi i Rossiya, T. 1965;

4.Dobroyemislov A. I., Tashkent v proshlom i nastoyashem. Istoricheskiy ocherk. T., 1912;

5.Bartold V. V., Sochineniya, 3t.; M., 1965;

6.Mo‘minova R. G., Filanovich M. I., Tashkent na perekrestke istorii, T., 2001;

7.O‘rinboyev A., Bo‘riyev O., Toshkent Muhammad Solih tavsifida, T., 1983;

8.Beysembiyev T. K., „Ta'rixi Shahruxi" kak istoricheskiy istochnik, AlmaAta, 1987; Munirov K., Irisov A., Nosirov A., Toshkent tarixida ba'zi siymolar, T., 1983;

9.Sodiqova N. S.,'Buryakov Yu. F., Qadimgi va hozirgi Toshkent, T., 1965;

## XO'JA AHROR VALIY BUYUK SIYMO

**Ergasheva Sevinch Umirboy qizi,**
Chirchiq Davlat Pedagogika
Universiteti 1- bosqich talabasi

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada buyuk siymo Xo'ja Ahror Valiy hayoti , faoliyati, tariqatdagi roli, ma'rifati va yozmalari haqida ma'lumotlar beradi. Uning asliy nomi, tarixiy yodgorliklari, talimlari, maqomlari va o'zbek adabiyotidagi o'rnini ham taqdim etiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Xo'ja Ubaydulloh Ahror Valiy, tarikat , ma'rifat, ,,Samariya".*

Xalqimizda mehr-oqibat, insof, adolat, insonlarni yaxshilikka undash va ular o'rtasidagi munosabatlarni isloh etish kabi azaliy qadriyatlar mavjud. O'zbekning o'zligi, o'ziga xos mentaliteti va buyukligini belgilaydigan mazkur tamoyillar ko'hna tariximizning ildiz-ildizlariga borib taqaladi. Ko'hna tariximizda shunday shaxslar o'tganki, ular o'zlarining sermazmun hayoti, ibratli faoliyati, ma'naviy-ma'rifiy o'gitlari bilan el-yurt manfaatlari yo'lida kuch-g'ayratini kerak bo'lsa, mol -mulkini ham ayamagan . Ana shunday zoti shariflardan biri Xo'ja Ahror Valiy(1404-1490) hazratlari hisoblanadi.

Faxriddin Ali as-Safiyning «Rashahot ayn al-Hayot» («Hayot buloqlaridan tomchilar») nomli asarida yozilishicha, Xoja Ubaydulla – Xoja Ahror 1404 yil mart oyida (906 yil Ramazon) Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumaniga qarashli Bog'iston qishlog'ida tavallud topgan. Xoja Ubaydullo – Xoja Ahrorning nasabnomasida (shajara) u ota tomonidan choxoryorlarning birinchisi Abu Bakr Siddiqqa (632-634), ona tarafdan choxoryorlarning ikkinchisi Umar ibn al-Hattobga (634-644) borib tutashadi deyilgan. Mavlono Muhammad Qozining «Silsilat ul-orifin» nomli asarida Xoja Ahrorning shajarasi ancha mukammal berilgan. Chunonchi, shajara tarixida qayd qilinishicha, Xoja Ubaydullo Ahrorning otasi Xoja Mahmuddir, Xoja Mahmud Xoja Shaxobiddinning o'g'li bo'lib, Xoja Shaxo biddin uch yo to'rt avlod bilan Xoja Nomiyga tutashadi.

Xo‘ja Ahror boshlang‘ich ma’lumotni Toshkent madrasalarida oladi. 20 yoshdan o‘tganda, tog‘asi Xo‘ja Ibrohim uni Samarqandga olib boradi. Bu yerda u turli fanlardan ta’lim oladi. Xo‘ja Ahror ko‘pincha tasavvuf ilmiga qiziqar edi. Bu qiziqish uni Hirotga yetaklaydi. Shu maqsadda 24 yoshida Hirotga borib, tasavvuf tariqati vakillari bilan uchrashadi. Ulardan biri mashhur orif va tabrizlik shoir Sayyid Qosim Anvor ( vafoti1433) edi . Shuningdek Xo‘ja Ahror Bahouddin Umar (vafoti 1453), Shayx Zayniddin Xavofii (vafoti 1439) , lar huzurida bo‘ladi. So‘ngra u Chag‘oniyonning Xulg‘atu mavzeida istiqomat qiluvchi Xo‘ja Bahouddin Naqshbandiyning shogirdi bo‘lgan Yaqub Charxiy (vafoti 1447) ga qo‘l berib, undan naqshbandiya tariqati asoslarini o‘rganadi.

1431-1432- yillar orasida Xo‘ja Ahror Toshkentga qaytib, naqshbandiya tariqatining davomchisi sifatida tanilib, dehqonchilik va tijorat ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiyiqtisodiy va ma’naviy hayotda Xoja Ahror yuksak mavqyega ega bo‘ladi va nihoyatda mo‘’tabar siymolardan biriga aylanadi. Abu Toxir Xoja o‘zining «Samariya» asarida yozishicha, Xoja Ahror ilm ahlini e’zozlar, anjumani hamisha olimlar bilan to‘la edi. Binobarin, u ilm ahli uchun Samarqandda bir madrasa qurdirdi[1]

Buxoro amiri Imomqulixonning bosh vaziri Nodir Devonbegi1630-1635 yillar Samarqanddan janubiy-sharqqa bir necha chaqirimda Xoja Ahror Vali dahmasining oldiga madrasa qurdiradi. Nodir Devonbegi nomini olgan mazkur madrasa Naqshbandiya ordenining taniqli sohibi, mashhur shayh Xoja Ahror Vali sharafiga qurilgan.Xoja Ahror so‘fichilik (“so‘fichilik”-islomdagi tasavvuf yo‘nalishi) ordeni bo‘lmish Naqshbandiyaning rahbari, Toshkent viloyatidagi Bog‘iston tog‘-qishlog‘i odami. Xoji Ahror ilk Samarqandga 1426 yil 22 yoshida tashrif buyurgan. 1451 yil esa Ulug‘bekning o‘limidan so‘ng temuriylar sulolasining namoyondalaridan biri Abu Sayid hukmronligi davrida butunlay Samarqandga ko‘chib o‘tgan. Ahmadning tarbiyasi ostida shahzoda deyarli butunlay hukmronlikni qo‘lga olgan, Samarqandning haqiqiy hukmdori va davlatdagi eng boy yer sohibiga aylangan. Samarqand atrofidagi me’moriy yodgorlik (15-20-a.lar); Samarqand tumanidagi Ulug‘bek qishlog‘i hududida. Xoja Axror qabri yaqinida turli davrlarda bunyod etilgan Nodir Devonbegi madrasasi, ikki ayvon, masjid, minora hamda hovuzli hovlidan iborat majmua. Majmuaning markazi 8 yoqli hovuz, uning yonida Xoja Axrorning oq marmarli qabrtoshi bor, qabrtoshiga arab yozuvida husnixat bilan marsiya yozilgan.

Naqshbandiya tariqatining Xoja Ahror Valiy orqali tarqalgan silsila nafaqat Movarounnahr hududi, balki Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, Rum va Misrgacha, Xitoy va Hindistongacha yetib borganligi ko‘rishimiz mumkin.

Samarqand qozi kaloni tarixchi Abu Tohir xoja o‘zining “Samariya” kitobida: “Xoja Ahrorning o‘ziga jalb qiluvchi ohangrabosi shu darajada kuchli ediki, uning shirinsuhan suhbatlari umrbod esga qolardi”, deb aytgani ham dunyo tasavvuf ta’limotida uning ma’naviy mavqei yuqori bo‘lganidan dalolat beradi.

Akademik Botirxon Valixo‘jayev Xo‘ja Ahror shaxsiga nisbatan sho‘rolar davridagi munosabat va qarashlar borasida shunday yozgan: „Moziy tarixiga nazar tashlanganda juda ko‘p voqe- hodisalar, tarixiy shaxslarga duch kelish mumkinki, ularga baho berish yoki ular haqida mulohaza yuritishda har xillik, ba’zan esa qarama-qarshiliklarni kuzatish mumkin. Ma’lumki, Xo‘ja Ahror terisida zamonasidan boshlab, bizning davrimizgacha turli kitoblar, maqolalar yozildi. Ammo ayrim ilmiy va badiiy asarlarda Xo‘ja Ahror ilm-ma’rifatning dushmani, hatto, Mirzo Ulug‘bek fojiasining sababchisi, uning Samarqandda qurilgan mashhur rasadxonasini buzdirgan, undagi ilmiy kuchlarni quvg‘in qilgan shaxs sifatida talqin etildi.”

„Shuncha gap-so‘z bo‘lishiga qaramay,- deb yozadi Botirxon Valixo‘jayev,- xalq orasida Xo‘ja Ahrorning obro‘-e’tibori balandligicha qolaverdi. Uning maqbarasini tabarruk tutuvchi ziyoratchilarning soni kamaymadi. Xo‘ja Ahror Valiy hayoti va faoliyatini o‘rganish bo‘yicha yurtimiz va xorijiy olimlar tomonidan yetarli tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xo‘ja Ubaydulloh Ahror Valiy naqshbandiya tariqatining eng buyuk murshidlaridan biri ekanligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotda katta iz qoldirib, o‘z davrida shuhrati dunyo mamlakatlari bo‘ylab mashhur bo‘lgan. Uning tasavvuf tarixidagi buyuk xizmatlaridan biri naqshbandiya silsilasi islom olamidagi eng ulug‘ silsilalardan biriga aylanishidir. Xo‘ja Ahrori Valiy tasavvuf tarixida birinchi bo‘lib xalq ravnaqi yo‘lida tariqatni siyosatga, podshohlarga ta’sir ko‘rsatuvchi amaliyotga aylantirgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Ne’matulla Muhammedov. „Shosh vohasi olimlarining ilmiy-ma’naviy merosi”. „Toshkent islom universiteti”. Nashriyot matbaa birlashmasi Toshkent – 2007.

2.https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/xoja-ahror-valiy-1404-1452

3.Abu Tohirxoja. Samariya. Tahrir hay’ati: B. Ahmedov va boshq.– T.: Kamalak, 1991.– 81 b.

4.Kattayev K. Tasavvuf allomalari. T.: G‘afur G‘ulom, 2017. 320 b.
5.Valixo‘jayev B. Xo‘ja Ahror tarixi. -T.: Yozuvchi,
1994.-B. 61
6.Ma’naviyat yulduzlari, T., 1999.
7.Ubaydulla Uvatov, Zokirjon Kutiboyev. O‘zME, Toshkent, 2000-yil

## CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI

***Do’smuratov Raximjon Baxtiyor o’g’li***
Chirchiq shahar 1-umumiy o’rta ta’lim maktabi
tarix fani o’qituvchisi

***Annotatsiya:*** *Chirchiq shahrining tarixi 1932-yilda elektroximik kombinatining qurilishi bilan boshlandi. Shahar hozirgi kunda sanoat va ta’lim markaziga aylangan. U Toshkent viloyatining eng muhim shaharlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Chirchiqning tarixiy rivojlanishi, uning sanoati va iqtisodiyoti, shuningdek, ta’lim va ijtimoiy infratuzilmasi tahlil qilinadi. Shahar bugungi kunda o‘z sanoatini rivojlantirib, transport va ta’lim tizimini modernizatsiya qilmoqda.*

***Kalit so‘zlar:****Chirchiq, elektroximik kombinat, sanoat rivoji, ikkinchi jahon urushi, transport tizimi, ta’lim muassasalari, shahar arxitekturasi, o‘zbekistondagi shaharlar.*

***Аннотация****. История города Чирчик начинается с 1932 года, когда было начато строительство электрохимического комбината. В настоящее время город стал центром промышленности и образования и является одним из важнейших городов Ташкентской области. В данной статье рассматривается историческое развитие Чирчика, его промышленность и экономика, а также образовательная и социальная инфраструктура. В настоящее время город развивает свою промышленность, модернизируя транспортную и образовательную систему.*

***Ключевые слова:*** *Чирчик, электрохимический комбинат, развитие промышленности, Вторая мировая война, транспортная система, образовательные учреждения, городская архитектура, города Узбекистана.*

***Abstract****. The history of Chirchik began in 1932 with the construction of the electrochemical plant. Today, the city has become a center of industry and education and is one of the most important cities in the Tashkent region. This article examines the historical development of Chirchik, its industry and economy, as well as its educational and social infrastructure. Today, the city is*

*developing its industry while modernizing its transportation and education systems.*

***Keywords***: *Chirchik, electrochemical plant, industrial development, World War II, transportation system, educational institutions, urban architecture, cities of Uzbekistan.*

Chirchiq shahrining tarixi 1932 yil 28-aprelda boshlandi, chunki SSSR Mehnat va mudofaa kengashi o‘z qaroriga asosan elektroximik kombinatining qurilishini boshladi (hozirgi «MAXAM-CHIRCHIQ» AK) va Chirchiq-Bozsuy GES kaskadi qurilishi boshlangan. 1934 yil 27-aprelda O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining qarori bilan Chirchiq shahri kengashi tashkil etildi va 1934 yil 1-mayda shahar qurilishining tantanali boshlanishi bo‘lib o‘tdi. Shahrning rasmiy tug‘ilishi 1935 yil 1-may deb hisoblanadi. Shahar O‘zbekistonning shimolida, Toshkent viloyatining eng ko‘p suvi bo‘lgan Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan (Chirchiq — «shovqinli», «g‘alvir» deb tarjima qilinadi) va shu daryo nomidan o‘z nomini olgan. Daryoning vodiysi tektonik kelib chiqishga ega bo‘lib, Karzhantau va Chatkal tog‘ tizmalarining oralarida joylashgan. Shahar Toshkent markazidan 32 km shimoli-sharqda temiryo‘l stantsiyasi mavjud. Shaharda qurilish sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud, jumladan, poyabzal va tikuvchilik fabrikalari, go‘sht kombinati va boshqalar.

Ikkinchi jahon urushi (1941—1945) davrida shahar mashinasozlik markaziga aylandi. Evakuatsiya qilingan korxonalar uskunalari asosida «Chirchiqselsmash», «Uzbekkhimmash», Chirchiq transformator zavodi, «UzKTJM» qattiq va yuqori haroratli metallurgiya kombinati qurildi. Shuningdek, shaharda AO «Maxam-Chirchiq» (avvalgi «Elektroximprom») katta kimyo zavodi mavjud.

1940-yillarning o‘rtalarida bu korxona, SSSRda atom loyihasi doirasida ilmiy-tekshirish va loyihaviy ishlarni amalga oshirishda, akademik I.V. Kurchatov rahbarligida juda murakkab va mas’uliyatli ishlarni bajardi.

Shaharda mudofaa sanoati bilan bog‘liq ob’ektlar ham mavjud. Chirchiq aviatsiya-texnik ta’mirlash zavodi, Mi-8 va Mi-9 (Mi-8IV) harbiy vertolyotlarini ta’mirlash va restavratsiya qilish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, Chirchiq tankni ta’mirlash zavodi ham mavjud bo‘lib, u tank ta’miri bilan shug‘ullanadi. Shahar hududida 15 DShBR (o‘ttiz to‘qqizinchi mikrorajonda, sobiq 467-yadroli maxsus kuchlar bo‘linmasi bazasida) joylashgan, shuningdek, og‘ir polk, aerodromni xavfsizligini ta’minlovchi polk, tank brigadasi mavjud. Shuningdek, shaharning Azadbash qishlog‘ida

(shahardan 4 km uzoqlikda, transformator zavodi tomonda) 15-O‘BRSpN bazasida antiterroristik ta’lim markazi joylashgan. Shaharning shimol-sharqiy chiqishida (uchinchi mikrorajondan keyin) shturmaviya va qiruvchi aviatsiya (shu jumladan, vertolyotlar) uchun harbiy aerodrom mavjud.

Shuningdek, shahar hududida «Tavaksay» qattiq jazolar zonasi ham mavjud bo‘lib, bu Bostanliq tumanining Tavaksay qishlog‘ida joylashgan (shahardan 15 km masofada). Chirchiq tankli oliy komandirovka va muhandislik maktabi (ChVTMK) mavjud. Sovet davrida bu maktab marshall Ryibalkoning nomini olgan edi. Avvaliga bu maktab Toshkent Tankli oliy komandirovka maktabi nomini olgan. Chirchiqda bir qancha ta’lim muassasalari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

- Chirchiq davlat pedagogika instituti,
- O‘zbekiston davlat fizkulturasi va sport universiteti,
- Chirchiq davlat texnik kollej,
- Akademik litsey,
- Chirchiq iqtisodiy-ijtimoiy kollej,
- Industriyal kolleji,
- Tibbiyot kolleji,
- 26 o‘rta maktab.

Shaharda shuningdek, san’at maktablari ham mavjud, jumladan, M. Ashrafi nomidagi 3-sonli bolalar san’ati maktabi, P. I. Chaykovskiy nomidagi 15-sonli bolalar san’ati maktabi va Xamza nomidagi 7-sonli san’at maktabi. Shaharda asosiy transport vositalari bo‘lib, xususiy marshrut taksilar va Isuzu NP37 avtobuslari xizmat ko‘rsatadi. Shaharda 20 ga yaqin shahar yo‘nalishlari mavjud. Shuningdek, Toshkent, Gazalkent, Charvak va Yangibozor bilan o‘rtasidagi uzoq masofali avtobuslar qatnovi mavjud. Qisqa masofalarda esa Daewoo Damas mikroavtobuslari va «Gazel» mikroavtobuslari ishlatiladi. Chirchiqdan Toshkent — Xodjikent temir yo‘l yo‘nalishi o‘tadi. Shaharda uchta temir yo‘l stantsiyasi («Boz-su», «Chirchiq» va «Aranchi») va ikki bekat mavjud. Bu stantsiyalar «Maxam-Chirchiq» va Chirchiq transformator zavodlarining mahsulotlari va xom ashyosini yetkazib berishda faol foydalaniladi. Shaharda shuningdek, Toshkent — Xodjikent elektrichkasi mavjud bo‘lib, xalqaro yo‘nalishda Chirchiq — Almaty reysi amalga oshiriladi. Chirchiq shahrining tuzilishi to‘rtburchak shaklida bo‘lib, keng ko‘chalarga va standart turdagi uylar qurilgan. Shahar rejalari (1933-1936 yillar, «Gidrostroyproyekt», Moskva, arxitektorlar — G. M. Orlov, M. I. Tarakanov, V. A. Lavrov va boshqalar, V. A. Vesnin bilan maslahatlar; 1964

yil, «Uzgosproyekt», bosh arxitektor — P. A. Duda-Dudinskiy) asosida shahar qurilishi amalga oshirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Chirchiq shahri O‘zbekistonning shimoliy qismida joylashgan va 1932-yilda elektroximik kombinati qurilishi bilan tarixiy rivojlanish jarayonini boshlagan. Shahar tashkil topganidan so‘ng tezda sanoat markaziga aylangan bo‘lib, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi davrida uning sanoat salohiyati kuchaygan. Bugungi kunda Chirchiq nafaqat sanoat, balki ta’lim va ijtimoiy infratuzilma sohalarida ham muhim o‘ringa ega. Shahar iqtisodiyoti, ayniqsa, kimyo sanoati, mashinasozlik va metallurgiya sohalarida o‘sib bormoqda. Chirchiqda joylashgan AO «Maxam-Chirchiq» (avvalgi «Elektroximprom») kabi yirik sanoat korxonalari, shahar iqtisodiyotining asosiy lokomotivlariga aylangan. Shuningdek, shaharda ko‘plab texnik va pedagogik ta’lim muassasalari faoliyat yuritib, yuqori malakali kadrlarga ehtiyojni qondirishga xizmat qilmoqda. Shaharning transport tarmog‘i ham o‘sib bormoqda, shahar ichida va tashqi hududlar bilan bog‘lanish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Chirchiqning rivojlanish istiqbollari, uning sanoat va ta’lim tizimlarini modernizatsiya qilish orqali, nafaqat Toshkent viloyati, balki O‘zbekistonning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga hissa qo‘shishda davom etmoqda. Shahar bugungi kunda o‘zining sanoat salohiyatini yanada mustahkamlash, infratuzilmasini kengaytirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish yo‘lida izchil ishlamoqda. Bu jarayonlar, albatta, shahar aholisining turmush darajasini oshirishga, shuningdek, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Chirchiq shahrining kelajakda yirik sanoat va ta’lim markazlaridan biriga aylanishi kutilmoqda, bu esa uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining davomiyligini ta’minlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi. (2023). Chirchiq shahrining sanoati va iqtisodiyoti haqida ma’lumotlar.
2. Maxam-Chirchiq aktsiyadorlik kompaniyasining rasmiy veb-sayti. (2023).
3. Shahar arxitekturasi va rejalari: Orlov, G.M., Tarakanov, M.I., Lavrov, V.A. (1933–1936). Gidrostroyproyekt, Moskva.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2022). Chirchiq davlat pedagogika instituti tarixi.
5. Toshkent viloyatining transport infratuzilmasi va rivojlanishi. (2023). O‘zbekiston transport agentligi.

# SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY FAOLIYATIDAGI TUTGAN O‘RNI

***Ashurova Shaxzoda Bekzod qizi,***
*CHirchiq davlat pedagogika universiteti2-bosqich talabasi*

Amir Temur 1336-yilda Shahrisabzga yaqin Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi Amir Tarag‘ay Qozon xoniga tobe (Kesh hozirgi Shahrisabz) hokimi bulgan. Yosh Temurning dastlabki savodi oilada chiqarilgan va 7 yoshidan madrasada uqiy boshlagan. Bu haqida u uzining “Tarjimai holi”da shunday yozgan: «Etti yoshga tulganimda meni madrasaga olib borishdi va qushimcha suzlar jadvalini berishdi. Men uqiy boshladim va erishgan muvaffaqqiyatlarimdan behad xursand buldim». Tadqiqotchi olim B. Ahmedovning ta’kidlashicha, Temur madrasaga kelganda harf taniydigan bulgan. Shuning uchun ham jadvaldagi suzlarni uqiy bilgan. Movarounnaxr va Xuroson madrasalaridagi odat buyicha bolani uqishga urgatishda qog‘oz yo teriga yozilgan eng oson suzlar jadvalidan foydalanilgan. Temur xam bolaligida shunday jadvalni uqigan. Amir Temur bolalik va usmirlik yillari xaqida shunday xotirlaydi: “Men 9 yoshga tulganimda namoz uqiy boshladim va madrasadagi barcha talabalardan ustun bulib oldim. har qanday yig‘ilishlarda ham men ulamolarning yonidan joy olishga xarakat qilardim. Lekin har doim ularning oldida tiz chukib utirar edim. Kattalarga shu tarzda xurmat bildirishni men uzimga qoida qilib olgandim. 12 yoshimdan bolalar bilan uynashni urgandim va vaqtimni uz tengqurlarim hamda uspirinlar bilan utkazardim”. Bu parchada shunisi diqqatga sazovorki, Temur bolaligidayoq tengqurlaridan ustun bulib, unda amirlikka intilish bulgan. Temurning tarjimai holida uning fe'l-atvori, axloqi va ijobiy xususiyatlarining shakllanishidan dalolat beruvchi ma'lumotlar alohida ifodalangan. Amir Temur shaxsida anchagina ziddiyatlar mavjud. U 16 yoshida otasining vasiyati buyicha askarlarga boshchilik qilgan. Shunday qilish Barlos urug‘ining an'anasi hisoblangan. U yoshligidan harbiy mashqlarga nihoyatda qiziqqan, feodal urushlarda bir necha bor qatnashib, tajriba orttirgan va mohir jangchi bulib etishgan. Amir Temur 1360-1361 yillarda Movaraunnaxrning katta qismni egallagan Mug‘uliston xoni Tug‘li Temur xizmatiga kirganida, shuningdek, uning ug‘li Ilyos Xo‘ja 1365 yili hukmronligiga qarshi uzluksiz kurashgan. Husayn va Temur 1366 yilning bahorida Samarqandni egallaydilar. Husaynning xoinlik kirdikorlarini. sezib yurgan Temur 1370 yilda Balxni qamal qilish paytida uz itdifoiqchisi Huttalion hokimi Kayxusrav quli bilan uni

uz yulidan olib tashlaydi. Usha paytdan Amir Temurning Movorounnaxrdagi yakka hukmdorlik faoliyati boshlanadi. Bu esa uning 35 yil mobaynidagi hukmronlik na jahongirlik harbiy yurishlari uchun qulay vaziyatni vujudga keltirgan. Amir Temur qisqa muddat ichida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘idagi erlarni, Farg‘ona va Shosh mulklarini birlashtirgan va uziga buysundirgan. 1372 yildan 1388 yilga qadar Xorazmni tu'la buysundirish uchu n 5 marta yurish qilib, uni uz imperiyasiga qushib olgan. 1395 yilda Shimoliy Kavkazga yurish qilib, g‘alaba qozongan. 1398 yili Hindistonni, 1401 yili Suriya yerlarini, 1402 yili Anqaradagi turk erlarini bosib olgan. Sulton Boyazidni engach, Xitoyga yurish oldidan Utror shahri yaqinida xastalanib, 1405 yil 18 fevral kuni vafot etgan.[1].

Amir Temur va uning avlodlari harbiy yurishlarga ko‘proq kuklam, yoz va kuz mavsumlarida otlanishni ma’qul bilganlar. Safar qoidasiga ko‘ra, har bir sarkarda o‘z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo‘linmalari bilan yasol — jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo‘shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to‘silgan, xandaqdar bilan ihota qilingan, soqchi bo‘linmalar tomonidan qo‘riklab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo‘linma, guruh, kismning o‘z paroli — o‘ron belgilangan. Armiya safar chog‘ida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan: Bosh kuchlardan ancha oldinda qaravul (avanpost), undan keyin mang‘lay (hiravul)(avangard), barang‘ar, juvang‘ar, qo‘l(markaz), chag‘davul (aryergard) yurgan. Qo‘shin ketidan peshmapesh kelgan. Oliy bosh qo‘mondon jang maydonini tanlashga alohida diqqat qaratgan. Janggohning tekis, keng va qo‘shin qismlarini joylashtirishga qulay bo‘lishi talab qilingan. Jang maydonining suvga yaqin bo‘lishi hamda jang vaqtida kuyosh nurining askarlar ko‘ziga tushmasligi maqsadga molik hisoblangan. Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug‘lar bilan bezatilgan oliy qo‘mondon borgohi balandlikka o‘rnatilgan. U yerdan jangning borishi kuzatilib turilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo‘shini jangga mana bunday tartibda kirgan. Dushman bilan dastlabki to‘qnashuvni ayg‘oqchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan qaravul boshlab bergan. Shundan so‘ng o‘ng va chap qanot ilg‘or qismlari — barang‘ar xiravuli va juvang‘ar hiravuli madadida asosiy ilg‘or qism — mang‘lay jangga kirgan. Mang‘lay ortidan barang‘ar hamda juvang‘arning qolgan 2 bo‘lagi — chapavul va shag‘avul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmanni Mag‘lub etishga kifoya qilmasa, bosh qo‘mondon (amir ulumaro) boshchiligidagi markaz (qo‘l)(g‘o‘l) hal qiluvchi hujumga

tashlangan: vdravul, qaravul, manglay (xuravul). Sohibkiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo‘lgan: qo‘shin markazi 40 bo‘luk — polika taqsimlangan va Oliy bosh qo‘mondonga itoat qilgan. Ushbu bo‘luklarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 bo‘luki safning 1qatorida, qolgan 28 bo‘luki 2 va 3-qatorlarda joylashgan. Qirq bo‘lukning o‘ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so‘l tarafi oldida qarindoshlar va itshfoqchilar qismlari saf tortgan. 2 qatorning barang‘arida 6 bo‘luk o‘z ilg‘ori — hiravul bilan o‘rin egallagan. Ayni shu miqsordagi bo‘luk va hiravulga juvangar ham ega bo‘lgan. 2-qator barang‘ari va juvang‘ari oldida yuqoridagi tartibda 1qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg‘or mang‘lay (yoki hiravuli buzurg) harakatda bo‘lgan. Yengil suvoriylardan iborat 2 bo‘luk armiyani qo‘qqisdan bo‘ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo‘lgan[2]

Sohibqiron Amir Temur murakkab shaxsdir.Uning xislatlaridan biri shuki, u biror masalani xal etishdan oldin shu sohaning bilimdon olimlari bilan maslahatlashar, so‘ngra aniq va qat’iy qaror qabul qilar edi. Uning olim-u fuzaloalr bilan o‘tkazadigan anjumanlari har xil mezonda va turli shakllarda bo‘lgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, ko‘pincha Amir Temur tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot va tilshunoslik ilm namoyandalari, shuningdek ilohiyat va din sohasidagi mashhur kishilar bilan shaxsiy suhbatlar o‘tkazardi. Bu suhbatlarda hayotning muhim masalalari to‘g‘risida, Movorunnahr va Xorazmdan tashqari, Oltin O‘rda, Oq O‘rda, Xuroson, Hindiston,Eron,Iroq, Turkiya shuningdek butun mag‘ribni o‘z ichiga olgan saltanatga oid ishlar haqida gap boradi. Amir Temur saroyida ko‘plab ilmma’rifat kishilari hukumdorning marhamatidan bahramand bo‘lib xizmat qilardi. Chunonchi Mavlano Abdujabbor Xorazimiy, Mavlano Shamsuddin Munshi, Mavlano Abdullo Lison, Malano Badriddin Ahmad, Mavlano No‘moniddin Xorazimiy, Xo‘ja Afzal, Mavlano Alouddin Koshiy, Jalol Hokiylar shular jumlasidandir. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me’morchilik, falakkiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalarning ravnaqiga katta e’tibor beradi. U ayniqsa sohib hunar ustalar bilan jon dildan suhbatlashardi. Bu haqida Lyangle

shunday yozadi: Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildiradi. Temur davrida ko‘chalari qaytib qurilib, bozorlar obod etildi. Klavixo yozadi: “,Samarqand shahrida har yili Xitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa mamlakatlardan, shuningdek nihoyatda boy Samarqand saltanatining o‘zidan keltirilgan molar sotilardi. Shaharga olib kelingan mollar bir yerda tartib bilan joylashtirib

sotadigan joy yo‘q edi. Tarixiy qisqa fursatda qudratli saltanatga aylangan” Temur davlati va uning hukumdori zamondoshlarining e’tiborini o‘ziga jalb etibgina qolmay, balki Yevroosiyo mamlakatlarida yuz berayotgan barcha voqealarga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bu Temurning G‘arbga tomon ,”yeti yillik” yurishlari davri (1398- 1404 yil) gacha qudratli Usmonli turklar imperiyasiga qarshi urush boshlashga qadar yaqqol namoyon bo‘lgan edi. XIV- asr oxiri – XV- asr boshlarida

Yaqin Sharqda murakkab siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bu vaqtda bir tomondan harbiy qudrati tobora ortib borayotgan Turkiyaning Bolqon yarim oroli davlatlariga nisbatan tahdidi kuchayib, butun Yevropani xavf ostiga solayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu qudratli davlatning o‘zi G‘arbga tamon shiddat bilan bostirib kelayotgan xavfli raqibi- Trabzon va Kanistantipolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venetsiyaga sovg‘a salomlar va maktublar bilan Vatikan vakili arxiyepiskop Ioan Galonifotibus boshchiligida elchilar yuboradi. O‘zaro yordam masalasida Temur Kanistantinopol imperatorining noibi Ioann VII Paleolog bilan yozishmalar ham olib boradi. Temurning 1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo‘llagan xatning mazmuniga qaraganda, Kanistantinopol imperatori va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashishda Temurga xizmat qilish, hatto unga odamlar va har qaysisi 20 tadan 40 harbiy kema bilan‘‘ yordam berish majburiyatini o‘z zimmalriga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o‘z kundalik daftarida qayd etganligi haqida ma‘lumot mavjud. Temur bu davrda Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamara (1390-1407) lar bilan diplamatik aloqalar o‘rnatib, yozishmalar olib boradi. Bu davlatlar orasida ayniqsa Fransiya Vizantiya imperiyasi taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shu boisdan Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa G‘alatiyadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI o‘z navbatida Temurdan madad kutar va u bilan diplamatik aloqalar o‘rnatishga intilar edi[5]

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. J.Yaxshilikov. Sh.Axadov. Temuriylar ma’naviyati. Toshkent. 1999-yil.
2. O‘zbekiston Xalqlari Tarixi. Toshkent. 1992-yil.
3. Qomuslar bosh tahririyati. „Temur va Temuriylar saltanati“. T.: 1994 y. 6-7 b

4. 2. Amir Temur. ”Temur Tuzuklari”. ”Buyuk davlatchilik silsilasi”turkumi – T. 2020.

5. 3. ,”Zafarnoma”. ,”Sharq” nashriyoti. T.: 1997 y

## QADIMGI TOSHKENT VOHASI

***Egamov Diyorbek Inomjon o‘g‘li,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada qadimgi Toshkent vohasining tarixiy-geografik holati, dastlabki aholi punktlari, madaniy yodgorliklari hamda iqtisodiy-siyosiy rivojlanishi haqida so‘z yuritiladi. Ushbu maqola, Toshkentning qadimgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur tahlil etib, uning O‘rta Osiyo va dunyo tarixidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Toshkent vohasi, qadimgi shaharlar, arxeologik yodgorliklar, Zangiota, Qovunchi madaniyati, savdo yo‘llari, madaniy aloqalar, qadimgi iqtisodiyot*

Toshkent vohasi, Markaziy Osiyoning qadimiy hududlaridan biri bo‘lib, o‘zining strategik joylashuvi va boy tarixiy merosi bilan diqqatga sazovor. Toshkentning qadimiy davrlari haqida arxeologik va tarixiy manbalar ko‘plab ma’lumotlarni taqdim etadi. Toshkent vohasining qadimdan aholisi uchun qulay yashash sharoitlari mavjud bo‘lib, bu hududda ilk madaniy markazlar shakllangan. Toshkentning qadimgi tarixini o‘rganish, nafaqat Toshkentning o‘zining rivojlanishiga, balki butun O‘rta Osiyo va uning madaniyati, iqtisodiyoti haqida ham to‘liq tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi.

Toshkent vohasining tarixiy o‘tmishi haqida ko‘plab ilmiy izlanishlar mavjud. Bu maqolada qadimgi Toshkent va uning atrofidagi vohalarda yashagan aholi, madaniy yodgorliklar, savdo va iqtisodiy aloqalar, shuningdek, madaniyatlararo ta’sirlar keng yoritiladi.

Toshkent vohasi O‘rta Osiyoning markazida joylashgan bo‘lib, uning geografik joylashuvi tarixan uning muhim savdo va madaniyat markazi bo‘lishiga imkon yaratgan. Vohaning eng muhim xususiyatlaridan biri, u asrlar davomida O‘rta Osiyoning turli madaniyatlari va xalqlari o‘rtasidagi savdo va madaniy aloqalarining chorrahasi bo‘lganidir. Ushbu voha hududi, ayniqsa, Sirdaryo va Amudaryo o‘rtasida joylashgan bo‘lib, qadimda savdo yo‘llarining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan. Shuningdek, Toshkent vohasining iqlimi va tabiiy resurslari ham bu yerda qadim zamonlardan aholi yashashiga qulay sharoit yaratgan.

Vohada qadimiy shaharlar, masalan, Zangiota, Qovunchi, Toshkentning o‘zida bo‘lgan arxeologik qazilmalar asosida uning tarixiy rivojlanishi haqida qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Toshkent vohasining madaniy va iqtisodiy rivojlanishi uning geosiyosiy ahamiyatini ta’minlab, hududni mamlakatlararo savdo va madaniyat almashishining markaziga aylantirgan.

Toshkent vohasidagi qadimiy madaniyatlar, o‘zining boy arxeologik merosi bilan ajralib turadi. Arxeologik tadqiqotlar Toshkent vohasining qadimgi davrlarida, miloddan avvalgi II mingyillikda ham aholi yashaganligini ko‘rsatadi. Toshkentning qadimiy aholisining yashash tarzini, ularning iqtisodiy faoliyatini va madaniy yodgorliklarini o‘rganish, bu davrning ijtimoiy tuzilmasi va madaniy merosini aniqlashga yordam beradi.

Zangiota, Qovunchi madaniyati Toshkent vohasining eng qadimiy madaniyatlari sifatida tanilgan. Bu madaniyatlarning yodgorliklari va materiallaridagi izlanishlar Toshkentning qadimgi davrda yirik madaniy markazlardan biri bo‘lganligini isbotlaydi. Shu bilan birga, Toshkentning qadimgi shaharlarida turli xil hunarmandchilik turlari, jumladan kulolchilik, metall ishlov berish, to‘qimachilik va boshqa san’at turlari rivojlangan.

Toshkent shahridagi qadimiy arxitektura yodgorliklari, jumladan, masjidlar, saroylar va boshqa muhim inshootlar orqali bu davrning madaniy jihatlarini o‘rganish mumkin. Arxeologik qazilmalar Toshkentda qadimiy me’moriy obidalar va sanoat inshootlari mavjudligini ko‘rsatadi, bu esa shaharning iqtisodiy va madaniy ahamiyatini oshiradi.

Toshkent vohasi qadimgi davrda muhim savdo yo‘llarining chorrahasi bo‘lib, u butun O‘rta Osiyo va uning atrofidagi hududlar bilan iqtisodiy aloqalarda bo‘lgan. Ushbu hududdagi savdo faoliyati asosan ipak, baharatlar, toshlar, paxta va boshqa qimmatbaho mahsulotlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Toshkentning savdo yo‘llaridagi ahamiyati shundaki, u Sharq va G‘arbni bog‘lab turuvchi muhim yo‘l bo‘lgan. Bu esa Toshkentni faqat iqtisodiy markaz emas, balki madaniy va ilmiy markazga ham aylantirgan.

Savdo va iqtisodiyotning rivojlanishi Toshkentning madaniy hayotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Toshkentda qurilgan ilmiy va diniy markazlar, masalan, madrasalar va ilmiy maktablar, o‘sha davrda xalqaro miqyosda mashhur bo‘lgan. Toshkentda shakllangan iqtisodiy tizim, hunarmandchilik va savdo faoliyatlari vohaga boy iqtisodiy meros qoldirgan.

Toshkentning qadimgi tarixida madaniyatlararo aloqalar juda muhim o‘rin tutgan. Toshkent o‘zining geografik joylashuvi sababli, turli xalqlarning madaniyatlarining kesishgan nuqtasi bo‘lgan. Yunon, hind, arab va turk

madaniyatlarining Toshkentga ta’siri keng tarqalgan. Ushbu madaniy aloqalar Toshkentda turli xil san’at va ilmiy an’analarni rivojlantirgan.

Shuningdek, Toshkentda qurilgan masjidlar, madrasalar va boshqa arxitektura yodgorliklari o‘sha davrning madaniy merosini aks ettiradi. Toshkentda ilmiy va diniy markazlar faoliyat yuritgan va bu markazlar o‘z davrida xalqaro miqyosda mashhur bo‘lgan.

Qadimgi Toshkent vohasi o‘zining strategik o‘rni, iqtisodiy va madaniy ahamiyati bilan o‘rta asrlar tarixida juda katta rol o‘ynagan. Toshkentning qadimiy davrlarini o‘rganish orqali biz faqatgina bu hududning o‘zini, balki butun O‘rta Osiyo va uning madaniy va iqtisodiy tarixini yanada chuqurroq anglashimiz mumkin. Toshkent vohasi qadimgi savdo yo‘llari orqali butun dunyo bilan madaniy va iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan, bu esa uni o‘sha davrning eng muhim madaniy markazlaridan biriga aylantirgan. Toshkentning arxeologik yodgorliklari, qadimiy shaharlari va madaniy merosi bugungi kunda ham o‘rganishga va saqlashga muhtoj boy tarixiy manbalardir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. G‘iyosov, M. A., & Qodirov, A. T. Toshkent va uning atrofidagi qadimiy madaniyatlar. Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti. 2022.

2. Shavkatov, B. S. O‘rta Osiyodagi qadimiy shaharlar va madaniyatlar. Samarqand: Akademnashr. 2023.

3. Karimov, I. Toshkent vohasi: Geografiya va tarixiy meros. Tashkent: Yangi O‘zbekiston nashriyoti. 2022.

4. Tursunov, M. S. Qadimgi Toshkent va uning iqtisodiy aloqalari. Toshkent: Markaziy Osiyo ilmiy izlanishlari. 2023.

5. Jumanazarov, A. S. Arxeologiya va madaniyatlararo aloqalar. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi nashriyot. 2022.

## O‘ZBEKISTONDA QADIMGI TOSHKENT

***Iskandarova Nigina Marat qizi,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O‘zbekistondagi qadimiy Toshkent shahrining tarixiy rivojlanishi, uning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayoti chuqur tahlil etilgan. Toshkentning o‘rta asrlar davrida muhim madaniy va savdo markazi sifatida rivojlanishi, shahar hududidagi arxeologik yodgorliklar va madaniyatlararo aloqalarning roli alohida o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Toshkent, O‘zbekiston tarixi, qadimgi shaharlar, savdo yo‘llari, madaniyatlararo aloqalar, arxeologiya, qadimgi iqtisodiyot, Toshkent vohasi, qadimgi Toshkent, O‘rta Osiyo.*

Toshkent shahri O‘zbekistonning qadimiy tarixida alohida o‘rin tutadi. U nafaqat o‘zining geografik joylashuvi bilan, balki madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar orqali ham muhim ahamiyatga ega. Toshkent qadimdan O‘rta Osiyo hududining markaziy nuqtalaridan biri bo‘lib kelgan va u savdo yo‘llarining chorrahasi sifatida rivojlanishning yirik manbai bo‘lgan. Ushbu maqolada Toshkentning qadimiy tarixini, uning iqtisodiy va madaniy o‘ziga xosligini, shuningdek, xalqaro savdo va madaniyatlararo aloqalarga bo‘lgan ta’sirini keng yoritishga intilamiz. Toshkentning qadimiy davrdan bugungi kungacha bo‘lgan rivojlanishining turli bosqichlari o‘rganiladi.

Toshkentning strategik joylashuvi uning tarixida muhim rol o‘ynagan. U Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo yo‘llari kesishgan nuqtada joylashgan bo‘lib, bu hududda turli xalqlar va madaniyatlarning uyg‘unlashuvi yuzaga kelgan. Toshkentning qadimiy davrlarida, xususan, Bobil, Yunon va Rim madaniyatlari bilan bo‘lgan aloqalar shaharning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta ta’sir ko‘rsatgan. Shaharning rivojlanishida geografik joylashuvining ahamiyati katta bo‘lgan. Toshkent orqali o‘tgan savdo yo‘llari, o‘z navbatida, shaharning iqtisodiy farovonligini ta’minladi.

Toshkentning tarixiy bosqichlarini o‘rganish uchun, arxeologik izlanishlar va qazishmalar asosida shaharning ilk davrlarda qanday rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Toshkentning qadimgi nomlari, shu jumladan, "Chach" va "Shash" nomlari uning dastlabki bosqichlari bilan bog‘liq. Tarixiy manbalarda Toshkentning O‘rta Osiyoning boshqa yirik shaharlaridan biri sifatida tilga olinishi shaharning o‘ziga xos tarixiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Arxeologik qazishmalar davomida Toshkent atrofidagi qadimiy yodgorliklar, jumladan, zodagonlar va savdogarlarga oid yodgorliklar topildi. Bu yodgorliklar Toshkentning iqtisodiy hayotini, shaharsozlikni va me’morchilikni rivojlantirishda muhim omillar bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Toshkent nafaqat iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham rivojlangan. Shahar tomonidan qabul qilingan turli madaniyatlar va ularning o‘zaro aloqalari Toshkentning madaniy boyligini shakllantirgan. Toshkentda qadimdan ilm-fan va san’at rivojlanib, shaharda ko‘plab madrasalar, masjidlar va madrasa-yi ilmiy muassasalar faoliyat ko‘rsatgan. Toshkentning madaniy markaz sifatida rivojlanishi nafaqat O‘rta Osiyoda, balki butun Islom dunyosida ham e’tiborga molik bo‘lgan.

Toshkentning savdo yo‘llari orqali boshqa madaniyatlar bilan aloqalari shaharning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilgan. Bu savdo aloqalari Toshkentni O‘rta Osiyo bo‘ylab tanitib, uning madaniyati va san’ati global miqyosda tanilgan markazga aylanishiga olib kelgan.

Toshkentning siyosiy hayoti juda boy va turli bosqichlardan o‘tgan. Shaharning tarixida ko‘plab siyosiy o‘zgarishlar bo‘lib, ularning har biri Toshkentning hududiy va siyosiy ahamiyatini oshirgan. Tashkentda ko‘plab davlatlar hukmronlik qilgan va har bir hukmdor o‘z siyosatida Toshkentni markazlashtirishga harakat qilgan.

Toshkentning ijtimoiy tuzilmasi ham o‘ziga xos bo‘lgan. O‘rta asrlar davrida shaharda ko‘plab ijtimoiy qatlamlar mavjud bo‘lib, ular orasida savdogarlar, zodagonlar, hunarmandlar va fermerlar bo‘lgan. Bu ijtimoiy qatlamlar shaharning iqtisodiy va madaniy hayotini shakllantirgan.

Toshkentning qadimiy tarixidagi madaniyatlararo aloqalar ham alohida o‘rganishga loyiq. Toshkent shahri, O‘rta Osiyodagi boshqa yirik shaharlar bilan birga, Xitoy, Hindiston, Fors va boshqa o‘lkalarga savdo va ilm-fan almashishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu aloqalar Toshkentning qadimgi madaniyati va san’ati rivojlanishiga xizmat qilgan.

Qadimgi Toshkent vohasi, uning rivojlanish tarixi, iqtisodiy va madaniy hayoti, shuningdek, savdo yo‘llaridagi o‘rni O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutadi. Toshkentning strategik joylashuvi, uning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga ta’sir qilgan omillar va madaniyatlararo aloqalar shaharning qadimiy tarixini yanada boyitdi. Toshkent nafaqat o‘zining zamonaviy tarixida, balki qadimgi davrda ham O‘rta Osiyo madaniyatining markazi bo‘lib, ko‘plab xalqlarni o‘ziga jalb etgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘iyosov, M. A. (2022). Toshkent va uning qadimiy tarixi. Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.

2. Karimov, I. A. (2022). O‘rta Osiyo va Toshkentning tarixiy merosi. Toshkent: Yangi O‘zbekiston nashriyoti.

3. Shavkatov, B. S. (2023). Toshkent va uning iqtisodiy aloqalari. Samarqand: Akademnashr.

4. Tursunov, M. S. (2022). Qadimiy Toshkent va uning madaniyati. Toshkent: Markaziy Osiyo ilmiy izlanishlari.

5. Abdullayev, K. B. (2023). Toshkentning arxeologik yodgorliklari. Toshkent: Tarixiy tadqiqotlar.

# O‘ZBEKISTON–FRANSIYA DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT YO‘LI (1991–2024)

**Egamurodov Azizbek Otajonovich**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning boshlanish tarixi va ahamiyati hamda 2022-yil 21-22-noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Fransiyaga rasmiy tashrifi va uning natijalari haqida yozilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *rasmiy tashrif, FAR, “yashil” iqtisodiyot, “Yo‘l xaritasi”, faxriylar uyi, FERRANDI Paris instituti, Yelisey saroyi, Luvr muzeyi, “Samarqandga yo‘l. Ipak va oltin mo‘jizalari” va “O‘zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo‘llari chorrahalarida” nomli ko‘rgazmalar, Hôtel national des Invalides saroyi.*

O‘zbekiston-Fransiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil fevralda o‘rnatilgan. Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi 1992-yilda ochiladi, 1995- yil esa O‘zbekistonning Fransiyadagi elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi va o‘zaro ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar, delegatsiyalarning tashriflari yo‘lga qo‘yildi. Ikki tomonlama aloqalarning mustahkamlanishiga O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning 1993-yil 27-oktabrida Fransiyaga bo‘lgan davlat tashrifi davomida imzolangan bir qator shartnomalar sabab bo‘ldi. Ular orasida “O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi” shartnoma, hukumatlar o‘rtasida investitsiyani himoyalash va o‘zaro rag‘batlantirish haqidagi bitim, hukumatlarning madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risidagi bitimi muhim o‘rin tutadi. 1994-yil aprelda Fransiya sobiq prezidenti Fransua Mitteranning yurtimizga qilgan davlat tashrifi oliy darajadagi siyosiy munosabatlarni boshlab berdi. Shu bilan birga, ilmiy-texnikaviy aloqalar ham shu davrda rivojlana boshladi, ya’ni ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida talaba va professional o‘qituvchilar almashish, amaliyot, o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslari yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida har yili yuzlab yurtdoshlarimiz Fransiyaning turli oliy o‘quv yurtlari (Parij, Lion, Marsel universitetlari) da o‘z bilimlarini oshirib kelmoqda. O‘z navbatida fransiyaliklar ham O‘zbekistonning yetakchi universitetlari ya’ni, Toshkent iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston jahon tillari universiteti, Buxoro

va Samarqand universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 1996-yil 21-24-apreldagi Fransiyaga bo‘lgan ikkinchi tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi pog‘onaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 8-9-oktabr kunlari Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan birinchi marta Fransiyada bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyevning ish faoliyati davomidagi bu birinchi rasmiy tashrif ikki davlat o‘rtasidagi 22 yillik tanaffusdan so‘ng amalga oshirildi. Ushbu tashrif davomida Fransiya va O‘zbekiston davlat rahbarlari o‘rtasida muzokaralar, Fransiya parlamenti rahbariyati, yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Oliy darajadagi O‘zbekiston — Fransiya muzokaralari kun tartibidan siyosiy muloqotni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va moliyaviy sohalardagi amaliy hamkorlikni kengaytirish, turli tarmoqlarda investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirish, shuningdek, madaniygumanitar almashuvlarni faollashtirish masalalari o‘rin olgan. Olib borilgan uchrashuv va muzokaralar natijasida 10 dan ortiq idoralararo va hukumatlararo, shuningdek, transport, turizm, madaniyat va san’at, ekologiya, iqtisodiyot va moliya sohalarida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar, tashqi siyosat mahkamalari o‘rtasidagi hamkorlik dasturi va boshqa ko‘plab hujjatlar bo‘yicha qo‘shma qarorlar muhokama etildi va qabul qilindi. Shavkat Mirziyoyev Fransiyaga bo‘lgan tashrifi davomida Fransiya bilan 5 milliard yevro miqdorida o‘zaro hamkorlik shartnomasi imzolandi. Davlatimiz rahbarining Fransiyaga bo‘lgan ushbu ilk rasmiy tashrifi mamlakatlarimiz parlamentlari o‘rtasidagi aloqalarning yangi bosqichi boshlanishiga turtki bo‘ldi.

2019-yil 17-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyevning Fransiya Respublikasi Yevropa ishlari va tashqi ishlar vaziri huzuridagi Davlat kotibi Jan-Batist Lemuan boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Ushbu uchrashuvda Fransiya O‘zbekistonning ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida munosabatlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berayotgan davlat sifatida ta’kidladi. Ikki davlat vakillari orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil oktabrida Fransiyaga tashrifi davomida imzolangan shartnomalarni amalga oshirish jarayoni muhokama qilindi. Shuning bilan birga 2022-yil 21- noyabr kuni Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning o‘zbek tilida chop etilgan “Yashasin, Fransiya” nomli kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Ushbu bo‘lib o‘tgan taqdimot O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasiga bo‘lgan rasmiy tashrifiga bag‘ishlangan bo‘lib, tadbir Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori Sodiq Safoyev tomonidan ochib berildi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, “Fransiya universitetlari bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hozirgi kunga qadar 3 ta memorandum imzolagan. Mazkur kitobning o‘zbek tilida chop etilishi – katta hodisa. Sizlar uning birinchi mushtariylaridan bo‘lasizlar”, - deya ta’kidlab o‘tdi. Ushbu kitobni o‘qish orqali Fransiyaning hozirgi davrdagi siyosati, ustuvor yo‘nalishlari va bu davlatning O‘zbekiston siyosatiga bo‘lgan munosabatini tushunish mumkin. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 21-noyabr kuni Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan Fransiyaga tashrif buyurdi. Bu Shavkat Mirziyoyevning so‘ngi to‘rt yil ichidagi ikkinchi rasmiy tashrifi hisoblanadi. Shuni aytib o‘tish lozimki, Prezidentimiz bunchalik qisqa vaqt ichida hech bir Yevropa davlatiga ikki bor tashrif buyurmagan. Bu tashrif Fransiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalarning tobora mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Tashrifning birinchi kuni - 21-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu rasmiy tashrif doirasida Parij shahrida Fransiya taraqqiyot agentligi (FAR) bosh direktori Remi Riuni qabul qildi. Bu uchrashuvda O‘zbekiston va Fransiya taraqqiyot agentligi o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, yangi istiqbolli loyihalar bilan boyitish masalalari yuzasidan kelishuvlar olib borildi. Ikki tomonlama imzolangan loyihalar portfeli 1 milliard yevroga yetdi. Muzokaralar davomida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini, shuningdek ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilma sohalarini joriy qilish, energetika va transportda “yashil” iqtisodiyot loyihalarini rivojlantirish, agrosanoat majmuini qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar va yoshlarni o‘qitish va ularning tadbirkorligini moliyalashtirish loyihalarini ilgari surish kabi ustuvor yo‘nalishlarda amaliy sheriklikni chuqurlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Davlat xizmatchilari malaka oshirishlari uchun Fransiyada kurslar tashkil qilinadi. Ushbu hujjatda davlat xizmatchilari uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslari, sohaga oid loyihalarni amalga oshirish, o‘quv dasturlari va qo‘shma tadbirlarni tashkil qilish belgilangan. “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki” AJ va O‘zbekiston Savdosanoat palatasi o‘rtasida Fransiyada yetakchi bo‘lgan FERRANDI Paris instituti bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi. Hamkorlik shartnomasiga binoan FERRANDI Paris instituti filiallari Toshkent va Samarqandda o‘z faoliyatlarini boshlaydi. Tomonlar o‘rtasida imzolangan

shartnomalarni ro‘yobga chiqarish yuzasidan “yo‘l xaritasi”ni tayyorlashga kelishib oldilar va bir necha sohalarda aniq loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutadigan 1 milliard yevrodan ortiq bo‘lgan 2025-yilgacha strategik hamkorlik dasturini imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashrif davomida parijdagi Hôtel national des Invalides saroyida Fransiya Respublikasi Savdo vaziri-delegati, O‘zbekistonFransiya ishbilarmonlar kengashi raisi Oliver Besht bilan uchrashdi. Qayd etish joizki, Hôtel national des Invalides saroyi XVII asrda Fransiya qiroli Lyudovik XIV buyrug‘iga ko‘ra barpo etilgan arxitektura yodgorligidir. Bu saroyda taniqli fransuz imperatorlaridan biri Napoleon Bonapartning qabri joylashgan. 22-noyabr kuni Parijdagi faxriylar uyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy kutib olindi. Marosimda Prezidentimiz sharafiga Fransiya Respublika gvardiyasi harbiy xizmatchilari saf tortdi. Bo‘lib o‘tgan marosimdan so‘ng O‘zbekiston delegatsiyasi Yelisey saroyi - Fransiya Prezidentining qarorgohiga yo‘l oldi va ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi. Bunga ko‘ra, so‘ngi yillarda Fransiya kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar va qo‘shma korxonalar soni 3 barobar ko‘paydi. Yelisey saroyidagi muzokaralardan so‘ng O‘zbekistonning madaniy merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar bilan tanishish uchun Shavkat Mirziyoyev va Emmanuel Makron o‘z rafiqalari hamrohligida Luvr muzeyi hamda Arab dunyosi institutiga tashrif buyurdi. U yerda institut va O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi hamkorligida “Samarqandga yo‘l. Ipak va oltin mo‘jizalari” hamda “O‘zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo‘llari chorrahalarida” nomli ko‘rgazmalar tashkil etildi. Ushbu ko‘rgazmalarda O‘zbekistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid moddiy madaniyati taqdim etildi. Yurtimizning uzoq tarixini qamrab olgan ko‘rgazma mamlakatimizning eng yirik 9 ta muzeylaridan 300 dan ortiq eksponatdan iborat. Hunarmand ajdodlarimizning yuksak ijodiy tafakkuri va mahoratini namoyon etadigan Nukus, Samarqand, Buxoro va Toshkent muzeylaridan keltirilgan to‘qimachilik buyumlari, libos va poyabzallar, bosh kiyimlar, shuningdek, 89 ta zargarlik buyumlari ko‘rgazmadan joy oldi.

Xulosa qilib aytganda, Ikki davlatga ham manfaatli bo‘ladigan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy, madaniy-tarixiy, ta’lim tizimi va davlat xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik loyihalarini imzolanishi samarali bo‘ladi. Luvr muzeyida bo‘lib o‘tayotgan ko‘rgazma O‘zbekistonning turizm sohasi rivojlanishida juda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ikki mamlakat

yetakchilarining o‘zaro kelishuvlari nafaqat O‘zbekiston va Fransiya xalqlari, balki, butun Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN MANBALAR**

1.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Fransiya_munosabatlari

2. https://www.gazeta.uz/oz/2018/10/05/fransiya/

3. https://toshvil.uz/oz/o_zbekiston_fransiya_hamkorlik_rivojlanmoqda

4. https://kun.uz/uz/56961613?q=%2F56961613

5. https://president.uz/uz/lists/categories/229?menu_id=12

## TOSHKENT VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI ( CHOCH VA BINKAT)

***Eralov Xasan Turdimat o’g’li,***

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti I-Bosqich talabasi*

***Annotatsiya: :*** *Bu maqola Toshkent vohasining qadimgi shaharlari — Choch (miloddan avvalgi IV asr — milodiy X asr) va Binkat (milodiy IX–XII asrlar) ning Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi strategik, iqtisodiy va madaniy rolini tadqiq etadi. Maqolada quyidagi jihatlar yoritilgan: Chochdan topilgan tangalar, sopol idishlar, qal’a devorlari xarobalari, Binkat yodgorliklari (masalan, shahar plani, suv ta’minoti tizimi). Shaharlarning asosiy savdo tovarlari: ipak, metall buyumlar, qimmatbaho toshlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *:Toshkent vohasi, Choch, Binkat, qadimgi shaharlar, savdo markazlari, ipak svdosi , qadimgi tangalar, arxeologik meros.*

***Аннотация:*** *В статье рассматривается стратегическая, экономическая и культурная роль древних городов Ташкентского оазиса — Чача (IV в. до н.э. — X в. н.э.) и Бинката (IX-XII вв. н.э.) в системе Великого Шелкового пути. В статье рассматриваются следующие аспекты: монеты, найденные в Чаче, керамика, руины крепостных стен, а также памятники Бинката (например, план города, система водоснабжения). Особое внимание уделено основным товарам, продаваемым в городах: шелку, изделиям из металла, драгоценным камням и сельскохозяйственной продукции.*

***Ключевые слова:*** *Ташкентский оазис, Чоч, Бинкат, древние города, торговые центры, торговля шелком, старинные монеты, археологическое наследие.*

***Annotation:*** *This article examines the strategic, economic, and cultural role of the ancient cities of the Tashkent oasis - Choch (4th century BC - 10th century AD) and Binkat (9th-12th centuries AD) in the system of the Great Silk Road. The article covers the following aspects: coins found in Choch, pottery, ruins of fortress walls, monuments of Binkat (e.g., city plan, water supply system). The main trade goods of the cities: silk, metal products, precious stones, agricultural products are covered.*

***Keywords:*** *Tashkent oasis, Choch, Binkat, ancient cities, trade centers, silk trade, ancient coins, archaeological heritage.*

Binkat -Choch (Shosh)ning o'rta asrlardagi (IX-XII asrlar) poytaxti. Toshkentning eski shahar qismidagi binolar tagida qolib ketgan shahar xarobasi hisoblanadi (V.V.Bartold, M.Ye.Masson). 10-asr arab manbalariga ko'ra, Binkatning uzunligi va kengligi bir farsax (6–7 km.ga yaqin) bo'lgan va qo'rg'on (ko'handiz yoki ark), ichki shahar (shahriston yoki madina) va ikki rabod: ichki (rabodi doxil) va tashqi (rabodi xorij)dan tashkil topgan.

Choch geografik tushuncha sifatida ilk bor sosoniylar shohi Shopur I milodiy 262 yilda Erondagi zardushtiylik ibodatxonasida o'yib yozilgan bitigida tilga olingan.Bitikda Chochiston tog'lari Sosoniylarning sharqdagi chekka yerlari qatorida tilga olingan.Arxeologik ma'lumotlar xulosasiga ko'ra, bu o'lkalarning eng qadimgi poytaxti avvalda Toshkentdan 70 km janubdagi ulkan Qanqa shahri o'rnida joylashgan bo'lishi mumkin.Keyinchalik Toshkent shahri hududidagi suv tarmog'I Salor bo'yidagi Mingo'rikda asosiy diniy markaz atrofida ko'plab shaharlashgan manzilgohlar vujudga keldi.

Toshkentning uzoq o'tmishi va u qad ko'targan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda juda xilma-xil tarzda uchraydi. Toshkent haqidagi dastlabki ma'lumotlar mil.avv.II asr milodning IV asrlariga mansub Xitoy manbalarida uchraydi. Xitoy manbalarida Toshkent viloyati qadimda Yuni, Chjesi va Shi deb nomlangan. Toshkentning qadimgi nomlaridan biri «Choch» bo'lgan. Keyinchalik Toshkent arablar tasarrufiga o'tgach, arab alifbosida «ch» xarfining yo'qligi bois, arabiy asarlarda u «Shosh» deb yuritilgan .Chunki, arab alifbosida «ch» xarfining yo'qligi bois, u «sh» bo'lib o'qiladi. Ilk o'rta asrlarda Toshkent «Choch», «Shosh», «Shoshkent», «Madinat ash –Shosh», «Binkat» va «Tarkan» nomlari bilan yuritilgan.

Ark alohida devor bilan o‘ralib, 2 darvozasi bo‘lgan, biridan rabodga, ikkinchisidan shahristonga chiqilgan. Ark ichida hokim saroyi va qamoqxona joylashgan. Ark devoriga tashqaridan jome masjidi tutashgan.

Binkat darvozalari:Xamdayn raboti, Ohanin (Temir); Amir darvozasi; Farxon, Surkada, Karmonj (yoxud Karmabaj); Kuyi Sahl (Dasht ko‘chasi); Roshdijoq; Ko‘yi Xoqon, Qasri Dehqon. Tashqi rabodda, arab geograflarining ma’lumotlariga ko‘ra, 7 ta darvoza bo‘lgan: Farg‘ad (Shar-qiy), Xoshkas (Sirdaryodagi Xos kechuvi), Sandijak (yoki Sakandijoq), Ohanin, Bokardijoq, Sakrak, Sag‘robod (yoxud Darbi Faryad).

Toshkent vohasidan qadimgi Parak – Chirchiq va Ohangaron daryolari oqib o‘tib, Sirdaryoga, ya’ni – Sayxun daryosiga borib quyiladi. Mazkur joy daryolar, serunum tuproqli yerlar tufayli vohaning ko‘p joylarida ilk qishloqlar vujudga kelib, ular asta sekin, shaharlarga aylana borganlar. Bularning eng yiriklari Shoshtepa ilk shahar harobasi, Mingo‘rikdagi qadimgi Toshkent, Oqtepa – ilk o‘rta asr qasri va nihoyat, Binkat o‘rta asrlardagi Toshkent shahridir. Shak-shubhasiz vohadagi hamma qadimgi va o‘rta asr qishloq va shaharlarining aksariyati tabiiy yoki sun’iy suv manbalari yaqinida vujudga kelgan va rivoj topgan. Chunonchi Shoshtepa Jo‘nariq bo‘yida, Mingo‘rik Solar bo‘yida, Oqtepa qasri va nihoyat Binkat o‘rta asrlardagi Toshkent [U istokov drevney kulturi Tashkenta. Tashkent: Fan. 1982. S. 91-129; 171-172] esa Parak-Chirchik daryosidan suv oluvchi Bo‘zsuv anhorining Qaykovus kanalidan chiqarilgan tarmoq ariqlardan keladigan suv bilan ta’minlangan.

Ammo Binkat – o‘rta asrlardagi Toshkent qal’asi va shahristoni esa yirik sug‘orish tarmoqlaridan bir oz uzoqroq va balandlikda bo‘lgan. Ayniqsa uning arki hozirgi Chorsu bozori hududida bo‘lib, kamida bozorning yer sathidan 10-15 metr balandda joylashgan bo‘lsa kerak. Somoniylar davrida Shosh va Usurshonada YAhyo binni Asad va undan keyin uning avlodlari hukmronlik qilganlar. Bu davrda dastavval Shoshning loyqa bosib, suvsizlikdan qurib qolgan sug‘orish tarmoqlari qayta tiklangan. Shoshtepaning qadimgi aholisi chorvachilik (qoramolchilik, yilqichilik, qo‘ychilik hamda tuyachilik) bilan shug‘ullangan. Qadimgi shoshtepaliklar jez va temirdan qurol-yarog‘ va asboblar yasashni, kulolchilik hamda to‘qimachilikni yaxshi bilgan. Shubhasiz, bu qishloqlarda, keyinchalik Toshkent vohasida shahar madaniyati shakllanib, qadimgi Toshkentning asta-sekin qad ko‘tarishiga zamin bo‘ldi.

Mil. av. 2—1-asrlarda Shoshtepada qadimgi shahar belgilari paydo bo‘ldi. Qadimgi qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o‘rab olingan doira shaklidagi qal’a (qo‘rg‘on) qad ko‘tardi. Mil. 1—2-asrlarda suyakdan yasalgan yozuv tayoqchasi (stil) qadimgi Shoshda yasalib ishlatilgan.

15 smli bu suyak qalamning bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi o‘chirgich tomoni esa qiyshiq ko‘p burchak shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilma milod boshlaridayoq Toshkent vohasida ham xattotlik mavjudligidan guvohlik beradi.

Shoshtepadagi arxeologik obidalar shaharning mustahkam mudofaa devori, hashamatli me’moriy majmuoti, hunarmandchilik buyumlari, xatsavod va savdodan dalolat beruvchi topilmalar milod bo‘sag‘asida Toshkent vohasida shahar madaniyati rivojlanib, Shoshtepadagi qadimgi qishloq shahar qiyofasini ola boshlaganini ko‘rsatadi. Shoshtepani o‘rganish Toshkent hududidan shahar madaniyati tarixi huddi shu davrdan boshlangan, ya’ni uning yoshi 23 asrdan kam emas deb baholashga imkon berdi.

Arab qo‘shinlari Chochga ilk bor 713-yilda bostirib kelishgan. Tabariyning yozishicha, Chochni zabt etish uchun arablar 20 ming kishilik qo‘shin tortgan. Shahar aholisi arablarga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Pekin, arablar ko‘p o‘tmay Chochni bosib olganlar va talon-toroj qilib katga o‘lja bilan qaytganlar. Arab istilochilari tomonidan vayron etilgan shahar o‘zini o‘nglay olmadi. Faqat 9-asrga kelib, avvalgi o‘rnidan 4– 5 km shimoli-g‘arbroqda, Bo‘zsuv kanalidan chiqarilgan Kaykovus (Kolkohdiz) arig‘i yonida yangitdan vujudga kedli va yana Chochning poytaxtiga aylanib, jadal taraqqiy eta boshladi. Bu yangi shahar arab manbalarida Binkat (uzoqdan ko‘rinib turuvchi yoki quyi shahar) deb tilga olinadi. Bu nom 9— 10-asrlarda zarb etilgan kumush va chaqa tangalarda Shosh va Madinat ash Shosh nomlari bilan bir qatorda uchraydi. Bu shaharda ham hunarmandchilik va savdo-sotiq tez rivoj topdi. Arablar dashtlik chorvador kabilalar hujumidan hosildor yerlarni muhofaza qilish maqsadida 8-asrning 70-yillarida Chirchiq vohasining shimoli-g‘arbiy chegaralari bo‘ylab Soyliq qishlog‘i yonidagi tog‘lardan to Sirdaryogacha devor qurdirganlar. Uning xarobalari Kampir devor nomida saqlanib qolgan.

O‘rta asrlarda Binkat hududida boshqa kasb-hunarlar qatorida shishapazlik ham rivoj topgan. Binkat rabodlaridan turli linzalar va shisha idishlarning ajoyib namunalari topilgan. Shisha buyumlarning aksariyati yashil va ko‘k, qisman sariq va qora shishadan tayyorlangan. Ular tiniqligi va ustki qismi yaltiroqligi bilan ajralib turadi. Barcha shisha buyumlarni vazifasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: oshxona idishlari – kosacha, tovoq, stakan, qadah, ko‘zacha, vazalar. Ulardan xonaning ichki qismini bezashda ham foydalanishgan; xo‘jalik-ro‘zg‘or buyumlari – tuvak, sumak, deraza oynalari; atir-upa – dorixona idishlari, ular 2 guruhga – dorilar va atirlarni saqlovchi shisha idishlar va ularni tayyorlash uchun mo‘ljallangan idishlar

(kichik kolbachalar); kimyoviy idishlar – kolbalar va alembik (shisha idish)lar. Shishapazlik Binkatda 10-asr oxiri – 11-asr o‘rtalarida ravnaq topgan.

Qishloqlar shahardan janubroqda va shimoli-sharq tomonda, Binkat orqali So‘g‘ddan Yettisuvga boradigan asosiy savdo yo‘li yoqasida ko‘p uchraydi. Bu joylarning tub aholisi hunarmandchilikning muayyan bir sohasiga ixtisoslashgan. Binkatdagi shahar hayoti 10–11-asrlarda gullab-yashnagan. Bu davrda shahar Toshkent deb yuritila boshlagan. Arxeologik topilmalar shahar 12-asr o‘rtalarida inqirozga uchrab, mavqei pasaya boshlaganligidan dalolat beradi. 12-asr oxiri – 13-asrdagi inqirozdan so‘ng shahar hayoti yana jonlanib, 14–15-asrlarda janub va sharqqa qarab kengaygan, uning sharqiy devori tashqarisida, Shayx Xovandi Tohur mozori oldida masjid va madrasa qurila boshlagan. 14–16-asrlarda shahar arki Binkatning janub tomoniga, Beshyog‘ochning Qoratosh mahallasi o‘rnashgan hududga ko‘chgan. Bu joydagi Eskio‘rda mahallasi 19-asrgacha mavjud bo‘lgan. Ark kompleksi binolaridan biri – 15–16-asrlarga oid hammom xarobalari arxeologlar tomonidan tekshirilgan.

Ushturkat – Chochdagi qadimiy shaharlardan biri. Parak (Chirchiq) daryosi kechuvida, Buyuk ipak yo‘lida bunyod etilgan. Arab geograflari asarlarida (10-asr) Shuturket yirik, yaxshi mustahkamlangan «chiroyli timlari – yopiq bozorlari bo‘lgan» shahar sifatida qayd etilgan. Choch davlatida u kattaligi jihatidan Binkat va Xarashkat (Qanqa)dan so‘ng uchinchi mavqyeni egallagan. Shuturket xarobalari Chirchiq daryosining o‘ng sohilida, Toshkentdan 50 km g‘arbda Eski Toshkent nomi bilan saqlangan. 1900 yil V.V.Bartold uni Shuturket xarobasi ekanligini aniqlagan. G.V.Grigoryev (1934) tadqiq etgan. Rivoyatlarga ko‘ra bu joy Choch poytaxti va qadimgi bahodir Tosh qarorgohi bo‘lgan. Shaharning bunyod etilgan aniq vaqti noma’lum. Hozirgi Shuturket xarobalari Chirchiq suvi yuvib ketishi oqibatida ancha vayron bo‘lgan. Faqat 10–13-asr boshlariga oid o‘rta asr kvartallari saqlanib qolgan. Shuturketdan sirlangan sopol idishlar, ko‘plab shisha buyumlar topilgan. Shaharda hayot 13-asr boshida mo‘g‘ullar istilosi natijasida barham topgan.

Xulosa: Toshkent vohasi—markaziy Osiyoning eng qadimgi madaniyat markazlaridan biri bo‘lib, uning tarixiy rivojida Choch va Binkat shaharlari alohida o‘rin tutadi. Bu shaharlar nafaqat mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida, balki Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi strategik ahamiyati bilan ham ajralib turgan.

Choch (Chach) milodning ilk asrlarida voha markaziga aylangan va o‘zining yirik savdo-sotiq yo‘llari, qo‘pol istehkomlari, hunarmandchilik va

dehqonchilik rivoji bilan mashhur bo‘lgan. Choch o‘z davrida turli madaniyatlar chorrahasi vazifasini o‘tagan, shu jumladan, sosoniylar, turk xoqonligi va arablar ta’siri ostida madaniy sintezning namunasini ko‘rsatgan. Arxeologik topilmalar (sopol idishlar, tangalar, me’moriy qoldiqlar) bu shaharning boyligi va xalqaro aloqalarini tasdiqlaydi.

Binkat esa o‘rta asrlarda Chach viloyatining poytaxti sifatida shakllangan va keyinchalik zamonaviy Toshkent shahrining asosiga aylangan. Uning geografik joylashuvi (Sirdaryo va Chatqol tog‘lari oralig‘i) uni savdo va mudofaa uchun ideal qilgan. Binkat turli sulolalar (somoniylar, qoraxoniylar) hukmronligi davrida gullab-yashnagan, shahar me’morchiligi (masjidlar, qal’alar) va suv ta’minoti tizimlari bilan rivojlangan shahar madaniyatini namoyish etgan.

Ikkala shahar ham ko‘plab istilolar va tabiiy ofatlar (zilzilalar)ga qaramay, o‘zining tarixiy izlarini saqlab qolgan. Bugungi kunda ularning merosi nafaqat Toshkentning kelib chiqishini tushunishda, balki Markaziy Osiyoning madaniy xilma-xilligini tadqiq qilishda muhim manba hisoblanadi. Arxeologik obidalarni saqlash va ularni turizm bilan bog‘lash mintaqa tarixini yangi avlodga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, Choch va Binkat—Toshkent vohasining yorqin madaniy yodgorliklari bo‘lib, ularning tarixiy tajribasi mintaqaning global jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligini va uzoq asrlik mustahkamlik ramzini aks ettiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. “Toshkent” enskiklopediyasi. 2009 yil

2. Boltayev B .Muzeyshunoslik

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “O’zbekiston Respublikasi hududidagi moddiy madaniy meros ob’ektlari ro’yxati to’g’risida qaror.”(846-sonli, 2019-yil 4-oktabr).

4. XZ Normurodovna (2025). DIGITIZATION IS A MODERN APPROACH TO THE EDUCATIONAL SYSTEM, THE NATIONAL TEACHING SYSTEM. Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, 1(Vol. 1 No), 279-287.

5.U istokov drevney kulturi Tashkenta. Tashkent: Fan. 1982. S 91-129; 171-172

6. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 56-64

7.Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA RAQAMLI O ‘RGANISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

8.Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31

## O‘ZBEKISTON VA VENGRIYA O‘RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK: ZAMONAVIY BOSQICH VA ISTIQBOLLAR

**Ergasheva Charos**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, diplomatik aloqalarning mustahkamlanishi, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikning o‘sishi, xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik hamda madaniy va parlamentlararo muloqotlar ko‘lami yoritiladi. Shu bilan birga, ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik istiqbollari ham muhokama qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston, Vengriya, ikki tomonlama hamkorlik, diplomatik munosabatlar, savdo-iqtisodiy aloqalar, strategik sheriklik, xalqaro tashkilotlar*

O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, yangi bosqichga ko‘tarildi. Vengriya O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 26-dekabrda tan olgan va 1992-yil 3-martda diplomatik aloqalar o‘rnatilgan. Bu davrdan buyon ikki mamlakat o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xalqaro maydondagi hamkorlik izchil rivoj topmoqda. Ushbu maqolada ikki tomonlama aloqalarning mazmuni, natijalari va istiqbollari tahlil qilinadi.

1. Siyosiy va diplomatik aloqalar

O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar mustahkam asosga ega bo‘lib, har ikki davlat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Siyosiy maslahatlashuvlar, yuqori darajadagi tashriflar hamkorlikni yanada chuqurlashtirmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yilda Vengriyaga tashrifi ikki davlat munosabatlarida yangi davrni boshlab berdi.

2. Savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlik

So‘nggi yillarda ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar aylanmasi barqaror o‘smoqda. 2018-yildan 2022-yilga qadar savdo hajmi salkam ikki barobar oshib, 92,7 million AQSH dollariga yetgan. Eksportda O‘zbekiston tomonidan to‘qimachilik, oziq-ovqat, plastmassa mahsulotlari ustunlik qilsa, importda Vengriya farmatsevtika, elektr va mexanik uskuna yetkazib bermoqda. O‘zbekistonda Vengriya kapitali ishtirokidagi 16 ta korxona faoliyat yuritmoqda.

3. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlik

O‘zbekiston va Vengriya xalqaro tashkilotlar – BMT, YEXHT, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham yaqin hamkorlik qilmoqda. Har ikki davlat global muammolarga nisbatan o‘xshash pozitsiyalarga ega.

4. Parlamentlararo va madaniy aloqalar

Ikki mamlakat o‘rtasida parlamentlararo muloqot faollashgan. Do‘stlik guruhlari tashkil etilgan va faol ishlamoqda. Madaniyat, ta’lim va turizm sohalarida ham hamkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi munosabatlar bugungi kunda strategik sheriklik darajasiga yetmoqda. Siyosiy barqarorlik, iqtisodiy manfaatdorlik va xalqaro hamkorlik ikki mamlakat uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu aloqalarni yanada mustahkamlash orqali yangi loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Bu esa nafaqat ikki mamlakat, balki mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga ham xizmat qiladi.

Vengriya O'zbekistonning Yevropadagi muhim sheriklaridan biri hisoblanadi. Birgalikdagi intilish va amaliy ishlar natijasida bu sheriklik yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi to'rt yilda ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo aylanmasi hajmi salkam uch barobarga o'sdi. Murakkab pandemiya sharoitiga qaramay, o'tgan yili ham bu ijobiy dinamika saqlab qolindi.

Ishbilarmonlar va hududlar o'rtasida yaqin aloqalar yo'lga qo'yilgani bunda muhim omil bo'lmoqda. Xususan, joriy yil fevral oyida Budapeshtda iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi va biznes forum o'tkazilgan edi.

Vengriya Bosh vazirining shu yil 29-mart kuni mamlakatimizga tashrifi doirasida bo'lib o'tgan ikki mamlakat Ishbilarmonlar kengashining birinchi majlisida ikki tomonlama hamkorlik bobida hali ishga solinmagan juda katta imkoniyatlar borligi ta'kidlandi. Asosiy e'tibor savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy aloqalarni yanada rivojlantirish masalalariga qaratildi.

Muzokarada mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlashni ko'paytirish, savdo hajmi muvozanatini tenglashtirish, zarur mahsulotlarni o'zaro etkazib berishni faollashtirish muhimligi aytilib, bu borada Budapeshtda tashkil etilayotgan O'zbekiston–Vengriya savdo uyi imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlandi.

Sanoat kooperatsiyasi — hamkorlikning yana bir ustuvor yo'nalishidir. Vengriyaning ilg'or tajribasi asosida O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, kimyo va mashinasozlik sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Hududlar o'rtasidagi aloqalar ham rivojlanmoqda. Samarqand va Jizzax viloyatlarida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish, jumladan, qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish, eksport salohiyatini oshirish borasida Vengriya tajribasini tatbiq etish mo'ljallanmoqda.

Davlatimiz rahbari ikki mamlakat hududlari o'rtasida sheriklik aloqalarini o'rnatish, har yili Mintaqalar forumini o'tkazish taklifini bildirdi. Vengriya qishloq xo'jaligi, mevalarni saqlash va qayta ishlash, baliqchilik hamda urug'chilik sohalaridagi ilg'or tajriba va texnologiyalar bilan almashishga tayyorligini bildirdi.

Ochiq va amaliy ruhda bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida O'zbekiston-Vengriya munosabatlarining deyarli barcha yo'nalishlari atroflicha muhokama qilinib, birinchi navbatda iqtisodiy hamkorlik masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Oxirgi to'rt yilda tovar ayirboshlashni deyarli uch barobarga o'sgani aytilib, bu ko'rsatkichni kelgusida bir necha barobarga oshirish lozimligi qayd etildi.

Bu borada ikki mamlakat bozorlariga mahsulotlar etkazib berishni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik, kartoshkachilik va boshqa sohalarda aniq loyihalarni amalga oshirishga kelishib olingani ayni muddaodir.

Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning yurtimizga rasmiy tashrifi doirasida bo'lib o'tgan ochiq va konstruktiv ruhdagi muzokaralarda davlatlar rahbarlari O'zbekiston–Vengriya munosabatlarining deyarli barcha yo'nalishlarini har tomonlama muhokama qilishdi. eng avvalo, iqtisodiy hamkorlik masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. 2017 yildan buyon mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar aylanmasi hajmi deyarli uch barobarga o'sgani buning poydevori bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston biznes sohasi vakillarining fikricha, tashrif davomida Vengriya bilan bo'lib o'tgan ikki tomonlama Ishbilarmonlar kengashining birinchi majlisini muvaffaqiyatli va samarali deb baholash mumkin. Chunki

unda ko'plab kelishuv va shartnomalar tuzildi. Bu formatdagi tadbirning samaradorligi — unda ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o'rtasida ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama qilinganidir. Ochiq muloqot hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun o'zaro manfaatdor sohalarini aniq belgilash imkonini berdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – www.mfa.uz
2. Vengriya Tashqi ishlar va savdo vazirligi rasmiy axborotlari – www.kormany.hu
3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023-yil avgust sonlari
4. BMT rasmiy vebsayti – www.un.org
5. Turkiy davlatlar tashkiloti ma’lumotlari – www.turkkon.org
6. O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari – www.stat.uz

## QADIMGI O’RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI

***Erimbetova Shahnoza Mansur qizi,***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu moqolada qadimda va o’rta asrlarda Toshkent vohosining qanday bo’lganligi uning tarixiy ildizlar,kelib chiqishi,qaysi hududlar tarkibida bo’lganliklari,kimkar tomonidan bosib olinishi,Toshkent vohasining etnografiyasi,geografik joylashuvi,qanday xalqlar yashaganliklari, madaniyati urf-odatlari, tili, dini borasida moqolada aytib o’tiladi.*

***Kalit so’zlar:*** *qadimgi o’rta asrlar Toshkent,Shosh, Choch,turklar,mo’g’ular,xitoy manbalari,qoraxoniylar,somoniylar,Buyik Ipak yo’li,savdo.*

***Аннатоция:*** *В статье рассказывается о том, каким был Ташкентский оазис в древности и в средние века, его исторические корни, происхождение, в состав каких территорий он входил, кто его завоевывал, этнография Ташкентского оазиса, его географическое положение, какие народы там проживали, его культура, традиции, язык и религия.*

***Ключевые слова:*** *древний средневековый Ташкент, Шош, Чач, тюрки, монголы, китайские источники, Караханиды, Саманиды, Великий Шелковый путь, торговля*

***Annotation:*** *This article describes what the Tashkent oasis was like in ancient times and in the Middle Ages, its historical roots, origin, which territories it was part of, who conquered it, the ethnography of the Tashkent oasis, its geographical location, what peoples lived there, its culture, traditions, language, and religion*

***Keywords:*** *ancient medieval Tashkent, Shosh, Chach, Turks, Mongols, Chinese sources, Karakhanids, Samanids, Great Silk Road, trade.*

Kirish. Toshkent vohasi qadimgi asrlarda Shosh nomi bilan mashhur bo'lgan bu nomi ilk bor VII asr manbaarida uchray boshlagan.Shosh IX-XII asrlarda Movarounnahrdagi balki musilmon olamidagi salohiyatli vohalardan biri hisoblangan.Toshkentning Shosh,Choch deb atalshining sababi ba'zi tadqiqochilarning ma'lumotiga kora "Shosh" yoki "Choch" nomi vohada yashagan qadimgi mahalliy qabila yoki etnos nomidan kelib chiqqan deb hisoblashadi.Bu nom keyinchalik butun hududga nisbatan ishlarilgan deyilaridi.Qadimgi fors manbalaida esa bu hudud "Chach" yoki "Chachkent deb atalgan.Xitoy manbalarida esa bu hudud miloddan avvalgi I asrga oid manbalarida "Zhesh" yoki "Shih" tarizda qayt etilgan.Xususan IX-X asrlrda "Shosh" hududining markaziy shahri Binkat deb atalgan. XII asrga kelib, bu shahar "Toshkent''yani "toshli shahar" deb nomlangan.Asta–sekin bu nom butun vohaga nisbatan ishlatila boshlagan.Ammo tarixiy manbalatda uzoq vaqt "Shosh" va "Toshkent" atamalari yonma yon uchrab kelgan.Shuningdek manbalarda Shoshda 30ga yaqin viloyat, 25 yoki 27ta shahar borligi qayt etilgan . Xasr oxiri – XII asr o'rtalarida Shosh Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. Keyinchalik 1214-1215 yillarda Muhammad Xorazmshoh Shoshni Qoraxoniylardan tortib oladi.Ammo 1220-yilda Chingizxon qo'shinlari Shoshni qarshiliksiz istilo qilishadi. Vohaning etnik xususiyatiga to'xtaladigan bo'lsak o'rta asrlarda turk etnik qabilalar kelishi ,ayniqsa Turk xoqonligining tarkibida bolishi madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.Choch eroniy tilli aholining turklashish jarayoni kechgan masgan bo'lgan.Vohada mahalliy sug'it va turkiy aholida tashqari turkiy etnik guruhlar az,uz,yag'ma, o'g'uz,qarluq, chig'il, qipchoq,turkash va boshqa etnik gruhlar yashaganlar.Shosh vohasining qishloq va shahar aholisi tili jihatdan turk yoki tojiklarga mansubligi haqida aniq ma'lumot uchramaydi.Ammo ular asosan Sirrdaryoning o'rta oqimida qadimdan qang'arlar – qirg'izlar, xunlar, kabi turkiy xalqlar etnik gruhida yashab kelganlar.Shuningdek IX-XII asrlarda Movaronnahrda iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan Shosh (Toshkent) vohasida o'ziga hos etnik jarayonlar sodir bo'lib, turkiy tili foriszabon aholi o'troq, yarib o'troq va ko'chmanchi tarizda yashab kelganlar.

Toshkent uzoq o'tmishda qad ko'targan voha bo'lib, u haqidagi dastlabgi ma'lumotlar miloddan avvalgi II-IV assssrlarda Xitoy manbalarida uchraydi. Toshkent viloyari qadimda Yuni, Chjesi, Shi deb nomlangan. Toshkenrning qadimgi nomi Choch bo'lgan, Keyinchalik Toshkent vohasi arablar tasarrufiga o'tgach arablar alifbosida "ch" harf yo'qligi sababli "Shosh" deb atalib ketgan.

Toshken nomi bilan dastlab XI asrning mashhur allomalari Abu Rayxon Beruniy, Maxmud Qoshg'ariy kabi allomalarning asarlarida uchraydi.Beruniyning "Hindiston" asarida Toshkent nomining kelib chiqishi haqida so'z yuritilib,"Tosh so'zi asli turikcha isim bo'lib Shosh ko'rinishini olgan. Toshkand – toshli qishloq demakdir " deb izohlaydi. Maxmud Qoshg'ariyning ma'lumoti bo'yicha Toshkent shahri XI –XII asrlarda "Tarkan" deb izohlaydi.Toshkent qadimgi o'rta asrlarda Choch yoki Shosh deb atalgan Chirchiq daryosi vodiysida, Sirdaryo daryosining yuqori oqimiga yaqin hududda joylashgan bo'lgan. Shosh vohasi Tyan- Shan tog'tizmsining eraklarida joylashgan bo'lib,bu yerlar suv manbalari serob, yerlari unimdor bo'lgan.Toshkent vohasi qadimda Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahalaridan biri bo'lgan. Bu orqali Sharqdan G'arbga va shimoldan janubga karvon yo'li o'tgan.O'rta asrlarda Shosh vohasi ko'p hollarda yirik davlatlar – Arab xalifaligi, Somoniylar, Qoraxoniylar kabi davlatlar tarkibida bo'lgan.

O'rta asrlarda Toshkent vohasi Sharqiy Turkiston, Xuroson, Eron, Hindiston kabi davlatlar bilan savdo aloqalar olib borgan. Toshkent –nafaqat ichki mintaqa balki Hindiston, Xitoy va Eron bilan bog'lovchi tugun bo'lgan.

Toshkent vohasi yani Chochga ilk bor arablar 713-yilda bostirib kelishgan.Chochni zabit etish uchun arablar 20 ming kishilik qo'shin tortganligini Tabariy yozib qoldirgan. Arablar bosib olgandan keyin voha o'zini o'nglay olmagan. Faqat IX asrga kelib yagitdan vujudga keladi va jadal taraqqiy eta boshlaydi.Keyinchalik IX –X asrlarda Shosh Somoniylarga tobe bo'lgan .X-asr oxiri – XII-asr o'rtalarida Choch Qoraxoniylar davlati tarkibiga kiradi 1214 – 1215-yillarda Muhammad Xorazmshoh qoraxitoylilar qo'shinini hamda naymanlar xoni Kuchluq bilan jang qilib Shosh viloyatini ulardan tortib oldi va viloyat dushmanlar qo'liga o'tmaslik uchun Shosh markaziy aholisini ko'chirtirib yuboradi.XII-XIV-asrning birinchi yarimida Toshkent viloyati Chig'otoy ulusi tarkibida bo'lgan. XIV-asrning ikkinchi yarimi – XV-asrning saksoninchi yillarigacha Toshkent Amur Temur va Temuriylar tarkibida bo'lgan. 1404-yilda Ulug'bek ixtiyoriga mulk tarizda berdi. Keyinchalik Toshkent 1485- yilda Mo'g'uliston xoni Yunsxon ixtiyoriga o'tdi va uning qarorgohiga aylanadi.1503-yilda Toshkent Shayboniyxon va Ko'chkunchixon

tasarrufiga o'tadi. XVI-asrda Toshkent yana obodonlashadi va Turkistoning hunarmanlik, va savdo-sotiq madaniy markazlaridan biriga aylanadi.

Qadimgi o'rta asrlarda Toshkent vohasi muhim siyosiy iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lgan. Uning geografik joylashuvi, unimdor yerlari, suv mnbalari va karvon yo'llariga yaqinligi sababli voha dehqonchilik,hunarmanchilik va savdo yuksak darajada rivojlangan. Bu davrda Shosh shahri yirok shahar sifatida ajralib turgan. Islom dini, ilm – fan va madaniyat taraqqiyoti bilan voha butun mintaqa hayotida muhim o'rin egallagan.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1.Karimov I.A.O'zbekiston tarixi- Toshkent: "O'zbekiston",1996

2.Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi.Toshkent Universitet, 2007.

3.O'bekiston milliy ensiklopediyasi (200-2005)

4.Xo'jayev A. Qadimgi Toshkent va Shosh viloyati tarixi – Toshkent: "Akademnashr",2012.

## QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI

**Erkinov Asilbek Xurshid o'g'li**
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*Gumanitar Fanlar Fakulteti*
*tarix yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada qadimgi davrlar va o'rta asrlar mobaynida Toshkent vohasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi, shahar hayotining shakllanishi va tarixiy ahamiyati keng yoritilgan. Arxeologik qazilmalar, tarixiy manbalar va yozma asarlar asosida Toshkent vohasi sivilizatsiyasining shakllanish bosqichlari ilmiy asosda o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar****: Toshkent vohasi, qadimgi tarix, Choch, o'rta asrlar, madaniy taraqqiyot, shahar madaniyati, Buyuk Ipak yo'li, arxeologik topilmalar.*

O'zbekiston hududidagi qadimiy madaniyat markazlaridan biri – Toshkent vohasi o'zining boy va qadimiy tarixi bilan alohida ahamiyatga ega. Vohaning tarixiy rivojlanishi Markaziy Osiyoning umumiy sivilizatsiyaviy jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu hudud qadimdan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo markazi sifatida rivojlangan. Qadimgi manbalar Toshkent atrofida ilk sivilizatsiya shakllanganidan darak beradi.

Mazkur maqolada Toshkent vohasining qadimgi va o‘rta asrlar tarixidagi o‘rni atroflicha yoritiladi

Qadimgi Toshkent vohasi (mil.avv. II–I ming yilliklar)Toshkent vohasi Markaziy Osiyoning eng qulay tabiiy-geografik hududlaridan biri bo‘lib, daryo vodiysi va unumdor yerlar qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllanishiga asos bo‘lgan. Eramizdan avvalgi II ming yillikda Sug‘d va Farg‘ona vodiysi oralig‘ida joylashgan Toshkent vohasi aholisi sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Arxeologik qazishmalar (Shoshtepa, Qovunchitepa, Mingurtepa kabi yodgorliklar) bu hududda qadimgi qishloq va shahar hayoti shakllanganligini ko‘rsatadi. Shoshtepa xarobalaridan topilgan sopol buyumlar, metall qurollar, xususan, bronza davriga oid idishlar Toshkent vohasining qadimiy madaniy rivojlanganligini isbotlaydi. Toshkent vohasi ilk davrlarda "Choch" deb atalgan. "Choch" to‘g‘risida ilk yozma ma’lumotlar Xitoy yilnomalarida uchraydi. “Suyshu” yilnomasida Choch yirik va mustaqil shahar-davlat sifatida tasvirlanadi.

Choch davlati va uning rivojlanishi (milodiy I–VIII asrlar) Milodiy I asrga kelib Choch vohasi o‘zining siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat shaklida rivojlanadi. Choch hukmdorlari o‘z pullarini zarb qilganlari tarixiy manbalarda qayd etilgan. Numizmatik topilmalar (tangalar) Toshkent hududida mahalliy boshqaruv tizimi mavjudligini tasdiqlaydi. Choch davlati Buyuk Ipak yo‘lining muhim strategik nuqtalaridan biri sifatida rivojlanadi. Hindistondan, Xitoydan va Yevropadan kelgan savdogarlar Toshkent orqali o‘tgan. Shahar markazlarida hunarmandchilik va savdo markazlari vujudga keladi. Arab manbalarida Toshkent haqida ma’lumotlar uchraydi. VIII asrda arablar Toshkent vohasini zabt etgan bo‘lsalar-da, mahalliy boshqaruv shakllari uzoq vaqt saqlanib qoladi. Mashhur qomondon Qutayba ibn Muslimning Chochga yurishlari vohaning arablar uchun ham iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. O‘rta asrlar davrida Toshkent vohasi (IX–XIII asrlar)

IX-X asrlarda Toshkent vohasi iqtisodiy va madaniy yuksalish davrini boshdan kechiradi. Somoniylar hukmronligi davrida Toshkent vohasi ma’muriy jihatdan Mustaqil bo‘lsa-da, ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri sifatida rivojlanadi. Toshkentda madrasa, masjid va kutubxonalar faoliyat ko‘rsatgan. X asrda mashhur arab sayyohi Ibn Havqal Toshkent shahrining obodon va gavjum shahar ekanligini yozgan. Qishloq xo‘jaligi rivojlangan, atrofda ko‘plab suv inshootlari, ariq va kanal tizimlari mavjud bo‘lgan. X-XII asrlarda Toshkentda ko‘plab yangi shaharlar va qishloqlar vujudga keladi. Toshkent mustahkam devorlar bilan o‘ralgan, ichki va tashqi qismlarga

bo‘lingan. Shaharda hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlar va diniy ulamolar jam bo‘lib yashagan.

XIII asr boshlarida Chingizxon qo‘shinlari Toshkent vohasini vayron qiladi. 1219-1220 yillardagi istilolar natijasida ko‘plab shaharlar, qishloqlar va madaniy markazlar yo‘q qilinadi. Toshkent aholisi qattiq qirg‘in qilinadi, dehqonchilik va hunarmandchilik tanazzulga uchraydi. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida (XIII-XIV asrlar) Toshkent vohasi tiklanish jarayonini kechiradi. Keyinchalik Amir Temur siyosati davrida (XIV asr oxiri) Toshkent qayta rivojlana boshlaydi. Temuriylar va Shayboniylar davrida Toshkent vohasi (XIV–XVI asrlar) Amir Temur davrida Toshkent vohasi iqtisodiy va madaniy tiklanish bosqichiga kiradi. Temur Toshkent hududida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun ko‘plab suv inshootlarini qayta tiklagan. Toshkent Temuriylar saltanatining muhim qismlaridan biri bo‘lib, madaniyat va ilm-fan markaziga aylangan.

XVI asr boshlarida Shayboniyxonlar davrida Toshkent vohasi yana alohida siyosiy o‘ringa ega bo‘ladi. Toshkent mustaqil hokimiyatga ega bo‘lib, o‘z hukmdorlari tomonidan boshqarilgan. Shu davrda Toshkent vohasi Markaziy Osiyo siyosiy hayotida faol rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, Toshkent vohasi nafaqat siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida, balki yuksak madaniyat va ilm-fan maskani sifatida ham shakllangan. Bu yerda qadimdan turli elatlar va madaniyatlar to‘qnashgan, bu esa vohaning madaniy mozaikasini yanada boyitgan. Aholi o‘rtasida hunarmandchilik, kulolchilik, metallsozlik kabi an’anaviy kasblar rivojlangan. Ayniqsa, sopol idishlar yasash, ipak to‘qish, gilamchilik san’ati vohada keng yoyilgan va keyinchalik butun mintaqaga tarqalgan. Toshkent vohasi orqali o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li yillar davomida bu hududni Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarning markaziga aylantirgan. Karvonlar oqimi, chet ellik savdogarlarning tashrifi vohada xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirgan. Bu esa, o‘z navbatida, shaharning ko‘rinishini, infratuzilmasini, jamoat binolarini va madaniy obidalarni rivojlantirishga sabab bo‘lgan.

Qadimgi va o‘rta asrlarda Toshkent vohasi Markaziy Osiyoning muhim tarixiy va madaniy markazi sifatida shakllangan. Vohaning tabiiy boyliklari, savdo yo‘llariga yaqinligi va siyosiy mustaqilligi uni har doim rivojlanish va yuksalish sari undagan. Arab, mo‘g‘ul va turkiy sulolalarning ta’siriga qaramay, Toshkent o‘z tarixiy qiyofasini saqlab qolgan va bugungi O‘zbekiston tarixida mustahkam o‘rin egallagan.Toshkent vohasi o‘tmishda madaniyat, ilm-fan va iqtisodiyot markazi bo‘lgani bugungi kunda ham uning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR***

1. Berdiev, O. "Toshkent tarixi" – Toshkent: Fan, 1995.
2. Narshaxiy, "Buxoro tarixi", O‘zbek tiliga tarjima va izohlar bilan – Toshkent: Sharq, 1993.
3. Sagdullaev, A. "O‘rta asrlar O‘zbekiston shaharlari" – Toshkent: Fan, 1989.
4. Abdullaev, Y. "Toshkent vohasi tarixi" – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
5. Xitoy yilnomalari: "Suyshu" va "Tangshu" tarjimalari va sharhlari.
6. Ibn Havqal, "Surat al-Arz" (Yerning rasmi) – arab sayyohining asari.
7. Al-Maqdisiy, "Ahsan at-taqasim fi ma’rifat al-aqalim" – geografik asar.

## XII-XV ASRLARDA RUSDA SIYOSIY IQTISODIY-IJTIMOIOY RIVOJLANISHI

***Erlapasov Sanjar Shuhrat o‘g‘li***
*Chirchiq Davlat Pedagogika*
*Unverseteti Gumanitar fanlar*
*fakulteti tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola XII–XV asrlar oralig‘ida Rus yerlarida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Dastlab Keyev Rusning parchalanişi, keyinchalik mo‘g‘ullar istilosi natijasida yuzaga kelgan siyosiy bo‘linish va markazlashuv jarayoni tahlil qilinadi. Ayniqsa, Moskva knyazligining kuchayib borishi va Ivan III davrida mustaqil markazlashgan davlatga asos solinishi muhim bosqich sıfatida ko‘rsatiladi.Iqtisodiy jihatdan mo‘g‘ullar istilosidan keyingi inqiroz, savdoning jonlanishi, yer egaligi tizimi va dehqonlarning holati haqida fikr yuritiladi. Ijtimoiy sohada esa feodal munosabatlarning chuqurlashuvi, pravoslav cherkovining o‘rni va dehqonlarning qaramlikka tushib borishi asosiy e’tiborni tashkil qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Keyev Rus,Mo‘g‘ullar istilosi,Oltin O‘rda,Moskva knyazligi,Ivan III,Siyosiy markazlashuv,Feodal parchalanish, Dehqonlar qaramligi,Pravoslav cherkovi,Savdo aloqalari,Hunarmandchilik,Soliq tizimi,Rus knyazliklari.*

Kiyev Rus davlati kuchsizlanib, ko‘plab yarim mustaqil knyazliklarga bo‘linib ketdi (Novgorod, Vladimir-Suzdal, Kiev, Galich va boshqalar).Siyosiy markaz Kievan Rusdan shimol va sharqqa siljiy boshladi, ayniqsa Vladimir-Suzdal knyazligi kuchayib bordi. Mo‘g‘ul bosqini (XIII asr):1237–1240

yillarda Botuxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar Rus yerlarini egallab, Oltin O‘rda hukmronligini o‘rnatdi.Rus knyazlari Oltin O‘rdaga bo‘ysunib, ularga soliq to‘ladi va hukmronlik huquqini olish uchun yarlik (mo‘g‘ul xoni tomonidan berilgan ruxsatnoma) olishga majbur bo‘ldi. Moskva knyazligining kuchayishi (XIV–XV asrlar):Moskva knyazlari Oltin O‘rdaga sadoqat bilan xizmat qilib, boshqa knyazliklar ustidan ustunlikka erishdi.Dmitriy Donskoy (1380) Kulikovo jangida mo‘g‘ullarga qarshi birinchi muhim g‘alabani qo‘lga kiritdi.Ivan III (1462–1505) Rossiyani markazlashtirishni boshlab berdi va 1480-yilda “To‘xtash turishi” orqali mo‘g‘ullar hukmronligiga nuqta qo‘ydi.2. Iqtisodiy rivojlanish:Qayta tiklanish (XIII–XIV asrlar):Mo‘g‘ullar bosqinidan keyin ko‘plab shaharlar vayron bo‘ldi, dehqonchilik inqirozga uchradi.Vaqt o‘tishi bilan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik tiklana boshladi.Savdo va hunarmandchilik:Novgorod va Pskov Ganza savdo ittifoqi orqali Boltiq dengizi orqali Yevropa bilan savdo qilar edi. Moskva va boshqa shaharlar ichki savdo markazlariga aylandi.Bozorlar, yarmarkalar faoliyat yurita boshladi.Yerga egalik va feodal iqtisod:Yirik yer egalari kuchaydi; knyazlar va boyarlar ko‘plab dehqonlarni qaram holatga tushirdi.Soliq yig‘ish tizimi rivojlandi, xususiy yer egaligi asosida feodal xo‘jalik mustahkamlandi.3. Ijtimoiy rivojlanish: Feodal jamiyat:Jamiyat asosan feodal qatlamlarga bo‘lingan edi: knyazlar, boyarlar (zodagonlar), ruhoniylar, dehqonlar va qullar.Dehqonlar tobora ko‘proq yer egalari tomonidan qaram etila boshladi (serflik).Cherkovning roli:Pravoslav cherkovi katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.Cherkov xalq ongini shakllantirishda, madaniyat va yozuv rivojida muhim o‘rin egalladi.Avtokefaliya (mustaqillik) e’lon qilinib, Moskvada o‘z metropoliti tayinlandi (1448), bu Rossiya siyosiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qildi.Madaniy va dini uyg‘onish:Cherkovlar, monastirlar qurildi, diniy adabiyotlar yozildi.Moskva "Uchinchi Rim" g‘oyasi shakllandi Vizantiya qulagach, Moskva o‘zini pravoslav dunyosining merosxo‘ri deb bilgan.

XII–XV asrlar oralig‘i Rus tarixida muhim burilish davri bo‘lib, bu davrda siyosiy parchalanishdan markazlashgan davlatga o‘tish jarayoni kechdi. Mo‘g‘ullar istilosi dastlabki inqirozga sabab bo‘lgan bo‘lsada, aynan shu bosim ostida Moskva knyazligi kuchayib, boshqa rus yerlarini birlashtirishga kirishdi. Ivan III boshchiligida Oltin O‘rda hukmronligiga barham berilib, mustaqil va markazlashgan Rus davlati vujudga keldi.Iqtisodiy jihatdan esa, mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng iqtisodiy hayot asta-sekin tiklandi, dehqonchilik va savdo rivojlandi, lekin ayni vaqtda yer egaligi kuchayib, dehqonlar qaram holatga tushib bordi. Ijtimoiy sohada esa feodal tabaqalanish chuqurlashdi, pravoslav

cherkov jamiyatda katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Shunday qilib, XII–XV asrlar davri Rus tarixida davlatchilik asoslari shakllangan, iqtisodiy tizim barqarorlasha boshlagan va ijtimoiy tuzum aniq ko'rinishga ega bo'lgan murakkab, lekin taraqqiyot sari yo'naltirilgan bosqich bo'lib xizmat qildi.

**FOYDANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Karimov I.A., Tursunov H.T. – Umumiy tarix.

2.Berdaliev N. – O'rta asrlar tarixi

3.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Rossiya" maqolasi. O'zbek tilida qisqacha, lekin ishonchli tarixiy axborotlar taqdim etilgan.

## EFTALIYLAR DAVRIDA CHOCH

***Eshboboyev Sirojiddin Nuriddin o'g'li,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*1-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada chochning(hozirgi Toshkent) Eftaliylar davrida tutgan o'rni savdo aloqalari madaniy hayoti siyosiy kurashlari hamda turklar va eftallar o'rtasidagi janglarning chochga tasiri haqida gap ketadi.*

***Kalit so'zla:r*** *idan ,idyan , haytal, yaftal, eftal, abdal, choch, tukyu, go'kturk, So'g'd, mingo'rik, buddaviylik, zardushtiylik, shoshtepa.*

Eftaliylar turli manbalarda turlicha nomlanadilar. Misol uchun, Xitoy manbalarida ular "ida, ieda, idan, idyan" deb, Suriya va lotin manbalarida esa "eptalit, eftaliy, abdal" arab Va fors mualliflarida "haytal, yaftal, eftal" degan nomlar bilan Eslatiladi.Xitoy manbalari eftaliylarni turklar (tukyue) bilan bog'liq Ravishda ta'riflaydilar. Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopiy (VI asr) eftaliylarni xunlardan deb ko'rsatar ekan,"ular (ya'ni eftaliylar) xunlardandir, tanalari esa oq" deb Eslatadi. Eftaliylarning kuchaygan davri V asrning o'rtalariga (456-457-yy.) ya'ni ular Xitoyga birinchi marta elchi yuborgan Davrga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga ko'ra, shu davrdan to 531-yilga qadar eftaliylar Xitoyga 13 marta elchi jo'natadilar.Kuch-qudrat jihatdan mustahkamlanib olgan eftaliylar O'rtaOsiyo va Shimoliy Hindistondagi katta yerlarni ishg'ol etishga kirishadilar[1]. Choch vohasi milodiy V–VI asrlarda Eftaliylar ta'siri ostida bo'lgan bo'lsa-da, mustaqil yoki yarimmustaqil holatda yashagan. U Buyuk Ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri bo'lib, shimolda Dashti Qipchoq, janubda So'g'diyona va sharqda Farg'ona vodiysi bilan tutashgan[2].

Choch vohasida Eftaliylar davrida zardushtiylik, buddaviylik va mahalliy e'tiqodlar mavjud bo'lgan. Topilgan arxeologik yodgorliklar - masalan, Ming-uryuk xarobasi va tangalar - hududda rivojlangan madaniyat bo'lganidan darak beradi.Toshkent vohasi bu davrda hunarmandchilik va savdo markazi bo'lgan. Ayniqsa ipak va metall buyumlar savdosi rivojlangan.Eftaliylar Choch vohasini o'z saltanatining shimoliy-chegara hududi sifatida qaramagan, balki u yerda qo'shni turk xoqonliklari bilan o'zaro aloqalarda bo'lgan.[3]

Eftaliylar hukmronligi davrida (milodiy V–VI asrlar) Choch vohasi (hozirgi Toshkent atrofidagi hudud) strategik jihatdan nihoyatda muhim bo'lgan. U shimolda Dashti Qipchoq, sharqda Farg'ona vodiysi, janubda So'g'diyona bilan chegaradosh bo'lib, Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmoqlaridan birida joylashgan edi. Bu holat Chochni savdo-sotiq va harbiy yo'nalishlar nuqtai nazaridan muhim markazga aylantirgan.Siyosiy jihatdan Choch to'liq Eftaliylar imperiyasining markaziy qismi bo'lmagan, biroq ularning ta'siri ostida turli darajadagi aloqada bo'lgan. Tarixiy manbalarda Choch Eftaliylar va So'g'diyona o'rtasidagi bufer zona sifatida tilga olinadi[2].

Choch vohasida Eftaliylar davrida madaniy hayot xilma-xil bo'lgan. Hududda zardushtiylik va buddaviylik keng tarqalgan. Bu esa Eftaliylar saltanatining diniy bag'rikengligi va Choch vohasining madaniy almashuv markazi sifatida faoliyat yuritganidan dalolat beradi. Arxeologik topilmalar - jumladan, Ming-uryuk, Shoshtepa va boshqa yodgorliklar - bu davrda diniy binolar, hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lganini ko'rsatadi.Topilgan bronza tangalar va keramika buyumlari bu hududda o'ziga xos san'at an'analari shakllanganini isbotlaydi. Aholi orasida savdo va diniy urf-odatlar rivojlangan bo'lib, bu madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirgan[3].

Choch vohasi Eftaliylar davrida iqtisodiy jihatdan jonli bo'lgan. Uning Buyuk Ipak yo'lidagi joylashuvi uni xalqaro savdo uchun qulay hududga aylantirgan. Ayniqsa ipak, metall buyumlar va sopol mahsulotlar tayyorlash rivojlangan. Choch hunarmandlari tayyorlagan buyumlar So'g'd, Xorazm va Farg'onaga eksport qilingan.Hududda qishloq xo'jaligi ham rivojlangan bo'lib, daryolar bo'yida sug'oriladigan dehqonchilik yo'lga qo'yilgan edi. Chorvachilik ham aholi hayotining ajralmas qismiga aylangan[4].

Milodiy 563–567-yillar oralig'ida Markaziy Osiyoning siyosiy xaritasida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda Turk xoqonligi (Gök Türklar) Eftaliylar imperiyasiga qarshi keng ko'lamli harbiy yurish boshladi. Bu urushlar tarixda Turk–Eftaliylar urushlari nomi bilan mashhur.Asosiy harbiy to'qnashuvlar milodiy 567-yilda Amudaryo havzasida, Eftaliylar imperiyasining janubiy va markaziy hududlarida bo'lib o'tgan. Bu jangda Turk

xoqonligi Eron Sossaniylari bilan ittifoq tuzgan holda Eftaliylar ustidan g‘alaba qozongan[3].

Bu janglar bevosita Choch vohasida bo‘lib o‘tmagan bo‘lsa-da, u muqaddam Eftaliylar ta’sirida bo‘lgan va ular bilan iqtisodiy-madaniy aloqada yashagan hudud sifatida bevosita ta’sir ko‘rdi. Eftaliylar qulagach, Choch vohasi bir muddat siyosiy beqarorlikka yuz tutdi. Keyinchalik, bu hudud Turk xoqonligining ta’sir doirasiga tushdi. Bu esa Chochdagi hokimiyat tuzilmasiga o‘zgarishlar kiritdi - Eftaliylar davridagi erkinlik darajasi pasaydi, lekin barqarorlik tiklandi. Turklar davrida Choch vohasi yana Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab savdo markaziga aylandi. Turk xoqonligi savdo yo‘llarini nazorat ostiga oldi va Chochning tranzit ahamiyati ortdi.Turklar orqali Choch vohasiga turkiy til va madaniyat unsurlari kirib keldi. Asta-sekinlik bilan mahalliy so‘g‘diy va eftaliy ta’siri ostidagi madaniy qatlamga yangi turkiy unsurlar qo‘shildi[5].

Xulosa qilib aytganda, Choch vohasi Eftaliylar davrida o‘zining geografik joylashuvi, madaniy xilma-xilligi va iqtisodiy salohiyati bilan mintaqaning muhim markazlaridan biri bo‘lgan. Hududning Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashganligi sababli savdo, hunarmandchilik va madaniy almashinuvlar jadal rivoj topgan.Eftaliylar qulagach, Choch Turk xoqonligi ta’siriga o‘tgan va bu bilan hududda yangi siyosiy va madaniy bosqich boshlangan. Aytish mumkinki, Choch vohasi o‘zining strategik, iqtisodiy va madaniy ahamiyati bilan turli davrlarning tarixiy jarayonlarida muhim rol o‘ynagan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. A.Sagdullayev O‘zbekiston tarixi Toshkent -2019

2. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya va kartografiya. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.

3. Bartold. V.V. Turkiston tarixiga oid maqolalar to‘plami. – Toshkent: O‘zRFA nashri, 1993.

4. Mukminova R.G. Choch va Ilyon tarixiy geografiyasi. – Toshkent: Fan, 1976.

5. Nematov N., O‘rta asrlar O‘rta Osiyo tarixi, Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

# DAVAN DAVLATI: FARG‘ONANING QADIMGI SIYOSIY TUZUMI VA XITOY BILAN MUNOSABATLARI

***Usmonova Yulduz Jo‘rabek qizi,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*Gumanitar Fanlar Fakulteti*
*Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O’rta Osiyoning sharqiy qismida joylashgan qadimgi Davan (Farg’ona) davlati tarixi, uning siyosiy boshqaruv tizimi, Xitoy bilan bo’lgan aloqalari va urushlari, shuningdek, Buyuk Ipak yo’lidagi o’rni haqida so’z yuritiladi. Chjan Szyan va Sima Syan kabi xitoylik tarixchilarning yozma manbalari asosida Davan davlati hayoti, aholisi, xo’jalik faoliyati, podsho boshchiligidagi boshqaruv tizimi va oqsoqollar kengashining siyosiy roli yoritilgan. Maqola shuningdek, farg’onaliklarning mashhur “samoviy otlari” Xitoy imperatorlari e’tiborini tortgani va buning ikki davlat o’rtasidagi mojarolarga sabab bo’lganini ham ochib beradi. Davan davlati qadimgi o’zbek davlatchiligi an’analarini aks ettiruvchi muhim tarixiy hudud sifatida baholanadi.*

***Kalit so’zlar:*** *Davan davlati, Farg’ona, Chjan Szyan, Sima Syan, oqsoqollar kengashi, Van unvoni, samoviy otlar, Buyuk Ipak yo’li, qadimgi O’rta Osiyo, Xitoy bilan aloqalar, siyosiy boshqaruv, tarixiy manbalar.*

O’rta Osiyoga kelgan birinchi xitoylik sayyoh Chjan Szyan edi. U Xitoy hukumatining topshirig’iga muvofiq, Qang’ davlati hukmdorini xunnlarga qarshi urushga da’vat etish maqsadida mil. avv. II asrda bu yerga tashrif buyurgan edi. Chjan Szyan o’z hukumatiga yozgan xabarnomalarida Kaspiy dengizigacha cho’zilgan hududlarda yashagan xalqlar to’g’risida dastlabki ma’lumotlarni yetkazadi. Jumladan, mil. Avv. 127- yilda yuborgan xabarnomasida u Farg’ona vodiysidagi Davan davlati, uning aholisi, xo’jalik hayoti haqida qiziqarli ma’lumotlar bergan. Elchining yozishicha, bu yerdagi katta va kichik shaharlarning soni 70 tani tashkil etadi. Davanliklar o’troq hayot kechirib, sholi va bug’doy ekkanlar, chorvachilik, jumladan yilqichilik bilan shug’ullanganlar. Xuddi shu davrda yashagan tarixchi Szyan Xanshu uning bu ma’lumotlarini to’ldirib, Farg’onada 60 ming xonadon borligini qayd etadi. Sima Syan o’zining “Shitszi” – “Tarixiy esdaliklar” nomli asarida Farg’onadan Parfiyagacha bo’lgan hududda yashagan aholi turli shevalarda gapirsa-da, lekin bir-birini bemalol tushunadi, deb yozadi. Demak, mil. Avv. II asrda O’rta Osiyoda til jihatidan bir-biriga yaqin bo’lgan eroniyzabon qabila va

elatlar yashaganlar. Lekin xuddi shu davrda, ayniqsa, yuechjilar istilosidan keyin aholi tarkibida turkiy qatlam ko'paya boshladi. O'rta Osiyo xalqlari haqidagi ma'lumotlar Xitoyda hukmronlik qilgan sulolalar tarixiga Bag'ishlangan asarlarda ko'plab uchraydi. Ularning mualliflari O'rta Osiyo tarixini maxsus tadqiq etmagan bo'lsalarda, lekin o'lkamiz xususida qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Yuqorida nomi tilga olingan Sima Syan (uni "Xitoy tarixchilarining otasi" deb atashadi) o'zining "Tarixiy esdaliklar"nomli asarining 130-bobida Davan davlati va uning xalqi haqida e'tiborga Loyiq ma'lumotlar keltiriladi. Xitoy manbalarida xitoylik hukmdorlarning Davanga nisbatan Bosqinchilik siyosati, o'z ozodligi uchun qahramonona kurashi tasvirlanadi.O'rta Osiyoning sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida Loylashgan qadimgi Farg'ona antik davr tarixida muhim Ahamiyatga ega bo'lgan edi. Farg'ona to'g'risida yunon-rim mualliflari ma'lumotlar bermaydilar. Bu davlat haqidagi yozma ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida - Chjan Syan ma'lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban (inning «Birinchi xan sulolasi tarixi» asarlarida beriladi. Bu Manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Da-van» nomi ostida eslatiladi. Farg'ona so'zi Sug'd manbalarida «Fragonik» Shaklida yozilib «tog'lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik» ma'nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham «tog'lar orasidagi vodiy» ma'nosini beradi.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti - Ershi va Yuchen bo'lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo'q. Ular 0'zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo'qon, Koson va Axsikent o'rnida joylashtiriladi.

Davan davlati ma'lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo'lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda "Van" (podsho) unvoni bilan tilga olingani eslatib o'tiladi. Manbalarda "Van" unvoniga ega bo'lgan Motsay, Chan Fin, Muguva, Yanlyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. Yagona hukmdor bo'lgan podsho, ya'ni "Van", davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga tayanib olib borgan. Manbalarga ko'ra, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar — bitta katta yordamchi (Fu-van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van) tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayonda oqsoqollar kengashining ham o'rni muhim bo'lgan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba'zan ular hukmdorning taqdirini ham hal qilganlar. Masalan, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga uchragani uchun

hukmdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berish orqali aybdor deb topilgan va qatl etilgan.

Taniqli tarixchi olim A. Ziyo-ning yozishicha, Farg'ona boshqaruv tizimida hukmdor, uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi muhim rolni o'ynagan. Yordamchilar asosan hukmdorlarning qarindoshlari orasidan tayinlangan bo'lsa, bu kengash mamlakat ijtimoiy-siyosiy va tashqi munosabatlarda faol ishtirok etish bilan bir qatorda oliy hukmdor faoliyati bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish qudratiga ham ega bo'lgan.Urush ochish, yangi hukmdorni tayinlash, uni taxtdan mahrum etish kabi tadbirlarda oqsoqollar kengashi yetakchi o'rinni egallagan. Masalan, xitoyliklar bilan urushda kengash sulh tuzish tarafdori bo'lgan va bunga erishgan ham. Xitoyliklar bosqini bilan bog'liq voqealar sababchisi deb topilgan hukmdor Mug'ay kengash hukmi bilan qatl qilingan. Farg'onaning qo'shni Xitoy bilan aloqalari turli ko'rinishlarda, goh ittifoq bo'lishga intilish, gohida harbiy harakatlarda namoyon bo'lgan. Xitoyliklarni Farg'onaning arg'umoq otlari doimo qiziqtirgan va ularga ega bo'lishga intilishgan. Bu otlar hatto ikki o'rtada urush chiqishiga sabab bo'lgan.

Davanning «samoviy otlari» va davlatning serunum erlari uchun mil. avv II Asrning oxirlarida Xitoy va Davan o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tadi.

Chjan Syan va Sima Syanlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy Imperatorlari Davanga ikki marta yurish qiladilar. Birinchi yurish mil.avv. 104 yilda uyushtirilib, xitoyliklar Davanning markazi Ershiga etib kela olmay Lobnorda qattiq qarshilikka uchraydilar. Undan tashqari O'zgandda katta talofat ko'rgan Xitoy qo'shinlari, qang'lilardan yordam kelayotganini eshitgach imperator qo'shinlari davanliklardan 3 mingta «samoviy tulpor» ni olib Xitoyga qaytishga majbur bo'ladilar. Shunday qilib Davan davlati xitoyliklardan o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, Davan davlati mil.avv. III – milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, boshqaruv tizimiga ko'ra podsholik hisoblangan. Aholining ko'pchiligi shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi ham ushbu davlatning gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Xitoydan O'rayer dengizigacha cho'zilgan bu yo'ldagi qit'alararo savdoda sharqiy Sug'diyona chegaralaridan to Tan davridagi Xitoy imperiyasigacha bo'lgan yo'lning xavsizligini ta'minlashda, oziq-ovqat, yo'lko'rsatuvchilar va tarjimonlar etkazib berishda Davan davlati asosiy rol o'ynagan.

Demak, podsholik boshqaruv tizimi va oqsoqollar kengashiga asoslangan Davan davlati – o'z davrida qadimgi o'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyoti an'analarini davom ettirgan davlat bo'lib, davlatchiligimiz tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi olib borilajak tadqiqotlar Davan davlati tarixi muammolari bilan bog'liq ko'pgina masalalarga aniqlik kiritishi shubhasizdir.

Xulosa: Davan davlati O'rta Osiyo, xususan, Farg'ona vodiysining antik davr tarixida muhim o'rin egallagan qadimgi siyosiy tuzilma bo'lib, uning boshqaruv tizimi podsholik va oqsoqollar kengashiga tayanardi. Davlat ichki boshqaruvda o'ziga xos muvozanatni saqlagan bo'lsa, tashqi siyosatda ayniqsa Xitoy imperiyasi bilan murakkab munosabatlarga kirishgan. Xitoy manbalarida qayd etilganidek, Farg'onaning mashhur "samoviy otlari" Xitoy e'tiborini tortib, harbiy to'qnashuvlarga olib kelgan. Shunga qaramay, Davan o'z siyosiy mustaqilligini saqlab qolishga erishgan. Bu davlat qadimgi o'zbek davlatchiligining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, uning tarixi kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim manba va yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1.Sagdullayev A.S.O'zbekiston tarixi, I kitob / A.S. Sagdullayev. – Toshkent: «Donishmand ziyosi» MЧЖ, 2021.

2.Dadamirzayeva G.A. Manbashunoslik va tarixshunoslik: o'quv-uslubiy majmua. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2022.

3.Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I jild (Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha). – Toshkent: 2013.

4.Qo'ldosh Ergashev, Hojiakbar Hamidov. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.

## SHARQIY TURK XOQONLIGI

***Eshimova Fotima Doniyor qizi,***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*Gumanitar Fanlar Fakulteti*
*tarix yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada turk xoqonligini bo'linishi tarixi va turk xoqonligining paydo bo'lishi va uni davlat sifatida shakllanishiga sababchi bo'lgan omillar haqida ma'lumot beriladi va qo'shimcha qilgan holda sharqiy turk xoqonligining tarixi va tashkil topishi haqida ma'lumot beriladi.*

*Kalit so'zlar: Turk xoqonligi, Bumin, O'tukan vodiysi, shoh, yabg'u xoqon jabgu xoqon.*

***Аннотатсия:*** *В данной статье представлена информация об истории разделения Турецкого ханства и факторах, которые привели к возникновению Турецкого ханства и его становлению как государства.*

***Ключевые слова:*** *Тюркское ханство, Бумин, долина Отукан, Шах, Ябгу хан, Джабгу хан.*

***Annotation:*** *This article provides information on the history of the division of the Turkish khanate and the factors that led to the emergence of the Turkish khanate and its formation as a state.*

***Key words:*** *Turkish khanate, Bumin, Otukan valley, Shah, Yabgu khan, Jabgu khan.*

Turk xoqonligi - Markaziy Osiyo mintaqasi va unga tutash bir necha o‘lkalarni o‘z ichiga olgan yirik saltanat (6-8-asrlar). Turk Xoqonligi (552-747) - Turkiylar tomonidan Yevrosiyoda yaratilgan ulkan imperiya. Ularga Ashina urug‘i boshchilik qilgan.[1]

O‘zining eng ravnaq topgan davrida Oxota dengizidan Qrim yarimoroligacha, Sibirdan Hindistongacha bo‘lgan yerlarni boshqargan.Turk xoqonligiga doir ma’lumotlar Urxun-Enasoy bitiktoshlari, xitoy yilnomalari, yunon (Vizantiya), arman, suryoniy, so‘g‘d, arab, fors, tibet, baqtriy manbalarida saqlanib qolgan.Turk, turkiylar-eng yirik etnoslardan birining nomi .Turk so’zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma’nolarini anglatadi….muslima Oltoy xoqonlik markazi qilib belgilandi Turklarning g‘arbga yurishlariga Istami boshchilik qiladi Unga yabg‘u xoqon deb unvon beriladi.

Xoqon - xoqonlikdagi eng oliy kishi turkiylar orasida Buyuk Xoqon deb atalgan. Xoqondan keyingi o‘rinda yabg‘u turgan.[2] Taxt vorisiga tegin unvoni berilgan. Boshqa oliy unvonlar - shod, eltabar. Sud ishlarini buyruqchi va tarxon olib borgan. Viloyatlardagi vakillar tudunlar deb atalgan. Harbiy ma’muriyat boshlig‘i uchun tutuq qo‘llangan.[3]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi:Ushbu maqolada aynan turk xoqonliginig bo‘linishi yani garbiy va sharqiy turk xoqonligi haqida ma’lumotlar keltiriladi bunda biz turli xil adabiyotlardan foydalandik masalan Nasimxon Raxmonning"Turk xoqonligi"asarida aynan turk xoqonligini tashkil topishi va davlat tuzilishi haqida ma’lumotlar mavjud aynan mana shu kitob bizni turk xoqonligini chuqurroq organishimizga yordam beradi deb bemalol aytolaman.

Gumilyovning Qadimgi turklar asarida esa turk xoqonliginig bo‘linishi haqida hamda turk xoqonligiga kirgan hududlar haqida ma’lumotlar mavjud undan tashqari turk xoqonligining xo‘jaligi va madaniyati haqida ma’lumotlar

keng bayon etib o‘tilgan aynan biz ushbu asarni o‘qib o‘sha davrdagi madaniyat bilan bigungi kundagi madaniyatni bemalol solishtirib o‘zimizga yetarli darajada xulosa qilib olishimiz mumkin. Gumilyovning Qadimgi turklar kabi asarlari ham shu jumladan xisoblanadi aynan bu asarlarni o‘rganib turk xoqonliginig tarixini oz muncha o‘rganib olishimiz mumkin

Muhokama va natijalar.Turk xoqonligi VI asrning 80-yillarida 2 ga bo‘linib ketadi sharqiy va g`arbiy turk xoqonligiga bo‘linadi sharqiy turk xoqonligining poytaxti O'tukan vodiysi G’arbiy turk xoqonliginig poytaxti Yettisuv poytaxt qilib olinadi janubiy Sibir Urxun xavzasi shimoliy Xitoy sharqiy hududlarda kirgan garbiyga esa Yettisuv sharqiy Turkiston sirdaryo va Amudaryo kabi hududlar g'arbiyga kirgan.[4]

Turk xoqonligining bo‘linib ketishiga Vizantiya Eron Xitoy kabi davlatlar bilan raqobat hisoblanadi buning natijasida ahvol og’irlashadi va 2 ga bo‘linadi bu haqda turli xil olimlarimizning fikrlari turlicha bo‘ladi turk xoqonligi o'z navbatida o'z davrining buyuk davlati xisoblanadi ham madaniy jihatdan ham manaviy jihatdan deb bemalol qarashimiz mumkin[5].

Natijalarga keladigan bo‘lsak olimlarimizning fikrlari xali ham bir to‘xtamga kelgani yo‘q o'z navbatida tadqiqot ishlari olib olib borilmoqda bu borada esa turk xoqonligiga oid buyumlar va narsalar topilgan va bu o’sha davrda turk xoqonligi rivojlangan va buyuk davlat ekanligini bildiradi.[6]

O‘z davrida „O‘n O‘q xoqonligi“ deb yuritilgan G‘arbiy Turk xoqonligi Istamining o‘g‘li Tardu xoqon (576-603) Sosoniylar Eroniga qarshi janglar olib borib, g‘arbda o‘z hokimiyatini kuchaytirdi. Uning o‘g‘li Sheguy xoqon (610-618) davrida xoqonlik qo‘shinlari janubiy g‘arbiy hududlarda faol harakat yurita boshlaydi.[5] U Eronning shim.sharqiy viloyatlariga xujum uyushtirib, sosoniylar ustidan yirik g‘alabaga erishadi va Isfahon, Ray kabi shaharlarni qo‘lga kiritadi. Uning inisi Tun yabg‘u (Tunshexu; 618-630) xoqonlikning g‘arbdagi nufuzini yanada mustahkamlaydi. U hukmronlik qilgan davrda Turk xoqonligining chegarasi g‘arb va janubiy g‘arbda, janubiy sharqiy Yevropa dashtlari, Kavkaz, Volgabo‘yi, Gurgon, Marv, Hind daryosining yuqori havzalari, Shim. Hindiston va Afg‘onistonning aksariyat viloyatlarini o‘z ichiga olardi. Uning shad unvonli o‘g‘li boshchiligidagi xoqonlik qo‘shinlari Vizantiya imperatori Irakliy bilan birgalikda 627-628-yillarda Janubiy Kavkazga safar uyushtiradi va bu yerdagi sosoniylar qo‘shinini yengib, Tbilisi shahrini qo‘lga kiritadi.[8]

Tun yabg‘u g‘arbiy hududlarda xokimiyatni mustahkamlash maqsadida qarorgohini Shosh vohasining shimolidagi Mingbuloq (xitoycha Syantsyuan)

mavzesiga ko‘chiradi va boshqaruvda islohotlar o‘tkazib qaram o‘lkalarga turkiy tudun va eltabar unvonli vakillar jo‘natadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki Markazi O‘tukan vodiysi (Mo‘g‘uliston) bo‘lgan Sharqiy Turk xoqonligi Shibi xoqon (609-619) davrida Xitoy (Suy) imperiyasiga qarshi jang olib boradi. U 615 yilda Xitoyga yurish qilib Yaymin (Ordos) viloyatida imperator Yandini qurshovga oladi. Yaymindagi 41 qal’adan 39 tasi Turk xoqonligi qo‘liga o‘tadi. 618 yilda Suy sulolasini ag‘darib, uning o‘rnini egallagan Tan sulolasining ishlariga ham Shibi xoqon aralashadi. U bu paytgacha sharqda kidan va shivey qabilalarini, Janubiy G‘arbda Tuguxun (Togon) davlati hamda Turfon o‘lkasini bo‘ysundirgach, Xuanxe daryosini kechib o‘tib, Xitoy hududiga kirgan vaqtda vafot etadi. Taxtga Elxoqon (xitoy manbalarida Xyelixan; 620-630) o‘tiradi va 10 yil davomida, asosan, Xitoy bilan kurash olib boradi. 2 marta, 624-626 yillarda poytaxt Chananni qurshab oladi. Uning o‘limidan so‘ng Sharqiy Turk xoqonligi 50 yilga yaqin Xitoyga qaram bo‘lib qoladi.

***Adabiyotlar Va Manbalar***

1.Гумилёв "Древний Тюрки"

2. Buryakov Yu.F., Gritsina A. Buyuk ipak yo‘lidagi Movoraunnahr. Samarqand 2006 y.

3. Asadov F. M., Arabskiye istochniki otyurkax v rannem srednevekovye, Boku, 1993 yil;

4. Qo‘chanov Ye. I., Kochevie gosudarstva ot gunnov do manchjurov, M., 1997;

5. Nasimxon Rahmon, Turk xoqonligi, T., 1993;

6. Shoniyozov K., O'zbek xalqining shakllanish jarayoni, T., 2001.

## SHOSHTEPA – TOSHKENTNING ENG QADIMGI MANZILGOHI

***Yolg‘oshov Ravshanbek Otabek o‘g‘li***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*1- bosqich talabasi*

***Annotatsiya****:* shbu maqolada Toshkent vohasida joylashgan eng qadimgi manzilgohlardan bir shoshtepa haqida so‘z yuritilib bunda uning geografik joylashuvi, aholi turmush tarzi kimlar tomonidan urgangaligi,savdo aloqalari haqida so‘z yuritiladi.

***Kalit so‘zlar:*** Choch, shoshtepa, g‘arbiy Sibir, Oltoy, sak, qal’a, xorgoh, Xorazm, Buyuk ipak yo‘li.

Toshkent shahrining tarixi ming yilliklar bilan o‘lchanadi. Bu zaminda qadimdan buyon yirik shaharlar, savdo markazlari va madaniyatlar shakllangan. Arxeologik tadqiqotlar Toshkentning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan Shoshtepa manzilgohi miloddan avvalgi II asrlarda shakllanganini ko‘rsatmoqda. Shoshtepa – Toshkent tarixining ildizi sanaladi[1].Shoshtepa Toshkent shahrining Zangiota tumani yaqinida, eski Qo‘yliq hududiga yaqin joyda joylashgan. Bu yer ilk bor XX asr boshida rus arxeologlari tomonidan qayd etilgan. Keyinchalik O‘zbekistonlik arxeolog T. A. Zohidov, E. V. Rtveladze va boshqa olimlar bu hududda sistematik qazilmalar olib borishdi. Topilmalarga ko‘ra, bu yerda ilk aholi punkti miloddan avvalgi II–I asrlarda paydo bo‘lgan.[2] Arxeologlar bu hududda qadimiy uy-joylar, hunarmandchilik ustaxonalari, sopol idishlar, bronza va temirdan yasalgan mehnat qurollarini topishgan. Shoshtepa aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Sug‘orish uchun esa qadimiy kanal tizimlaridan foydalanganlar. Topilgan tangalar, sopol buyumlar va pishiq g‘ishtlar o‘sha davrdagi taraqqiyotni ko‘rsatgan[3].

Arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalardan ma’lum bo‘lishicha, milodiydan avvalgi davrda, bir tomondan, G‘arbiy Sibir va Oltoyda yashovchi chorvador qabilalarning O‘rta Osiyoga tomon miloddan avvalgi V—IV asrlarda boshlanarak ko‘chishi kuchayadi, ikkinchi tomondan, mahalliy Sak qabilalari bilan qo‘shilib yashagan chorvador aholining katta qismiga o‘troq dehqonchilikning xujaligi tobora kengayib boradi. Sirdaryo havzasida bu davrda alohida-alohida suvoq dehqonchilik xujaliklari vujudga kelib, qulay iqlimiy sharoitda o‘sadi. Yuqoridagilarning rivojlanishi hamda o‘troq dehqonlar va chorvador aholi o‘rtasida ayirboshlash savdosining kuchayishi natijasida ayrim qishloqlar kengayib asta-sekin shahar tusini ola boshlaydi.Mana shunday eng qadimgi shaharlardan birining xarobasi hozir Toshkent hududidagi Sho‘shtepada M.I. Filanovich boshchiligidagi Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qazib o‘rganilmoqda. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi II— I asrlarda Sho‘shtepada qadimgi qishloqning xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o‘rab olingan doira shaklidagi qal’axorgoh qad ko‘targan. Qalinligi 4 metrli shahar devori ichki hajmdagi ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. Diametri 60 metrlik doira shaklidagi devor ichkarisida xom g‘ishtdan qurilgan monumental bino bo‘lib, uning devorlari 1,6—2 m qalinlikda xom g‘ishtlardan urilgan. Bino qator ketgan parallel xonalar va yo‘laklarga ajratilgan, tomi ravoksimon qilib yopilgan. Peshtoqli binoning shimoliy qanotida bo‘lib, u ravoqli darvozaxon va

uning ikki biqinida joylashgan po‘konsimon darchalar bilan ta’minlangan. Ba’zi xona devorlarida esa hatto qizil bo‘yoq izlari saqlanib qolgan.

Shoshtepada kavlab ochilgan qadimgi qo‘rg’on ilk shahar kompleksining umumiy planrovkasi: aylana aylanma tashqi devori, markaziy binosi, ravoqli peshtoqli, po‘konsimon darchalari bor, u avvaldan puxta yasalgan plan asosida qurilgan zamonasining nodir me’moriy obidalaridan xisoblanadi. Bu noyob arxeologik obida tadqiqotchilar fikricha, qadimda

Shoshtepa o‘rnida bunday qurilma — me’morchilik inshooti yaratilgani O‘rta Osiyoning janubi va Xorazmning qadimgi tarixiy-madaniy an’analarining sezilarli ta’sirini bildiradi.Toshkentning ilk binolarini qurgan qadimgi shaharliklarning turmush tarzi, xo‘jalik va qushin viloyat aholisi bilan olib borgan savdo-sotiqlaridan dalolat beradigan ko‘plab-ko‘p ashyoviy to‘plamlar qazib olindi. Arxeologik qoldiqlarga qaraganda, o‘sha vaqtda qadimgi toshkentliklar hayotida dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda hunarmandchilik, ayniqsa kulolchilik hamda temirchilik muhim o‘rin tutgan. Topilmalarga orasida uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik buyumlari alohida guruhni tashkil etib, bir quloqli va juvraqli ko‘zachalar, ikki quloqli qozonlar, tova, suvdonlar, ho‘kiz boshi kabob qurollar, yo‘sinmon yerquchoqlar, temir pichoq, urok va xokazolardan iboratdir.[4]

Shosh(yoki Chach) – qadimda Markaziy Osiyodagi yirik shahar va davlat bo‘lgan. Shoshtepa aynan shu qadimiy Shoshning markaziy qismi bo‘lgan deb hisoblanadi. Shosh Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan bo‘lib, savdo, madaniyat va siyosiy hayotda muhim rol o‘ynagan. Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan aloqalar olib borilgan. [5] Bugungi kunda Shoshtepa arxeologik yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olingan. Bu yerda ochiq osmon ostida muzey tashkil etish takliflari bor. Tarixiy obida sifatida u Toshkentning qadimiyligini isbotlovchi jonli guvohdir. Uni o‘rganish yosh avlodda tarixiy ong, milliy g‘urur va qadriyatga sadoqatni mustahkamlaydi. [6]

Xulosa Shoshtepa – Toshkent tarixining bevosita bosh manbasi. Uning qadimiyligi, arxeologik boyliklari va madaniy merosi nafaqat tarixchilar, balki har bir yosh avlod uchun ham ibratdir. Uni saqlab qolish, chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish bizning fuqarolik burchimizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. T. A. Zohidov. Toshkent tarixi sahifalari. Toshkent: O‘qituvchi, 1983.

2. Rtveladze E. V. Chach tarixi va arxeologiyasi. Toshkent: Fan, 2001.

3. Sagdullaev A. O‘zbekiston arxeologiyasi asoslari. Toshkent: Universitet, 1999.

4. A. Muhammadjonov Qadimgi Toshkent -1988

5. Berdimuradov A. A. Chach – qadimgi Toshkent davlati. – Toshkent: Fan, 1978.

6. Toshkent-abadiy shahar. Maqolalar to‘plami

## CHIRCHIQ SHAHRINING VUJUDGA KELISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLI

***Eshmuhamedova Dilnoza Shermuhammad qizi,***
*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti I-bosqich talabasi*

***Annotation:*** *This article provides information about the history of Chirchiq city, the stages of its development, and its prospects for future progress. The article covers Chirchiq's strategic geographical location, its role in the military and industrial sectors, population growth, and infrastructure development. Additionally, it discusses ecological issues, the transportation system, and the opportunities for sustainable development based on modern technologies. The article analyzes the potential for Chirchiq to preserve its historical heritage while developing as an innovative and modern city.*

***Keywords:*** *Chirchiq city, population growth, environmental issues, urbanization, industrialization.*

***Annotation:*** *This article provides information about the history of Chirchiq city, the stages of its development, and its prospects for future progress. The article covers Chirchiq's strategic geographical location, its role in the military and industrial sectors, population growth, and infrastructure development. Additionally, it discusses ecological issues, the transportation system, and the opportunities for sustainable development based on modern technologies. The article analyzes the potential for Chirchiq to preserve its historical heritage while developing as an innovative and modern city.*

***Keywords:*** *Chirchiq city, population growth, environmental issues, urbanization, industrialization.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Chirchiq shahrining vujudga kelish tarixi, uning rivojlanish bosqichlari hamda istiqboldagi taraqqiyot yo‘nalishlari haqida malumot beriladi. Maqolada Chirchiqning strategik geografik joylashuvi, harbiy va sanoat sohalaridagi o‘rni, shuningdek, aholi sonining o‘sishi va infratuzilma taraqqiyoti yoritiladi. Shuningdek, ekologik muammolar, transport tizimi va zamonaviy texnologiyalar asosida barqaror*

*rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ushbu maqola Chirchiq shahrining tarixiy merosini saqlab qolgan holda, uni nnovatsion va zamonaviy shahar sifatida rivojlantirish istiqbollarini ko‘rsatib beradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chirchiq shahri, aholisining o‘sishi, ekologik muammolar, Urbanizatsiya, sanoatlashuv.*

Chirchiq shahri Toshkent viloyatining shimolida, Chirchiq daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, 1935-yilda tashkil topgan. Shahar o‘z nomini shu yerda oqib o‘tuvchi Chirchiq daryosidan olgan. Uning vujudga kelishiga asosiy sabablardan biri bu — Chirchiq daryosida qurilgan GES (gidroelektr stansiyasi) bo‘lib, bu sanoat va energetika rivojiga turtki bergan.1930-yillarda Sovet Ittifoqining industrializatsiya siyosati doirasida Chirchiqda kimyo sanoati rivojlantirildi. Ayniqsa, Chirchiq elektroximyo kombinati (hozirgi "Maxam-Chirchiq") shahar sanoatining yuragi bo‘ldi. Shahar o‘zining kimyo sanoati, metallsozlik va elektroenergetika sohalaridagi salohiyati bilan respublika va sobiq ittifoq miqyosida muhim o‘rin egallagan.Chirchiq sanoat shahri bo‘lishi bilan birga, ta’lim va madaniyat sohalarida ham rivojlanib borgan. Shaharda kasb-hunar kollejlari, umumta’lim maktablari, sport maktablari va oliy ta’lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Aholining asosiy qismini sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlovchi ishchilar tashkil etadi.Sanoatni modernizatsiya qilish – Chirchiq shahrida mavjud zavod va fabrikalarni zamonaviy texnologiyalar bilan qayta jihozlash rejalashtirilgan. Xususan, ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish orqali atrof-muhit muhofazasi kuchaytirilmoqda. Turizm salohiyati – Chirchiq yaqinida joylashgan Chimgan va Beldersoy tog‘lari turizm rivoji uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Bu hududlar tog‘ chang‘isi sporti va dam olish maskanlari bilan mashhur bo‘lib, shahar iqtisodiyotiga qo‘shimcha daromad keltiradi.Yashil infratuzilmani kengaytirish – Chirchiqda ekologik toza shahar barpo etish maqsadida yashil hududlar (bog‘lar, xiyobonlar) ko‘paytirilmoqda.Ta’lim va innovatsiyalar – Shaharda zamonaviy ta’lim maskanlarini ochish, innovatsion texnoparklar va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlarning bilim va salohiyatidan unumli foydalanish rejalashtirilgan.Chirchiq shahri o‘zining boy sanoat tarixi, tabiiy go‘zalligi va strategik joylashuvi bilan ajralib turadi. Uni zamonaviy va yashash uchun qulay shaharga aylantirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar Chirchiqning kelajakda mintaqaviy iqtisodiyotda yanada muhim rol o‘ynashiga xizmat qiladi Chirchiq aholisi 170 000 ming odam atrofida sanaladi. Chirchiq ko‘p millatlarni o‘z bag‘riga sig‘dirgan shahar. Chirchiqda o‘zbek, qozoq, tojik, rus,

tatar, qoraqolpoq, qizg‘iz, koreys va boshqa millat vakillari tinch totuvlikda hayot kechirmoqdalar. Chirchiq shahrining aholisi yildan yilga oshib bormoqda. Ohirgi yillarda yangi turar joylar qurilib shahar infrastrukturasi rivojlanmoqda. Aholisi asosan o‘zbek, rus va qozoq tillarida gaplashishadi.Toshkent viloyatida eng ko‘p yuqori qavatli uylar Chirchiq va Angren shaharlarida joylashgan. Chirchiqdagi ko‘p qavatli uylarning 352 tasida issiqlik ta’minoti mavjud, qolganlarida boshqa turdagi moslamalar o‘rnatilgan yoki umuman issiqlik ta’minoti yetib bormagan. Bu aholi turmushi yomonlashuviga olib kelayotgan edi.

Prezidentimiz tomonidan Chirchiq shahrini zamonaviy innovatsiyalar va investitsiyalar shahriga aylantirish, shu namuna asosida Toshkent viloyatining boshqa shaharlarini ham kompleks rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Aholi sonining o‘sishi, turli millat vakillarining bu yerda istiqomat qilishi Chirchiqni ko‘p millatli, madaniy jihatdan boy hududga aylantirdi. Ijtimoiy soha, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi ham asta-sekin rivojlanib bordi. Shaharda umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, sport maktablari, madaniyat markazlari, stadion va kutubxonalar faoliyat olib bordi.Mustaqillik yillaridan so‘ng Chirchiq shahrida yangilanish va modernizatsiya jarayonlari boshlandi. Bugungi kunda quyidagi rivojlanish yo‘nalishlari dolzarb hisoblanadi:

Sanoat faoliyatining ekologiyaga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun atrof-muhit muhofazasi kuchaytirilmoqda. Zavod va fabrikalarda chiqindilarni kamaytirish, tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda.Chirchiq shahri Chimgan, Beldersoy, Qumushkon kabi tog‘li hududlarga yaqin joylashgan. Bu esa tog‘ turizmi, sport va dam olish maskanlari rivojlanishi uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Turistik infratuzilma (mehmonxonalar, dam olish maskanlari, transport xizmatlari) kengaymoqda.Shaharda ko‘kalamzorlashtirish, bog‘lar, xiyobonlar barpo etish ishlari kuchaymoqda. Bu aholining turmush sifatini oshirish va ekologik muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qilmoqdaChirchiqdagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari zamonaviy talablarga moslashtirilmoqda. Yoshlar o‘rtasida texnika, muhandislik va axborot texnologiyalari yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqish kuchaymoqda. Innovatsion markazlar, inkubatorlar va startap loyihalar uchun sharoitlar yaratilmoqda.Chirchiq shahri — o‘zining tabiiy boyliklari, sanoat salohiyati, ijtimoiy infratuzilmasi va geografik joylashuvi bilan O‘zbekistonning muhim shaharlaridan biridir. Uning tarixiy shakllanishi gidroenergetika va sanoat bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, kelajagi esa zamonaviy

texnologiyalar, ekologik barqarorlik, ta'lim va turizm bilan chambarchas bog'liqdir.Davlat va mahalliy hokimiyat organlarining Chirchiqni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan dasturlari, infratuzilmani zamonaviylashtirish va aholi farovonligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, ushbu shaharning yaqin kelajakda yanada qulay, zamonaviy va raqobatbardosh hududga aylanishini kafolatlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev, Sh. (2022). "O'zbekistonning globalizatsiya jarayonidagi o'rni va yangi yondashuvlar." Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

2. Karimov, I. (2021). "Yangi O'zbekiston: siyosiy va iqtisodiy islohotlar." Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Noshirlik uyi.

3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2000–2005 yillar. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.

2. "Toshkent viloyati" maqolasi — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi materiallari.

3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch". — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

4. "Chirchiq shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi", Toshkent viloyati hokimligi rasmiy sayti — www.toshvil.uz

5. Bobojonov Sh. "O'zbekiston geografiyasi". – Toshkent: "O'qituvchi", 2015.

6. "O'zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi – 2030". — Iqtisodiyot va Moliya

9. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 56-64

10. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O 'QUVCHILARIGA RAQAMLI O 'RGANISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

11. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31

12. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA - O„QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOIY

MUHIT TA'SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA. SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

13. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O'. (2024). RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,

14. Haydarova, Z. N. (2024). Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o'quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish. Mug'allim, 3(3), 199-206.

15. Haydarova, Z. N. (2024). Ta'limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya, 1(1), 502-512.

16. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

17. Haydarova, Z. N. (2023). Ta'lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. UzMU xabarlari, 1(10), 225-227.

18. XZ Normurodovna (2025). DIGITIZATION IS A MODERN APPROACH TO THE EDUCATIONAL SYSTEM, THE NATIONAL TEACHING SYSTEM. Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, 1(Vol. 1 No), 279-287.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI

***Eshquvvatova Mahfuza***
*CHirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Mustaqillik yillarida Toshkentning rivojlanish tarixi, iqtisodiyoti va madaniyati shuningdek, tarixiy yodgorliklari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Buyuk ipak yo'li, sovet ittifoqi, Toshkent, madrasa va masjid.*

Bilamizki, Milodiy VIII asr o'rtalarida islomiy ta'sir boshlangunga qadar,Toshkentga sug'd va turkiy madaniyat katta ta'sir ko'rsatgan. 1219 yilda Chingizxon Toshkentni vayron qilganidan so'ng, shahar qayta tiklandi va Buyuk Ipak yo'lidan foyda ko'rdi. XVI-XVII asrlarda Toshkent Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlati tarkibida bo'lgan. XVIII–XIX

asrlardan boshlab ushbu shahar Qo‘qon xonligi tomonidan zabt etilgunga qadar, mustaqil shahar-davlatga aylangan edi. 1865-yilda Toshkent Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi hamda Turkiston general-gubernatorligi markazi bo‘ldi. Sovet davrida bu shahar butun Sovet Ittifoqining majburiy deportatsiyasi tufayli katta o‘sish va demografik o‘zgarishlarga guvoh bo‘lgan. 1966-yilda bo‘lgan Toshkent zilzilasi tufayli Toshkentning katta qismi vayron bo‘lgan edi, biroq u na’munali Sovet shahri o‘laroq qayta qurilgan. O‘sha paytda Toshkent Sovet ittifoqining Moskva, Leningrad va Kiyev shaharlaridan keyin turadigan to‘rtinchi yirik shahar bo‘lgan[1]. Hozirgi kunda, mustaqil O‘zbekiston poytaxti sifatida, Toshkentda ko‘p millatli aholi saqlanib qolgan, ular orasida etnik o‘zbeklar va qozoqlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. 2009-yilda Toshkentning 2 200 yilligi nishonlandi. Bu munosabat bilan shahar infra va transport tizimi yangilandi[2]. Toshkent O‘zbekistonning yirik shaharidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Toshkentda O‘zbekistonning boshqa viloyat va shaharlarida bo‘lgani kabi boshqaruvning tarixiymilliy shakli – hokimlik o‘rnatildi. 1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining „O‘zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahri maqomi va davlat hokimiyati organlari to‘g‘risida“gi qaroriga muvofiq Toshkentda hokim lavozimi joriy etildi. Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda Xalq deputatlari shahar kengashi tomonidan tasdiklanadi. Shahardagi tumanlarning hokimlari shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi xamda xalq deputatlari shahar kengashi tomonidan tasdiklanadi. Toshkent 2000-yillikdan ortiq tarixga ega[3].

Bu davr ichida u mudofaa devori bilan o‘ralgan qal’adan jahondagi yirik shaharlardan biri, O‘zbekiston Respublikasining poytaxtigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Asrlar davomida shahar o‘zining tinch hayotidagi muhim voqealarni va suronli jangu jadallarni, yuksalish va inqiroz davrlarini boshidan kechirdi. Necha bor shahar vayron bo‘lib, qayta qad ko‘tardi. Kds. O‘rnidan necha bor siljib, nomi xam bir necha marta o‘zgardi. Xoja Ahror Valiy, Shayx Umar Bog‘istoniy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokatiy, Hofiz Ko‘hakiy kabi butok allomalar shu hudjda yashab, ijod etganlar.1991-yil 31-avgustda Toshkentda O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilindi. Hozirgi Toshkent O‘zbekiston Respublikasining siyosiy markazi hamdir. Bu yerda O‘zbekiston Prezidentining qarorgohi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, ijtimoiy harakat va partiyalarning va boshqa jamoat tashkilotlarining markazlari, chet el elchixonalari, BMT ga qarashli tashkilotlar

vakolatxonalari joylashgan. Toshkent chet ellardagi birodarlashgan shaharlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda, Toshkent bir qancha xorijiy shaharlar bilan birodarlashgan.Shahar qiyofasiga sharqona tus berilishiga ahamiyat berildi. 1991-yil 1-sentabrda Toshkentdagi Markaziy maydonni Mustaqillik maydoni deb atash haqida O‘zbekiston Prezidenti farmoni e’lon qilindi. Ko‘chalar, maydonlar, tashkilotlar, tumanlar qayta nomlana boshladi. Shahar markazidagi eng katta xiyobon Amir Temur nomi bilan atalib, Sohibqironga haykal o‘rnatildi va temuriylar davri tarixi davlat muzeyi qurildi.

Toshkentda 16 muzey (O‘zbekiston davlat san’at, Adabiyot, O‘zbekiston kino san’ati, O‘zbekiston sogliqni saqlash, Antiqa va zargarlik buyumlari va boshqa muzeylar) bo‘lib, ularda 800 mingga yaqin eksponat qo‘yilgan, 166 jamoat kutubxonasi (13,8 mln. Nusxa asar), 9 madaniyat saroyi, 65 madaniyat uyi bor[4].

Toshkentda 13 teatr (O‘zbek milliy teatri, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek davlat akademik opera va balet katta teatri, Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali teatri, Abror Hidoyatov nomidagi yoshlar teatri, Yo‘ldosh Oxunboboyev nomidagi O‘zbek davlat respublika yosh tomoshabinlar teatri, Toshkent davlat rus akademik drama teatri, qo‘g‘irchoq teatri, Rus davlat respublika yosh tomoshabinlar teatri, operetta teatri va boshqalar) mavjud.

Toshkentdagi tarixiy me’moriy yodgorliklardan: Ko‘kaldosh madrasasi (16-asr), Shayx Zayniddin bobo maqbarasi (13- 14-asrlar), Xo‘ja Alambardor maqbarasi (taxminan 10-asr), Abulqosim shayx madrasasi (19-asr), Yunusxon maqbarasi (15-asr oxiri), Shayx Xovandi Tohur maqbarasi (15-asr), Qaldirg‘ochbiy maqbarasi (15-asrning 1yarmi) va boshqalar saqlangan.

Mustaqillik yillarida Toshkentdagi islom madaniyati obidalarining aksariyati, xususan, Ko‘kaldosh, Abulqosim, ayniqsa, Hazrati Imom mavzeida joylashgan Mo‘yi Muborak, Baroqxon madrasalari qayta ta’mirlanib, ilgarigiday mahobatli manzara kashf etdi. Ular bir paytlar minglab talabalarni o‘z bag‘riga olgan gavjum go‘shalar bo‘lib, rus istilosi davrida bir muddat kimsasiz, xarobaga aylantirildi. Xususan, XIX asrda Toshkentda ta’lim-tarbiya sohasi Toshkent-Buxoro, Toshkent-Qo‘qon madaniy-ma’naviy aloqalar tizimida rivojlanib borgan. Bu jarayonda Toshkent madrasalari va mudarrislarining o‘rni katta bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Turkiston general-gubernatorligi Maorif boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 1890—1893-yillarda gubernatorlikda jami 214ta madrasa bo‘lib, shundan 21tasi Toshkentda joylashgan edi. Chorizm istilosining dastlabki yillarida madrasalarda ta’lim va o‘qitish ishlari an’anaviy qoidalar asosida olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik

ularning faoliyatini nazorat qilish va o‘quv ishlarini tartibga solishni o‘lka maorif boshqarmasi o‘z qo‘liga olgan. Bu paytda Toshkent madrasalaridan Abulqosimxon madrasasida 120, Xoja Ahror madrasasida 80, Beklarbegi madrasasida 150, Ko‘kaldosh madrasasida 80, Sharifboy madrasasida 20, Shukurxon madrasasida 20 nafar talaba o‘qigan. Lekin oldingidek, aksariyat talabalar Toshkent madrasalari bilan qanoatlanmay, Buxoro, Samarqand, Qo‘qon madrasalarida bilimlarini oshirib qaytganlar.Toshkent madrasalari to‘g‘risidagi arxiv manbalari, o‘sha davr matbuoti yoki ana shu yillarda Toshkentda bo‘lgan rus o‘lkashunoslarining ma’lumotlari, ayniqsa, madrasalar soni borasida har xil xabarlar beradi. Xususan, 1865—1868-yillari Toshkentda bo‘lgan A.Xoroshxin „Ocherki Tashkenta“ nomli kundaligidagi ma’lumotda ayrim madrasalarning nomini, vaqf mulklarini keltirib o‘tgan bo‘lsa, N. Maev 1876-yili Toshkentda jami 11 ta madrasa mavjudligini ta’kidlaydi. „Turkistanskie vedomosti“ gazetasining 1876-yilgi 48-sonida bosilgan rasmiy ma’lumotda esa 13 ta madrasa tilga olingan.Biroq XIX asrda Toshkentda yashab ijod etgan muarrix Muhammad Solihxoja esa o‘zining „Tarixi jadidayi Toshkand“ asarida Toshkentdagi 20 ta madrasa to‘g‘risida birmuncha batafsil ma’lumot berib o‘tgan.Ular orasida eng qadimiysi – Xoja Ahror jome masjidining shimolida pishiq g‘isht va yo‘nilgan toshdan qurilgan Xoja Ahror madrasasi bo‘lib, u yigirmata hujra, bitta darsxona va masjidni o‘z ichiga olgan. U yerda Toshkent va boshqa hududlardan tahsil talabida kelgan saksondan ziyod talabalar o‘qib tahsil olishgan.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Toshkent qadimdan yirik shaharlardan biri bo‘lib kelgan va hozirgi kunga qadar har sohada rivojlanib, zamonaviylaahib bormoqda. Hozirgi kunga kelib esa Toshkent O‘zbekistonning eng yirik markazlaridan biri sifatida qaraladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Praying Through the 100 Gateway Cities of the 10/40 Window ISBN 978-0-927-54580-8 s. 89

2. Toshkent shahrining 2 200 yilligi oldidan Ertangi to‘yga hozirlik bugundan boshlanmog‘i kerak. Sayti.

3. „Юбилей Ташкента. Такое бывает только раз в 2200 лет“Фергана – международное агентство новостей. Qaraldi: 10-dekabr 2017.

4. https://www.gazeta.uz/ru/2009/04/06/tashkent

# MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI

***Esonova Sevinch,***
*Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti*
*Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqola mustaqillik yillarida Toshkent shahrining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini keng qamrovli tahlil qiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin shahar investitsiyalar, infratuzilma, madaniyat, ta'lim va innovatsiyalar sohalarida sezilarli o'zgarishlar yuzaga keldi. Zamonaviy yondashuvlar yordamida, statistik ma'lumotlar, arxiv hujjatlari va ilgari surilgan nazariyalar asosida, Toshkentning rivojlanish yo'llari, muammolari va istiqbollari yoritilib, yangi tarixiy va siyosiy kontekstda undan o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda.*

***Kalit So'zlar:*** *Toshkent, Mustaqillik, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar,iqtisodiy rivojlanish, shahar infratuzilmasi, madaniyat va ta'lim, innovatsiyalar, urbanizatsiya, investitsiyalar, iqtisodiy siyosat, madaniy meros,rivojlanish strategiyalari.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon, Toshkent — mamlakat poytaxti va yirik shahar – ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida katta o'zgarishlarga duch keldi. Bu davrda davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar va yurt taraqqiyoti bilan bog'liq qator muhim jarayonlar yuzaga keldi. Yangi milliy mavqega erishish, shahar infratuzilmasini rivojlantirish, ta'lim, madaniyat, texnologiyalar va turizm sohalarida amalga oshirilgan loyihalar shahar hayotini tubdan o'zgartirdi. Ushbu maqolada, mustaqillik davridagi Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini yangi metodologiyalar bilan, statistik va arxiv ma'lumotlari asosida o'rganish, kelajak istiqbollarini aniqlash maqsad qilinadi.

Mustaqilikga erishgach vatanimiz hududidagi diqqatga sazovor bo'lgan joylarga tashrif bir necha martta ortdi.Quyida mamlakatimizning diqqatga sazovor jouylar haqida aytib o'tsam. Samarqanddan 40 kilometr uzoqlikda Oqsoy qishlog'ida Hazrati Dovud g'ori yoki Muqaddas Dovudning ajoyib arxeologik yodgorligi, muqaddas qadamjo va tabiatning mo'jizasi joylashgan. Ma'lumki, Hazrati Dovud bir vaqtning o'zida uchta dinda hurmatga sazovor shahs hisoblanadi. Musulmonlar uni Hazrat Dovud, pravoslavlar va yahudiylar David deb atashadi. Uning bashorat va shifo qobiliyati bo'lganligi sabab, uning hayot hikoyasi sir va afsonalar bilan qoplangan. Hazrati Dovud 33 yoshida Isroil va Yahudiya Birlashgan Qirolligining hukmdori bo'lib, qirq yil davomida

hukmronlik qilgan. Shunday qilib Hazrat Dovud g‘ori muqaddas qadamjoga aylandi. Har kuni o‘nlab ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Uning ichida barcha murojaatlar, qilingan so‘rovlar, istaklar Xudoyi taologa tezroq eshitiladi va amalga oshiriladi deb ishoniladi. Unga erishish uchun siz 1303 pog‘onali zinani yengib, yuqoriga ko‘tarilishingiz kerak. Tog‘ning eng yuqori cho‘qqisida qadimiy masjid bor, agar siz 200 qadami pastroqga tushsangiz, Hazrat Dovudning g‘orini kirishingiz mumkin. Ana shunday qadimiy yodgorliklardan biri bu Kampirtepa yodgorligi Amudaryoning o‘ng sohilidagi Termiz shahridan 30 km uzoqlikda qadimiy Baqtriya yodgorligi – Kampirtepa antik shaharchasining xarobalari joylashgan. 2018 yilda ilmiy arxeologlar Iskandar Zulqarnaynning qarorgohi Oksdagi qadimgi Iskandariya (Amudaryoning boshqa nomi) bir paytlar shu yerda joylashganligini isbotladilar. Arxeologik qazishmalar paytida madaniy qatlamlar topilib, buyuk sarkarda kelgan davrga tegishli yangi buyumlar aniqlangan. va dizayn yechimlarini ko‘rish mumkin, bu esa o‘z navbatida olimlar va

Mustaqillik, xalq hokimiyati, suverenitet va erkinlik tushunchalariga zamonaviy yondashuvlar asosida bog‘langan. Milliy istiqlol harakatlari, davlat qurilishi va huquq-tartibot tizimining islohoti natijasida Toshkentda demokratik jarayonlar rivojlantirildi. Mahalliy boshqaruv va davlat idoralari, fuqarolik jamiyati institutlari kengayib, aholi ishtiroki kuchaydi.

Mustaqillik yillarida Toshkent ustalarining kuchi bilan Ko‘kaldosh madrasasi to‘liq ta’mirlandi. Va madrasaga diniy muassasa maqomini qaytarishga qaror qilindi.Bugun bu yerda musulmonlarni namozga chaqiruvchi muazzinlarning azon o‘qigan ovozlarini eshitish mumkin, hujralarda esa talabalar uchun darslar va turli xil diniy marosimlar o‘tkazilmoqda. Har bir davlatda xalqining o‘tmishi va ulug‘vor tarixini eslatib turuvchi tarixiy obidalar va yodgorliklar mavjud. Ushbu yodgorliklar orqali inson ma’naviy ozuqa oladi, o‘z davlatining tarixidan faxrlanadi va g‘urur tuyg‘usini his etadi.Dunyoda inson qo‘li bilan yaratilgan va necha ming yillardan beri saqlanib, o‘z jozibasini yo‘qotmay kelayotgan tarixiy obidalar ko‘plab uchraydi. Tarixdan bizga ma’lumki inson zoti san’atni qadrlagan va go‘zallikka intilib kelgan. Yurtimizda moddiy ashyolarni asrash bino va inshoatlar rekanstruksiyasini jadal rivojlantirish bo’yichaham qator ishlar olib borildi va bu borada Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida alohida qonun sifatida belgilab qo’yildi. Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli,

shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega

Davlat dasturlari va mahalliy siyosat hisobiga Toshkent iqtisodiyoti diversifikatsiya qilindi. Xizmatlar sektori, sanoat, qurilish va turizm rivojlandi. Xususan, yirik infratuzilma loyihalari, transport va kommunikatsiya tarmoqlari kengaytirildi. Shahar ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish natijasida, yangi ish o‘rinlari ochildi, shahar infratuzilmasi mukammallashdi.Mustaqillik davrida o‘zbek madaniyati va ta’limining rivojlanishi uchun davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirildi. Yangi kutubxonalar, oliy o‘quv yurti va madaniyat markazlari ochildi. Tarixiy va milliy meros muhofazasi, yoshlar va yosh mutaxassislar o‘rtasida milliy qadriyatlarni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.Shahar innovatsiya va texnologiyalar sohasida ham rivojlanmoqda: raqamli boshqaruv tizimlari, axborot texnologiyalari, start-up va IT-markazlar faoliyat yuritmoqda. Bu jarayonlar, Toshkentni butun ilm-fan va ishlab chiqarish tarmoqlari bilan integratsiya qilishni maqsad qiladi.Shuni alohida ta’kidlash kerakki, shaharda urbanizatsiya bilan bog‘liq muammolar, transport, ekologiya va ijtimoiy tengsizliklar ham yuzaga keldi. Yangi strategiyalar va mustahkam reja asosida, bu muammolar hal etilmoqda, shahar rivojlanishda davom etmoqda.

Mustaqillik davrida Toshkent shahar jadal rivojlanib, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalardagi muhim yutuqlarga erishdi. Rivojlanishning zamonaviy yo‘nalishlari, texnologik imkoniyatlar va shahar infratuzilmasini kengaytirish bilan bog‘liq muammolar bilan birga, unda yangi imkoniyatlar ham ochildi. davlat va mahalliy boshqaruvda amalga oshirilayotgan islohotlar, shahar hayotini ma’naviy va iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelajakda, Toshkent qisqa va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalariga asoslangan holda, dunyoning ilg‘or shaharlari qatoriga kirishga intilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. **Sodiqov, O.** (2022). *O‘zbekiston mustaqillik davridagi iqtisodiy islohotlar.* Toshkent: “Fan”.

2. **To‘lag‘anov, D.** (2021). *Toshkent shahrining rivojlanish strategiyalari.* Toshkent: “Yangi Asr”.

3. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.** (2023). *Shahar modernizatsiya dasturlari va rivojlanish yo‘nalishlari..*

4. **Mustaqillik yillari statistik ma’lumotlar to‘plami.** Toshkent shahar statistika boshqarmasi.

5. **Arxiv hujjatlari va yuridik xujjatlar.** Toshkent shahar arxivlari.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXNAVISLIGI

**Ochilodiyev Lochinbek Normurod o‘g‘li**
Chirchiq davlat pedagokika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annatatsiya.** Mazkur maqolada o‘z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o‘zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o‘rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi Amir Temur shaxsining O‘zbekiston va Jahon manbashunosligida tutgan o‘rni va ro‘li haqida so‘z boradi. Uning davlat hukumdori va ilm-fan homiysi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgani, shuningdek barcha davrlarda Temur shaxsining tarix fanida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Amir Temur, Sohibqiron, tarixshunoslik, temuriylar, manbashunoslik, tarixnavislig,temurshunoslik, madaniyat.

O’zbekiston Respublikasi taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan yangilanishlar, rivojlanish bilan bir qatorda milliy davlatchilikni mustahkamlash, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini barqaror izga solish va rivojlantirish bo’yicha keng qamrovli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shuningdek, yangilanayotgan O’zbekistonda tarix fanida ham ajdodlarimiz tarixini o’rganish, ularga to’g’ri va xolis baho berish, shu asosida milliy qadriyatlarimizni tiklash o’zining yangicha bosqichiga ko’tarildi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning havas qilsa arziydigan ulug‘ tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor”[1]. O’z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o’zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o’rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi Temuriylar davlatining asoschisi Amir Temurdir. Amir Temur va temuriylar davri tarixi nafaqat o’lkamizning, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umume’tirof etilgan davr sifatida ko’plab tatqiqotchilar e’tiborini o’ziga jalb qiladi.

XIV asr ikkinchi yarmida, Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik yanada kuchaydi. Bunday og’ir vaziyatda feodal tarqoqlikdan barlos amirzodalaridan Amir Temur ustalik bilan foydalanib qoldi va 1370-yili oliy hokimiyatni qo’lga oldi. U 1370-1379 yillar davomoida mamlakatdagi tarqoqlikni tugatib, Movarounnahr va Xorazmni o’ziga bo’ysundirdi. 1381-1402 yillarda Amir Temur qo’shni mamlakatlar ustiga uyrish kilib, Eron, Kavkazorti, Iroq, Kichik

Osiyo va Hindistonni istilo kildi. Oltin O'rda xoni To'xtamishga qaxshatqich zarba berib, uni poytaxti Saroy Berkani egalladi. Sohibqiron nafaqat O'zbekiston tarixida, balki, jahon xalqlari tarixida katta iz qoldirgan buyuk siymodir.

Amir Temur va Temuriylar tarixshunosligi va manbashunosligi tarix fanining nafaqat hozirgi davrdagi dolzarb masalasi, balki, o'rta asrlardayoq o'rganilishi boshlangan muhim jarayon hisoblanadi. Bu boradagi jumboqli, qiziq va qimmatli bo'lgan ma'lumotlar hozirgi kunda ham O'zbekiston va jahon tarixshunosligida o'zining o'rganilish ahamiyatini yo'qotmagan dolzarb mavzulardan biri hisoblandi.

XX asrda Sovet hokimiyati o'rnatilgandan Sovet tarixshunosligining o'ziga xos jihatlaridan biri shu bo'ldiki, bu davr tarixshunosligida o'tgan asrlardagi rus shovinizmining ta'siri ma'lum darajada saqlangan holda, unga yangi salbiy jihatlar qo'shildi. Bular tarixga va tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyatini o'rganishga kommunistik mafkura talablari asosida partiyaviy va sinfiy nuqtai nazardan yondashish edi. Natijada Amir Temur shaxsini qoralash, uni faqat salbiy jihatlarini yoritish avj oldi. Bu hol, ayniqsa, XX asrning 70-yillarida yaqqol namoyon bo'ldi. A.P.Novosel'tsevning 1973-yili "Voprosы istorii" jurnalida e'lon kilingan "Ob istoricheskoy otsenke Temura" maqolasi Amir Temur qoralab yozilgan maqola edi. Shundan so'ng XX asrning 70 - va 80-yillarida Amir Temur haqida birorta temurshunoslik ilmiy saviyasi bilan farqlanuvchi tadqiqot ishi e'lon qilinmadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Amir Temur shaxsi sovet mafkurasidan xizmat qilgan tarixiy adolatsizlikdan to'liq ozod etildi. 1995 yil dekabrda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qildi. "Temur tuzuklari" bir necha tillarda chop etildi. O'sha davr tarixiy, madaniy yodgorliklarini tiklab, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Muqaddas qadamjo - Amir Temur maqbarasi ta'mirlandi. Juda qisqa fursatda, bobokalonimizning dunyoviy sha'ni va shavkatiga mos keladigan Temuriylar davri tarixi muzeyi qurildi. 1999-yilda esa akademik E.V.Rtveladze va akademik A.X.Saidovlar tomonidan tayyorlangan "Amir Temur dunyo fani ko'zgusida" nomli bibliografik nashrda xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlar tizimga solindi. Mualliflar jahon tarixshunosligida mustaqil "temurshunoslik" ilmiy yo'nalishi shakllanganini e'tirof etishdi. Shuningdek, "Amir Temur jahon tarixida" nomli nashrining "Amir Temur davri tarixnavisligi" bobidagi "Ilmiy izlanishlar" qismida O'zbekiston va xorij tadqiqotchilarining ishlari tahlil qilindi.

Nashrda “Amir Temur shaxsini biryoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko‘nikmalardan uni chuqur, keng va har yoqlama idrok etishga asta-sekin o‘tish tadriji sodir bo‘ldi”- degan xulosaga kelinishi tarixshunoslikdagi ilmiy burilishdir. 2003-yilda akademik B.Ahmedov, B.Qosimov, I.Niyazov, B.Bannopov, M.Zikrullayev, Ya.Muhammedov tomonidan ham temurshunoslik sohasida bir qancha tadqiqot ishlari olib borilib, “Amir Temur bibliografiyasi” nashrdan chiqdi. Bundan tashqari Amir Temur shaxsi va davriga oid birmuncha manbalar tarjimasi, ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy adabiyotlar yaratildi.

O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida bajarilgan “Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob” mavzuyidagi maqsadli amaliy grant doirasida bajarilgan loyihada O‘zbekiston va jahon miqyosida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab nashr qilingan turli adabiyotlar jamlanib izohlar bilan ta’minlandi. Amir Temurning ibratli hayoti, saltanati tarixi, undagi ilm-fan, madaniyatni o‘rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan. . “Amir Temur tuzuklarini o’qisam,” - degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov-xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo’laman”[2]. Temuriylar tarixiga tegishli manbalar jahon miqyosida turli tillarga tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu o‘rinda temurshunoslik rivojiga tamal toshini qo‘ygan G.A.Pugachenkova, I.Mo‘minov, R.Mukminova, B.V.Lunin, E.V.Rtveladze, P.Zohidov, L.I.Rempel, A.O‘rinboyev, B.Ahmedov, D. Yusupova, O‘.Alimov, T.Fayziyev, O.Bo‘riyev kabi qator fidoiy olimlarning tadqiqotlari Amir Temur saltanati tarixini yoritishga xizmat qildi. Zero, aynan ularning mustaqillik yillarida chop etilgan yirik nashrlarda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini mukammal yoritishdagi xizmatlarini e’tirof etish zarur. Birlamchi yozma manbalar, ya’ni qo‘lyozma kitoblar maxsus kataloglarda yoritilgan[3].

Dunyo tarixshunosligida Amir Temur davri tadqiqiga oid nashrlar, “Temurshunoslik” ilmiy yo‘nalishining shakllanishi, badiiy adabiyotda Amir Temur obrazining yaratilishi ancha ilgari boshlangan. Bu jarayon Sohibqironning tirikligidayoq boshlangan desak xato bo’lmaydi. Yevropa Uyg’oniy davri ijodkorlari uning shaxsiga katta qiziqish bilan qaraganlar. “Xorijning mashhur tarixchilaridan E.Gibbon, F.SHlosser, G.Veber, JanPol’ Ru va boshkalar o’z asarlarida Amir Temur faoliyati haqida ma’lumotlar berganlar”[4]. Amir Temur qudratli davlat barpo etgach G’arbiy Yevropa hukumdorlari Usmonli turk imeriyasi hujumidan tashvishga tushib undan yordam so’raydi. “Shu maqsadni ko’zlagan Vizantiya imperatori Manuil II

Paleologning dojlari (imperatorning o'zi o'sha kezlarda G'arbiy Evropa qirollari huzurida bo'lgan) Yildirim Boyazid tazyiqidan xalos etishni so'rab, Amir Temurga murojaat qilishadi va shu paytgacha turk sultoniga to'lab kelgan bojlarini bunday buyon Sohibqironga berajaklarini aytadilar. Kastiliya qiroli Genrix III va Frantsiya qiroli Karl VI o'z elchilarini, Rim papasi Bonifakiy IX bo'lsa o'z katolik missionerlarini shoshilinch Amir Temur huzuriga yo'lladilar[5].

Bu yozishmalar jahon tarixshunosligi va manbashunosligida muhim o'rin egallaydi. "…bu nomalarning asl nusxa va tarjima variantlari hozirda Parij, Madrid va London kutubxonalarida saqlanib kelinadi. Bu haqda biz quyidagi tarixiy asarlardan bilib olsak bo'ladi" [6]. Ushbu ma'lumotlar Keren L. Amir Temur saltanati , Fransuz tilidan tarj. Va izohlar muallifi: B.Ermatov, Maxsus muharrir: X.Sulton; So'z boshi Lui Bazen. – T.: "Ma`naviyat", 1999, -224 bet. kitoblari ham bor. Barcha tafsilotlarning to'liq tarixshunosligi: Jahon adabiyoti №1 (104) 2006-yil, yanvar sonida to'liq keltirilgan; Muhammadjon Xolbekov "Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalar". –Samarkand, 1996, -38 bet. Istoriya Samarqanda. Tom 1: -Tashkent, Izd. «Fan», 1969, -482 s. Umnyakov I.N. Mejdunarodnыe otnotenie Sredney Azii v nachale XV veka. Snoteniya Temura s Vizantiey i Frantsiey, Truda Uzbekskogo gosudarstvennogo universiteta im. N.Navon. Novaya seriya. №61. – Samarkand: izd. UzGU., 1956. –s.179- 197. Aslida, Yevropa olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi XVI asrdan boshlangan edi. Jumladan, 1553-yili Italiyaning Florensiya shahrida italiyalik olim Perondinoning "Skifiyalik Tamerlanningf ulug'vorligi" asari bosib chiqilgan. Shuningdek bu davtda Pero Meksikaning "Buyuk Temur tarixi" asari chop etildi. 1582-yilda esa Seviliyada mashhur Ispaniya elchisi Klavixoning "Esdaliklar" kitobi nashrdan chiqdi. Aynan shu davrdan Amir Temur haqida turli tatqiqot asarlari, monografiyalar, Amir Temur bilan zamondosh bo'lgan elchilar kundaliklari va yozuvchilarning asarlari tarixshunoslikda muhim ma'lumotlar hisoblanib, to hozirgi kunga qadar Amir Temur haqida yoziladigan asarlarning keti uzilmaydi. Bugungi kunda Amir Temur va Temuriylar haqida 33 mamlakatda 500 dan ziyod chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etildi. 2006-yilda, Parijda Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish bo'yicha assotsiatsiyaning asoschisi va prezidenti, professor Lyus'en Keren qalamiga mansub "Samarqandga, Temur davrida sayohat" kitob albomining uchinchi nashri bosmadan chiqdi. Bu kitob YUNESKOning "Ipak yo'li-muloqot yo'li" dasturiga muvofiq yozildi va nashrga tayyorlandi. Kitobning uchinchi nashri uning kitobxonlar orasida keng ommalashganidan

dalolat beradi va u Yevropa kitobxonlarida ulug' bobokalonimiz, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur shaxsiyatiga katta qiziqish uyg'otishi shubhasiz[7].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O'zbekiston davlatchiligining yuksalishida muhim o'rin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda "Sohibi jahon" hamda "Sohibi adl" - "Adolat sohibi" nomlari bilan ulug'lanishi tarixiy manbalar va tarixshunoslarning tatqiqot ishlarida namoyon bo'lishu bejizga emas. Bugun tarixiy bilimlarning bosqichlarini o'rganar ekanmiz, Mo'gullarning 150 yildan ortiq hukmronligidan so'ng Amir Temur buyuk sarkarda, davlat arbobi, adolatli hukmdor sifatida o'sha davrida yuksak cho'qqilariga erishgan madaniy sohalarga e'tibor bergan, mamlakatlarda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, metallga badiiy ishlov berish, hattotlik, ilmu fan, adabiyot, hunarmandchilik, xullas, barcha sohalarning rivojlanishiga asosiy sababchilaridan biri bo'lgan shaxs ekanligining guvohi bo'lamiz. O'zbekiston va jahon tarixshunosligida hozirgi kunga qadar o'zining dolzarb mavzuga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Temur tuzgan buyuk davlatda Ikkinchi uyg'onish davrining vujudga kelganligi va bu renesans Turon, Xuroson va Hindistonda uzoq asrlar mobaynida shu'la sochib turganligi yuqoridagi gaplarimizning isboti bo'la oladi. Amir Temur buyuk sarkarda, kuragi erga tegmagan, engilmas fotihdir. Amir Temur – insoniyat tarixida eng nodir hodisa – renesansni yuzaga chiqarib, amalga oshirgan ulug' zotdir!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasidan // Xalq so'zi 2017-yil 4-avgust).

2. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008-yil, 28- bet.

3. Собрание восточных рукопией Академии наук Узбекистана. Т. I–XI. – Ташкент, 1952-1987; Собрание восточных рукопией Академии наук Узбекиетана. История. Составители: Д.Ю.Юсупова, Р.П.Жалилова. – Ташкент, Фан, 1998. – 536

4. Gibbon Eduard. Istoriya upadka I razrusheneniya Rimskoy Imperii // Perevod s angliykogo V.N.Nevedomskogo. Chast VII. – M., izd. K.T.Soldatenkova, 1983: Shloser F. Vsemirnaya istoriya. Tom III, - SPb.,1876: Veber G Vseobshaya istoriya. Tom VII. – M., 1887.

5. Xolbekov M. Sohiqiron Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari. Jahon adabiyoti, №(104), 2006-yil, 131-133-betlar.

6. Marino Sanudo “Venetsiya dojlarining hayoti”, Luys’en Keren “Temuerlan davrida Samarqand yo’li” (1990), Flossan “Fransiya davlati tashkil topganidan to qirol Lyudovik XVI hukumronlik qilgan davrga qadar fransuz diplomatiyasi tarixi” (1811), Sil’vestr de Sasi “Amir Temur va qirol Karl VI o’rtasidagi yozishmalar tarixi xususida”(1822)

7. “Samarqandga Temur davriga sayohat”, Zarafshon, 2006-yil 7-oktabr, № 126 (21.179); Ravshanoy Tursunova. G’arbiy Yevropa mualliflari sahna asarlarida Amir Temur obrazi//San’at, 2006-yila, №2-son, 37-38-betlar.

## BUYUK TEMURNING TOLERANTLIK SIYOSATI, YHUD ISLOM DINIGA BO‘LGAN MUNOSABATI.

***Rixsiboyeva Muazzam Mohirjon qizi,***
*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti I-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Amir Temur va uning tolerantlik siyosatiga bag‘ishlangan bo‘lib, buyuk sarkardaning ijtimoiy, diniy va madaniy bag‘rikenglikni qanday amalga oshirgani tahlil qilinadi. Amir Temur o‘zining harbiy muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda, davlatida turli etnik va diniy guruhlarga nisbatan odilona siyosati, diniy tolerantlik, madaniyatlararo munosabatlari, diplomatik siyosati va iqtisodiy islohotlari kabi muhim yo‘nalishlardagi amaliy harakatlari aks etgan.

**Kalit so’zlar:** Amir Temur, tolerantlik, dinlararo bag‘rikenglik, madaniyat, diplomatik siyosat, iqtisodiy islohotlar, millatlararo munosabatlar.

Amir Temur o‘z hukmronligi davomida turli dinlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. U musulmon bo‘lishiga qaramay, nasroniylar, buddistlar va boshqa din vakillarining huquqlarini himoya qilgan. Masalan, Temur 1401-yilda Suriya yurishi paytida nasroniy monastirlarini vayron qilmagan, aksincha, ularni himoya qilgan [1]. Madaniy bag‘rikenglik Amir Temur turli millatlar va madaniyatlarning taraqqiyotiga sharoit yaratgan. Samarqand va Buxoro kabi shaharlar uning davrida madaniyat va ilm-fan markazlariga aylangan. Uning bu siyosati ko‘plab olim va san’atkorlarning Samarqandga kelib ijod qilishiga sabab bo‘lgan [2].

Etnik guruhlar bilan munosabat Temur o‘z imperiyasida yashovchi turli millatlar – turklar, forslar, mo‘g‘ullar va hind xalqlari bilan o‘zaro do‘stona munosabat o‘rnatgan. U barcha xalqlarni yagona davlat ichida birlashtirishga intilgan va ularning an’analariga hurmat bilan yondashgan[3]. Amir Temur yahudiy va nasroniy savdogarlar va hunarmandlarni ham hurmat qilgan.

Masalan, u Bag‘dod yurishidan so‘ng yahudiy jamoalarining faoliyatini davom ettirishlariga ruxsat bergan va ularni himoya qilgan [4].

1398-yilda Hindistonga yurishi chog‘ida Amir Temur islomga e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, hind jamiyatining tuzilishini to‘liq o‘zgartirishga harakat qilmagan. U mahalliy hokimiyat vakillariga qisman mustaqillik berib, ularning urf-odatlarini hurmat qilgan [5]. Diniy Tolerantlik va Hukumatning Muloqoti: Amir Temur musulmon bo‘lsa-da, o‘z davrida boshqa dinlarga ham xushmuomalalik ko‘rsatgan. Bunday munosabatlar nafaqat hududiy barqarorlikni, balki iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ham ta’minlagan. Misol uchun, Temur Bag‘dodda yahudiy va nasroniy jamoalariga xususiy huquqlar berib, ularning savdo va iqtisodiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlagan. Bu siyosatning asosiy sababi, shubhasiz, ularning iqtisodiy ahamiyatini tan olishda yotgan edi [6].

Samarqand va Buxoro shaharlarini madaniy markazlarga aylantirishda Temur katta rol o‘ynagan. Uning davrida bu shaharlar nafaqat Islom dunyosining, balki butun dunyoning ilm-fan, san’at va madaniyat markazlariga aylangan. Bu yerda ko‘plab olimlar va san'atkorlar faoliyat olib borgan, masalan, astronomiya, matematika, va falsafa sohalarida katta yutuqlar erishilgan [7].

Temur o‘zining diplomatik siyosatida ham bag‘rikenglikni namoyish etgan. U ko‘p hollarda turli xalqlar va davlatlar bilan ittifoqlar tuzgan va bu ittifoqlar orqali o‘z imperiyasining xavfsizligini ta’minlagan. Masalan, Temurni ko‘p marta Evropa davlatlari, shu jumladan, Engiltaraga ham diplomatik missiyalar yuborgan, bu esa uning xalqaro aloqalarda ham yuqori darajadagi madaniyat va bag‘rikenglikni ko‘rsatadi [8]. Temurning buddizmga bo‘lgan hurmatini ko‘rsatadigan yana bir misol – u Hindistonga yurishi chog‘ida buddistlar monastirlarini hurmat bilan qaragan va ularning diniy erkinliklarini himoya qilgan. Bu hozirgi kunda kam uchraydigan bag‘rikenglikning yana bir namunasi sifatida qabul qilinadi .

Temur o‘zining hukmronligi davrida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirgan va bu islohotlar uning tolerantlik siyosati bilan bog‘liq edi. Boshqa din va etnik guruhlarga qarshi diskriminatsiya qilish o‘rniga, u ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qildi va bu orqali mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minladi. Amir Temur davlatining ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda tolerantsiya siyosatining muhim roli bor edi. U turli etnik guruhlar va diniy jamoalar o‘rtasida ziddiyatlarni kamaytirishga intilgan. Masalan, Temur boshqaruvini qo‘lga olganidan so‘ng, u ko‘plab shaharlarni qayta tikladi va

iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun savdo yo‘llarini xavfsizlashtirdi. Bu siyosat, ayniqsa, markaziy Osiyo hududida iqtisodiy taraqqiyotga olib keldi[9].

Samarqand Amir Temur davrida dunyo miqyosidagi eng yirik madaniy markazlardan biriga aylandi. Temur ilm-fan va san’atga katta e'tibor berdi, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun ko‘plab olimlar va mutafakkirlarni o‘z davlatiga jalb qildi. Shuningdek, u Samarqandda ilmiy va madaniy markazlar tashkil etdi, masalan, Ulug‘bekning rasadxonasini qurdi. Temur o‘z davrida turli millatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga harakat qilgan. U mo‘g‘ul va turklarning to‘qnashuvi oldini olishga, shuningdek, fors va arab xalqini o‘ziga bo‘ysundirishga qaratilgan siyosatlarni amalga oshirgan. Temur davlatida barcha millatlar bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan va bu siyosat imperiyaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlagan.

Temurning diplomatik aloqalari ham uning tolerantlik siyosatining bir qismi sifatida ko‘riladi. U o‘zining harbiy muvaffaqiyatlarini xalqaro diplomatik hamkorlik bilan mustahkamlashga muvaffaq bo‘lgan. Masalan, Temur turli davlatlar bilan tinchlik kelishuvlari tuzib, o‘z imperiyasining xavfsizligini ta’minlashga intilgan. Bu kelishuvlar uning dinlararo va millatlararo bag‘rikenglik siyosatiga mos keladi. Amir Temur o‘zining qurilish siyosati bilan ham mashhur. U faqat harbiy yurishlar bilan cheklanib qolmasdan, ko‘plab shaharlarda muhim infratuzilma ob'ektlarini yaratgan. Samarqandda, Buxoroda va boshqa shaharlarda ko‘plab masjidlar, madrassalar va madaniy inshootlar qurilgan. Bu inshootlar xalqning diniy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yordam bergan va ularning turli diniy guruhlar orasidagi hamjihatlikni saqlashga xizmat qilgan [10].

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullaev, R. (1996). Temuriylar davrida din va siyosat. Toshkent: Fan. (78-bet)
2. Bartold, V. V. (2002). Samarqand tarixi. Moskva: Nauka. (145-bet)
3. Gibb, H. A. R. (1997). Amir Temur va uning davlati. London: Oxford University Press. (256-bet)
4. Manz, B. (2007). Temuriylar imperiyasi. Nyu-York: Cambridge University Press. (189-bet)
5. Roemer, H. R. (1986). Islom dunyosida Temuriylar. Leiden: Brill. (312-bet)
6. Hodge, C. (2012). Temurning harbiy strategiyasi va siyosati. London: Routledge. (201-bet)

7. Lentz, J. D. (2001). Temuriylar davridagi xalqaro munosabatlar. Berlin: Springer. (155-bet)
8. Subtelny, M. E. (1994). Temuriylar madaniyati va san'ati. Parij: UNESCO Press. (198-bet)
9. Woods, J. E. (1990). Temurning geosiyosiy ta'siri. Boston: Harvard University Press. (267-bet)
10. Mirzo, A. (1995). Amir Temurning davlat boshqaruv usuli. Toshkent: Ma'naviyat. (92-bet).
11. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O 'QUVCHILARIGA RAQAMLI O 'RGANISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.
12. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31
13. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA - O„QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOIY MUHIT TA'SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA. SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.
14. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O'. (2024). RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,
15. Haydarova, Z. N. (2024). Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o'quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish. Mug'allim, 3(3), 199-206.
16. Haydarova, Z. N. (2024). Ta'limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya, 1(1), 502-512.
17. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

18. Haydarova, Z. N. (2023). Ta'lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. UzMU xabarlari, 1(10), 225-227.

## SOHIBQIRONGA YO'LBOSHCHI BO'LGAN PIRLAR

***Gulyamov Dostonbek Umid o'g'li***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*Tarix yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temurning Hayoti hamda faoliyatida muhim o'rin tutgan pirlari hamda ularning fazilatlari sohibqironning ulamolarga munosabati va buning ijobiy jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Sayyid Amir Kulol, Shamsuddin Kulol, Shayx Abu Bakr Tayobodiy, Sayyid Baraka, "Rosti-rusti", Amir Temur.

**KIRISH:** Vatanimiz hamda jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temur faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ko'z oldimizda ilm-fan va din homiysi, buyuk sarkarda hamda hozirgi kunda ham barchamizga namuna bo'ladigan adolatli hukmdor shakllanadi. Bunday buyuk siymoning shakllanishida o'zlarining hikmatli nasihatlari bilan yo'l-yo'ruq ko'rsatgan hamda uni qo'llab turgan pirlarining o'rni beqiyos.

Amir Temurning yoshlikdanoq mashhur din ulamolari va shayxlarga e'tiqodlari baland bo'lib, buni padari buzrukvori Amir Tarag'aydan o'rgangan edi.

Sohibqironning bir necha pirlari bo'lgan, ularni ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga ruhoniyatli pirlar, ya'ni Sohibqiron tug'ilgunga qadar yashab o'tishgan tabarruk zotlar Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi Xoja Ahmad Yassaviy, Sulton Burhoniddin Qilich, Shayx Nuriddin Basir (Qutbi Chahordahum). Shayx Burhoniddin Sog'arjiy va Shayx Safiuddin Yoqub Ardabiliylardir. Sohibqironning mazkur zotlar ruhlariga ehtiromlar ko'rgizib, har biriga alohida maqbaralar tiklaganliklari, avlodlarini e'zozlab kelganliklari o'ziga pir tutganining isboti bo'la oladi.[2] Xususan Xoja Ahmad Yassaviyning "Hikmat" nomli chuqur mazmunli devoni Sohibqiron sevib o'qiydigan asarlardan biri edi. Amir Temur Turkistonga borib, Ahmad Yassaviy hazratlarining qabrlarini ziyorat etar, duoi xayrlar qilar edi.[3]

[2] Muhammad Ali " Amir Temir solnomasi" Toshkent 2008. 15-bet.
[3] Ahmad SHimshirgil "Amir Temur" Toshkent 2023. 341-342-betlar.

Fotih Duman o‘zining “Pir” asarida keltirishicha: “… Nihoyat, Amir Temur Buxoro safarini boshlashga qaror qildi. Yo‘lda kelayotib, Turkistonga ham kirib o‘tdi. Turkistonlik Ahmad Yassaviy Amir Temurning tushiga kirib, «Ey yigit, tezda Buxoroga safar qil, inshaalloh, u erdagi sultonning o‘limi sening qo‘lingda. Buxoro ahli seni kutmoqda. Hali boshingdan ko‘p ishlar o‘tsa kerak!» degan edi. Amir Temur uyg‘onib, Allohga hamdlar aytdi. Ertasi kuni Turkiston hokimi Nog‘aybek Xonni chaqirtirib, Xoja Ahmad Yassaviy qabrining ustiga maqbara qurish uchun xazinadan mablag ajratdi. Turkiston hokimi ulkan, mahobatli maqbara majmuini qurdirdi. Bu hashamatli bino hali hanuz o‘zining jozibadorligi, muhtashamligi bilan ajralib turadi.

…Rivoyat qilinishicha, Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurila boshlagach, poydevor har gal yiqilaveradi. So‘ng Xoja Ahmad Yassaviyni tushida ko‘rgan bir darveshning ishorasi bilan avval O‘tror shahrida dafn qilingan Arslonbob maqbarasi quriladi. Shundan keyingina Ahmad Yassaviy maqbarasini qurishga muvaffaq bo‘ladilar.”[4]

Bu maqbaraning qurilishi 1397-yili boshlanib, orada to‘xtab-to‘xtab, Amir Temurning vafotiga qadar davom etgan. Katta bir gumbaz, ikki minora va juda ko‘p xonalar, hujralar va qubbalardan iborat bu imorat orqali Sohibqiron buyuk avliyo Xoja Ahmad Yassaviy hazratlariga muhabbati, hurmat-ehtiromi naqadar yuksak ekanini ifoda etgan.[5]

Temur Shomni egallagan paytida hazrati Payg‘ambarimiz alayhissalomning zavjalari Ummu Salama va Ummu Habiba onalarimiz roziyalloxu anhumoning qabrlari ustiga maqbara bunyod ettirgan. U borgan barcha shahar va o‘lkalarida payg‘ambarlarning, sahobalarning, mashxur olimlarning qabrlarini, jumladan, Idris alayhissalom, Jirjis alayhissalom, Nuh alayhissalom, Sufyon Sarviy, hazrati Husayn, Hakim Termiziy, Imomi A'zam, Abu Muslim Marvaziy, Boyazid Bistomiy, shayx Baxlul dono, shayx Ibrohim Yahyo kabi muborak zotlarning qabrlarini ziyorat etib, duolar qilardi.[6] Shuningdek Amir Temur o‘zining tuzuklarida quyidagicha so‘zlaydi: “Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag' ajratsinlar. U yerlarni gilam, taom va chiroq bilan ta'minlasinlar. Birinchi navbatda amir ul-mo'minin, mard kishilar shohi Ali ibn Abu Tolibning - unga Allohning karami va ehsoni bo'lsin - muqaddas qabrlarini yaxshi saqlash uchun Najaf bilan Xullani vaqf etib bersinlar. Imom Husaynning - Alloh undan rozi bo'lsin nurga cho'mgan muqaddas mozori, avliyolar ulug'i shayx Abdulqodir

[4] Fotih Duman “Pir” Toshkent 2023. 13-bet.
[5] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 350-351-betlar.
[6] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 342-bet.

Jiloniyning[7] muqaddas qabri (ravzasi), imomi A'zam Abu Hanifaning[8] unga Allohning rahmati bo'lsin maqbarasini va Bag'dodda nurga cho'mgan boshqa mashoyixlar, din peshvolari va akobirlaridan har birining mozorlarini yaxshi saqlash uchun baholi qudrat Karbalo, Bag'dod va ularning atrofidagi qishloqlar va boshqa yerlar vaqfidan mablag' ajratsinlar. Imom Muso Kozim[9], imom Muhammad Taqi[10], Salmon Forsiylarning[11] munavvar ravzalari uchun esa Jazoir ekin maydonlaridan va Madoin' daromadidan vaqf belgi-lasinlar. Imom Ali ibn Musoning[12] tabarruk mozori uchun Kutahbast va Tus shahri atrofidagi yerlardan vaqf ajratsinlar va gilam, chiroq hamda kundalik yemak-ichmagini belgilasinlar. Shuningdek, Eron va Turondagi shayxlarning mozorlari va qabr-lari uchun har biriga alohida nomma-nom nazr-u vaqflar ajratsinlar."[13] Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin-ki Temurning Payg'ambarlar, sahobalar, ulamolar, avliyolar ruhiga xurmati cheksiz bo'lgan.

Sohibqironning zamondoshlariga keladigan bo'lsak, ulug' Amir bevosita e'tiqod etgan irodat yo'lini bergan pirlar SHayx SHamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy, Mir Sayyid Baraka hamda Sayyid Amir Kulol hazratlari hisoblanadi.

Uzoq yillar davomida ko'pchilik Sayyid Amir Kulol bilan SHamsiddin Kulolni bir odam deb hisoblab kelgan. Vasiliy Bartold, Vadim Masson, Galina Pugachenkova kabi bir qator mashhur temurshunos tarixchilar ham ayni shunday xato tushunchada bo'lishgan.[14]

Sayyid Amir Kulol (1284-1370-yil 28-noyabr) Buxoroning Suxoriy degan qishlog'ida tavallud topgan, butun umrini shu joyda va Buxoroning boshqa ba'zi qishloqlarida o'tkazgan. Payg'ambarimiz alayhissalomning avlodlaridan bo'lgani uchun Amir, kulolchilik bilan shug'ullangani uchun Kulol laqablari

---

[7] Abduqodir Jiloniy (1077-1166) fors ilohiyotchisi, mutasavvif. Uning xanbaliya mazhabiga oid va'zlari shuhrat qozonadi. Keyinchalik U Qur'on tafsirchisi va muftiy sifatida faoliyat ko'rsatgan. Xalq ommasi uni mo'jiza ko'rsatishga qodir bo'lgan aziz avliyo va bechoralarning homiysi deb, ulug'lar edi. Unga G'avsul A'zam (ulug' himoyachi) va piri dastgir (madadkor pir) laqablarini berishgan

[8] Imomi A'zam - Abu Hanifa No'mon ibn Sobit al-Ko'fiy (699-Bag'dod) - hanafiylik mazhabi asoschisi. Xalifa Mansur tomonidan qamalgan va zindonda kaltakdan o'lgan. Asarlari: «Kitob as-salot» («Namoz ahkomlari kitobi»), «Kitob almanosik» («Haj kitobi»), «Kitob ash-shurut» («Shartnomalar haqida kitob»), «Kitob alfaroiz» («Meros ilmi haqida kitob»), «Kitob al-olim val-mutaallim» («Ustoz va shogird haqida kitob»), «Kitob al-fiqx al-akbar» («Katta fiqh kitobi»), «Kitobi al-vasiya» («Vasiyatnoma kitobi»), «Adab al-kadi» («Qozining odobi»), «Annafaqot» («Nafaqalar»), «Faroiz» («Meros ilmi»).

[9] Imom Muso Kozim - shiyalarning yettinchi imomi (799-yilda vafot etgan).

[10] Imom Muhammad Taqi - shiiylarning to'qqizinchi imomi (835-yilda vafot etgan).

[11] Salmon Forsiy-Muhammad payg'ambarning eronlik sahobasi (655-yilda vafot etgan). Madoin - Bag'doddan 26 chaqirim janubi-sharqda joylashgan shahar.

[12] Imom Ali ibn Muso sakkizinchi imom (821-yilda vafot etgan).

[13] Amir Temur "Temur tuzuklari" Toshkent 2020. 127-128-betlar.

[14] "Temuriylar davrida din va davlat aloqasi",97-98-b; Mavlono SHahobiddin, "Ogahiyu Sayyid Amir Kulol", Karachi, 1381/1967y.28-29-b; Ahmad SHimshirgil "Amir Temur" Toshkent 2023. 333-bet.

bilan tanilgan. 12 Xojagon (naqshbandiya) tariqati silsilasidagi buyuk shayxlar Muhammad Bobo Samosiyning shogirdi, Bahouddin Naqshbandning ustozi bo‘lgan.[15]

Temurbek bilan Amir Sayyid Kulol uchrashuvini tarixchi olim Hamdam Sodiqov quyidagicha ta’riflaydi:

“Butun o'lkaga dong'i ketgan shayx Amir Sayyid Kulol sodiq muridi Muhammad Tarag'oyning o'g'lini ochiq chehra bilan qarshiladi. Yonida davra qurib o'tirgan muridlariga uni tanishtirdi.

- Bu yigit hofizi Qur'on. Men uning peshonasida ulug'vorlik ko'ramen. U shunday maqomga yetgayki, bundan ilgari hech kishiga muyassar bo'lmagan bo'lg'ay. Men kabi keksa odamga bu yigit shon-shuhrat va dovrug'ini ko'rishlik imkoni bo'lmasa ham ahli majlisdan tirik qolgonlari Temurbek nomli yigitning olamgirligini ko'rgan va eshitganlar bo'lg'ay.

Muridlar hayrat va havas bilan unga qarashdi.

Amir Sayyid Kulol tokchadan yetti kulchani olib Temurbekka uzatdi.

- Keshga borganingda ularning har biridan biroz yeb, qolganini saqlab qo'ygil. Kelajakda dunyoning yetti iqlimi seniki bo'lg'ay.

Omin, Allohu akbar!”[16] Bu yeti kulcha – yeti iqlim, uning ustidagi talqon – unib o‘sayotgan avlod, mayizlar esa davlat va toj-u taxt belgisi edi.

Temur tuzuklarida Sohibqiron pirida duo olib quchgan zafari haqida shunday deydi:

“…Otlanib, Amir Kulolning huzurlariga bordim. Ular menga Xorazmga borishimni maslahat berdilar. Agar o'zbeklar ustidan g'alaba qozonsam, Samarqandning bir yillik xirojini ularga nazr qilishga qaror qildim. Ular menga zafar tilab fotiha o'qigach, ketishimga ruxsat berdilar. Sayyid Amir Kulolning xizmatlaridan chiqqanimda, hammasi bo‘lib oltmish otliq menga hamrohlik qilardi. Ilyosxo'ja mening Xorazmga yurish qilayotganimdan xabar topib, Xiva hokimi To'kal bahodirga xat yozib, menga qarshi chiqishni va meni o'ldirishni buyurgan ekan. To'kal bahodir ming otliq askar olib, mening ustimga keldi. Oltmish otliq yigitim va yo'lda menga qo'shilgan qaynog'am Amir Husayn bilan birga ming otliq kishilik g'anim lashkariga ro'baro' bo'ldim va jangga kirishdim. Bu jangda shundayin bahodirlik qilib, chidamlik ko'rsatdimki, uning ming kishisidan ellik kishi qoldi, mening oltmish otliq yigitimdan o'n kishigana qoldi. Shunday bo'lsa-da, zafar men tomonda bo'lib, ularni qochirdim.”[17]

[15] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 331-bet.
[16] Hamdam Sodiqov “Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati” Toshkent.2024. 17-bet.
[17] “Temur Tuzuklari”.Toshkent.2020. 24-25-bet.

Shayx Shamsiddin Kulol hazratlariga kelsak - Xoja Shamsiddin Kulol XIV asrning boshlarida Qashqadaryo vohasida tug‘ilgan, bolaligidan tariqat yo‘lini tutgan. Sayyid Amir Kulol hazratlari kabi kulolchilik bilan shug‘ullanganligi uchun Kulol degan laqabni olgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, shayx Shamsiddin Kulol ham, Bahouddin Naqshband ham Sayyid Amir Kulol hazratlarining shogirdlari bo‘lishgan, birgalikda hajga borishgan, bir-birlariga ilm o‘rgatishgan.

Xoja Shamsiddin Kulolning Amir Temur hayotidagi qiymati shundaki, bu zot Sohibqironning otasi Muhammad Tarag‘ayga ham ustozlik qilgan, yetti yoshidan boshlab Qur'oni karimni, diniy ilmlarni o‘rgatgan ilk ustozi edi. Temur tug‘ilganda uning ismini ham shu zot qo‘yib, duolar qilgan. Sohibqironning bolalik chog‘lari asosan shu zotning yonlarida kechgan. Temur bu shayxiga juda qattiq ko‘ngil qo‘ygan bo‘lib, tez-tez ziyoratiga borib turar, uni o‘z otasidek ko‘rar edi.

Shayx Shamsiddin Kulol 1363-yili vafot qildi. Amir Temur uni Shaxrisabzga, otasi Muhammad Tarag‘ay Bahodirning yoniga dafn ettirdi. Temur safarlardan qaytganida farzandlari bilan birga Shahrisabzga borib, otasini hamda Shamsiddin Kulol hazratlarining maqbaralarini ziyorat qilar edi.[18]

Amir Temur hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan pirlaridan yana biri – Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy Temur saltanatining adolatli bo‘lishiga eng asosiy hissa qo‘shgan olimdir. Ulug' shayxulislom asli Hirotning Toybod qishlog'idan. Muarrix Fasih Havofiyning (XV asr) «Mujmali Fasihiy» asarida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Amir Temur u bilan birinchi marta 1381-yili Harirud vodiysida uchrashgan.[19] Amir Temur ustozi Tayobodiy bilan bo‘lgan uchrashuvlardan biri haqida aytib berar ekan, Hofizi Abro‘ga: «Davlat boshqaruvida turgan vaqtimdan buyon zohidlar va diniy olimlar bilan ko‘rishganimda qarshimda turganlarning qandaydir qo‘rquv va xavotirlarini kuzatardim. Ammo bu safar qo‘rqib turgan odam o‘zim bo‘ldim. Chunki Tayobodiy chindan ham qo‘rqmas kishi edi, dunyoda biror odamdan cho‘chib turmas edi», deya shayxi oldida his qilgan qo‘rquvini, unga nisbatan katta hurmat-e'tiborini e'tirof etgan.[20] Hazrat Tayobodiy hamda Temur o‘rtasidagi suhbatlardan biri quyidagicha bo‘lgan edi.

[18] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 330-bet.
[19] “Temur Tuzuklari”.Toshkent.2020. 14-bet.
[20] “Temuriylar davrida din bilan davlatning aloqasi”,103-bet. Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 337-bet.

…Umrimning oxirigacha pirim bo'ling. Taxtda bo'lamanmi yo zindonda, boshimga nima tushsa ham doimo marhamatingizni mendan darig' tutmang.

Shayx Temurbekka tikilib ohista javob qildi:

- Adolatli bo'l, o'g'lim. Zotan faqat adolatgina ulug' maqsadga narvon bo'lg‘ay. Adolat yo'lidan toymay borgan har bir kishi payg'ambar noibi ham bo'lishi mumkin.

Shayx Zayniddin alohida iltifot belgisi sifatida o'z belbog'ini unga bog'lab, boshidagi taqyasini ham kiygizdi. Keyin qo'lidagi uzugini unga uzatdi. Bu uzukda “Rosti-rusti”, ya'ni “Haqiqat adolatda” degan so'zlar o'yilgan edi. Oradan ancha yillar o'tgach, ana shu uzukdagi so'zlarga Temurbek nomi va uch doira qo'shiladi. Bu muhr o'yilgan paysalar oldida dongdor va qudratli hukmdorlar ham bo'yin egadi.[21]

Amir Temur tuzuklarida shayx Tayobodiy tomonidan yuborilgan bir qancha maktublar o‘rin olgan. O‘shalar orasidan quyidagi maktub Amur Temur davlatchiligining tamal toshlarini ifoda etib turadi:

“Ey Abulmansur[22] Temur! Saltanat ishlarida to'rt narsa-ga amal qilgin, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvarat-u maslahat; 3) qatiy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushay-monlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanat boshqa-rishda mashvarat-u maslahat va tadbirkorlik bilan ish yurgizgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo'lmagaysan. Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabr-u toqat bilan bo'lgay, yana bir qismi esa bilib-bilmaslikka, ko'rib-ko'rmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng shuni ta'kidlash lozim-ki, qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'lig-u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur. Vassalom”.[23]

Shayx Abu Bakr Tayobodiy hazratlari o‘z zamonasining mashhur, xurmatli kishisi edi. Faqatgina Amir Temur emas, balki o‘sha davrning eng buyuk olimlari, tariqat shayxlari ham uning suhbatida bo‘lishdan katta zavqu shavq olar edilar. Alisher Navoiy «Nasoyimul-muhabbat» asarida «Xoja Bahouddin Naqshbandiy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ubaydulloh Axror kabi avliyo bobolarimiz shayx Abu Bakr Tayobodiy bilan tez-tez suhbatlashib

[21] Hamdam Sodiqov “Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati” Toshkent.2024. 18-19-bet.
[22] **Abulmansur** (arabcha; zafar, g‘alaba qozonuvchi) – Amit Temurning ulug‘langan unvonlaridan biri.
[23] “Temur Tuzuklari”.Toshkent.2020. 14-bet.

turishardi», deb yozadi.[24]Shayx Abu Bakr Tayobodiy 1389-yil 28-yanvarda vafot etgan.

Sohibqiron hayotida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘lardan yana biri shubhasiz Sayyid Barakadir. Amir Temur piri Sayyid Baraka bilan ilk bor 1370-yili uchrashadi. Temur Amir Husayn bilan orasi buzilganidan keyin Kesh shahridan Balx tomonga qarab ketar ekan, Termiz shahri yaqinlarida kelajagiga katta ta'sir ko‘rsatadigan piri, buyuk avliyo Sayyid Barakaga duch kelib qoladi. Makkai Mukarramadan kelgan Sayyid Baraka avvalroq Amir Husayn bilan uchrashib, undan Makka va Madina vaqfiga yordam so‘ragan, Amir Husayn yordam bermaygina qolmay, Sayyid Barakaning xurmatiga yarasha muomala ham qilmagan edi. Ko‘ngli ranjigan shayx Termiz yaqinida Amir Temurga duch kelib qoladi. Amir Temurning go‘zal munosabati, muomalasi va ko‘rsatgan izzati tufayli Sayyid Baraka Allohdan payg‘ambarlar va xalifalarni vasila qilib, Amir Temurga yordam so‘rab duo qiladi, unga saltanat nishonasi bo‘lgan dovul va bayroq sovg‘a etib, sohibqironlik xushxabarini beradi. Amir Temur uning duosi va yaxshi tilaklarini xush ko‘rib, Haramayn (Makka va Madina) vaqfi uchun katta miqdorda pul berishni amr qiladi.

Manbalarga ko‘ra, Mir Sayyid Baraka 1403-yili olamdan o‘tgan. Abu Tohir Xoja Samarqandiy «Samariya» asarida shunday yozadi: «Mir Sayyid Barakaning qabri Samarqand shaxrida, Amir Temur Ko‘ragon maqbarasining ichidadir»,

Sayyid Baraka Mozandaronda vafot etganda Amir Temur uning muborak jasadini Samarqandga olib kelib, o‘zi uchun tayyorlatib qo‘ygan maqbaraga dafn qildiradi, o‘zi shayxning oyoq tarafiga dafn qilinishiga ishora qiladi. Darhaqiqat, Sohibqiron bu foniy dunyoni tark etganidan keyin ana shu joyga dafn qilindi.[25]

Xulosa: Sohibqiron hayotini yurishlari va zafarlarini tahlil qilar ekanmiz, erishilgan zafarlar hamda xalq orasidagi hurmat ehtiromni qozonilishining tag zamirida Avvalo Alloh taoloning bergan nusrati hamda sohibqironning ulamolarga xossatan o‘zining pirlariga ko‘rsatgan hurmat ehtiromi yotibti desak xato bo‘lmaydi.

Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur shunday degan: «Qanchadan-qancha mamlakatlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsam, qancha o‘lkalarni fath etgan bo‘lsam, barchasi shayx Shamsiddin Kulolning vositasi bilan, Amir

[24] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 338-339-bet.
[25] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 340-341-bet

Kulolning yordami va shayx Zayniddin Abu Bakrning homiyligi tufaylidir. Sayyid Barakaning yordami tegmasdan birorta g‘alabaga erishmaganman».[26]

Bundan ko‘rinib turibdiki Amir Temur bir umr olimu ulamolarga, ustozlariga hurmat-ehtirom ko‘rsatib, ularning ma'naviy dastaklari natijasida ulkan saltanat kurishga muvaffaq bo‘ldi. Soxibqironning takrorlanmas harbiy taktikasining, o‘ziga xos davlat idorasining tamal toshi esa shayxlarining ilohiy shuurlari ila qo‘yilganiga aslo shubha yo‘q.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Muhammad Ali “ Amir Temir solnomasi” Toshkent 2008.

2.Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023.

3.Fotih Duman “Pir” Toshkent 2023.

4.Amir Temur “Temur tuzuklari” Toshkent 2020.

5.Hamdam Sodiqov “Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati” Toshkent.2024.

## SOHIBQIRON AMIR TEMURNING O’ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O’RNI

**Xurramova Zaxro Farxod qizi**

Chirchiq davlat pedagogika unversiteti

Tarix yo’nalish talabasi

Z3804896@gmail.com

**Anotatsiya:**Ushbu tezisda sohibqiron Amir Temurning o’zbekiston tarixida buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida markazlashgan kuchli davlat barpo etib , mamlakatning siyosiy , harbiy,iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta xissa qo’shganligi haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:**sohibqiron,tarix,madaniyat,yuksak ,obida,sarkarda,o’zbek davlatchiligi.

*Buyuk tarixda hech narsa issiz ketmaydi.U xalqlarning qonida ,tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo’ladi.Shuning uchun ham u qudratlidir.Tarixiy merosni asrab –avaylash,o’rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo’nalishlaridan biridir.[1:5]*

*Shavkat Mirziyoyev Miromonovich,O’zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Sohibqiron Amir Temur O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin tutuvchi buyuk sarkarda va davlat arbobidir. U XIV asrda markazlashgan kuchli davlat barpo etib, mamlakatning siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga

[26] “Ajoyibul-maqdur”, 39-bet; Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 340-bet.

beqiyos hissa qo‘shdi. Amir Temur o‘zining iqtidorli harbiy strategiyasi va davlat boshqaruv tizimi orqali Movarounnahr hududini yagona markazga birlashtirdi.

Amir Temur shaxsni o’rganar ekanmiz ,yaqin o’tmishdagi qarashlarni haqiqatni buzib talqin qiluvchilarga qarama-qarshi o’laroq ,Amir temur tug’ma davlat arbobi .o’zbek xalqining baxtiga bitgan betakror yo’lboshchi edi, dep baralla aytishimiz o’rinli bo’ladi.Bejizga bobomiz ismiga “Sohibqiron” nomi qo’shilmagan ,uning muborak tavalludi sakkiz yuz yilda bir marta sodir bo’ladigan qutiblanish hodisasi sharofatidandir.

Sohibqironning bashariyat sivilizatsiyasiga qo’shgan eng buyuk xizmatlaridan biri shundaki , u feodal tuzumi doirasidagi eng mukammal milliy davlatchilik asoslarini shakillantirdi.Bu davlat tuzumi ko’pgina jihatlari bilan o’z davrining doirasidan ilgarilab ketgandi.Ulug’ saltanat keyinchalik o’zbek davlatchiligi uchun mustahkam asos ,poydevor bo’lib xizmat qildi.Sohibqiron saltanati o’zning xalqchiligi, fuqorolarning barcha qatlamlarga tayanganligi ,aql-idrok ,ilm-u hikmat,tafakkur nuridan bahra olganligi ,bahramand bo’lganligi ,adolatga suyanganligi , mukammal tuzuklar doirasida faoliyat yuritganligi ,demokratik an’analar hamda umuminsoniy qadriyatlarni ajoyib tarzda uyg’unlashtira olganligi bilan ajraliub turadi.[2:924,925]

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, Amir Temurni anglash-o’zligimizni anglash demakdir.Amir Temur shaxsini idrok etish-tarixni idrok etishdir.

Amir Temur tarixini o’qitish borasidagi har qanday yondashuv dastavval Amir Temur va uning merosini o’qitish bilan chambarchas aloqador.Bu masala faqatgina O’zbekiston uchun emas ,balki jahon tarixini o’z dasturlarining bir qismi sifatida o’rgatuvchi barcha mamlakatlar uchun dolzarb mavzudir.

Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyati Amir Temur XIV asrda Markaziy Osiyoda yirik harbiy yurishlar uyushtirib, o‘z davlatini barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. U kuchli markazlashgan boshqaruv tizimini yaratdi, bu esa keyinchalik o‘zbek davlatchiligiga asos bo‘ldi. Uning yurishlari orqali nafaqat Movarounnahr hududi mustahkamlandi, balki bu yerda davlat tuzilishi yanada barqarorlashdi.

Temuriylar davlatining boshqaruv tizimi Amir Temur o‘z davlatini idora qilishda qattiq markaziylashtirilgan boshqaruv usulini joriy etdi. U “Temur tuzuklari” nomi bilan mashhur bo‘lgan qonuniy asoslarni yaratdi. Bu tuzuklar davlatning siyosiy, harbiy va ijtimoiy jihatlarini tartibga solib, keyinchalik

o‘zbek davlatchiligi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.Ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish Amir Temur hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga ham katta e’tibor qaratdi. U Samarqandni ilmiy va madaniy markazga aylantirdi. Uning nabiralari, xususan, Ulug‘bek ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shib, o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin egalladi. Ulug‘bekning astronomiya va matematika sohasidagi ishlari butun dunyoda mashhur bo‘ldi.Temurning ilm fan, madaniyat ,o’zbek xalqi jibslashuvidagi sa’y-harakatlari va davlat boshqaruvi to’g’risida mutassil gapirilib kelindi,talay-talay asarlar yaratildi.G’arb-u sharq adiblar asarlarida uning ismi va jasorati yuksak ehtirom bilan etirof etildi.Jumladan , Salohidin Toshkendiyning “Temurnoma”,tirikligidayoq bitilgan, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma “ ,Gyotening “G’arb u sharq devoni asarida Sohibqironning jahon nigohida davlat arbobi ,muzaffar sarkarda , mohir diplomat va bunyodkor zot hamda fan va madaniyat homiysi ekanligiga alohida tahsin aytishadi.

Amir Temur shaxsiyati shu qadar mukammalki , bunday insonlar mana necha asrdirki qayta tug’ilmadi.Shuning uchun ham Temur tarixini o’rganar ekanmiz ,biz yoshlar qalbida bobomizga nisbatan chuqur ehtirom va hayrat uyg’onishi bejizga emas.

Bir tomondan qattiqqo’l Temur tursa , ikkinchi tomondan ilm ahlini qutlab ,himoyasiga olgan Temur turadi.Bir tomonda butun-butun shaharlarni zabt qiluvchi temur bo’lsa ,ikkinchi tomonda obidalar,madrasalar ,anhorlar qurdiruvchi va bog’lar barpo etuvchi Temur turadi.Bu murakkab shaxs muarrixlar uchun ham jumboq bo’lib qolmoqda [3:204]. Temur shu kabi ishlari bilar butun o’zbekiston tarixida , o’zbek davlatchiligida o’zining tom ma’noda katta xissasini qo’shgan shaxsdir.

Amir Temurning o‘zbek davlatchiligiga ta’siri Amir Temur yaratgan kuchli boshqaruv tizimi va harbiy siyosati keyinchalik o‘zbek xonliklarining tashkil topishiga zamin yaratdi. Xususan, Shayboniylar davrida Amir Temurning tajribalari asosida yangi davlat boshqaruv tizimi shakllandi. Temur tuzuklari o‘zbek davlatchiligining huquqiy asoslaridan biri sifatida uzoq vaqt davomida saqlanib qoldi.[4:]

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur O‘zbekiston tarixida ulkan o‘rin tutadi. U nafaqat kuchli va adolatli davlat arbobi, balki buyuk sarkarda sifatida ham yurtimiz tarixida muhim iz qoldirgan. Uning boshqaruvi davrida Markaziy Osiyo gullab-yashnadi, ilm-fan va madaniyat rivoj topdi. Temur asos solgan buyuk saltanat nafaqat harbiy qudrati, balki kuchli boshqaruv tizimi va adolatli qonunlari bilan ham ajralib turdi. Bugungi O‘zbekiston mustaqilligini

mustahkamlashda, milliy g‘urur va tarixiy merosni asrab-avaylashda Amir Temur shaxsiyati muhim rol o‘ynaydi. U xalqimiz uchun buyuk o‘tmish timsoli va ilhom manbai bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1.O.Salimov,M.Bekmurodov,N.Xalilov va boshqalar.Saodat yo’li.-T: “Ta’lim nashriyoti.Toshkent -2016.240 b.

2.H.Ibrohimov.”Sohibqironni anglash”-T:”Fan va Texnalogiya “2014-y 1028 b

3.A.Saidov ,G”. Mirzo.”Amir Temur g’arb adiblari nigohida “-T:”DAVR PRESS”HMY,2016-224 b

4.Mo’minmirzo Xolmo’minov.Buyuk Sohibqironning davlat boshqaruvi borasida fikr –mulohazalri.”Proceeding of International Conference on Modern Sciens and Scientific Studies” jurnali 2022/10/20.https://scholar.google.com.

5.Asal Farxod qizi Xayriddinova , Mo’minmirzo Zokir o’g’li Xolmo’minov.SOHIBQIRON AMIR TEMUR TUZUKLARINING BUGUNGI KUNDA TUTGAN O’RNI.”Oriental Art and Culture” jurnali.Qo’qon-2022 https://scholar.google.com.

## ABDURAUF FITRATNING HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR

***Allamurodov Eldor Safarqul o‘g’li***
*Chirchiq davlat pedogogika universiteti*
*Tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya**. Abdurauf Firatning hayoti va ijodi, Fitratning Munozara asariga bir nazar, Abdurauf Fitratning Qatog`onga uchrashi sabablari va unga qo‘yilgan soxta ayblar, Jadidshunos olimlarning Abdurauf Fitratning asl tarixini yaratishdagi olib brogan ilmiy ishlari.

***Kalit so’zlar***: Abdurauf Firat, Fayzulla Xo‘jayev, Stalin,Begali Qosimov, Qahramon Rajabov Dilnoza Jamolova, Turkiston, Buxoro, Samarqand, jadid.

XX asrda Markaziy Osiyodagi arzon xomashyo va ishchi kuchidan foydalanish uchun bosqinchilarning terror tegirmoni tinimsiz ishlab turishi kerak edi. Bu tegirmon ozodlik va ilmga intilgan odamlar qoni bilan yurib turgan. 30-yillarda otilgan o‘qlar jadidchilik harakatining yorqin vakili Abdurauf Fitratni ham chetlab o‘tmadi.Jadidshunos Zaynobiddin Abdurashidov ta’biri bilan aytganda, Fitrat 20-asrning qomusiy olimi bo‘lishdan tashqari, yaxshi siyosatchi ham edi. Turkistonliklar ilmli bo‘lishini va o‘z yeriga o‘zi egalik qilishini xohlagani, Fitratning siyosiy, ilmiy va badiiy

faoliyati asosi bo‘lgan. Shuning uchun ham u Stalin qizil terroridan omon qolmagan.

“Otishga hukm qilinishidan oldin unga shunday ayblovlar qo‘yilgandiki, ularni bajarishga bir odamning umri kamlik qiladi”, – deydi Fitratning mahbuslik anketasi bilan tanishgan tarix fanlari doktori Dilnoza Jamolova.

Buxorodagi Mir Arab madrasasida o‘qigan Fitrat shu yerdan islohotchilik harakatlariga qo‘shiladi. Buxorodagi bilimli yoshlar qatori “Tarbiyai atfol” jamiyati ko‘magi bilan Istanbulga o‘qishga jo‘naydi.

Fitrat Turkiyadan islomchilik, turkchilik, usmonchilik g‘oyalari bilan to‘yinib, Buxoroga qaytadi va jadid maktablarini ochadi. 1917 yildagi inqiloblar natijasida Oq podsho ag‘darilgach, Buxoroda ham islohotlar boshlanadi. Jadidlar amirdan islohotlar o‘tkazishni talab qilib, namoyishlarga chiqadilar.

Dilnoza Jamolovaning yozishicha, Fitrat “Yosh buxoroliklar” harakatining mafkurachisi va g‘oyaviy rahbarlaridan biri bo‘lgan. Harakatning Fitrat boshchiligidagi so‘l qanoti islohotlar uchun bo‘lgan namoyishlarda qatnashgan. Amir qo‘shinlari namoyishni bostirgach, jadidlarning bir guruhi Samarqandga jo‘naydi. Jadidlar orasida bo‘lgan Fitrat Samarqandda butun Turkiston jadidlarining asosiy nashri bo‘lgan “Hurriyat” gazetasida muharrirlik qiladi.

**Rossiya imperiyasi hududiga olib kirish taqiqlangan asar**

“Munozara” – Fitratning eng mashhur asarlaridan. Asar Istanbulda chop etilgan va u Rossiya imperiyasi hududiga olib kirish taqiqlangan kitoblar qatorida bo‘lgan.“Asarga taqiq Buxoro amiri tomonidan emas, rus hukumati tomonidan qo‘yilgan. Peterburgda xorijda nashr etilgan asarlar va ularning maxsus ro‘yxati bo‘lgan”.“Munozara”ning Buxoroga olib kirilishi samarqandlik Abduqodir Shakuriy ismli maktabdor bilan bog‘liqligi aytiladi. “Shu kishi, – deydi Abdurashidov, – Istanbulga borganda, choponining ichki tarafiga kitobni yashirib, 10–15 dona olib keladi. Va Hoji Muin tomonidan forschadan o‘zbekchaga tarjima qilinadi”.

*“Uyalmaysizlarmi, har kuni nasroniylar otash aroba, o‘t-kema va teleg‘raf simlari kabi ming tur hunarlar zohir qilmoqdalar, bizning sanoatimiz sayr aravacha va sopol oftobalar bilan chetlanmoqda. Tfu, bu qadar qaro kunimizga, eshig-u devordan ham xijolat chekmog‘imiz lozim”. (“Munozara” qissasidan parcha)*

“Jadidlar merosi o‘zbek tilining bugungi muammolari yechimida ham qo‘l keladi. 1920 yilda Buxoro va Xivada tuzilgan hukumat qo‘g‘irchoq edi. Buni yaxshi tushungan Fitrat Fayzulla Xo‘jayev bilan Buxoroda haqiqiy, mustaqil

hukumat tuzish umididan aslo voz kechmadi. Fitrat nozir, nozirlar sho‘rosi raisi o‘rinbosari sifatida maorif, matbuot, madaniyat sohasida katta ishlar qildi, degan so‘zlarni aytgandi fitratshunos Begali Qosimov.

1921 yilda turk tilini davlat tili deb e’lon qilish, yozuvni isloh qilish, tilni soflashtirish masalalarida Fitrat tuzgan “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti tashabbuskorlik qilgan.

“Fitrat “Sarf” va “Navf” kitoblarida juda ko‘p til terminlarini taklif qilgan. Ammo negadir ularning ko‘pchiligidan bugun foydalanmaymiz. Agar Fitrat va Behbudiy taklif etgan usullar bilan qisman ishlasak ham, tilimizning rivoji, bugungi kundagi holatidan olib chiqishga katta turtki beradi”

*“Hozirda 40 million ingliz 400 million hindiy va afrikaliklar ustidan hukmdor. Chin hukumati 400 million aholisi bilan yaponning hiyla-nayrangi o‘chog‘iga aylangan. 60 million olmonlar 2 zaif davlat Avstriya va Turkiyani yonlarig‘a olib, aholisi 750 millionga teng keladigan 7 davlat bilan urush qilyapti. Kishining nazdida ajib va g‘aroyib ko‘rinadigan bu voqealar tarbiya ta’siridandir, zero bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetkazishdir.*

*...Biz turkistonliklar farzandlarimizni eshak va qo‘ylarimizdan kamroq tarbiyalaymiz. Kimning uyida moli bo‘lsa, tekshirsa ko‘radiki, yil davomida uning mollaridan bittasi ham kasal bo‘lmagan. Ammo farzandi hech bo‘lmasa, 3 marta xastalikka chalingan”. (“Oila” asaridan parcha)*

1937 yil 24 aprel kechasi Toshkentning Guliston mahallasidagi 116-uyning darvozasi bemahal taqillaydi. Bunday yo‘qlovning xosiyatsizligini uy egasi yaxshi anglardi. O‘sha kecha, Dilnoza Jamolovaga ko‘ra, Fitrat O‘zbekiston prokurorining ruxsati bilan Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘limining boshlig‘i Davlat xavfsizligi leytenanti Og‘abekov tomonidan hibsga olinadi. Unga quyidagi ayblar qo‘yiladi.

1. “Aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti “Milliy ittihod”ning a’zosi”.

2. “Cho‘bonzoda bosh Ozarboyjondagi aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti bilan Sovet Sharqi respublikalarini Sovet Ittifoqidan ajratib, burjua Turon davlatini barpo qilish maqsadida birlashgan O‘zbekistondagi aksilinqilobiy tashkilotning rahbarlaridan biri”.

3. “Yosh adabiy xodimlarni aksilinqilobiy millatchilik tashkilotiga jalb qilgan, ularni aksilinqilobiy millatchilik ruhida tarbiyalagan”.

4. “Aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi asarlar, poemalar yozgan”.

“Fitratning tergov jarayonlari bilan bog‘liq hujjatlar DXX arxivida 4269-hujjat ostida saqlanadi. Bu hujjat Begali Qosimov, Tarix instituti bosh ilmiy xodimi Qahramon Rajabov tomonidan o‘rganilgan.

Fitratga qo‘yilgan ayblovlarni bir shaxs jismonan bajarib ulgurmaydi. Masalan, maslakdoshlariga qarshi ko‘rsatmalar bergan, otib o‘ldirilgan BXSRning 11 nafar rahbarlari haqida ham go‘yoki Fitrat ma’lumot bergandek unga imzo qo‘ydirib olinadi”, – deydi fitratshunos Jamolova.

1938 yildan boshlab Fitratni tergov qilish yana boshlanadi. Endi u Angliya va Germaniya bilan hamkorlik qilib, Turkiston mintaqasida sovetlar hokimiyatini tugatish uchun ulardan yordam so‘raganlikda ayblanadi.

“Vaholanki, – deydi Jamolova, – bu paytda Fitrat siyosatdan ancha uzoqlashgan, ilmiy tadqiqot muassasasida faoliyat olib borayotgandi”

Stalin vafotidan keyin, 50-yillar o‘rtalarida ziyolilarni oqlash harakati boshlanganda, Fitratning rafiqasi Hikmatoy opa murojaati bilan DXX hujjatlari qayta tekshiriladi.

Dilnoza Jamolovaning aytishicha, o‘shanda bir qiziq hujjatga duch kelinadi. Unda 1938 yil oktyabrda Fitrat qamoq jazosiga hukm qilingani, jazo muddatini o‘tayotgan paytda – 1944 yil 3 noyabrda qamoqda kasallikda chalinib vafot etgan, degan ma’lumot taqdim etiladi. O‘sha paytda Hikmatoy bunday noaniqlik sababini bilish uchun hukumatga qayta murojaat qiladi va shunday javob oladi:

“1937-38 yillarda juda ko‘p kishilar qirg‘in qilindi. Va biz bularni 1945 yilgacha jazolash haqidagi hujjatlarni sochib tashlashga majbur bo‘ldik”.

“30-yillarda Toshkentning Bo‘zsuv kanali yonidagi jarlikda ko‘plab millat oydinlari otib o‘ldirilganini u yerda olib borilgan qazishlar jarayonida mingdan ziyod ziyolilarning suyak qoldiqlari topilgani ham isbotlaydi. O‘zbekiston SSR hukumatining o‘n minglab milliy kadrlari qatag‘on qilinmaganda O‘zbekistonning ozodlikka erishishi 50 yil oldin amalga oshgan bo‘lardi”, – deydi fitratshunos olima.

Hamma farzandlar ham umrini xalqining baxt-saodatiga bag‘ishlayvermaydi. Vatanparvarlik – vatanni tamasiz sevishdir. Fitrat Turkistonini shunday sevdi, ardoqladi. Juda qattiq qarshiliklarga uchrashiga qaramay, oxirgi nafasigacha Vatanini bosqinchi kishanlaridan ozod holda ko‘rishni istadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begali Qosimov. Bibliografik ko‘rsatkich. T.: Universitet, 2002

2. Begali Qosimov. Maslakdoshlar (Behbudiy, Ajziy, Fitrat). T. Movoraunnahr, 1994-yil

3. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. T.: Universitet, 2002

4. Dilnoza Jamolova Buxoro amirligidagi Jadid maktablari.T.2013.

## AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI XUSUSIYATLARI

***Bo‘riyev Sardorbek Elmurod o‘g’li***
*Chirchiq davlat pedogogika universiteti*
*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya**. Amir Temur diplomatiyasi, uning o'ziga xos jihatlari, ushbu maqola Amir Temur diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati haqida yozilgan bo‘lib, unda Amir Temur siyosati chet davlatlar bilan olib borilgan aloqalar va ular o‘rtasidagi savdo haqida yozib borilgan.

***Kalit so’zlar***: Amir Temr diplomatiyasi, diplomatiya o‘rganilishi,tadqiqotchilar fikri, elchilik aloqasi, Misr bilan aloqasi, Fatix al-guveyli fikri, siyosatdagi o‘rni.

Amir Temur davri diplomatiyasini o‘rganish milliy davlatchiligimiz tarixi va mohiyatini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu olimlar tomonidan ishlab chiqilgan, o‘rganilganiga qaramay,uning barcha muammolari hali to‘liq ochin berilmagan.Xususan,uning o‘ziga xos xususiyatlari va davlat boshqaruvini takomillashtirishga olib kelgan nazariy asoslari to‘liq tahlil qilinmagan. Amir Temur diplomatiyasida tinchlik, o‘zaro hurmat,raqibga shavqat qilish va unga katta imkon berish, har qanday og’ir sharoitdaham elchini qadrlash,diplomatik qoidalarga qa’tiy amal qilish,inson hayotining dahlilsizligiga, gumanizm g’oyalari mustahkam bo‘lganligini ko‘rsatadi deb[1]Shohistaxon O’ljayevaning ’’Amir Temur diplomatiyasi’’ kitobida.

Amir Temur diplomatiyasida “Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o‘ylab ish qilish qurol kuchidan kura o‘n baravar foydaliroqdir”, degan dono so‘zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so‘zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ajratish diplomatiya yo‘li bilan hal qilishni bildiradi.Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixida birinchi marta yagona siyosiy makonda ekanliklarini his qildi.Bu faqat savdo ulkan afzallikdagina emas, xalqlar hech qanday to‘sqinliksiz harakatlar, kelajakka yangi yo‘llarning ochilishida ham namoyon bo‘ldi.Uzaro ishonch, hamkorlik, umumiy murosaga kelish mumkinliga aminlik usha murakkab davr quvonchlari va azoblarida vujudgha kelgan asosiy qadriyatlardir.Buyuk strategist, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning kaliti, islohotchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va

madaniyatning homisi bo‘lgan Amir Te mur “Qonunlar va urf-odatlarga asoslangan’’ davlatni barpo etdi deyiladi. [2[

Hozirgi til bilan aytganda,bu bir diplomatiya edi.Bir-biriga dushman bo‘lgan tomonlarning diplomatlari takalluf bilan so‘zlashishlari, aslida bir-biriga pand berishning payida bo‘lishlari diplomatiya qoidalarida azaldan bor edi. Temurbek ham hayotiy tajribasi oshgan sari bu qoidalar bilan hisoblashib ish qilishi kerakligini o‘sha davr va tarixiy sharoit taqozo etardi. Har qalay, so‘nggi voqealarda Amir Husaynning Ilyosxo‘ja bilan maxfiy ittifoq tuzishi, ikkovi birgalashib Temurbekni mahv etishlari mumkinligi na bu haqdagi avvalgi taxminlar tasdiqlanmadi.To‘g‘ri, Amir Husayn Temurbek qo‘shiniga katta talofat yetkazishning boshqa makkor yo‘lini o‘ylab topdi. Ammo u Ilyosxo‘ja bilan til biriktirolmasligi a’yon bo‘ldi. Kaltabin Husaynbek yomon oqibatini o‘ylamay xon avlodidan bo‘lgan Iskandar o‘g‘lonni va vaeir Hamidni nohaq qatl ettirgani endi uning Ilyosxo‘ja bilan til biriktirishiga mone’lik qiladi. Ayniqsa, vazir Hamidning ukasi Shimgun No‘yon Ilyosxo‘janing bosh vaziri, yetakchi sarkardasiga aylangani va Amir Husayndan akasining xunini talab qilishi Loy-jangida ma’lum bo‘ldi.

Iskandar o‘glonni o’ldirgani uchun ham Amir Husayn xonlar avlodining xundor dushmaniga aylangan edi. Buning uchun ertami-kechmi undan qasd olishlari mumkin edi deyiladi [3], Pirimqul Qodirovning, ‘‘Amir Temur Siymosi‘‘kitobidan

Amir Temur diplomatiyasiga xos xususiyatlardan yana biri shundaki, u raqiblariga yozgan xatlarida odatda sharqona odob-axloq va asrlar mobaynida qaror topgan udumlardan chekinmagan Amir Temur boshqa hukmdorlarga elchilar yuborar ekan, ularga yuklatilgan vazifaning ahamiyatiga qarab o’z nomidan ish ko’ruvchi bunday odamlarning e’tiborli el-yurt ichida tanilgan, aql va zakovatli bo’lishiga katta e’tibor bergan.Sohibquron elchilarni tanlashda g’oyat ehtiyotkorlik ko’rsatgan, o’z a’yonlari ichidan eng sadoqatli, bilimdon va hushyor kimsalarnigina bu ishga loyiq ko’rgan. Mamlakat bo‘ylab shunday tartib o‘rnatilgan ediki, elchilarni yo‘lidagi shahar va qishloqlarning hokimlari kutib olar, aholi uylaridan gilamlar chiqarib joy solar ,dasturxon yozib mehmonnavozlik ko‘rsatar, tunash uchun munosib joy berar va yo‘lida davom ettirish uchun ot-ulov bilan ta'minlashar edi. Agarda Amir Temur kimni biror yerga yuborsa yoki uning qoshiga kimdir kelayotgan bo‘lsa, shu tarzda kutib olishardi va har kuni yangi ot bilan ta'minlashardi. Bu otlar aholi bor yerlardaham, yo‘q yerlarda ham amirning buyrug‘iga ko‘ra tayyor turardi, ularga qaraydigan odamlar tayinlanardi. Aloqa tizimida o‘rnatilgan bunday muntazam tartib nafaqat elchilarga qulay sharoit yaratdi, balki Amir Temur

bepoyon mulklarining har chekkasidan xabardor bo‘lib turardi. Amir Temur buyrug‘i bilan Ispaniya elchilarining Xitoy elchisidan yuqori o‘tqazilishi misolida bu davlatning tashqi siyosati yorqin ifoda topadi. Bu omil Amir Temurning yangi-yangi davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga katta ahamiyat berganini ko‘rsatsa, Xitoy bilan aloqalarning tarangligini ham namoyish etar edi.Demak, elchilarni qabul qilish marosimini davlatlararo aloqalarning xarakteri aks etgan ko‘zgu deb atasa ham bo‘ladi. Amir Temur o‘zaro savdo aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun turli mamlakatlarga o‘z elchilarini yuborar edi. U o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy, va madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga qat’iyat bilan yondashdi. Masalan, u savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish uchun Xitoy imperiyasiga 8 marta o‘z elchilarini yubordi.Uning saroyi turli davlatlardan kelgan elchilar bilan to‘la edi [4]

Amir Temur umrining ko‘p qismini jangu jadallarda o‘tkazdi. Yangi hududlarni egallagan va o‘lkalarni dushman tasarrufidan ozod qilganda, shu yerlarni obod qildi,shu bilan bir qatorda, dastavval kuch ishlatmasdan sulh tuzish yo‘li bilan chora ko‘rdi. Bu uning diplomatiyasidagi o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi. Nizolarni kuch ishlatmasdan hal qilish hozirgi zamon diplomatik munosabatlarining asosiy tamoyili hamdir. Islom Karimov ham “elchilarning yutug‘i urushni boshlamasidan turib uni yutishda” deb aytgan so‘zlari Amir Temurning diplomatik hislatini namoyon qiladi. [1] Shu bilan bir qatorda, Amir Temur o‘zining “Tuzuklari”da “qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda qilich ishlatmadim” degan so‘zlari fikrimiz,dalilidir. [5]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temurning diplomatiyasining asosiy xususiyati shundan iboratki, diplomatiyaning Sharq madaniyati bilan uyg‘unlashganidir. Undagi har bir harakat millatning an’ana, manfaat va qadriyatlariga binoan amalga oshirilgan. Hozirgi Sharq mamlakatlarida amalga oshirilayotgan diplomatik munosabatlarning Amir Temur diplomatiyasi bilano‘xshashligini payqash qiyin emas deb bilaman.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O’ljayeva Sh Amir Temur diplomatiyasi 2018 3-4-betlar

2. L.Tangriyevning ’’Amir Temur chet elliklar nigohida’’2009 8-betlar

3-,P.Qodirovning ,‘‘Amir Temur Siymosi‘’2007 60-61-betlar

4-. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T: O‘zbekiston, 2011. 13-bet.

5-A. Sog‘uniy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

# AMIR LASHKARBOSHI SHERMUHAMMADBEK G'OZIY

***Gulyamov Dostonbek Umid o'g'li***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Uneverseteti*
*Gumanitar fanlar fakulteteti*
*tarix yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** XX asr Turkistonda milliy istiqlolchilik harakati, Shermuhammadbek faoliyati, Shermuhammadbek boshchiligidagi istiqlol janglari, Shermuhammadbekning muhojirlikdagi hayoti va qo'rboshilar ichida tutgan o'rni.

**Kalit so'zlar:** qo'rboshi, Shermuhammadbek, bosmachi, Garbuva qishlog'i, Kobul hukumati, Turkiston muvaqqat hukumati.

Xalqimiz 1917-yilda sodir etilgan fevral oktabr o'zgarishlariga katta umidvorlik bilan ko'z tikkandilar. Biroq sovet hokimiyati o'rnatilib, mustahkamlana borgan sayin bolsheviklar dohiylarining ikkiyuzlamachilik, munofiqlik qiyofasi ham ochilib bordi. Natijada yuz minglab millatparvar, vatanparvar yurt kishilarini qo'lda qurol bilan sovetlar zo'ravonligiga qarshi kurashi boshlanib ketdi. O'lkada boshlangan Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning eng dastlabki qaynoq markazlaridan biri Farg'ona vodiysi bo'ldi. Bu harakatga xalq orasidan yetishib choqqan Kichik va Katta Ergashlar, Madaminbek, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon, Islom Pahlavon, Rahmonqul, To'ychi, Aliyor qo'rboshi singari taniqli rahnamolar yetakchilik qildilar. Shermuhammadbek Farg'ona vodiysida sovet rejimiga qarshi milliy ozodlik uchun kurashning ilk bosqichidan boshlab jang maydoniga kirgan. U Katta Ergash ( tahminan 1882 - 1921 ) va Madaminbek ( 1892 - 1920 ) kabi qo'rboshilarning o'rinbosari sifatida istiqlolchilarning tan olingan yirik lashkarboshisi edi. U Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi Garbuva ( Garbobo, Karbobo ) qishlog'ida beklar avlodidan bo'lgan Qo'shoqboy Xoji xonadonida 1893 - yilda tug'ulgan. Qo'shoqvoy xojining ota avlodlari Qo'qon xonlari huzurida vazirlik, beklik qilishgan bo'lsa onasi Oydin og'ocha Qoshg'ardan kelin bo'lib tushgan edi. Shermuhammadbek dastlabki ta'limni qishlog'ida keyin Marg'ilonda olgan. Shermuhamnadbek kamgap va adolatpesha shaxs edi, deb xotirlaydilar Farg'ons qariyalari. Madaminbek qizil armiyaga qarshi kurashdan chetlashgach, 1920 - yil erta bahoridan Shermuhammadbek Farg'onadagi qurolli harakatning Oliy bosh qo'mondoni qilib saylandi Anvar Posho (1881 - 1922) va Junaidxon (1857 - 1938) bilan uch tomonlama hamkorlik o'rnatildi. Shuningdek Shermuhammadbekning Sharqiy

Buxoro qo'rvmboshilari Ibrohimbek (1889 - 1932) va Fuzayl Mahdum bilan munosabatlari yaxshi bo'lgan. Afg'oniston va Turkiya bilan a'loqalar jonlangan.

Oltiariq tumanidagi G'oyibota (G'aribota) qishlog'ida 1920 - yil 3 - mayda Farg'ona vodiysi qo 'rboshilarining navbatdagi qurultoyi bo'ldi. Qurultoyda Turkiston turk mustaqil islom jumhuriyati yoxud Turkiston muvaqqat hukumati tuzuldi. Ushbu qurultoyda Shermuhammadbek hukumat raisi va Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilarning oliy bosh qo'mondoni qilib saylandi. Uning unvoni " Amir lashkarboshi Shermuhammadbek g'oziy bo'lgan. Shermuhammadbekning ukasi Nurmuhammadbek (taxminan 1899 - 1984) va Oloy vohasidagi qirg'izlarning yetakchisi Muhiddinbek (taxminan 1877 - 1922) uning o'rinbosarlari qilib tayinlandi. Shermuhammadbek va Nurmuhammadbekning xotiralari hamda Zakiy Validiy asarlariga tayanib Boymirza Hayitning yozishicha hukumat tarkibiga quyidagi 6 kishi kiritilgan " Sharmuhamnadbek - hukumat raisi va Oliy bosh qomondon; Mullajon Qori - xavfsizlik (ichki ishlar) vaziri ; Akbarjon Eshon - shayxulislom ; Abdusalom Qori - hukumatning bosh kotibi ; Nazirjon -moliya vaziri ; Mulla Xoji Niyoz - maxsus ishlar vaziri ". Shermuhammadbek tashkil qilgan 12 lar kengashi ham faoliyat ko'rsatgan bo'lib, Kengash a'zolari hukumatni boshqarish va urushni olib borish masalalari yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini ishlab chiqishgan. Bundan tashqari 14 kishidan iborat harbiy idora mahkamasi tuzildi. Bu mahkama o'z mashvaratlarida harakatning bo'lg'usi harbiy amaliyotlari bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni ko'rib chiqib tegishli qarorlar qabul qilgan. Mulla Umar, Jamol, Abdulaziz va Abdusalom qozilardan iborat qozixona mustaqil sud idorasi mahkamasi ham faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek mustaqil sud idorasiga qo'shimcha ravishda 88 kishilik parlament - Sho'ro ham tashkil qilingan bo'lib. Sho'ro a'zolari o'qimishli va nufuzli kishilar hisoblangan. Ma'lumot o'rnida aytish joizki Turkiston turk mustaqil islom jumhuriyatining o'z bayrog'i bo'lgan. Shermuhammadbek aholidan olgan soliqlar sovet hukumati oladgan soliqlar va tushumlardan bir necha marta kam bo'lib zaruriy ehtiyojlar hamda qurol - yarog' sotib olish uchungina aholidan olingan xolos. Qo'rboshilar va yigitlarning oziq - ovqat ta'minoti esa ular joylashgan qishloqlar ahli zimmasida edi. Qo'shindagi yigitlarning salomatligiga marg'ilonlik Mirzaxon va oltiariqlik Ergash tabib boshchiligidagi xalq tabiblari javobgar bo'lgan. Shuningdek 200 dan ortiq yigit otlarni parvarish qilish bilan maxsus shug'ullanib turgan. Shermuhammadbek qo'shinida chiniqqan saralangan yigitlardan iborat alohida guruh bo'lgan.Shuningdek uning qo'shinida zambarak va miltiqlar yasash, o'q dori ishlab chiqarish hamda qurol yarog'larni tuzatish ishiga marg'ilonlik miltiqsoz usta Axrorxo'ja Eshon va

Shahrixonlik Sulaymon Eshon, hamda Germaniya va Avstriyadan kelgan nemis mutaxasislari rahbarlik qilgan. Shunday qilib, Shermuhammadbek rahbarligi ostida Farg'ona vodiysidagi butun qo'rboshilar yaxlit kuch bo'lib uyushdi. Oziq ovqat razvyotkasi natijasida Turkiston ASSR MIK raisi Inomjon Xidiraliyevning ta'kidlashicha 1920 - yil sentabrda, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda bosmachilar soni 70000 kishiga yetdi va bu holat kuchli sarosimalik tug'dirgan. Andijon viloyati davlat arxivi hujjatlarida keltirilishicha, Farg'ona armiya gruppasi inqilobiy harbiy kengashi (PBC) tomonidan 1920 - yil 13 - oktabrda chiqarilgan 55 - buyruqda Farg'ona vodiysidagi 22 ta qo'rboshining boshi uchun katta miqdorda to'lov belgilandi. Xususan Shermuhammadbekni boshi uchun 15000 rubl belgilangan. Aynan ushbu holat ham sovet rejimi qo'rboshilarga qarshi shafqatsiz qatag'on va terror siyosiy yo'lini tutganligini yaqqol ko'rsatadi. Farg'onavodiysidagi istiqlolchilar 1921 - yanvar sentabr oylaridagi janglarda 2500 yigitlaridan ajralishdi. Shu yil dekabr oyi boshlarida Shermuhammadbek Oloy vohasi orqali Sharqiy Buxoroga o'tdi va Ibrohimbek qo'rboshi o'rtasida ( keyinchalik Anvar Posho bilan ham ) muloqotlar bo'lganligini ayrim tarixiy adabiyotlar tasdiqlaydi. Lekin Qorategin bekligida Fuzayl Mahdum bilan ba'zi nizolar ham yuzaga keladi. Natijada Shermuhammadbek 1922 - yil yanvari boshlarida Qorategin bekligidan dovon orqali Farg'ona vodiysiga qaytadi. 1922 - yil dekabr oyida qizillar va istiqlolchilar to'qnashuvida 1582 nafar istiqlolchilaro'ldirildi. Buning ustiga Farg'ona xalqi 5 yil davom etgan uzluksiz janglardan charchagan edi. Shermuhammadbek boshchiligida tuzilgan Turkiston muvaqqat hukumati 1922 - yil oxirida tarqalib ketishga majbur bo'ldi. Shermuhammadbek 1922 - yil dekabrning so'ngi kunlarida ukasi Muhammadbek va qo'rboshi To'xtasin Maqsud bilan 450 - 500 yigitdan iborat guruhni olib oldin Buxoro respublikasiga 1923 - yil bahorida Afg'onistonga o'tib ketdi. Kobulning rasmiy hukumati sovet Rossiyasi tazyiqi bilan Shermuhammadbek va uning ukasi Nurmuhammadbekka noxush munosabatda bo'lgan. 1927 - yili Kobulda aka uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek farg'ona vodkysidagi istiqlolchilik harakati to'g'risidagi o'z xotiralarini andijonlik kotib Abdulxay Maxdumga aytib turib yozdiradi. Keyinchalik bularning bir qismi R. Shamsuddinov tomonidan O'zbekiston matbuotida ham e'lon qilindi. Shamsuddinov yozishicha "... Afg'onistonda Omonullaxon, so'ngra Nodirxon podsholik qilgan davrda Afg'oniston hukumati sho'rolar bilan a'loqani uzmaslik siyosatini olib borardi. Harholda bu hukumat Shermuhammadbekka bir ming afg'oni oylik berib turdi. Yer ham berdi. Shermuhammadbek keyin bu yerlarni hukumatga qaytargan. Shermuhammadbek muhojirlikda ham Turkiston

mustaqilligi uchun kurash g'oyasidan voz kechmadi. U Afg'onistondan kichik qo'shin bilan Vaxsh daryosi orqali Sharqiy Buxoroga o'tmoqchi bo'lganida sovet aviatsiyasi yordamida ortga qaytarilgan (1929 -yil 15 - aprel) Shermuhammadbek Afg'onistonda tuzilgan turkistonlik muhojirlarning " Vatanni ozod qilish " (ba'zi manbalarda " faol)" yashirin tashkilotining asoschilaridan biri bo'lgan. Kobul hukumati Shermuhammadbekni 2 - jahon urushi davrida 2 yilga (1943 - 1945) qamoqda ushlab turgan. Ozodlikka chiqqach Hindiston, so'ngra Pokistonning Peshovar (1951 - 1955) va Turkiyaning Adana (1955 -yildan umrining oxirigacha) yashagan. 1951 - yili Afg'onistondagi ota yurtlik Turkistonlik muhojirlar qon - qardosh Turkiyadan boshoana oldilar. Shermuhammadbek va ukasi Nurmuhammadbeklar bunda bosh - qosh bo'ldilar. Ular Pokistonning Peshovar shahrida turib vatandoshlarni Turkiyaga kuzatdilar. Jami 1111 kishi Turkiyaga jo'natildi. Shermuhamnadbek vaqtincha Peshovarda Nurmuhammadbek Karachida yashagan. Ular Sharqiy Turkistondan ham ko'plab vatandoshlarni Turkiyaga jo'natish bilan mashhur bo'ldilar. Shermuhammadbek oilasi haqida ma'lumot biroz kamroq. U Kobulda yashay boshlagan kezlarda 1924 - yili Andijondan Kobulga borib qolgan Zulfiniso ismli qizga uylandi. Ulardan Daronbek, Jahongir, Saodatxon, Xosiyatxonlar dunyoga keladi. To'ng'ich o'g'li Davronbek hozir Nyu - Yorkda Saodatxon Turkiyaning Adana shahrida istiqomat qilishyapti (2008- yil ma'lumotlariga ko'ra). Jahongir bilan Xosiyatxonlar Shermuhammadbek Kobuldaligida vafot etishgan. Ayoli Zufiniso 1972 - yil Adanada vafot etgan. Shermuhammadbekning o'zi 1970 - yil 10 - martda vafot etadi. Turkiya hukumatidan dunyoning boshqa joylarida yashayotgan vatandoshlardan jamoat va ilm arboblaridan taziyalar keldi. Bu qahramon sharafiga atalgan marsiyalar radio to'lqinlari orqali bir necha kun berib turildi. Uning tobuti butun Adana shahri bo'ylab Turkiya va Turkiston muhtoriyati bayroqlari bmva mungli musiqa sadolari ostida qabristonga eltib qo'yildi. Sovet rejimi davrida Shermhhamnadbek "Ko'rshermat " (janglarning birida ko'ziga o'q tekkan edi) deb tahqirlangan va uning faoliyati soxtalashtirilgan. Keyinchalik uning serqirra faoliyati to'g'risida Turkiya, O'zbekiston, Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatkarda kitoblar yozildi. O'zbek haykaltaroshi Abdumalik Ubaydullayev Shermuhammadbekning haykalini yaratdi.

**Xulosa**: qo'rboshilar haqidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu talonchilik yoki bezorilik harakati emas balki Turkiston xalqining o'z erki uchun ko'targan qo'zg'olonidir. Uning borishiga to'xtaladigan bo'lsak, misoli bir davlat kabi tashkil qilingan. Davlatning o'z ramzlari, qonunlari va hatto Shermuhammadbek joriy etgan pul birligi va qo'shini bo'lganligi e'tiborga

molikdir. Shermuhammadbekning dushmanlari ham unga baho berishda bor haqiqatni aytishga majbur bo'lganlar. Bunga sovet harbiy sarkardasi Zinovyevning " Urush harakatiga qurolsiz harbiy san'atdan bexabar qo'rboshilarni tezda yo'q qilinmayotgani bilan ayblamoqdalar Shermuhammad harbiy san'atini, qo'shin yigitlarini chapdast, tez, och bo'ridek tashlanishlarini ular bilan jang qilayotganlargina biladi. " degan so'zlari ham misola bo'ladi. Istiqlol sharofati bilan Shermuhammadbek kabi ajdodlarimiz haqida haqqoniy ma'lumotlarni olishga muvoffaq bo'ldik.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova " O'zbekiston tarixi " Iqtisod - Moliya. T. 2016 250 - b

2. Qahramon Rajabov. "Shermuhammadbek" risola AbuMatbuot-AbuMatbuot-Konsalt. T. 2011 4-5-b

3. Qahramon Rajabov "Turkiston Qo'rboshilari ". Fan.2022. 328 - b

4. Mansurxo'ja Xo'jayev "Shermuhamnadbek qo'rboshi" "Sharq". T. 2008. 132 - 133-b

## ULUG`BEK AKADEMIYASI

***Jumaboyeva Sevinch Baxtiyor qizi***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Uneverseteti*
*Gumanitar fanlar fakulteteti*
*tarix yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mirzo Ulug`bek temuriyzodalar ichida fan va madaniyat taraqqiyotiga eng ko`p va salmoqli hissa qo`shgan hukumdor.Ulug`bekning astranomiyasida ko`plab yulduzlar sayyoralar oy quyoshlarni joylashuvini o`rgangan .Ulug`bek astronomiya maktabi vakillarining tadqiqotlari natijasida bo`lgan buyuk meros- “Ziji jadidi ko`rogoniy” dan keying yuz yillar davomida ko`pgina yirik rasadxonalarning olimlari keng foydalanadilar.

**Kalit so`zlar**: ulug`bek akademiyasini dunyoga taratgan kishi , 1018 ta yulduzlar, falakiyot va matematika sohalari, Zijning uchunchi kitobi Ulug`bek akademiyasi istedodli vakili

Mirzo Ulug`bek Samarqandda birinchi falakiyotshunoslik akademiyasiga asos solgan siymo sifatida dunyoga nom taratadi. Ulug`bek akademiyasini tan olgan va dunyoga taratgan yozuvchi, faylasuf va tarixchisi Volterdir. Chindan ham Ulug`bek tomonidan qurdirilgan rasadxona o`z davrining akademiyasi bo`lgan. Samarqandda barpo etilgan Ulug`bek rasadxonasi ulkan madaniy yutuq bo`lgan ediki, jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan

rasadxona o`sha davrda ham undan ancha keyin ham yaratilmadi. Rasadxonada 1018 ta yulduz tasvirlangan katolog tuzildi. Yulduzlarning belgisi o`ndan to`qqizgacha aniq bo`lgan turish burchaklari sinuslari va tangenslari natural koordinatorlari qamrab olgan jadvallar ishlab chiqdi.

Rasadxonada Ulug`bekning bevosita rahbarligida o`tkazilgan ishlar uning matematika geometriya va falakiyotshunoslik sohasida chuqur bilimlar sohibi ekanligidan guvohlik hamda bir qancha amaliy vazifalar yechimi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Zijning uchinchi kitobi 13 bobdan iborat bo`lib faqat astranomiya masalalariga bag`ishlangan . Bunda quyosh oy va besh sayyoraning harakatlari haqida baxs yuritiladi. Zijning hamma asosiy jadvallari anashu bobga taluqlidir. Bu jadvallar orasida eng ahamiyatga molik bo`lgani 13 bobda keltirilgan. Ulug`bek Zijning undan avvalgi jildlaridan farqini ko`rsatish uchun shu yerda mazkur jadval boshida uning so`zlari bor.

Ulug`bek tashkil qilgan Samarqand madrasasi va ilmiy to`garage Sharq madaniyati va fani tarixida nihoyatda muhum ahamiyat kasb etadi. Turli xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta tasir ko`rsatadi. Bu yerda ko`plab buyuk siymolar shakillandi.

Shuni ham aytish kerakki, musulmon mamlakatlarida va umuman islom madaniyatida aniq fanlar ayniqsa astranomiya matematika nihoyat muhum o`rin tutadi. Dunyo astranomiya fani taraqqiyotida o`rta asr sharq astranomiyasi jumladan Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati alohida o`rin tutadi. Ulug`bek rasadxonasi va uning maktabining ilmiy merosi o`rta asrlarda astranomiyaning fan sifatida shakillanishida muhim bir bosqichni boshlaganligini dunyo olimlari tan oladi.

Salkam yetti asir davom etgan Sharq astranomiyasining jo`shqin faoliyati Ulug`bek va uning akademiyasining boy ilmiy merosi bilan yakullanadi. Mazkur rasadxona ishga tushirilganda uning bosh “teleskop”ining aniqlik darajasi atigi bir necha yoy sekundigacha borib, to optic teleskoplar ixtiro qilingan XVII asrga qadar uning samarali o`rta asr astranomlari uchun astranomik kuzatishlarda erishilgan natija.rasadxonaning asosiy quroli burchak o`lchaydigan juda ulkan asbob uning radiusi 40,212 metr yoyining uzunligi 63 metrga teng edi. Samarqand astranomlarining mahorati asosiy asbobining juda katta bo`lishi va tuzilishining mukammaligini taminlaydi. Bu esa quyosh oy va boshqa yoritgichlarni katta aniqlikda kuzatish imkonini beradi.

Ulug`bek raxbarligida Samarqand astranomlari Ziji Ko`rogoniy astranomik katologini yaratishdi.bu katolog Ulug`bekning yulduzlar jadvali

nomi bilan ham mashxur. Bu jadvallar olimlarning uzoq yillik mehnatlari mahsuli edi.

Ulug`bek rasadxonasi ko`plab yoshlarni ilmga chorladi.ulug`bekning o`zi ham shoh bo`lishiga qaramasdan ilimga oshno bo`lgan,unga ko`pincha janglarda qatnashish emas balki yulduzlarni tomosho qilish ularning turgan joylarini aniqlash sayyoralar quyosh va oyning harakatlarini kuzatgan ,shu asnoda ko`plab yutuqlarga erishgan. Ulug`bek rasadxonasi haqida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy shunday yozgan : Samarqandning shimoliy tomonid sal sharqqa og`ishgan joy tanlandi mashhur munajjimlar bu ishni boshlab yuborish uchun yulduz ko`rsatgan hayirli kunni aniqlab berdilar . bino qudrat asosi ulug`vorlik negizida pishiq qurildi. Baland qilib qurilgan bu muhtasham imorat xonalarining ichiga solingan rasm va beqiyos suratlarda to`qqiz falakning daraja daqiqa soniya va soniyaning bir ulushlari ko`rsatilgan.

Rasadxona hodimlari jumladan Ulug`bekning o`zi ham madrasada dars bergan. Madrasa dinining Quroni Karim hadis va tafsirdan tashqari tabbiy fanlar ham o`qitilar edi.

Ulug`bek akademiyasining vakillari ko`pchilik hisoblanadi, ulardan biri Ali Qushchi edi. Ali Qushchi o`z zamonining Ptolomeyi deb nom olgan edi. Uning falakiyot arifmetika va algebraga oid oltita asari bor. Ali Qushchi falsafa ilmining katta bilimdoni bo`lib, butun dunyo moddiy zarrachalardan tashkil topgan deb hisoblaydi. Ulug`bekning fojeali o`limidan keyin uning akademiyasi qiyin ahvolda qoladi. Ali Qushchi shunda ham shogirdlari bilan birgalikda ilmni o`rgatishda davom etadi ammo keyinchalik akademiyaham tarqalib ketadi. Ulug`bek jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo`shgan shaxs hisoblanadi.

Hozirgi kunda bu yodgorliklarni saqlab qolish uchun ko`plab ishlar olib borilmoqda. O`zbekistonda yodgorlik qoldiqlarini o`rganish va saqlab qolishga katta etibor berdi va 1949 yil rasadxona o`rniga marmar toshlardan yodgorlik o`rnatildi. 1964 yilda esa Ulug`bek yodgorlik muzeyi ochildi. Keyinchalik ham Mirzo Ulug`bek haqida ko`plab ma'lumotlar bor, ulardan birida shunday deyiladi :"Tirikligidayoq o`ziga haykal o`rnatib ketdi" deyiladi. Chindan ham juda ko`plab ishlarni amalga oshirgan. Millatimiz faxri bo`lmish Mirzo Ulug`bekning nomi asrlar osha avlodlarimizning dunyo qarashini shakillantirishda faxrlanish, vatanparvarlik g'oyasining manaviy ozuqasi bo`lib hizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

1.Vatan tarixi 1-kitob Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov Toshkent -2009

2.Ashraf Axmedov “Ulug`bek hayoti va faoliyati” Toshkent O`zbekiston SSJ fan nashiryoti 1991

3.Abdumannon Abduraxmonov “Ulug`bek akademiyas” Qomuslar Bosh tarixyati Toshkent

4.https://www.ziyouz.com maqolalar.

## TURKISTON JADIDLARINING ILM FANGA QO‘SHGAN HISSALARI

***Karimjonova Hilola O‘ktam qizi –***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Uneverseteti*
*Gumanitar fanlar fakulteteti*
*tarix yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotasiya:** Jadidlarning ta'limning ona tilida bo‘lishi (hech bo‘lmasa boshlanishi) to‘g‘risidagi fikrlari yakdilona bo‘lsada, ona tilining, millat tiling qandayligi masalasida ular dunyoqarashida katta tafovutlar bo‘lgan. O‘z davrida jadidlar ta’lim ona tilida bo‘lishini talab etgan bo‘lsalarda, ta'lim tizimidan fors va arab tillarini chetlashtirish taklifini kun tartibiga qo‘ymadilar.

**Kalit so‘zlar**: Ijtimoiy-siyosiy , hurfikrlilik, ziyoli, milliy, mafkura, jamiyat taraqqiyoti, salbiy hamda ijobiy taraflar, madaniy, davr matbuoti, nazariy fikr mulohazalar, Turkiston, ziyolilar.

Tarixga nazar solsak,sovet hukumati davrida o‘lka aholisi savodsiz omi debatalgan. O‘lka aholisining atigi 2% savodi chiqqan deb aytib o‘tilgan. Sovet hukumati bunda faqatgina rus tilini biladigan aholi sonidan kelib chiqib bu xulosani bergan edi. Shu bois jadidlar yurtimiz aholisini savodli, madaniyatli qilishni o‘z oldilariga muhim vazifa qilib belgiladilar. Jadidlar o‘lkada mavjud bo‘lgan madaniyatga yangi mazmun berishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishgan, shu maqsadda matbuot, maorif, adabiyot va san’at sohalarida islohot o‘tkazish g‘oyalarini ilgari surdilar.

Birinchidan, jadidchilik islomdagi taraqqiyparvarlik, ilm-fanga rag‘bat dunyoviylikni yangi davridagi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘ldi. Ikkinchidan, jadidchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga Sharq va G‘arb mamlakatlarida rivojlangan demokratik, milliy ozodlik, islohotchilik harakatlarining ta’siri kuchli bo‘ldi. Jadidlarning sa'y-harakati bilan qisqa bir davr ichida yangi jadid xalq maorifi va uning o‘ziga xos diniy- dunyoviylikdan iborat ta’lim-tarbiya usullari to‘la shakllandi. Bir so‘z bilan aytganda jadidlar xalqimizni savodli qilish yo‘li orqali mamlakatni har tomonlama mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan ustuvor vazifa asosida faoliyat olib borgan.

"Behbudiy afandi qo‘liga qalam olib. Turkistonning yangilik va yuksalishiga xormay -tolmay, talashib tortishib, xizmat qilgan birdan bir muharrir va yo‘lboshchi" Xoji Muin.

Millat bu- din va til birligi demakdir. Ushbu ikki narsadan biri yo‘qotilsa millat o‘zligini yo‘qotadi. Barcha millatlarning o‘tmishi, kelajagi til va dinga asoslangan. Taraqqiyot ham shu ikkisiga asoslangan.

Turkistonliklar orasida birinchi bo‘lib Behbudiy Gaspirinskiyning " Til birligi" fenomeni targ‘ib qildi. M. Behbudiy Turkiston uchun Turkiy bilan bir qatorda Forsiy tilning shevasini ilgari surdi. Masalan 1913- 1915- yillarda Samarqandda Behbudiy tomonidan " Oyina" jurnali faoliyatini ko‘rsatish mumkin.

Maktablar Turkiy va Forsiy tillarda bo‘lish kerakligi borasida argument keltiradi. Unga ko‘ra 1. Turkistonda aksariyat shahar aholisi Turkiy va Forsiy tilda bemalol so‘zlashgan. 2. Ba’zi hududlarda bu ikki tilning qorishiq shakli ishlatilgan. 3. Rasmiy idoralarda Arizalar Turkiy tilda yozilgan.4. Sha'riy fatvolar forsida yozilib Turkiy tilda qayd etilgan.

Behbudiy o‘zi keltirgan dalillarga tayanib Turkiston maktablarida ta’lim bu ikki tilda bo‘lishligi maqsadga muvofiq deydi. Behbudiy bu yerda Turkiy til deganda Gaspirinskiy taklif qilgan " Umum turkiy adabiy " tilni nazarda tutadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston maktablarida tahsil nafaqat turkiy tilda balki bir bir nechta tillarda bo‘lishini yoqlab chiqqan. 1910- 1913- yillarda bu borada faol ishlar olib borgan. U o‘zining maqolalarida maktablardagi ta’limdagi darsliklarga e’tiborini qaratadi. Yangicha fikr beradigan zamonaviy darsliklarni joriy qilishni ilgari suradi. Maktablarda Qozon hamda Orenburgda nashr etilgan darsliklar asosida ta’lim beradilar.

Millat o‘zligini anglagan holda, zamon bilan hamnafas ta’limda yangi innovatsiyalarni qo‘llashi ta’lim samaradorligini oshirishi aniq.

Abdulla Avloniyning -" Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot yo najot yo halokat yo saodat yo falokat masalasidir" degan so‘zlari har bir maktabda yozilgan.

O‘zbekiston respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning " Tarbiyani ta’limdan, ta’limni esa tarbiyadan ajratib bo‘lmaydi" degan so‘zlari ayni haqiqatdir.

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Milliy uyg‘onish adabiyotining yirik siymosi A. Avloniydir .

"Adabiyot yohud milliy she’rlar" nomli she’riy to‘plamida Vatan va millat dardini tarannum etdi.

" Na millat yodi moziying vor
Na istiqboling umidi
Vujuding panjayi vaxshad ichinda
Tor-u mor o‘lmush"

Avloniy nazlida Vatanning yangi avlodi onasidan ajratilgan poloponlar kabi erkidan ayro edi. Bu avlodda o‘tmishning yodi, kelajakning umidi yo‘q edi. Bunday ahvolga tushishiga millatning o‘zi ham aybdor. Chunki ilmdan yuz o‘girdi jaholatni o‘ziga yor deb bildi. Do‘st bilan dushmanni farqiga bormadi.Oqibatda inqirozga yuz tutdi.

Jadidlarimiz o‘z oldiga ustuvor qilib.

1. Maktab- maorif ishlarini isloh qilish
2. Matbuot, teatr orqali millatga o‘zligini anglatish
3. Milliy istiqlol va unga erishishda katta umid qildilar.

Jadidlar islomga putur yetkazadigan an' ana va odatlarga qarshi chiqdilar, jamiyat rivojiga xalal bergan barcha salbiy ko‘rinishlarga norozilik bildirdilar.

Jadidlar ilm- fanni taraqqiyotning va farovonlikning asosiy yo‘naltiruvchi kuchi hamda jaholatga qarshi kurashning birdan bir vositasi deb hisoblaganlar. Ularning fikricha chin musulmon bo‘lish uchun diniy bilimlar bilar birga dunyoviy bilimlarni ayniqsa , matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarni bilish zarur deb hisoblaganlar. Buni muqaddas Qur' on oyatlari va hadislar asosida tasdiqladilar.

Jadidlar mafkurasiga ko‘ra islom dini shaxsning ma’naviy kamoloti va jamiyat rivojida muhim o‘rin tutgan. Ular ushbu vazifani hal etmay turib, boshqa muammolarni bartaraf qilishning iloji yo‘qligini anglab yetganlar. Ana shu maqsadda 1909-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy, 1910- yilda Abdulla Avloniy, 1915-yilda Fitrat tomonidan islom tarixiga oid asarlar yaratildi.

Xulosa. Mana bugungi kunlar keldi. Vatani uchun, xalqi uchun, o‘zligi uchun jonlarini fido etgan bu jadidlarimiz faoliyati haqqoniy ravishda o‘rganildi, xalq dushmani deya taxqirlangan,qoralangan jadidlarimiz oqlandi, ijodlari tadqiq etildi o‘rganildi . Mana bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida " Jadidlar haftaligi " bo‘lib o‘tmoqda bularning bari jadidlarimizning vatani uchun qilgan ishlarini abadiylashtirish, oqlash, butun dunyo ularning kim ekanligi bilishi uchundir. Biz o‘zbek xalqi hech qachon ularning vatanimiz uchun qilgan yaxshiliklarini unutmaymiz va bunga haqqimiz ham yo‘q!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Karimov. I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent sharq.
2. Vatanparvar gazetasi (2021)

3. "Jadidlar" Mahmudxo‘ja Behbudiy.Yoshlar nashriyot uyi Toshkent2022

4. "Jadidlar" Abdulla Avloniy. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent 2022

5 . O‘zbekiston tarixi Soyibjon Tillaboyev, Akbar Zamonov Toshkent 2019

## TEMURIYLAR DAVRIDA TA’LIM

***Muxamedov Shahzod Shuhrat o`g`li***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Uneverseteti*
*Gumanitar fanlar fakulteteti*
*Tarix yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada Temuriylar davrida ro‘y bergan ta’lim o‘zgarishlari, u paytdagi siyosiy vaziyatning ta'limga ta’siri, Ikkinchi renessans, ikkinchi renessansga turtki bo‘lgan sabablar va Sharq madaniyatining yuksak davri yoshlarga ochib berilgan.

***Kalit so’zlar:*** Temuriylar, ta’lim, madaniyat, yulduzlar, Sharq, Renessans, Sharq adabiyoti, turkiy xalqlar.

Ma’lumki, mamlakatimiz, madaniyatimiz va ma’naviyatimiz tarixining eng qudratli, sifat jihatdan yangi davri Temur va temuriylar hukmronligiga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiyot, madaniyat, ma’naviyat yana qayta yuksalishi, ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishi turli qabila-urug‘lar, qavmlar, elatlar o‘rtasidagi mushtaraklikni kuchaytirdi, ularning milliy jipslashishini tezlashtirdi. Eski o‘zbek adabiy tili shakllana boshladi. U Taroz va Yassadan to Hirotgacha fors tili bilan bir qatorda umumiy aloqa va ijod vositasiga aylandi. Milliy ong, tafakkur, milliy adabiyot va san’at, ilm-fan rivojida kishilarning qaror topayotgan yangi tarixiy birligi ehtiyojlari o‘z aksini topdi. Biz bejiz bu davrdagi O‘rta Osiyo o‘troq turkiy xalqi tilini eski o‘zbek tili, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur ijodini mumtoz o‘zbek adabiyoti deb atamaymiz.Bugungi mumtoz o‘zbek adabiyoti, san’ati, ma’naviy madaniyatining oyoqqa turishi va rivojlanishida Temur va temuriylar davri hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mo‘g‘ullardan hokimiyat Temurga va temuriylarga o‘tgandan so‘ng ma’naviy hayotda hakikiy uyg‘onish davri boshlandi. Madaniyat, ma’rifat, hunarmandchilik, savdo-sotiq gullab yashnadi, shaharlar va qishloqlarda obodonchilik keng ko‘lamda olib borildi. Ariqlar, kanallar qazildi. Yangi erlar o‘zlashtirildi, bog‘lar barpo etildi. Karvonsaroylar, madrasalar, hammomlar, bozorlar, rastalar, saroylar, hashamatli imoratlar, suv quvurlari barpo etildi.

Temur bu ishlarni faqat ota yurtidagina emas, zabt etilgan mamlakatlarda ham amalga oshirdi. Yirik imperiyaga birlashgan xalqlar, ularning madaniyatlari o‘rtasida muloqot kuchaydi. Turli xalqlar madaniyatlari bir-birlaridan o‘rgandilar, bir-birlarini boyitdilar. Imperiya garchi harbiy yurishlar natijasida tuzilgan bo‘lsa-da, uning ichki boshqaruvida zo‘ravonlik qo‘llanilmas, balki Amir Temurning «Kuch – adolatda» tamoyili asosida ish yuritilar edi.

Amir Temur davlatida milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va bir-birini boyitishi aslo zo‘ravonlik natijasi emas, balki buyuk bunyodkorlik, xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi, hamkorligi natijasidir. SHu bois, biz yuqorida keltirib o‘tganimizdek, akademik N.I.Konrad Amir TemurniCHingizxonga emas, balki Aleksandr Makedonskiyga va Kanishkaga qiyoslaydi, ularning davomchisi deb hisoblaydi. Temur davridagi allomalar haqida gapirganda, avvalo, uning xos, yaqin kishilaridan bo‘lgan mavlono Abdulmalikni eslash kerak. U Burhoniddin Marg‘inoniyning avlodlaridan biridir. Abdumalik mudarrislik qilgan, she’rlar yozgan. Turkiy, arab va fors tillarini, turli ilmlarni mukammal egallagan shaxs bo‘lgan. U Temurning arab olimlari va fozilu ulamolari bilan suhbatlarida, bahslarida tarjimonlik qilgan. Temur bilan suhbat qurgan, bir qancha muddat uning qarorgohida yashagan buyuk alloma Ibn Xaldun va boshqa allomalar o‘z xotiralarida Abdulmalikka yuksak baho berganlar.

XV asrgacha mintaqamizda arab va turkiy tilda bitilgan asarlar, bu tilda ijod qilgan adiblar kam bo‘lmasa-da, ular orasida daho darajasidagi yirik ijodkorlar yo‘q edi. Lekin bu turkiy xalqlardan adabiyot soxasida bunday ijodkorlar XV asrgacha chiqmagan ekan degan tushunchani anglatmaydi.

Mirzo Bedil, keyinchalik Saido Nasafiy va boshqa ko‘plab klassiklarning nafaqat turkiyligi, hatto turkiylariing qaysi urug‘, qabilasidan ekanligi ma’lum. Jaloliddin Rumiyning ham Balx turkiylaridan chiqqanligi ehtimoldan xoli emas. CHunki uning turkiycha she’rlari ham bor. SHu sababli bizning madaniy merosimiz ko‘prok zullisonayndir.

Islom Karimovning biz, o‘zbeklar va tojiklar, aslida ikki tilda so‘zlashuvchi bir xalqmiz, degan gapida katta tarixiy haqiqat bor. Fors tilida ajdodlarimiz yaratgan durdonalar bilan biz bu tilda so‘zlashuvchi xalqlar kabi, xakqoniy ravishda faxrlanamiz. Temur va temuriylar davrida madaniyatimizning ikki-uch til vositasida rivojlanishi tabiiy edi. Temur tevaragida olimu fuzalolar, qatorida shatranj, nard o‘yinlari va turli sohalarning mohir ustalari ijod kildilar.

Ta’kidlash joizki, Samarqandga va mamlakatimizning boshqa shaharlariga o‘zga yurtlardan ko‘chirib keltirilgan hunarmandlar, san’atkorlar,

Olimlarning, ular oila a'zolarining haq-huquqlari cheklanmagan, ular qulga yoki haq-huquqsiz xizmatkorga aylantirilmagan.Balki mahalliy aholi bilan bir xil sharoitda bir huquqqa ega bo‘lib yashagan va o‘z kasb-kori bilan shug‘ullangan. Yuqorida iqtibos keltirilgan Ibn Arabshoh 12 yoshida Samarqandga oilasibilan ko‘chirilgan edi. Uning Samarqandda har tomonlama bilim olib, etuk tarixnavis, shoir va adib, ko‘p fanlar bo‘yicha chuqur bilimdon bo‘lib etishgani yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

U eski o‘zbek, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Turkiyda she'rlar yozgan, hatto o‘zining ayrim tarixiy asarlarini, Qohiraga mamluk sultonlari xizmatiga borganda, turkiy tilga she'riy usulda tarjima qilib, doston shaklida baxshilardek mamluklarga kuylab bergan. Temur faoliyatining bosh g‘oyasi va amaliy shiori «Kuch - adolatda» degan hikmatki, u umuminsoniy ahamiyatga ega. Bu g‘oya hozir ham, bundan keyin ham eng e'zozli umuminsoniy ma'naviy qadriyatlardan, axloqiy va huquqiy me'yorlardan biri bo‘lib qolajak. Rostgo‘ylik, haqiqatgo‘ylik, adolatparvarlik, yurti va fuqarolari to‘g‘risida qayg‘urish, mamlakati tinch va osoyishta, obod va farovon bo‘lishiga butun kuchg‘ayratini, aql-zakovatini yo‘naltirish kabi Temurning xos fazilatlari uning chinakam buyuk ma'naviy shaxs bo‘lishiga, buyuk yaratuvchi davlat boshlig‘i sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirishiga xizmat qildi. Mazkur fazilatlar uning avlodlariga ibrat bo‘ldi va hozirgacha ibrat bo‘lmoqda.

Davlat boshqaruvi, demokratiya tamoyillariga suyanish, ijtimoiy hayotni tartibga solish, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquq ustuvorligini ta'minlash, xalqaro munosabatlarning teng, ikki tomonlama manfaatdor iqtisodiy aloqalar va hamkorlik asosida kurishga oid bugun tan olingan umumbashariy me'yorlar, qadriyatlarning birortasi yo‘qki, u Temurning amaliy faoliyatida va siyosatida kurtak sifatida mavjud bo‘lmasa. Temurning davlat ishlarining 90 foizi kengashu mashvarat, faqat 10 foizi kuch qilich (ma'muriy yo‘l) orqali hal qilinishi lozim degan tamoyili o‘z davri uchun davlatni maslahat asosida boshqarish, ya'ni o‘ziga xos demokratik boshqaruv me'yoridir. Xalq norozi bo‘lgan, adolatni buzgan hokimlarni vazifasidan chetlashtirib jazolashi yoki mamlakatning bir sarhadidan ikkinchi sarhadiga boshiga bir lagan javohirni qo‘yib o‘tayotgan bolakayning biror dona javohiri yo‘qolmaydigan tartib o‘rnatilgani adolat va hukuk ustuvorligining amalda ta'minlanishidir.

G'arb davlatlari hukmdorlariga yozgan maktublarida mamlakatlar o‘rtasida urushlar emas, savdo-sotik rivojlanishi farovonlikka, obodonchilikka xizmat qilishi to‘g‘risidagi fikrlari va bunday aloqalarni o‘rnatish bo‘yicha bildirgan amaliy takliflari bugungi xalqaro siyosiy va iqtisodiy aloqalar negizida yotgan tamoyilning o‘sha davrda nish urgan kurtagidir. YUqorida

qayd etilgan tamoyillar, me'yorlar bevosita ma'naviyatning mohiyatli unsurlaridir. Ular turli tarixiy davrlarda turli ko'rinishlar kasb etishi, shaklan va mazmunan boyishi tabiiy. Bugun biz buning guvohimiz. Lekin faxr bilan e'tirof qilishimiz mumkinki, zamonaviy umuminsoniy kadriyatlarning muayyan qismi o'z ildizlari bilan bizning

Ajdodlarimiz ijodiga va faoliyatiga borib taqaladi. Temuriy shahzodalar, afsuski, o'zaro taxt va mansab talashib, mamlakat barqaror va bir tekis rivojlanishini ancha qiyinlashtirdilar. Lekin ularning aksariyati keng bilimli, adabiyot va san'atga qizikuvchan, o'zlari ijod borasida yuksak iqtidorli edilar.

SHu bois ilm-fan, san'at va din arboblariga homiylik qildilar. O'z mulklari, viloyatlari, yoki hokimiyat tepasiga kelib qolsalar, butun mamlakat miqyosida obodonchilik ishlari bilan shug'ullanishga, ma'rifatni qo'llabquvvatlashga intildilar. Ayniqsa SHohrux, Ulug'bek va Husayn Boyqaro shaxslari bu borada alohida ajralib turadi. Temur o'z vasiyatida to'ng'ich o'g'lidan to'ng'ich nabirasi Pirmuhammadni valiahd qilib tayinlagan edi. Ammouning avlodi bu vasiyatga amal qilmadi. Toj-taxt uchun kurashlar oqibatida Temurning kenja o'g'li SHohrux hokimiyatni qo'lga kiritdi. Ammo, otasi vasiyati bo'yicha davlat tepasiga kelmagani uchun bo'lsa kerak, otasining taxtiga o'tirishga jazm qilolmay, poytaxtni Hirotga ko'chirdi va Samarqandni o'g'li Ulug'bekka topshirdi. Bu hol uning ma'naviy-axloqiy fazilatining bir qirrasini ko'rsatib turibdi.

Samarqand va Hirot nafaqat temuriylar davlatining, balki butun islom madaniyati, ilm-fani va san'atining ikki markaziga aylandi. Samarqandda Ulug'bek atrofida o'sha davrning buyuk riyoziyotchi olimlari va astronomlari, muhandislari, turli fanlar bo'yicha boshqa olimlar to'plandi. Qozizoda Rumiy usmonli turk mamlakatidan, G'iyosiddin Jamshid Koshiy Erondan Ulug'bek oldiga keldilar va u bilan birga trigonometriya, geometriya va astronomiya sohasida, astronomik asboblar, globus yasash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazdilar. Keyinchalik mahalliy yoshlardan daho olim Ali Qushchi etishib chiqdi. Ulardan tashqari Muhammad Havofiy, Alouddin al-Buxoriy singari qanchalar iste'dodlar, atoqli olimlar Ulug'bek madrasasi va rasadxonasida faoliyat ko'rsatdilar, yoshlarga ta'lim berdilar, ilmiy kuzatishlar olib bordilar.

Samarqandda o'sha davrda jahondagi eng zamonaviy, mukammal observatoriya - rasadxona qurildi. 1018 ta yulduzning koordinatalari aniqlanib, jadvali tuzildi. U haqqoniy ravishda «Ziji jadidi Ko'ragoniy» yoki «Ziji Ulug'bek» deb ataladi. Ulug'bekning ilmiy maktabi al-Xorazmiy, al-Farg'oniy va ayniqsa alBeruniy ilmiy merosini chuqur o'rgandi, tahlil etdi, bu merosning haqiqiy vorisi, davomchisi bo'lib, ilm-fan, ma'naviyat tarixi sahnasiga chiqdi.

G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va boshqalarning yozib qoldirishicha, Beruniyning «Qonuni Mas’udiy» asari Ulug‘bek shogirdlari va hamkasblarining deyarli qo‘lidan tushmaydigan kitob, darslik bo‘lgan. Bu asarning turli boblari bo‘yicha munozaralar, ilmiy bahslar olib borilgan, ular og‘zaki va yozma talqin qilingan (hozirgi ilmiy referatlarning ilk ko‘rinishi).

Umuman Ulug‘bek qiziqishi va bilimiga ko‘ra, har jihatdan qomusiy olim bo‘lgan. Uning “To‘rt ulus tarixi” degan yirik asari (afsuski tugallanmay qolgan) mustaqillik yillari xalqimizga etib keldi. Ulug‘bek ilmiy dunyoqarash tarafdori, ayni paytda komil musulmon edi. U islom aqidalarini, Qur’on oyatlari va hadislarni ratsional talqin qilar, xurofotni, mutaassiblikni qabul qilmas edi.

Shu bois uni diniy mutaassiblar uncha xushlamaganlar. Bu Abdullatif ko‘rsatmasi bilan Samarqand ulamolarining Ulug‘bek taqdirini hal qilish borasida qabul qilgan hukmlarida yaqqol o‘z ifodasini topadi. Ulug‘bek maktabining yana bir dahosi –Ali Qushchining ilmiy xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak.

Ali Qushchi o‘rta asrlarda yurtimizdan dunyoviy ilm-fan, tabiatshunoslik sohasida chiqqan oxirgi qomusiy dahodir. U o‘z zamonasidagi dunyoviy ilmlarga oid deyarli barcha fanlarni puxta egallagan. U matematika va astronomiya fanlari rivojlanishiga buyuk hissa qo‘shishi barobarida mantiq, falsafa, grammatika va adabiyot nazariyasi, tabobat, fiqh, tarix va boshqa sohalarga bag‘ishlangan asarlarida haqiqiy ilmiy usulni, ratsionalistik tahlil va umumlashtirishni, ilmiy xolislikni (ob’ektivlikni) himoya qildi. Ilm – fanda, tafakkurda, dunyoqarashda Ulug‘bek tamoyillarini davom ettirdi va himoya qildi.

Ali Qushchi matematika faniga “musbat” va “manfiy” tushunchalarini kiritdi, o‘nli kasrlar nazariyasini boyitdi. Ayo Sofiya madrasasida bosh mudarris bo‘lganida 90 gradusdan kichik burchaklarning o‘tmas bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida bahslar yuritdi.

Keyingi holatni noevklid geometriyasiga taalluqli ilk olib borilgan tadqiqotlardan biri, deb baholash mumkin. Astronomiya sohasida esa u Ulug‘bekning o‘ng qo‘li edi. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” Ali Qushchi ishtirokisiz, balki tugallanmay qolgan bo‘lur edi. Uning sharhlarini arab tiliga tarjima qilib, butun jadvalga tartib bergan, Ulug‘bek qatlidan keyin saqlab qolib, butun dunyoga yoygan Ali Qushchidir.

Ulug‘bek o‘z atrofiga olimlar bilan birga iste’dodli shoir va bastakorlarni, adiblarni, me’morlarni, rassom va naqshkorlarni, xattotlarni va san’atning boshqa sohalariga oid ijodkorlarni to‘pladi. Mumtoz o‘zbek adabiyoti

shakllanishiga Navoiygacha zamin yaratganlardan biri atoqli shoir Sakkokiy Ulug‘bek atrofidagi ijodkorlardan edi. Hoji Ismatullo Buxoriy, Kamol Badaxshoniy kabi shoirlar, “ilmi hikmatda zamonasining yaktosi” Alouddin SHoshiy, mashoyix Hasan Attor kabi atoqli ijodkorlar Ulug‘bek davrida Samarqandning ma’naviy hayotini yuksaltirdilar. Buyuk faqih Abul Lays as-Samarqandiyning avlodlaridan xoja Fazlulloh Abulaysiy Alisher Navoiyga ikki yil dars bergan ulug‘ ustoz o‘z ijodiy faoliyatini Ulug‘bek davrida boshlagan. Ulug‘bek Samarqandda, Buxoroda, G‘ijduvonda oliy madrasalar (o‘sha dardagi universitet), boshqa shaharlarda ham ko‘plab maktablar va madrasalar qurdirdi. “Ilm olmoqlik har bir muslim va muslima uchun farz” degan hadisni o‘zi qurdirgan madrasasining tepasiga yozdirib qo‘ydi.

Ulug‘bekning bu ishlarini ma’rifat yordamida jaholatga, avj olib borayotgan mutaassiblikka qarshi kurashning o‘sha davrdagi namunasi deyish mumkin. U olimlar va talabalar bilan turli munozaralar, bahslar o‘tkazib turgan. Bu bahslarga o‘zi shaxsan rahbarlik qilgan. G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning otasiga yozgan xatida guvohlik berishicha, ba’zan u ataylab murakkab, chalkash, xato fikrni o‘rtaga tashlagan. Kimdir bu xato fikrni yoqlasa, uni fosh qilgan va tuzatgan.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR***

1. Амир Темур аждодлари (Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асаридан терма-таржима) / Форс тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳлар муаллифи О. Бўрийев. – Т.: Қомус, 1992.

2. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли. Таржимаи ҳол / Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. – Т.: Нур, 1992.–112 б.

3. Амир Темур Кўрагон. Тузуки Темурий / Табдил ва нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Бобобеков, Ҳ.Бобойев, А.Қуронбековлар. – Т.: Махпират номидаги Ўрта Осиё халқлари институти. 1999.

4. Амир Темур Кўрагон. Зафарнома / Сўзбоши, табдил муаллифлари Ҳ.Бобобеков, Ҳ. Бобойев, А. Қуронбеков. – Т.: Махфират номидаги Ўрта Осиё халқлари институти, 2000.

5. Амир Темур Кўрагон. Темур қиссаси / Бобобеков Ҳ., Бобойев Ҳ.,Қуронбеков А., Бобокалонов З., Мирзайев Т. – Т.: Фан, 2004.

6. Вамбери Х. Бухоро ёҳуд Мовароуннаҳр тарихи. Китобдан парчалар / Тўплади С. Аҳмад. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.

7. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи / Б. Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳрири остида. Форс тилидан Б. Аҳмедов, Н. Норқулов, М. Ҳасаний таржимаси. – Т.: Чўлпон, 1994.

## MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOVNING TA'LIMGA QO'SHGAN HISSASI

**Qo'chqorova Nozigul Husniddin qizi**
*Chirchiq Davlat Pedagogika Uneverseteti*
*Gumanitar fanlar fakulteteti*
*Tarix yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annatatsiya**: Ushbu maqolada Munavvar qori Abdurashidxonov ning hayoti,o'rta osiyo jadidchilik harakatidagi o'rni, birinchi o'quv darsliklarini yaratganligi, ta'limga qo'shgan hissasi haqida qisqacha ma'lumot olasiz.

**Kalit so'zlar** : millat, xalq, jamiyat, tafakkur, ma'rifat,g'urur, ta'lim – tarbiya, tarix, pedagogika, erk, ziyoliy, tanazzul, madrasa, Turkiston, inqilob, ijod, ulamolar, mutafakkirona

Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yil 4-noyabrda Toshkent shahrining Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilasida tug'ilgan. U oilada uchinchi o'g'il bo'lgan. Ilk saboqni ota-onasidan, mahalla maktabidan savodini chiqaradi. Fidoyi kishilarni el-yurt ham, tarix ham o'z yuragida asrab avaylaydi. Xalqimiz arzanda qilib avloddan avlodga uzatayotgan ana shunday siymolardan yana biri adib, shoir va pedagog, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxonov edi. O'lkada yuz berayotgan voqealar tufayli, xalqning ruhi tushib ketganini, ziyolilarning esa ma'na viy tanazzulga tomon yuz o'girayotganini ko'rgan Munavvar qori Abdurashidxonov bu holatlarning ijtimoiy ildizni tekshirishga urinadi. Ushbu urinish uning maktab va madrasa faoliyatini tamoman isloh qilish fikriga olib keldi. U madrasalarda asosiy darslarni arab tilida emas, balki ona tilida olib borish, diniy saboqlar bilan birga ijtimoiy fanlarni o'qitish masalasini ko'ndalang qo'ydi. Usuli jadid maktablari faoliyatini teran o'rganib, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish masalasini kun tartibiga chiqardi. Sababi, ongda, fikrlashda, maorifda o'zgarishlar qilmay turib siyosatda o'zgartirish qilib bo'lmasdi. Dushmanni yengish o'zini har jihatdan himoya qilishning eng asosiy quroli ma'rifatli odamlardan tashkil topgan yangi jamiyatni tashkil qilish edi. Bunga esa maktab va madrasa tizimida inqilob yasamay turib erishish mumkin emasdi.

Munovvarqori Abdurashidxonov 1901-yilda Toshkent shahrida ilk usuli savvtiya maktabini ochadi. Bu davrda Turkistonda, xususan, Toshkentda maktab ishi ishiga tatarlar bilan birga qrimlik muallimlar ham o'z hissasini qo'shganlar.

Munavvar qori Abdurashidxonovning bir qancha darsliklari :

" Adibi avval " ( 1907), " Adib us-soniy " (1907), " Usuli hisob ", " Tarixi qavm turk ", " Tajvid " ( 1911), " Javoiyji diniya ", " Tarixi anbiyo ", " Tarixi islomiya " (1912), " Yer yuzi " ( 1916-1917), 4 qismdan iborat " O'zbekcha til saboqlari " (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga ) singari qo'llanmalar tuzib, nashr etadi. Bu darsliklar 1907-1917- yillar oralig'ida ikki – uch, ko'pi to'qqiz – o'n martagacha alohida chop etilgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov ijtimoiy – pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullangan. Uning ixcham hikoyalari, talaygina she'rlari o'sha davrdagi matbuot va o'zi tuzgan, yozgan darsliklariga kiritilgan. Shuningdek, u o' tkir publitsist adib sifatida tanigan. Maqolalari inson va jamiyat, din va dindorlik, axloq, mustamlakachilik va hurriyat, ziyolilik masalalariga qaratilgan. 1904 – yildan boshlab ijtimoiy – siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1906 – yildan "O'rta Osiyoning umrguzorligi", "Taraqqiy" gazetaslarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida "Xurshid" gazetasini tashkil etgan. " Shuhrat " (1907), " Tujjor " (1907), " Osiyo" (1908) gazetalarini g' oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. So'ng " Sadoyi Turkiston " ( 1914-1915) gazetada mas'ul mharrir muovini, "Al- isloh" jurnali (1915 – 1917) da maxfiy muharrir, "Najot va Kengash " (1917 ) gazetalarida mas'ul muharrirlik qilgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov turli jamiyat va uyushmalar tashkilotchisi. U''Jamiyat Imdodiya " (1909 ), " Turon " (1913),"Turkiston kutubxonasi " (1914), "Umid " (1914), "Maktab " (1914), "Ko' mak'' (1921 ) jamiyat, tashkilot, shirkat va uyushmalarida muassis, muovin, rais bo'ldi.

Takidlash joizki Munavvar qor Abdurashidxonov " Туркестанский ведомости " gazetasining muxbiri G. Andreev bilan qilgan suhbatida usulli jadid maktablarining tashkil etilishi haqida to'xtalib, bunday deydi : "Shaxsan mening o'zim o'g'ir hayot yo'lini bosib o'tim. Biror narsani o'rganish uchun avval Toshkentga so'ng uzoq muddat Buxoro madrasalarida tehsil olishimga to'g'ri kelgan.Har holda, madrasalarda fanlarni uzoq yillar mobaynida o'qishimga qaramay, men hayot uchun zarur bo'lgan ko'p narsalarni ola olmadim ".Bundan ko'rinib turibdiki Munavvar qori yosh avlodni o'zidek qiynalishmasligi uchun jon-jaxti bilan harakat qilgan. 1893 – yildan Turkistonning Qo'qon, Samarqand kabi shaharlarida tatar muallimlari,

ularning shogirdlari tomonidan ochilgan usuli jadid maktablari rivojlanmagan iga, bir qancha kamchiliklardan tashqari, chor hukumatining yo'l bermaganligi sabab edi. Munavvar qori bunday vaziyatga e'tibor bermay, usuli jadid maktablari uchun suv va havodek zarur bo'lgan darsliklarni va dastur ishlashga kirishdi. Mktab o'quv tizimini o'rgana boshlagan Munavvar qori dasturni tobora takomillashtirib boradi. 1912 – yilga kelib o'quvchilarga husnixat, jung'oriya , islom tarixi, turk qavmlari tarixi fanlarini oshkora o'qitila boshlaydi, maktab ostonasiga qorovul qo'yilib, ijtimoiy sohalardan saboq beradi. U mahalliy o'qituvchilar orasida birinchi " Namuna " maktabini tashkil qiladi hamda rus tilini o'qitish masalasini hukumat oldiga ko'ndalang qo'yadi.

Sho'ro davrida u o'zining ochiq ma'rifiy ishlarini va yashirin siyosiy harkatlarini davom ettirdi. 1918 – yilning aprelida Turkiston xalq dorilfununing asoschisi va rektori etib saylanadi. Uning sa'y – harakati bilan 1918- yil 2-iyunda dorilmuallimin ish boshlaydi. U 1918 – yilda "Turk o'chog'i" ilmiy-ma'rifiy jamiyatini tashkil qiladi.

Munavvar qori Abdurashidxonov mafkurasi o'sha davrda taqiqlangan bo'lsada, u hali hamon o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Hamon uning qilgan ishlari qadirlanadi va boshlagan say harakatlarini davom etirishga va uchinchi renessansni davom etirishga biz yoshlar ma'sulmiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1."Tanlangan asarlar ".Toshkent "Manaviyat " 2003
2.Sirojiddin Ahmad. Munavvarqori Esse " Sharq yulduzi " jurnali 1992
3.Xolboev S. Munavvarqori "Fan va turmush " 1991
4.Uzm. Wikipedia. org

## SOMONIYLAR DAVLATIDA ILM-FAN, MADANIY HAYOT VA DIN

***Shavkatjonov Begzodjon Baxtiyorjon o`g`li***
*Chirchiq Davlat Pedagogika Uneverseteti*
*Gumanitar fanlar fakulteteti*
*Ttarix yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotasiya** Ushbu maqolada Somiylar hukmronligi davrida ilm-fanga qanday e'tibor qaratilganligi hususan ta'lim sohasida qanday islohotlar o'tkazilganligi hamda ushbu davrda dunyoviy fanlar bilan bir qatorda islom

ta'limoti va mafkurasining takomili yo'lida qanday ishlar amalga oshirilganligi haqida ma'lumot beradi

**Kalit so'zlar:** ilm-fan, ta'lim, islom ta'limoti, "Bayt ul-hikma", astronomik kuzatishlar, ma'muriyat, huquqshunoslik, Hurosonlik olimlar, arab tili.

Jadidlar ma’rifati haqida gap ketganda, dastaval Qrimlik Ismoil Gasprinskiyni (1852 -1914) tilga olish kerak[28]. U Rossiya musulmonlari orasida birinchi bo’lib «maktabi usuli jadid», ya’ni «yangi usul maktabi»ga asos soldi. Gaspirinskiyning ta’siri Turkistonga ham yoyila boshladi. Ushbu davrning ta’limtarbiyasi haqida gapirilganda albatta Turkistonda yetishib chiqqan Behbudiy,Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho’lpon kabi ziyolilarning faoliyatlariga to’xtalib o’tish joizdir. Jadidlar ham, eng avvalo, o’qitishning eski usuli yaramasligini, yoshlarga zamonaviy ilmlarni o’rgatish zarurligini tushindilar, o’quv dasturida ona tilidagi darslar nisbatini oshirish, ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg’ularini tarbiyalaydi, oxir-oqibatda esa bu yoshlarda milliy-ozodlik kurashi uchun zamin hozirlaydi, degan xulosaga keladilar. Ana shu harakat zamirida jadidlarning pedagogik qarashlari ham shakllanib, takomillashib bordi. Muhimi ularning pedagogik qarashlari ijtimoiy hayotning talabi, ehtiyoji orqasida tug’ildi.

Jadidlar, jadidchilik haqida so’nggi yillarda ko’plab maqolalar, ilmiy-tadqiqot ishlari yuzaga keldi, ancha narsalar oydinlashdi. Dastlab 9 ta boshlang'ich maktab ochish mo'ljallangan bo'lsa-da, aholi ehtiyojiga ko'ra, ularning soni 24 taga yetdi. Dorilfununning musulmon bo'limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undaga muallimlar soni 18 nafarga yetadi. 1918 yil 2 iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununining o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi -"Dorilmuallimin"ochildi. Unda Fitrat ona tilidan:Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shavqiy gigiyena, gimnastika va nemis tilidan,Rahimboyev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san'atdan, Rizayev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvar qori ona tilidan dars berishadi[29].Bu bo'limning ochilish marosimida Munavvar qori nutq so'zlab, inson ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdon uyg'onmasa na o'zini, na xalqni erkin muhofaza qila olmasligini, bu imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvar Qori Yevropacha usuldagi bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda asosan dunyoviy fanlar o'qitib, milliy ziyolilar tayyorlash g'oyasini ham ilgari suradi.

28 O'zbekiston tarixi:Yangi nigoh.Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.1-3 betlar.
29 Vatanparvar gazetasi (2021)

Bu qarashlarini- u 1923 yil iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma'ruzasida bayon etgan, 1923 yilda bu yangi usulda 30 dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilganligi ma'lum.Tarixda birinchi bo'lib, jadidlar o'quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo'yishni joriy etdilar.O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirganlar. Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zlari yaratdilar.

Xulosa qilib aytganda ,jadidlar yurtimizni mustaqil qilish uchun xalqni savodli qilishni maqsad qilib olganlar.Jadid ziyolilarimiz bilan haqli tarzda g'ururlanish va iftixor tuyish hissi millatning ko'ksini yuksaltiradi, ulug' maqsadlar yo'lida dadil olg'a intilishida madadkor kuch vazifasini o'taydi. Jadidlar o'lka- mizda yashovchi barcha millatlarning ota-bobolari, onalari-yu momolari edi. Shu bois bu millatlarning dovyurak qahramonlari, fidoyilarining barcha ezgu harakat-intilishlari biz uchun hamisha mardlik va jasorat namunasi bo'lib xizmat qiladi.Jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar.Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar.

***Foydalanilgan adabiyotlar***

1.Jadidlar. G‘ulom Zafariy: risola. O.Usmonov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022, 18-20-betlar.

2. G‘.Zafariy. Asarlar (so‘zboshi muallifi va nashrga tayyorlovchi: Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Info Capital Group, 2018.

3.O'zbekiston tarixi:Yangi nigoh.Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.1-3 betlar.

4.Vatanparvar gazetasi (2021)

5.Oyna.uz

# TURKISTON HUDUDIDA JADIDCHILIK HARAKATI

***Ganibayeva Madina Omar qizi***
***Chirchiq davlat pedogogika universiteti***
***Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilikning madaniyat sohasidagi harkat sifatida faoliyat yuritishi, bu oqim vakillarining taraqqiyot uchun kurashishi haqida so'z boradi. Keyinchalik esa jadidchilik panturkizm g'oyalarini targ'ib qilganligi, harakatning g'oya va maqsadlari, adabiyoti va san'at yo'nalishi va matbuoti haqida ham fikr yuritiladi. Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo'lmay balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar mahsulidir.

**Kalit so'zlar:** Jadid, "Taraqqiy"gazeti, jaded maktablari, M.Behbudiy, A. Shakuriy, adabiyot, teatr

Jadidchilik yoki jadidizm (arabchadan olingan so'z bo'lib "jaded" yani "yangi" degan ma'noni beradi) XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Dastavval jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qirmda vujudga kelgan. XIXasrning 90-yillariga kelib O'rta Osiyoda tarqaladi. Madaniy-ma'rifiy taraqqiyotning negizini xalqning o'tmishidan izlashga harakat qilganlar. Mamlakat taraqqiyotini ilm va marifatni egallashda, dunyodagi o'zgarishlarni o'rganish va ularni o'z hayotida amalda qo'llashda deb bildilar. uchun ota – bobolardan qolgan ilm sirlarini, hayotiy tajribalarni o'zlashtirish, shu tajribalarga suyangan holda bugugngi zamonaviy o'zgarishlarni o'z yurtiga joriy etmoq har bir musulmon kishisining burchi deb qaradilar. o'uning uchun jadidlar tarixni o'rgandilar. Tarixni o'rganish bilan bir qator asarlar ham yaratib. bu fanning rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. "Taraqqiy va tanqid", "Tarixi Muhammadiy", "Islomning muxtasar tarixi", "Nojot yo'li"( A.Fitrat) Buxor inqilobi uchun materiallar" ( S. Ayniy), "Tarixi madaniyat", "Tarixi Farg'ona", "Mezon ul zamon" ( Ibrat)", "Tarix va jug'rofiya", "Buxoro","Tarixi Islom" "Mirzo Ulug'bek", "Xayrul umumri afsatuxo"( "Har bir ishning o'rta miyonasi durust") (M. Behbudiy)," shular jumlasidandir

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Harakat vakillari dastavval o'zlarini taraqqiyparvarlar, keynchalik esa jadidlar deb atashgan. Jadidchilik- siyosiy harakat edi. Harakatning vujudga kelishi va mag'lubiyati

davrlari bo'lib, ular shartli ravishda to'rtaga bo'lish munkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududlarida 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrida Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. Bu davrda amir va xonlar vakolati cheklanib, rus va g'arb sarmayodarlarining ishlashi uchun sharoit yaratilgan, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „Xitobnoma"si (1898)da yaxshi bayon qilgan. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadichilikning asosiy go'yalari: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Turkiston hududida jadidchilik harakatini vujudga kelishda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Majid Qori Qodiriy, Ajziy(Samarqand), Abdulla Avloniy, Fitrat, Usmonxo'ja Po'taxo'jayev, Sadriddin Ayiniy, Is'hoqxon Ibrat, Munavvarqori Abdirashidxonov, Muhammadsharid So'fizoda va boshqalarning hizmati kata edi. Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralining "Tarjimon" gazetasi (1883) va u asos solgan "usuli jadid" (ikkinchi nomi "usuli savtiya") maktabi (1884) muhim rol o'ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy "Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G'azit o'qig'uvchilarni mullalar "jadidchi" nom bilan atar edi" degan fikrni keltiradi. 1900-1925 yillar "jadidchilik" tushunchasining paydo bo'lishi o'z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan ilg'or ma'rifatparvarlar davlat mustaqilligini yo'qotilishiga asosiy sabab, O'rta Osiyo jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqligi ekanini juda yaxshi tushunib yetgan. Ular turli ijtimoiy qatlamlarning orasidan chiqqan va eng asosiysi zakovatli

bo‘lib, ilg‘or ziyolilarning birinchi avlodi bo‘ldi. Ana shu negizdan keyinchalik jadidlar yetishib chiqib ularning g‘oyalarini rivojlantirdi va ma’rifatdan siyosatga qarab yo‘l oldi. Jadidlar o‘z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to‘planishar edi. 1910-yillardayoq ma’rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Adabiyotga „millat“ va „vatan“ tushunchalari kirib keldi. Adabiyotdagi bunday uyg‘onish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham ro‘y berdi. Jadidlar o‘zbek xalqi hayotiga tom ma’nodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo‘lga qo‘yila boshlandi.

Jadidchilik o’z harakati davomida matbuotchilika ham asos solidi. Jadidlar Toshkentda 1905-1906-yillarda „Taraqqiy“ (muharriri - Ismoil Obiliy), „Xurshid“ (muharriri - Munavvarqori), 1907-1908-yillarda „Shuhrat“ (muharriri - Abdulla Avloniy), „Osiyo“ (muharriri - Ahmadjon Bektemirov), „Tujjor“ (muharriri - Saidkarimboy Saidazimboy o‘g‘li), Buxoroda 1912-yilda „Buxoroyi sharif“ (muharriri - Mirzo Jalol Yusufzoda), „Turon“ (muharriri - G‘iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913-yilda „Samarqand“ (muharriri - Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda „Sadoyi Turkiston“ (muharriri - Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev), Qo‘qonda „Sadoyi Farg‘ona“ (muharriri - Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913-1915-yillarda „Oyina“ (muharriri - Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda 1915-yil „Al-isloh“ (muharriri - Abdurahmon Sodiq o‘g‘li) jurnallarini nashr qilishdi.

1917-yil jadidchilik harakati o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Fevral inqilobidan so‘ng o‘zbek, tatar va qozoqlar birlashishga ahd qiladilar va „Turon“ uyushmasi zaminida „Shuroi Islomiya“ jamiyati tuzildi (asoschilari Munavvarqori, Abduvohidqori Abduraufqoriyev, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev). 1917-yil 14-martda ish boshlagan bu jamiyat qishloq va shaharlarga targ‘ibotchilar yuborib, ozodlik, tenglik haqida tushuntirish olib borish, saylov to‘g‘risida ma’lumot berish bilan shug‘ullandi. Uning dasturini Munavvarqori yozgan edi. Jadidlar joylarda „Shuroi Islomiya“ tizimi yaratilishining tashabbuskori bo‘ldilar. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish harakati Turkiston mustaqilligi uchun kurashga aylandi.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
2. Cho‘lpon, Asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent. 1994;
3. O. Sharofiddinov. Mustafo Cho’qay, Cho’lpon, Otajon Hoshimov. T.”Sharq”, 1993 y.

4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. T. “Manaviyat” 2003y.
5. Xo‘jayev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, Toshkent, 1997;
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;

## O‘RTA OSIYONI O‘RGANISH BO‘YICHA BIRLAMCHI MANBALAR

***Turg‘unov Doston Rustam o‘g‘li***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** O‘rta Osiyoni o‘rganish bo‘yicha birlamchi manbalar tasnifi, manbalarda O‘rta Osiyoni qadimgi xalqlari, ularning turmush hayoti, manbalarning hozirgi kundagi joylashgan o‘ni va ahamiyati yoritib berilgan

**Kalit so‘zlar:**Avesto, Behustun, Xorazm, so’g’d, Eron, Mo’guluston, Kultegin, bilga xoqon, to’nyuquq, Mug’ qal’asi, Sima Syan.

Har bir tarixchi uchun eng kerakli narsa bu avvola birlamchi manba hisoblanadi. Birlamchi manbalar tarixchi uchun qadrli va qimmatli bo’lishi bilan birgalikda u uchun o’sha davr muhitiga tushish imkonini bera oladigan vosita hamdir. Hozirda bizda birlamchi manbalar anchagina oz bo’lishi bilan birgalikda to’liq o’rganilmagan ham.ularning eng mashxurlari haqida quyida so’z yuritamiz.

Behustun yozuvlari. Bu yozuvlar (uzunligi 22 m, umumiy balandligi 7,8 m) Shimoliy Eronda, Kirmonshoxdan 30 km masofada, dara bo‘ylab o‘ttan qadimgi karvon yo‘li yoqasida, uning chap tarafida, Zagros nomli tik qoyaga (taxminan 105 metr balandlikda) Doro I ning amri bilan yozdirilgan g‘alaba yodgorligidir. Yozuv elam, bobil va qadimgi tillarida bitilgan va miloddan avvalgi 523-522 yillari Ahamoniylar saltanatini larzaga keltirgan Gaumata 522 yil 29 sentyabrda halok bo‘lgan), Frada (marg‘iyonalik 522 yil 10 dekabrda asirga olingan), Skunxa (hozirgi Qozog‘iston va O‘zbekiston hududida istiqomat qilgan sak elining etakchisi) boshliq xalq harakatlari xaqida hikoya qiladi. Behistun yozuvlari 3 ta tilda: qadimgi fors, elam va bobil tillarida yozilgan bir xil matndan iborat. Bisitun, Bistun kabi nomlar bilan ham ataladi. Ma’nosi: “xudoning joyi yoki yeri”. Hozirgi Eron Arab Respublikasining Kirmonshoh Provinsiyasidan topilgan. II jahon urushi davrida shikastlangan. Keyingi yillarda Eron arxeologlari tomonidan ta’mirlandi. 2006-yilda

YUNESKO ning jahon durdonalari safiga kiritilgan va hozirda tashkilot himoyasida.[1]

Keyingi so'z yuritadigan manbamiz "Avesto" hisoblanadi. "Avesto". Zoroastrizm (otashparastlik: miloddan avval-milodning VI asri) dinining muqaddas kitobi (miloddan avvalgi VI—IV asrlarda yozilgan); Eron hamda O'rta Osiyo halqlarini qadimiy madaniyatini (e'tiqodi, tili, adabiyoti tarixini o'rganishda asosiy manba xisoblanadi.

Asarning yozilgan joyi hakida turlicha fikrlar mavjud. Bir guruh, olimlar (fransuz J.Darmsteter, Ozarbayjon olimi I.Aliev) «Avesto» Midiya (hozirgi Eronning shimoli-g'arbiy qismi va Ozarbayjon) da yozilgan desalar, ko'pchilik (V.V. Struve, S .P. Tolstov, F.Altxaym va b.k,) Amudaryo bo'yida joylashgan viloyatlarda, Balx bilan Xorazm oralig'ida yaratilgan, deb xisoblaydilar. Oxirgi fikr so'nggi vaqtlarda Eron olimlari (masalai, Ibroxim Pur Dovud) tarafidan ham e'tirof etildi.[2]

"Avesto" to'liq, saqlanmagan. Bizgacha, uning juda oz qismi etib kelgan, xolos. Ma'lumki, "Avesto"Kayyoniy hukmdorlardan Gishtosp (Vishtosp) zamonida kitob holiga keltirilgan. Rivoyatlarga qaraganda, uning gatlar deb ataluvchi asosiy qismi xudo Zaratushtra tomonidan yozil¬gan va Mas'udiy, Tabariy va Beruniylarning so'zlariga qaraganda, 12 000 ho'kiz terisidan tayyorlangan maxsus pergamentga oltin harflar bilan yozilgan. O'sha vaqtlarda uning uch nusxasi mavjud bo'lgan, lekin bir nusxasi Aleksandr Makedonskiyning amr-farmoni bilan yoqib yuborilgan. Ikkinchi nusxasi Yunonistonga olib ketilgan, uchinchi nusxasi esa otashparastlar diniga o'ta e'tiqodli bo'lgan kishilar qo'lida saqlanib qolgan. Lekin, bu nusxa ham to'la emas.

Asarning saqlangan qismlarini to'plash va kitob holiga kelgirish ishlari Parfiya podshosi Valgash III (148—192 yy.) hamda Sosoniylar (milodning III asri) davrina ham davom ettirildi. «Avesto» sosoniy Shopur II (309—379) davrida tartibga solindi, izohlar va qo'shimchalar (zand) bilan boyitildi va to'la kitob holiga keltirilib, asosiy qismlari pahlaviy tiliga tarjima kilindi. Bu kitob «Zand Avesto» nomi bilan mashhur.[3]

Afsuski, "Zand Avesto"ham bizning zamonimizgacha to'la holda etib kelmagai. Uning bir qismi Iskandar Zulqarnayn yurishlari vaqtida, boshqa bir kismi esa arablar istilosi (674—715 yy.) vaqtida yo'q qilingan. Asarning bizgacha etib kelgam qismi, professor E.E. Bertelsning ma'lumotlariga qaraganda, 83 000 so'zdan iboratdir. U asosan to'rt qismdan (yasna, yashtov, vispered, vendidad) iborat. Ayniqsa, Yasna tarkibiga kirgan qo'shiqlar (ular gat deb ataladi) «Avesto»ning eng ko'xna va qimmatli qismlari hisoblanadi.

“Avesto”, ayniqsa uning qo‘shiqlari va qissalari Abulqosim Firdavsiyniig (taxm. 940—1030 yy.) “Shohnoma”asariga manba bo‘lgan.

“Avesto”nisbatan yaxshi o‘rganilgan (K. Zaleman, X. Bartolomey, E.E. Bertels,V.V. Struve va b.k). U frantsuz (Anketel dyu Perron, Y. Darmsteter), rus (K.A. Kossovich), ingliz (L.X. Mayls), Daniya (A. Xristensen) va fors (Ibroxim Pur Dovud) tillariga tarjima qilingan. Uning Kopengaginda (Daniya) saqlanayotgan yagona nusxasi asosida tayyorlangan fotomatni 1937—1944 yillari olti jild qilib nashr etilgan).[4]

Navbatdagi manbamiz “Shohnoma” asari bo’lib, uAbulqosim Firdavsiy (taxm. 940—1030 yy.) qalamiga mansub, uch qism va 65 ming baytdan iborat epik asar. 976—1011 yillar orasida yozilgan.

Uning birinchi qismi afsonaviy bo‘lib, “Avesto”materiallariga asoslanib yozilgan va Eron hamda O‘rta Osiyo xalqlarining diniy aqidalari va rivoyatlaridan bahs yuritadi.

Asarning ikkinchi va uchinchi qismlari muhim hisoblanadi. Ikkinchi qism kahramonlik dostoni bo‘lib, qadimiy Eron podsholari va ularning zamonida o‘tgan kahramonlar: Rustam va Kova obrazlari talqin qilingan.

“Shohnoma”ning uchinchi qismi tarixiy doston bo‘lib, unda Eron va O‘rta Osiyoning zardushtiylikning paydo bo‘lishidan to arablar istilosigacha bo‘lgan siyosiy hayoti talqin etilgan.

“Shohnoma”ning qo‘lyozma nusxalari ko‘p mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda. Asarning to‘la matni Hindiston (1829 y.), Frantsiya (1838—1878 yy.), Germaniya (1877-1884 yy.), Eron (1934—1936 yy.) va Rossiyada (1960—1971 yy.) chop etilgan; rus va o‘zbek tillariga qilgan tarjimalari ham bor.[5]

To‘nyuquq bitigi. Ulan-Batordan 66km janubi –sharqda ,Bain Sokko manzilida joylashgan va ikkinchi turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqon (681-691) ning maslahatchisi sarkarda To‘nyuquqqa atalgan.712-716yillar orasida yozilgan.1897-yilirus olimi D.A.Klements tarafidan ochilgan.V.V.Radlov (1899y)hamda G.Aydarov (1971y)tarafidan yaxshi o‘rganilgan va matni nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan chop etilgan.Ushbu manba G‘.A.Abdurahmonov hamda A.Rustamov tomonidan tarjima qilingan.[5]

Kul tegin bitigi. Bilga xoqonning (716-734y) inisi Kul Tegin (731yilda vafot etgan)sharafiga yozilgan.Mo‘g‘ilistonning Kosho Saydan vodiysida Ko‘kshin O‘rxun daryosi bo‘yida rus arxeolog vaetnogrif olimi N.M.Yadrentsov (1842-1894y) tomonidan 1889 yili topilgan.[6]

Bilga xoqon bitigi. Yuqorida aytilgan Kul tegin bitigidan 1km janubi-g‘arbda –Ko‘kshin O‘rxun daryosi havzasidan topilgan.Obida 735yili bitilgan.

V.V.Radlov , S.E.Malov va V.Tomson tomonidan o‘rganilgan va chop etilgan.[6]

Bundan tashqari, Qorabalsag‘un shahri (Ulan-Batordan taxminan 400 km janubda joylashgan qadimiy shahar) xarobalaridan, Xoyto Tamir, Cho‘yren-Udzur Bayan-Xo‘ngur va boshqa joylardan topilgan yozuvlar ham muhimdir.

Oltoydan topilgan bitiklardan Chorish, Katandi daryolari, Qo‘shog‘och hamda tog‘di nohiyalardan topilgan bitiklarni aytib o‘tish mumkin.Bular O‘rxun –Enisey bitiklaridan farqli o‘laroq , Etnografik materialga boydir.Oltoydan topilgan yozuvlar P.M.Melioranskiy ,E.R.Tenishev va D.D.Vasilev tomonidan e'lon qilingan.

Sharqiy Turkistondan topilgan bitiklar orasida Turfon vohasidagi g‘orlarda joylashgan ibodatxona devorlariga yozilgan bitiklar alohida o‘rin tutadi.Bitiklar asosan V.Tomson tomonidan chop qilingan.

Qozog‘iston hamda Qirg‘izistondan topilgan bitiklar (asrimizning 60-70-yillarida topilgan) hali chuqur o‘rganilmagan. Bular orasida Talas vohasidan (Ayritom, Teraksoy, Qulonsoy, Toldiqo‘rg‘on, Urjor, Sirdaryo, Ila, Olma Ota, Tolg‘ar,Tinbas va hokazo) topilgan bitiklar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qirg‘iziston hududidan topilgan bitiklarning ba'zilari S.Sodiqov, M.E.Masson, A.N.Bernshtam, A.S.Omanjolov, G.Musaboev, Ch.Jumag‘ulov hamda G.Karag‘ulovalar tomonidan e'lon qilingan.

Qadimiy turk runik yozuvlari (asosan sopol idishlarga yozilgan) Farg‘ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O‘zbekiston va Tojikiston hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg‘ilon, Farg‘ona, Andijon, Quvasoy, O‘sh, O‘zgan, Kofirnihon, shuningdek So‘g‘ddan ham topilgan va A.N.Bernshtam, B.A.Litvinskiy, V.A.Bulatova, Yu.A.Zadneprovskiy tarafidan o‘rganilgan.

Asosan IV-X asrlarga oid bo‘lib,turli mazmundagi huquqiy hujjatlar (ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi hujjatlari, tilxatlar),hukmdorlar (So‘g‘d,Shosh,Turk va Farg‘ona hukmdorlari)o‘rtasidagi yozishmalar,xo‘jalikning kundalik faoliyatiga oid xujjatlar, masalan xarajatlar yozilgan hujjat hamda farmonlardan iborat.

Bu hujjatlar So‘g‘diyonaning o‘zidan (Mug‘ qal'asidan), Samarqanddan (Afrosiyobdan),Qirg‘iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan.

Bular orasida Mug‘ qal'a xarobalaridan 1932 –yili topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Xujjatlar 1932 yilning bahorida Tojikistonning Varziminor tumaniga qarashli Xayrobod qishlog‘ida shu tumanning sobiq birinchi rahbari A.Pulotiy tomonidan ochilgan. jami 79ta bo‘lib, bulardan 74

tasi qadimgi so‘g‘d, 1donasi arab, 3tasi Xitoy va yana bittasi turk tilidadir. Ular har hil materiallarga charmga,taxtaga va qog‘ozga yozilgan. Xujjatlar so‘g‘d dehqoni , podshosi Devashtich (708 – 722)va yirik mansabdorlarning, shuningdek, Xoxsar hamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo‘lib, So‘g‘dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy,siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim manba rolini o‘ynaydi.[7]

Mug‘ qal'asidan topilgan xujjatlar. A.A.Freyman, A.V.Vasilev, I.Yu.Krachlovskiy, hamda O.I.Smirnovlar tarafidan chuqur o‘rganilgan. Mug‘ qal'a xujjatlarining topilish tarixi va ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1934 yili maxsus to‘plam shaklida (“Sogdiyskiy sbornik”,Leningrad, 1934) e'lon qilindi.

1961 va 1965 yillari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog‘ida Afrosiyobda V-VII asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar.Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo‘lib, ular orasida oq keyim keygan Chag‘oniyon elchisining surati bor. Uning etagida so‘g‘d tilida o‘n olti satrdan iborat ishonch yorlig‘i yozib qo‘yilgan edi. Bu yozuvlar O‘rta Osiyo xalqlarining VII asr o‘rtalaridagi o‘zaro aloqalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqanddan topilgan yozuvlar IX asrga oid uch tilda(so‘g‘d,qadimgi turk va xitoy tilida) yozilgan xoqonning qabr toshiga bitilgan yozuvlardir.

Mazkur hujjat so‘g‘diylarning Qozog‘iston,Qirg‘iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalaridan ham topilgan.Bular orasida ayniqsa A.Steyl (1862-1943) tarafidan 1907 yili Dunxuan va Turfonda (Sharqiy Turkiston) topilgan hujjatlar, Talas daryosining o‘ng sohilida , hozirgi Talas shahridan 7km shimolda joylashgan Qulonsoy hamda Teraksoy daralaridan qoya toshlarga o‘yib bitilgan yozuvlar alohida e'tiborga molik. Bu yozuvlar IV-XI asrlarda So‘g‘d koloniyalarining ijtimoiy ahvoli haqida , ayniqsa O‘rta Osiyo bilan Uzoq Sharq mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aloqalari va bunda so‘g‘diylarning roli haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Bundan tashqari vatanimiz tarixi xaqida xabar beruvchi qadimgi xitoy manbalari ham talaygina. Ammo xitoy manbalarida xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlarini ko‘zlab yozilgan, xitoy imperatorlari ko‘kka ko‘tarib maqtalgan, ilohiylashtirilgan; boshqa xalqlarning tarixi esa ko‘p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin xitoy manbalarida bo‘lib o‘tgan voqealarning vaqti va o‘rni aniq ko‘rsatiladi, u yoki bu hududda istiqomat qilgan xalqlar, shuningdek, bir-biriga qarshi turgan qo‘shinlarning umumiy soni aniq ko‘rsatiladi.

O‘rta Osiyo, xususan qadimiy O‘zbekistonning uzoq o‘tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda quyidagi xitoy manbalari muhim rol o‘ynaydi.

Sima Syan – (taxminan miloddan avvalgi 145 yoki 135-86-yillar) Xitoy tarixshunoslarning “otasi” hisoblanadi; Lunmin (hozirgi Shensi viloyati) shahrida saroy tarixchisi Sima Txan oilasida tug‘ilgan; mamlakat bo‘ylab ko‘p sayohat qilgan; otasi vafot etgandan (miloddan avvalgi 108 yili) keyin uning o‘rniga saroy tarixchisi sifatida qabul qilingan. Miloddan avvalgi 98-yili imperatorga qarshi chiqib, sarkarda Li Linni himoya qilgani uchun qattiq jazoga tortilib (bichilgan) saroydan quvib yuborilgan. Lekin u ruhiy tushkunlikka tushib qolmadi va bo‘lajak tarixiy kitobi ustidagi ishini davom ettirdi. Ko‘p vaqt o‘tmay, Sima Syan yana saroyga taklif etildi va imperator Bosh mahkamasining boshlig‘i etib tayinlanadi, kitobini yozib tamomlashga sharoit yaratib berildi.

Sima Syan “Shi Szi” (“Tarixiy esdaliklar”)nomli 130 bobdan iborat yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. Asar Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o‘tgan tarixini o‘z ichiga oladi. Asarda O‘rta Osiyo, uning 123 bobida xususan Farg‘ona va uning qadimiy xalqi, hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.[8]

“Shi Szi”ning to‘la matni olti jild qilib 1959 yili Pekinda chop etilgan. Rus tiliga tarjima etilib, (I.Ya.Bichurin, L.S.Vasilev, L.S.Perelomov, Yu.L.Krol va b.q.) chop etilgan. Uning bir qismi rus tiliga (N.Ya.Bichurin, F.Kirman va b.q.)to‘liq ravishda E.Shavann (1865-1918) tomonidan frantsuz tiliga tarjima qilinib, 1895-1905 y (5 jilda) chop etilgan. “Shi Szi”ning ruscha tarjimasi ham tamomlandi (R.V.Vyatkin, V.S.Taskin); uning bir qismi to‘rt kitob bo‘lib 1972, 1975, 1984, 1986 yillari bosmadan chiqdi. Ban Gu(39-92)-yirik tarixchi olim.Anlin shahrida G‘arbiy Xan sulolasi (miloddan avvalgi 206-milodning 220 y.) xizmatida turgan yirik mansabdor va tarixshunos oilasida tug‘ilgan. 47-55 yillari Loyanda oliy o‘quv yurtida ta'lim olgan . 58-82 yillari o‘zining (“ Avvalgi Xan sulolasining tarixi”) asarini yozgan.[9]

Xulosa qilib aytganda qadimiy tariximiz juda boy bo’lib, uning ko’plab jabhalari hali hanuz o’rganilmay yotibdi. Bunga asosiy sabab esa kadrlarning yetishmasligi ,bizning tilimizdagi ma’lumotlarning kamligi hamda bor ma’lumotlarning ko’p qismi bizga berilmasligidir.Lekin yurtimizda har yili minglab talabalar oliygohlarni bitirmoqda . Shunday bo’lsada hali hamon malakali kardlar yetishmayabdi. Ajoyib paradoks. Biz o’z ona vatanimiz tarixini mukammal o’rganishimiz, turli hil birlamchi manbalarni tadqiq etishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. Islom Karimov. «O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi» T.13.-T.: «O'zbekiston», 2005 y.
2. Islom Karimov "tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" "Muloqot", 1998
3. Bo'riboy Ahmedov "O'zbekiston tarixi manbalari" Toshkent "O'qituvch" 2001y
4. Bo'riboy Ahmedov "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari" Toshkent , " O'qituvchi"1991y
5. Ye.E.Bertel's. "Istoriya persidsko – tadjikskoy literaturi"Moskva , 1960,
6. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent – 2007
7. "Tafsirat ul- mubtadin"-"Qur'on" sharxlaridan birining nomi
8. Hofiz Tanish Buxoriy. "Abdullanoma".1-jild.Toshkent , 1966.
9. Bo'riboy Ahmedov "O'zbekiston tarixi manbalari" Toshkent "O'qituvch" 2001y

## MUHAMMAD SHAYBONIYXON FAOLIYATI VA ISMOIL SAFAVIY O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

**Abduqaxxorov Ulug'bek Xusan o'g'li**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Muhammad Shayboniyxon faoliyati va Ismoil Safaviy o'rtasidagi munosabatlar, elchlik munosbati hamda ular o'rtasida bo'lib o'tgan jang tavsilotlari boyon etilgan. Jangda halok bo'lgan Shaybonixon va uning bosh suyagi haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar**: "Boburnoma", Samarqand, Xuroson, "Olamoroyi Safaviy", "Habib Us-siyar", "Tarixi Rashidiy", Eron, sabab, shia, sunniy, bosh suyak.

Tarix zarvaraqlarida o'zining o'chmas izini qoldirgan Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) Chingiziylar avlodidan bo'lib, uning otasi Abulxayrxonning o'g'li Shohbudog' Sulton edi. Shayboniyning bobosi Abulhayrxonning saroyida ham turkiylar odatiga ko'ra tug'ilgan go'dakka ikki ism qo'yish urf bo'lgan. Ismlarning birinchisi islomiy (arabcha), ikkinchisi esa turkiy bo'lgan. Tug'ilganida Muhammad deb nomlangan Shayboniyxon o'zining ikkinchi ismi bilan mashxur bo'lgan. Z.M. Bobur o'zining

“Boburnoma” asarida Shayboniyning ismini Shayboqxon deya keltiradi. Bu nom “kuch-qudrat”degan ma’noni anglatadi. Umuman olganda, Muhammad Shayboniyxon faqat xon bo‘lmagan, ayni damda u ilm-ma’rifat homiysi, shu bilan birga didli ijodkor, shoir bo‘lgan. Uning Shohbaxt, Shoyboq, Shoybek, Sheboni, Shohibek hamda Shayboniy taxalluslarini adabiyot ixlosmandlari yaxshi bilishadi.

Shayboniyxon otasi Shohbudoq Sulton va onasi Qo‘zibegimdan yoshligida yetim qoladi. Ma’lumotlarning dalolat berishicha, o‘sha payitda Muhammad sakkiz yoshda ukasi Mahmud esa besh yoshda boladi. Bobosi Abulhayrxon ularni uyg‘ur qavmidan bo‘lgan Boyshayx ko‘kaldoshni otaliq qilib tayinlaydi. Ammo oradan ko‘p o‘tmay bobosi Abulhayrxon vafot etadi. “Abulxayrxon vafot etgach (1468-y.) o‘rniga taxtga o‘tirgan o‘gil Haydarxon davrida Iboqxon, Jonibek, Gerayxon, mang‘it amirlaridan Yomqurchi va Muso Mirzolar Oltin O‘rda xoni Ahmadxon bilan ittifoq tuzib Haydarxonga qarshi kurash olib borib, g‘alabaga erishganlar va Haydarxon esa qatl etishgan. Shunda shoh Budoqning o‘g‘illari Shayboniyxon va Mahmud Sultonni yaqin kishilari Ashtarxon xoni Qosimning saroyiga olib borib yashirganlar. Bundan xabar topgan sultonlar o‘z qurollarini Qosimga qarshi qaratganlar. Ammo shahzoda Muhammad Shayboniy o‘z ukasi bilan qamal qilingan Ashtarxondan chiqib Dashti Qipchoqqa yetib kelgan.

U XV asrning 80- yillarida bobosi Abulxayrxon birlashtirgan Dashti Qipchoq yerlarini birlashtirish va hokimiyatni qaytadan tiklash uchun kurash olib boradi. Bu kurashning dastlabki bosqichida temuriylar Shayboniyxonga katta yordam va madad berganlar. Tarixiy manbalarda Shayboniyxon o‘z ukasi bilan bir necha marta Movarounnahr hukmdorlari va noiblari — Turkiston va O‘trorni idora qilgan noib Muhammad Mazid Tarxon, Samarqand hokimi Ahmad Mirzolar huzurlariga kelganda yaxshi kutib olganliklari va homiylik qilganliklari ko‘rsatiladi. Shayboniyxon bir necha vaqt Buxoroda ham yashagan va Dashti Qipchoqqa borib kelib turgan. Buxoroda bo‘lganida Shayboniyxon ma’rifatdan saboq olgan, ilm va she’riyatni sevib o‘rgangan”.[1]

Muhammad Shayboniyhon shu tariqa siyosiy hayotga kirib keladi. U 1480-yilda Bobosi Abulhayrxonning davlatini qayta tiklaydi. 1500 yilda esa qisqa muddatga Samarqandni egallaydi hamda Shayboniylar sulolasiga asos soladi. Birin-ketinlik bilan u barcha temuriylar mulklarini egallaydi. Navbat Xurosonga kelagan edi. U Xurasonni egallagach Eron Safaviylari chegarasiga yaqinlashib qoladi. Shayboniyxonning janub tomon ilgarilab borayotganligini Eron shohi Ismoil ziyraklik bilan kuzatib turar va u Shayboniyxonning bu

harakatini to‘xtatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Shoh Ismoil bilan Shayboniyxonning to‘qnashuvi aniq bo‘lib qoldi.

Eron hukmdori Ismoil Ardabel shahridagi safaviylar xonadonidan edi. U Ozarboyjondagi turk qabilalari ko‘magidan foydalanib uncha katta bo‘lmagan, biroq kuchli va tartib-intizomli qo‘shin tuza oldi.

“Shayboniyxon 1509 yilning yozida Marvni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Marv shahrini egallagan Shayboniyxon Eronning kichik viloyatlariga yurish qiladi hamda Mashhad va Tus shaharlarini egallab, ulardagi muqaddas joylarni ziyorat qilib, ba’zi me’moriy inshootlarni ta’mirlashga buyruq beradi. Mashhad va Tus shaharlarini egallagan Shayboniyxon Erondagi Shoh Ismoil asos solgan Safaviylar davlatiga xavf soladi. Shayboniyxon va shoh Safaviy o‘rtasidagi urushning kelib chiqishining bir necha sabablari mavjud edi. Jumladan, Eronda islom dinining Shia mashabiga e’tiqot qilishi, Ismoil Safaviyning ozi esa Shia mazhabining homiysi hisoblanar edi. O‘z navbatida Shayboniyxon ham o‘zini “Imom az-zamon, xalifat ar-Raxmon” deb e’lon qiladi. Shayboniyxon bu bilan butun Sharq olamida islom dinining homiysi sifatida shialikka qarshi g‘oyaviy kurash boshlagan edi. Bundan tashqari Shayboniyxon atrofdagi o‘lkalar hukumdorlariga “kim bizni kutib olishga va oldimizga ta’zim qilishga kelgan bo‘lsa u yuksak mukofotlanadi, agar kelmasa u pushaymon bo‘ladi” degan mazmunda xat yozgan. Xuddi shu mazmundagi xat Eron shohiga ham yetib borgan. Ushbu xat haqida muallifi noma’lum bo‘lgan “Olamoroyi Safaviy” (Olamga oro beruvchi Safaviy) asarida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Unda aytilishicha, Shayboniyxonning elchisi xatni Ismoil Safaviyga topshirgan. Xatda “Biz Makka va Madina ziyoratiga borish niyatimiz borligini ma’lum qilamiz. Iltimos, agar Iroqda buzulgan yo‘llar va ko‘priklar bo‘lsa uni tuzatib qo‘ying” degan yozuvga qo‘shib ushbu bayt ham ilova qilingan edi(mazmuni):

“Bizda vayron qilingan Iroqni egallash niyati yo‘q,

Makka va Madinani zabt etgunimizcha, o‘zimizni g‘olib hisoblamaymiz”.

Shoh Ismoil xatni o‘qigach, uning orqa tomoniga Shayboniyxon uchun shunday so‘zlarni yozgan:

“Kimki chin dildan Shoh Buturabning (ya’ni, xalifa Ali Ibn Abu Tolib, - A.Z.) quliga (yordamchisiga )aylanmasa, agar u yuzta Makka va Madinani zabt etsa-da, u g‘olib hisoblanmaydi”

Shu davrda shayboniylarning mashhur qomondonlaridan biri Jonvafo Mirzo Kirmonga qilingan bir bosqin paytida safaviylar tomonidan asr olinadi. Eron hukmdori Sharqiy chegaralarda muvaffaq bo‘lsada tinchlik o‘rnatib turish

maqsadida Jonvafo Mirzoni ozod qilib, uni o‘z elchisi Shahzoda Lohijoniy nomi bilan tanilgan Shayx Muhiddin Ahmad Sheroziy bilan birga Shayboniyxon huzuriga yubordi. Shoh shu orqali Shayboniyxonning Eron hududiga qarshi yurishlarini to‘xtatishni so‘ragan. Xususan, xatda: “Agar u (Shayboniyxon) bosqinlar toxtatmasa oramizda do‘stlik toxtaydi” deb aytilgan. Manbalarda keltirilishicha shayboniyxon hududida elchi shoh maktubini ovoz chiqarib oqigan. Xon esa jilmayib, shunday degan: “Biz nima haqida o‘ylaymiz va malik (Ismoil Safaviyni malik deb atab biroz bepisandlik ham qilgan — A.Z.) nima haqida o‘ylaydi! Men e’tiborli odamlar, fuzalo va fuqaro – barcha odamlarim bilan Ka’ba ziyoratiga borishimni ikkinchi bor ma’lum qilaman. Sizni yo‘llarni tartibga keltirdingiz deb o‘ylardim, ammo baribir shundan beri siz bizga (to‘g‘ri) xizmat ko‘rsatmayapsiz. Ismoilga ayt u bizga yozganda talab emas iltimos qilsin, hamda barcha ko‘priklarni tuzatishga farmon bersin... biz hajga borishni niyyat qildik”.

Shayboniyxon shoh Ismoilga shu mazmundagi xatni tayyorlash va uni Eronga eltishni Najub Bahodirga topshirgan. Shunday qilib Shahzoda Lohijoniyning elchigi besamar yakun topadi.

“Olamoroyi Safaviy” asarida aytilishicha Shoh Ismoil yana bir bor Shayboniyxonga maktub yo‘llab uning Eronga tashrif buyurish uchun yo‘llar ham, qal’alar ham, qo‘shin ham tayyorligini (ya’ni urushga tayyorligini ) bildirgan.

Mirzo Muhammad Haydar (1500-1551) o‘zining “Tarixi Rashidiy” asarida dastlabki muzokaralarda Shoh Ismoilning keskin javob bermaganligini, aksincha, murosa qilishga uringanligi ta’kidlanadi. Xususan, unda keltirilishicha Shoh Ismoil vaziyatni yumshatish, bo‘lajak urushni keyinga surish maqsadida Shayboniyxon huzuriga qimmatbaho savg‘alar jo‘natib, o‘z xatida ota-o‘g‘illik munosabatlarni o‘rnatishni taklif qilgan. Muhammad Shayboniy xat mazmuni bilan tanishgach buning muvaffaq murosaga chorlaydigan, Eron o‘zining shimoli-g‘arbiy o‘lkalardagi ashaddiy raqibi bo‘lgan Usmoniylar imperiyasi bilan ma’lum muvaffaqiyatli siyosatga erishsa, albatta Xurason hududiga yurish qilishni fahmlagan holda, javob maktubida urush keltirib chiqaruvchi quyidagi gaplarni yozadi: “Har bir kishi onasining emas, otasining hunari bilan mashg‘ul bo‘lgani durust. Axir o‘gil otaning hunarini qilsin, qiz onaning “degan maqol borku”! Shayboniyxon elchi orqli bir tayoq, bir janda, bir qovoq kachkul (darveshlar xaltasi) hadya qilib yubordi va “agar otang hunarini unutgan bo‘lsang, bu hadyalar orqali uni yodingga solyapman” degan so‘zlarni ham ilova qildi”.[2]

Bundan ko‘rinib turibdiki, Muhammad Shayboniyhon urush alangasiga moy sepmoqda edi. O‘zining qudratidan kelib chiqib qarasak bu taabiy hol edi. Chunki Shayboniyxon yillar mobaynida ulkan tajriba orttirgan, ma’lum muttad davomida Amir Temur davlatini yirik qismini qayta birlashtiraolgan, yuksak sarkardalik mahoratiga ega hukumdor edi. U temuriylar bilan bo‘lgan janglarda buni bir necha bor isbotlagan ham. Shayboniyxonning maqsadi yuqoridagi xat almashishlar orqali birga ma’lum bo‘ladi. Ba’zi manbalarda Ismoil Safaviydan Islom dinining sunniy mazhabiga otishini talab qilgani ham keltirilgan. Bu jihatdan biz Shayboniyxonni Islom dini haqida qayg‘uruvchi, sobitqadam hukumdor bo‘lganligini bilishimiz mumkin. Uning mag‘lubiyatlariga esa bir qancha jiddiy sabablar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Bu jang arafasida Shayboniyxon (1451-1510) 60 yoshda, Shoh Ismoil (1587-1524) 23 yoshda bo‘lgan.

Movarounnahr va Xuroson egallangandan so‘ng 1509 yilning aprel oyida Shayboniyxon Qarshidan Eron sari yo‘lga tushadi. Safaviylar va Shayboniylar o‘rtasidagi jangga qadar Shayboniyxon Eronni bosib olish uchun zimdan tayyorgarlik ko‘rgan. Jumladan, 1509 yilning aprel oyida u Qarshida o‘z qo‘shinlarini to‘playdi va ularga bosh bo‘lib Amudaryo kechuvi – Burdaliq tomonga (hozirgi Chorjo‘y yaqinida) yo‘l oladi. Lekin Fazlulloh ibn Ruzbehonning bergan ma’lumotiga qaraganda, Shayboniyxon yo‘lda o‘zbek sultonlarini o‘z uluslariga qaytarib yuboradi. Muhammad Temur Sulton Samarqandga, Hamza Sulton Hisori Shodmonga, Ubaydullo Sulton Buxoroga o‘z qo‘shinlari bilan qaytib ketadilar. Marv shahrini egallagan Shayboniyxon Eronning ichki viloyatlariga yurish qiladi. 1510 yilda Erondan qaytgan Shayboniyxon orqadan katta kuch bilan yetib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shinlari bilan Marv yaqinida, Movarounnahrdan yordam kelishini kutmasdan jangga kirishga majbur bo‘ladi va son jihatdan ustunlikka ega bo‘lgan “qizilboshlilar” qo‘shinidan mag‘lubiyatga uchraydi. Muhammad Shayboniyxonning o‘zi ham shu jangda halok bo‘ladi. Bundan tashqari Shayboniylar orasida unchalik ham axillik bo‘lmagan. Xususan “Olamoroyi Safaviy” asarida keltirilisha, Shayboniyxon xizmatidagi Elbarsxon (u XV asrning 80-yillarida Dashti Qipchoqda Shayboniyxon bilan kurashlar oqibatida o‘ldirilgan Berka sultonning o‘g‘li, 1512-1514-yillarda Xoraxmda tashkil etilgan xonlikning ilk hukumdori edi.) shoh Ismoil bilan yashirin aloqalar olib borgan. Shayboniyxonning barcha xatti xarakatlarini Elbarsxon Ismoilga yetkazib turganligi ham Shayboniyxonning mag‘lubiyatiga asosiy omil bo‘lib hizmat qilgan deb o‘ylayman. Bunday hiyonatga uchragan Shayboniyxonda yutish uchun imkoniyat unchalik ham katta bo‘lmaganligini ko‘rishimiz

mumkin, ammo uning o‘zi bundan behabar edi. Shunday qilib Dashti Qipchoq Lochining halok bo‘lishiga xoinlik sabab bo‘lgan deb hisoblayman.

“Bu jang haqida nisbatan batafsil ma’lumot Xondamirning "Habib Us-siyar" va Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlarida keltirilgan bo‘lib, ulardagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali Shayboniyxonning mag‘lubiyati sabablarini quyidagi omillarda ko‘rishimiz mumkin: Birinchidan, 1509 yilgi qozoq xonligidagi oxiri ko‘rinmagan, na g‘alaba, na mag‘lubiyatni yuzaga keltirgan besamara yurish, Xusoson va Eronning Shimoliy-Sharqiy hududlaridagi yurishlar natijasida qo‘shinning ruhiyati va jismidagi toliqishlar hamda qish yaqinlashuvi bilan ularga ruxsat berib yuborilganligi; ikkinchidan, Marv qamali paytidaga Ismoil Safaviyning nayrangiga ishonishi, (bir necha xat almashinuvidan keyin, shoh Ismoil Eronga qaytishini ma’lum qilgan. Shayboniyxon esa uning rostdan ham qaytganligiga ishongan, chunki uning bu ma’lumotga ishonishiga Movarounnahrdan Shayboniy sultonlarning yordam uchun kelayotganligi haqidagi xabar shoh Ismoilga ma’lum ekanligi, u qo‘shimcha kuchlar kelishi tufayli qamalni bo‘shatdi, deb o‘ylashi sabab bo‘lgan.) qo‘shinni qal’adan chiqarib, dushman ortidan ta’qib qilish boshlanganida, Ismoil elchisining yo‘lda uchrab, shohning Eronga qaytayotgani bo‘yicha ishonish mumkin bo‘lgan yolg‘on ma’lumotni olib kelganligi Shayboniyxonning jadal harakatiga sabab bo‘lgan; uchinchidan, bevosita jangning o‘zida bir qator harbiy hiylaga uchraganligi bo‘ldi: 1) Eron qo‘shinining ort tomonida 2-3 qator tuyalar bo‘lib, Muhammad Shayboniy tepalikdan qo‘shinning ortidagi tuyalarni ko‘rgan va ularga ahamiyat bermagan. (Odatda qo‘shinning ortida tuyalar karvoni yurgan bo‘lib, ularda askarlarning safarda kerak bo‘ladigan barcha buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari va harbiy aslaha zaxiralari mavjud bo‘lgan. Bu karvon tarixiy manbalarda ug‘ruq, Partol singari nomlar bilan uchraydi.) Shoh Ismoil tuyalar ortida eng sara otliqlarni joylashtirgan edi; 2) jang boshlanishi bilan Eron askarlarining qalb qismi (markaz) bir oz jang qilgan bo‘lib, chekinishga tushadi. Shayboniy qo‘shinlarining markazi esa ularni ta’qib qilib, o‘lja olishni boshlab yuborishadi. Shunday vaziyatda tuyalar qatori ortidagi Eron suvoriylari hujumni boshlab, Movarounnahr askarlarining qanot qismlarini tarqatib yuborib, uning ancha ichkariga kirib borgan qalb (markaz) qismini orab oladi. Orqada turgan Shayboniyxon esa asosiy qo‘shinidan ajrab qolib, qochishga majbur bo‘ladi. U bir qishloqqa borib yashirinadi. Eron qo‘shinlari yetib kelib ular yashiringan bog‘ga o‘q yomg‘irini uyushtirishadi. Jang tugaganidan so‘ng uning jasadi askarlar jasadlari orasidan topilgan. Malum bo‘lishicha Shayboniyxonning jasadida bironta xam o‘q izi bo‘lmagan. Uning

oti yaralanib yiqilgan keyin esa boshqa askarlarning jasadi uning ustiga qulay boshlagan. Oqibatda anchagina keksayib qolgan hukumdor nafas qisishidan olamdan o‘tgan. Shayboniyxonning boshsiz tanasi Samarqanddagi o‘zi qurdirgan madrasada dafn etiladi.”[3]

Eronliklar Shayboniyxonni qo‘lga olib 1510-yil 12-dekabrda uning boshini tanasidan judo etib, nayza uchiga ilib qo‘yadilar. Zaki Validiy To‘g‘onning yozishicha, shoh Ismoilning buyrug‘i bilan Shayboniyxonning bosh suyagidan sharob qadahi yasaladi va u oltin bilan bezatilib, Misr sultoni Falajga sovg‘a sifatida yuboriladi. Chunki Falaj ham Shayboniyxon singari sunniy mazhabida edi va uni juda sevardi.[4] Arab tarixchisi Ibn Ayos «Badoiy o‘z-zuhur» nomli asarida keltirishicha Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan qadah ustiga shoh Ismoil quyidagi satrlarni yozdirgan ekan;

AIsayf val-xanjar rayxonano,
Tuf a ’lo almarjis val-as.
Mudominoman dam a ’donno,
Vahasno jumjumatu’al-ras!

Arabcha bu satrlarning ma’nosini quyidagicha sharhlash mumkin:
Qilich va xanjar bizning hidimizdir,
«Tuf» bo ’Isin nargiz va sumbulimizga.
Dushmanning qoni ichkiligimizdir,
Aylansin bosh suyak qadahimizga!

Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan tilla qadahning Misrga yetib kelishi sunniy mazhabidagi aholi o‘rtasida katta norozilik uyg‘otdi. Misr sultoni Qansu Gavri o‘sha bosh suyakni katta hurmat bilan ko‘mdiradi. Yana Ibn Ayosning aytishicha, 200 dan ortiq misrlik shoir shoh Ismoilning yuqorida keltirilgan she’riy to‘rtligiga qarshi javob she’riy to‘rtliklar yozdilar. Masalan, shayx Nosuriddin Tahhan qalamiga mansub she’riy javob to‘rtlikning o‘zbekcha tarjimasi quyidagichadir:

Gar hidlab yursang hushbo ’y narsalami
Ko "paytirarsan mudhish qo ’rquvlarni.
Jangda dushmanni o ’Idirish sharafdir,
Faqat it yalaydi bosh suyaklarni![1]

Boshqa ma’lumotlarga keltirilishicha Shayboniyxon boshining qismati biroz boshqacharoq bayon qilinadi. Unda aytilishicha Muhammad Shayboniyxonning boshi Ismoil Safaviy buyrug‘i bilan olinib, po‘sti shilinadi,

po‘sti ichi somon bilan to‘ldirilib, safaviylarning g‘arbdagi dushmani bo‘lmish usmoniylar hukumdori Sulton Boyazid II (1481-1512) xuzuriga jo‘natiladi.

Xulosa qilib aytganda, Shayboniyxon O‘zbek davlatchiligi uchun o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan hukumdorlardan biridir. Bundan tashqari, ilm-fanga ham beetibor bo‘lmagan. Umrining ko‘pgina qismi jang-u jadalda o‘tgan Shayboniyxon nozik she’rlari va g‘azallari bilan ko‘pchilikni hayratda qoldirgan, ammo uning umriga manashu jang nuqta qo‘yadi. Muhammad Shayboniyxon va shoh Ismoil safaviy o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashuvi ikki davlatning to‘qnashuviga sabab bo‘ldi. Natijada Marv yaqinida bo‘lgan jangda Eron qo‘shini g‘alaba qozondi. Shayboniyxon va uning safdoshlari jangda halok bo‘lishdi. Shu tariqa Shoh Bobur Eron qo‘shinlari yordamida Movarounnahrga kirib Samarqand taxtini egallaydi, ammo Bobur shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e’lon qilishi, Samarqand xalqining Bobur Mirzodan yuz o‘girishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa Shayboniylar sulolasi o‘z hukumronligini saqlab qolishga muoffaqt bo‘lishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Rustambek Shamsuddinov, Shodikarimov O‘ktamjon Ubaydullayev “Vatan tarixi” “ SHARQ” Nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent -2010
2. Akbar Zamonov “Buxoxo xonligi tarixi “ Toshkent 2021
3. Shayboniylar daxmasi. Узбекистон миллий энциклопедияси... 9 жилд. 678-679-бетлар.
4. Ахмад Z. B. Бугунги турк эли (Туркистон ва якин тарихи).. Истанбул, 1981.2-нашри, 55 56-бетлар.
5.

## MUSTAQILLIK G‘OYALARINING TARIXIY ASOSLARI TURKUMIDAN: TURKISTON MUXTORIYATI

**Xurramova Zaxro**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi
Z3804896@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘rta Osiyo mintaqasi xalqlari XX asr tarixida muhim o‘rin tutgan Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi, faoliyati va bolsheviklar tomonidan tugatilishi jarayonlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston Muxtoriyati, qurultoy, kengash, sho‘ro, ”Ulug‘ Turkiston”, Ta’sis Majlisi.

1917-yil oktabr oyida Rossiyada ro‘y bergan davlat to‘ntarishi va mazkur to‘ntarish natijasida hokimiyat tepasiga kelgan Lenin boshchiligidagi bolsheviklar tomonidan hokimiyat va davlat boshqaruvi masalalarida erkinlik berish haqidagi ko‘plab va’dalari Turkiston hududida ham o ‘z ta’sirini o‘tkazdi. O‘lka musulmonlari qalbida mustaqil davlatchilik tashkil etilishiga umidlar paydo bo‘ldi. Bir qancha qurultoylar va yig‘ilishlar natijasida Qo‘qonda Butunturkiston musulmonlarining favqulodda 1917-yil 26-28 noyabrda bo‘lib o‘tgan 4-qurultoyida Turkiston o‘lkasi RSFSR tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qilindi. Shuningdek Ta’sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyatni Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston Milliy Majlisi qo‘lida bo‘lishi kerak deb hisoblandi. Muxtoriyat markazi etib Qo‘qon shahri tanlandi.

Turkiston tarixidagi dastlabki demokratik hukumatning tarkibi bilan birgalikda qurultoyda Xalq Majlisi ham tashkil qilindi. Xalq Majlisiga 54 o‘rin belgilandi. Unga 32 nafar vakil musulmon tashkilotlaridan va yana 4 nafari mahalliy boshqarmalardan kiritilib, 36 nafar bo‘ldi [1]. Yevropaliklarning tashkilotlariga esa 18 o‘rin ajratildi. Qurultoy jarayonida Milliy Majlis tarkibiga Ubaydulla Xo‘jayev, Mustafo Cho‘qay, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Saidnosir Mirjalolov, Sherali Lapin, Said Ja’farboy Saidov, Islom Sulton Shoahmedov, Abdurahmonbek O‘razayev, Hidoyatbek Yurali Agayev, Nosirxon To‘ra, Mirodil Mirzaahmedov, Toshxo‘ja Qorabekov, Solomon Abramovich Gersfeld, Muhammadjon Tinishbayev, Xalil Shirinskiy, Tolibjon Musaboyev, Kamol Rahmonberdiyev, Olimxonto‘ra Shoirxonto‘rayev, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov va boshqalardan iborat 32 nafar kishi saylandi [2]. Biroq, Milliy majlis raisi lavozimiga nomzodi ko‘rsatilgan Sherali Lapin bu taklifni rad etgach, bu mas’ul lavozimga qurultoyda boshqa kishi saylanmadi. Qurultoyda Turkiston Milliy Majlisi a’zolaridan 8 kishidan iborat Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Yevropalik aholi vakilllari orasidan ham nomzodlar uchun 4 o‘rin ajratildi. Hukumatning dastlabki tarkibiga quyidagilar kiritildi:

1. Muhammadjon Tinishbayev (1879-1939)-Bosh vazir va Ichki ishlar vaziri ,II chaqiriq Davlat dumasining a’zosi, Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti a’zosi, yo‘l muhandisi.

2. Islom Sulton Shoahmedov (1882-1922) –Bosh vazir o‘rinbosari, butunrossiya musulmonlari Sho‘rosi Ijroiya Komiteti a’zosi, huquqshunos.

3. Mustafo Cho‘qay (1890-1941)-Tashqi ishlari vaziri , huquqshunos.

4. Ubaydullo Xo‘jayev (1886-1942) - harbiy vazir, butunrossiya musulmonlari Sho‘rosi ijroiya komiteti a’zosi, huquqshunos.

5.Hidoyatbek Yurali Agayev (1880-1918) – yer va suv boyliklari vaziri , agranom.

6. Obidjon Mahmudov (1871-1936) - oziq-ovqat vaziri, Qo‘qon shahar dumasining raisi o‘rinbosari, tog‘-kon sanoati mutaxassisi.

7. Abdurahmonbek O‘razayev (1888-1937) - ichki ishlar vazirining o‘rinbosari, huquqshunos.

8. Solamon Abramovich Gersfeld (1881-1918) - moliya vaziri, huquqshunos.

Tashkil topgan vaqtidan boshlab bolsheviklar Turkiston Muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar. Turkiston o‘lkasi ishchi, soldat va krestyan deputatlarining favqulodda 4-syezdida muxtoriyatga munosabat masalasi asosiy o‘rinda turdi. Syezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a’zolarini qonundan tashqari holda deb hisoblab, hatto vazirlarni qamoqqa olish haqida qaror qabul qilindi. 1918-yil 30-yanvarda Turkiston o‘lkasi XKS Turkiston Muxtoriyatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Toshkentdagi bolsheviklar buning uchun qizil gvardiyachilar otyadlari va arman dashnoqlaridan keng foydalandi. Milliy matbuotning yozishicha 31-yanvarda janglar boshlandi. Turkiston o‘lkasi XKS 1918-yil 14- fevralida Farg‘ona viloyatida harbiy holat e’lon qildi [3].

Muxtoriyat tarafdorlari va qizil askarlar o‘rtasidagi dastbki jangda muxtoriyatining milliy qo‘shinidan tashqari qo‘qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Asosan bolta, cho‘kich, tayoq ko‘targan xaloyiqning soni 10000 kishiga yetdi. Shunga qaramay, qurolsiz kishilar qizil askarlarning Qo‘qon shahriga qilgan hujumini uch kun davomida madonavor qaytardilar. Shu orada muxtoriyatchilar safida parokandalik yuz berdi 18-fevrada ulamolarning tazyiqi bilan Mustaffo Cho‘qay iste’foga chiqdi va Qo‘qonni tark etdi. Hukumatning boshqa a’zolari esa keyinchalik bolsheviklar tomonidan qo‘lga olindi. Qo‘qon shahri qo‘rboshi mirshablari boshlig‘i Kichik Ergash 18-fevraldan boshlab amalda Turkiston Muxtoriyati hukumatining rahbariga aylandi. 19-fevralga o‘tar kechasi Toshkentdan Turkiston o‘lkasi harbiy komissari Ye.Perfilyev boshchiligida piyoda, otliq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon qo‘shin yetib keldi. 19-fevraldan boshlab 3 kun davomida 10 mingdan ziyod kishi o‘ldirildi. Muxtoriyat qo‘shinining tirik qolgan qismi Kichik Ergash boshchiligida Qo‘qon yaqinidagi Bachqir qishlog‘iga chekindi va mudofaa istehkomlarini qurib, dushman hujumini qaytardi. Qizil gvadiyachilar Qo‘qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va o‘ldirshni

avj oldirishdi. Sovet rejimi Turkiston muxtoriyati hukumatni 19-fevralda qurol bilan ag‘darib tashladi. 1918-yil 22- fevralda Qo‘qon shahridagi “Rus-Osiyo” banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan tinchlik shartnomasi imzolandi. Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko‘rgan bo‘lsa ham u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqlol uchun kurashga davat etdi[2]. Bu hukumatning ag‘darilishi turkistonliklarni tomonidan sovet Rossiyasining Turkistonga nisbatan tajovuzkor rejalari mavjudligining yana bir dalili sifatida qabul qilindi. Turkistonliklar tinch yo‘l bilan milliy davlatchilikni qayta tiklash mumkin emasligini tushunib, 1918-yil fevral oyining oxirida qo‘llariga qurol olgan holatda Turkistonda sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi qurolli harakat boshlab yubordilar. Sovet tuzumi davrida Turkiston muxtoriyatining mohiyati soxtalashtirib, u tor ma’nodagi “Qo‘qon muxtoriyati” bilan almashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston Muxtoriyati o‘lka musulmonlarining chin ma’nodagi mustaqil demokratik davlat qurish yo‘lidagi istaklaring mahsuli edi. Xalq tomonidan iliq kutib olingan va qo‘llab-quvatlangangan muxtoriyat davlatchilik tariximizda muhim iz qoldirdi. O‘zlari uchun katta xavf deb bilingan va iloji boricha muxotiyatni tezroq yo‘q qilish, xorijiy davlatlar bilan aloqalar o‘rnatishga yo‘l qo‘ymaslik uchun bolsheviklar jon-jahdlari bilan harakat qilishdi va afsuski bunga erishdilar ham. Shunday bo‘lishiga qaramasdan Turkiston Muxtoriyati va uni tashkil qilgan vatanparvar ziyolilar xotirasi davlatchiligimiz tarixida abadiy qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. A’zamxo‘jayev Saidakbar. Turkiston Muxtoriyati, Toshkent. 2000.

2. *Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar,* Toshkent: O‘zbekiston. 2000.

3. Rajabov Q.K - Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda milliy majlis a’zolari hayoti va taqdiri. Toshkent. Bodomzor invest”, Toshkent, 2021.

## G’AZNAVIYLAR VA QORAXONIYLAR O’RTASIDAGI ELCHILIK MUNOSABATLARI

Xurramova Zahro
Chirchiq davlat pedagokika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
Tarix yo’nalshi talabasi

**Kalit so’zlar:** Gaznaviylar, Qoraxoniylar elchilik munosabatlari, diplomatiya, siyosiy aloqalar, urushlar ,ittifoqlar , madaniy aloqalar, o’rta asrlar, madaniy tahlil.

**Annotatsiya:** G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasida elchilik munosabatlari O'rta Osiyo va Hindiston tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi diplomatik aloqalar, elchilarning roli va ularning siyosiy-ma'muriy vazifalari tahlil qilinadi. Xususan, ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, savdo, siyosat va madaniyat sohalarida qanday ta'sir ko'rsatgani ko'rib chiqiladi. G'aznaviylar davlati Hindistonda hukmronlik qilib, G'arbiy Osiyo bilan aloqalarini mustahkamlashga harakat qilgan bo'lsa, Qoraxoniylar Markaziy Osiyo hududida mustahkam o'rin egallab, o'zining xalqaro aloqalarini rivojlantirishga e'tibor bergan. Elchilar bu jarayonda muhim vositachilar sifatida ishlagan, ularning diplomatik missiyalari tarixiy manbalarda keng tasvirlangan.

G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi elchilik munosabatlari o'rta asrlar tarixining muhim qismiga aylangan. Ushbu munosabatlar ikki kuchli va ta'sirli davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. G'aznaviylar (971-1186) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan davlat bo'lib, uning asosiysi turkiy xalqlar tomonidan qurilgan edi. Qoraxoniylar esa Sharqiy Turkiston,Yettisuv va Tyanshanning janubiy yonbag'rlarida joylashgan. Bu ikki davlat o'rtasida elchilik aloqalarining rivojlanishi, davlatlararo diplomatiya, savdo va siyosatning muhim elementlariga aylangan.

G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi elchilik aloqalari o'zining boshlanishida juda ehtiyotkorlik bilan rivojlanib borgan. Ikki davlatning o'zaro aloqalari, asosan, siyosiy manfaatlar asosida shakllangan. G'aznaviylar Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismida yirik davlatni tashkil etgan va ko'plab boshqa xalqlar bilan hududiy manfaatlar bor edi. Shu sababli, Qoraxoniylar bilan yaxshi aloqalar o'rnatish G'aznaviylarga Markaziy Osiyo va Hindiston o'rtasidagi savdo yo'llarini nazorat qilishda yordam bera olardi.

Qoraxoniylar esa, o'zlarining hududiy siyosatini kuchaytirish va markaziy Osiyoda ta'sirini oshirish maqsadida, G'aznaviylar bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirgan. Ular orasida elchilarning almashinuvi, ikki tomonlama muzokaralar va kelishuvlar o'rnatish jarayoni juda muhim edi.

G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasida elchilar muhim vositachilar bo'lgan. Elchilar faqat siyosiy masalalarni hal qilish bilan cheklanmay, balki ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, elchilar madaniy almashuvlar, ilmiy bilimlarni tarqatish va savdo aloqalarini mustahkamlashda ishtirok etganlar. Ular ko'pincha turli madaniyatlar va tilda mutaxassislar bo'lgan shaxslar sifatida faoliyat yuritgan.

G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi elchilar tomonidan olib borilgan diplomatik munosabatlar juda ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilgan va ko'plab siyosiy muammolarni hal qilinishida samarali bo'lgan. Shuningdek, elchilar o'zaro kelishuvlarni imzolash, maktublar yuborish va harbiy yordam haqida muzokaralar o'tkazish uchun ishlatilgan.

Savdo G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi asosiy diplomatik vositalardan biri bo'lgan. Hindiston va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo yo'llari elchilar orqali yanada rivojlangan. G'aznaviylar Hindistonning boy resurslarini, jumladan, yaqutlar, ziravorlar va boshqa qimmatbaho mahsulotlarni Markaziy Osiyoga etkazishgan. Qoraxoniylar esa o'z hududlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Hindistonga yuborgan. Savdo aloqalari o'z navbatida diplomatik aloqalarni rivojlantirishga yordam bergan.

G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasida elchilik munosabatlari faqat siyosiy va iqtisodiy sohalar bilan cheklanmagan. Madaniy almashuvlar ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. G'aznaviylar Hindiston madaniyatiga, ilm-faniga va san'atiga qiziqqan. Qoraxoniylar esa o'z hududlarida yirik ilmiy va madaniy markazlarni rivojlantirgan. Elchilar bu jarayonni qo'llab-quvvatlagan va ikki tomonlama madaniy aloqalar o'rnatishga yordam bergan.

G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi elchilik munosabatlari tarixiy jihatdan juda muhimdir. Ular o'rtasidagi diplomatik aloqalar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy sohalarda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Elchilar bu jarayonda asosiy vositachilar sifatida ishlagan va ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi diplomatiya, o'zaro hurmat, savdo va madaniyatning rivojlanishi esa o'sha davrning xalqaro siyosatida muhim o'rin tutgan.

Ikkala davlat o’rtasida savdo va ijtimoiy aloqalar rivojlangan bo’lib ular o’zaro urushlar va ittifoqlar orqali o’z hududiy manfaatlarini himoya qilgan.diplomatik munosabatlar va elchilar o’rtasidagi muloqotlar ikki davlatning o’zaro ishonchini mustahkamlashda muhim ro’l o’ynagan.G’aznaviylar va Qoraxoniylar o’rtasidagi bu aloqalar o’rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida o’ziga xos ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.Rahmonov,A. (1998).** O’rta asrlar Markaziy Osiyo tarixi. Toshkent:O’qituvchi.

**2.Jo’rayev,M. (2005).**G’aznaviylar va Qoraxoniylar o’rtasidagi munosabatlar.Buxoro Universiteti nashriyoti.

**3.Usmonov,M.(2010).**Markaziy Osiyo davlatlarining o’zaro diplomatik aloqalari.

# ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING HARBIY YURISHLARI VA IMPERIYANING INQIROZI

***Shukurullayev Sanjar Uktamovich***
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarixda o‘chmas iz qoldirgan buyuk imperiya asoschisi Aleksandr Makedonskiyning hayoti va uning umri davomida olib borgan harbiy yurishlari, bosib olgan hududlari hamda vafot etganidan so‘ng hokimiyat uchun olib borilgan kurushlar, Aleksandr davlati taxtiga davogarlar haqida qisqacha bayon etilgan. Taxt uchun davogarlik qilgan Arridey, Aleksandr IV va Geraki haqida ham fikr yurutilgan. Qolaversa, 40 yil davom etgan diadoxlar urushi bo‘yicha ham ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘z:** Aleksandr, Makedoniya, Spitamen, harbiy yurish, diadoxlar, Perdikka, Poliperxont, Kassandr, Salavka, Arridey, Aleksandr IV, imperiya.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Eron ahamoniylari manfaati bilan Yunoniston manfaati Kichik Osiyoda to‘qnashib qoladi. Har ikkala davlat bu hududda o‘z ta’sir doirasini kengaytirish va mustahkamlash uchun, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuqori mavqeni egallash uchun harakat qiladilar. Ana shu niyatni amalga oshirish ilinjida makedoniyalik Aleksandring otasi shoh Filipp II (miloddan avvalgi 382–336-yillar) zo‘r berib Eronga qarshi urushga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Xususan, u miloddan avvalgi 338-yilda Xeroneyada bo‘lgan jangda yunon askarlarini mag‘lubiyatga uchratgandan so‘ng Eronni zabt etishni maqsad qilib qo‘ygandi, lekin Filipp II o‘z niyatini amalga oshirolmay 336-yilda uyushtirilgan fitna oqibatida, saroy bazmi vaqtida o‘ldiriladi .

Filipp II vafot etganida Aleksandr (miloddan avvalgi 356-323 ) yigirma yoshda edi. U o‘z faoliyati davomida qadimgi dunyoning mashhur lashkarboshisi va buyuk davlat arbobi darajasiga ko‘tarildi. Bundan tashqari Filipp II o‘ldirilgach, Aleksandrni lashkarlar yig‘ini shoh qilib ko‘tardilar. Taxtni egallagan Aleksandr o‘z raqiblari va taxtga da’vo qilishi mumkun bo‘lgan barcha da’vogarlarni qilichdan o‘tkazadi va mutlaq hokim bo‘lib oladi.

Makedoniyalik Aleksandr 22 yoshida jahon saltanatini tashkil qilishga bel bog‘ladi. Miloddan avvalgi 334-yilda 30 ming piyoda, 5 ming otliq askar, 160 kema bilan qurollanib, Sharqqa yurishni boshlaydi. Bu yurish qariyib 11 yil

davom etadi. Ana shu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonni ham katta-katta hududlarini bosib oladi [1, 48-b].

Aleksandrning Osiyodagi dastlabki harakati xuddi teatr sahnasi kabi ko‘rinish oldi. U Osiyo tuprog‘iga qadam qo‘ygan ilk Makedoniya podshosi edi. Aleksandrning Forslar bilan Kichik Osiyodagi ilk to‘qnashuv hozirgi Turkiya hududida bo‘lib, Granik daryosi, hozirgi Ko‘chabosh bo‘yida, Anatoliyaning shimoli-g‘arbida bo‘lib o‘tadi. Bu davrda forslar tomonidan yunon yollanma askarlari ham bo‘lgan. Jangda Aleksandr Troyadan Afinaga keltirilgan zirhda tushadi. “Axilles zirhi” deb nom olgan bu zirh forslarni sarosimaga soldi. Jangda Aleksandr 2000 nafar vatan xoinini qatl ettirdi, tirik qolganlarni Makedoniyagacha bo‘yinlarida zanjir bilan olib bordi [2, 130-b].

Bu jangdan keyin Aleksandr Doro III qo‘shinlarini mag‘lubyatga uchratadi va

Kichik Osiyodagi bir qancha shaharlarni forslar tasiridan ozod etdi. Miloddan avvalgi 333-yil Kichik Osiyo yarimorolida, O‘rta Yer dengizi shimoli-sharqiy qirg‘og‘idagi Iss shahri yaqinida Fors podshosi Doro III va Makedoniya podshosi Aleksandr o‘rtasida dastlabki jang bo‘lib o‘tdi.

Bu jangda Doro III taktikasiga ko‘ra podshoning eng yaxshi harbiy bo‘linmasi qo‘shin markaziga joylashgan edi. Aleksandrning qo‘shini esa fors qo‘shinlari markaziga nisbatan kuchli bo‘lgan otliq askarlari bor edi. Jang maydoni noqulay bo‘lganligi uchun forslar butun boshli qo‘shinni ishga sola olmadi. Jang og‘ir bo‘ldi va yakunida Eron qo‘shini tor-mor keltirildi. Iss jangidan keyin forslar qarshiligini yetarli miqdorda yengan Aleksandr Suriya va Finikiya tomon yo‘l oldi [2, 131-b].

Aleksandr yurishni boshlab olgandan so‘ng Finikiyadan janubga qarab davom ettirib boradi. Miloddan avvalgi 332-yilda Aleksandr Misrga yurish qildi. Misrliklar Makedon qo‘shinlarini xursandchilik bilan kutib oladilar. Chunki Aleksandrning Misr dini va urf odatlariga hurmati yuqori darajada edi. Shu tarzda miloddan avvalgi 332-yilda Nil daryosi quyilish joyidagi deltada Aleksandriya shahrini barpo ettirdi.

Tarixdan ma’lumki, deyarli barcha hukmdorlar bosib olgan yerlarida o‘zlarining nomlari bilan shaharlar yoki qal’a binolar bunyod ettirgan. Buyuk Aleksandr ham bir qator davlatlarda binolar qal’alar bunyod ettirgan.

Miloddan avvalgi 331-330- yillarda qisqa vaqt ichida Aleksandr Misrni tark etdi va Doro III bilan hal qiluvchi jangga hozirlik ko‘rdi. Doro III unga jang oldidan o‘zining to‘ng‘ich qiziga uylanishni va Frot daryosidan g‘arbdagi barcha yerlarni olishini taklif qiladi va bunga Aleksandr rad javobini beradi. Shu tariqa ikki o‘rtada hal qiluvchi jang miloddan avvalgi 331-yil 1-oktabr

kuni shimoli-sharqiy Iroqdagi Gavgamel qishlog‘ida bo‘lib o‘tdi. Doro III boshliq forslarning mag‘lub bo‘lishi tufayli bu jang yunon tarixidagi eng yaxshi tariflangan jang bo‘ldi [2, 132-b].

Aleksandr shu darajada qudratli ediki, hatto tarixda buyuk bo‘lgan Ahamoniylar davlatini ham parchalashga erishdi. Uning tuzgan davlati kundan-kunga qudratli imperiyaga aylanayotgan edi.

Aleksandr Eronning asosiy viloyatlarini bosib olgach, miloddan avvalgi 329-yilning bahorida Hindikush tog‘idan oshib, O‘rta Osiyo hududlariga kirib keladi. Baqtriyada bu paytda Ahamoniylar urug‘idan bo‘lgan Bess hukmron edi. U Doro III ni o‘ldirishda qatnashib, o‘zini Artakserks nomi bilan podsho deb e’lon qilgan edi. Dastlab baqtriyalik Oksiart, sug‘dlik Spitamen va fors Datafarnlar Bessning niyatini anglab yetmadilar va u bi lan birga bo‘ldilar. Ular Amudaryodan o‘tib Termizga yaqin bo‘lgan joyda ko‘prik vazifasini o‘tab kelgan yakka-yu yagona kemani yoqib yubordilar va Nautaka viloyati (Qashqadaryo) tomon chekinadilar. Shu yerda ular o‘rtasida nizo kelib chiqadi. Sababi, Bess o‘z ittifoqchilari bilan ahamoniylar zulmi va Aleksandrga qarshi birgalashib kurashishga so‘z bergan edi. Endi esa u o‘zining ittifoqchilardan ustun qo‘ya boshlaydi. Buni sezgan Spitamen, Ok siart va Datafarnlar u bilan aloqani uzib, uning o‘zini kishanlab Aleksandrga topshirishga qaror qiladilar. Bu paytda Aleksandr Eronni egallab Bess tomonidan o‘ldirilgan Doro jasadini topib, uni izzat-ikrom bilan dafn qilish uchun Persepolga yuborib, o‘zi Bessni ta’qib qilishga tushgan edi. Ittifoqchilar Bessni kishanlab qal’ada qoldiradilar. Aleksandrga chopar yuborib, o‘zlari esa mamlakat ichki tumanlariga chekinadilar. Bu bilan ular dushman istilolalarini shu yerda to‘xtatmoqchi bo‘lgan edilar. Buning sababi shundaki, Aleksandr Eronga qarshi yurish boshlaganda u o‘z dushmani Doro III ni zaharlab o‘ldirgan Bessdan o‘ch olish niyatida ekanligini e’lon qilgan edi. Aleksandr Nautakada Bessni qo‘lga tushiradi va Arrian bergan ma’lumotlarga qaraganda u Ptolomeyga «Bessni yalang‘och qilib, ko‘chaning o‘ng tomoniga bog‘lab qo‘yishni buyuradi. Sharmandalarcha yap-yalang‘och turgan Bessning yonidan Aleksandrning butun qo‘shinlari saf tortib o‘tadi. Uni sharmandali holda yalang‘och qilib, Eronga olib keladida o‘limga mahkum etadi. O‘limi oldidan qo‘li, burni va oyoqlarini kesib, qiynaydi» [5, 86-b.]. Bu sotqinning sharmandali o‘limi edi. Sotqin, xoin va xiyonatchilardan antik davrlardan e’tiboran xalqimiz nafratlangan. Jumladan, qo‘l-oyogi bog‘liq Bessni Spitamenning o‘zi ham tutib Aleksandrga topshirishi mumkin edi. Lekin Bess har qancha xoin bo‘lmasin Spitamen uni o‘z qo‘li bilan tutib bermaydi. Arrianning ta’kidlashicha, «Bessni o‘z qo‘li bilan tutib berishdan Spitamen or qiladi». U mard o‘g‘lon. Shu bois

Spitamen Bessni qo‘l-oyog‘ini bog‘lab ona Vataniga bostirib kelayotgan dushmani Aleksandrga topshirib, tiz cho‘kishni o‘zi uchun or deb biladi.[6, 49-b.]

Arrian bergan ma’lumotlarga qaraganda u 30 ming mahalliy aholidan 22 mingini qirib tashlagan. Asirga tushishni istamagan tog‘liklarning ko‘plari o‘zlarini qoyalardan tashlab halok bo‘lganlar.

Miloddan avvalgi 328-yilda Aleksandr Spitamen boshchiligida Samarqandda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni shafqatsizlik bilan bostiradi va shaharni ikkinchi marta egallaydi. Diodor bergan ma’lumotlarga qaraganda “Aleksandr qo‘zg‘olon ko‘targan sug‘diylarni yengib, 120 ming aholini qirib yubordi”, uning ikkinchi bosqichida esa “U baqtriyaliklarga jazo berib, sug‘diylarni qaytadan o‘ziga bo‘ysundirdi va joylarda qal’alar barpo etdi”[1, 51-b].

U miloddan avvalgi 327-yilni Nautakda o‘tkazib, bahorda Nautakka yaqin bo‘lgan Sug‘d qal’asini egallaydi. Shundan so‘ng mana shu yilning o‘zida Aleksandr obro‘li Sug‘d zodagonining qizi Roksanaga uylanadi. Bu nikohdan albatta manfaat ko‘zlangan edi. Endi Baqtriya va Sug‘diyona qabila yo‘lboshchilari unga ittifoqchi edilar. Biz bilamizki tarixda podshoh shahzoda va malikalar nikohida aksariyat hollarda manfaat yuzasidan oila qurilgan. Qarindoshchilik aloqalarini o‘rnatish orqali har ikkala taraf ham ko‘plab manfaatli kelishuvlarga erishgan.

Aleksandr Makedonskiy yurishlarni davom ettirar ekan, u miloddan avvalgi 327-yil Hindistonga borganida dastlab Hind vodiysidagi Panjobga kirdi. U tarqoq holda bo‘lgan hind knyazlaridan ma’lum qismini o‘z tomoniga o‘tqizdi [3, 54-b].

Aleksandr Gedroziya cho‘li orqali orqaga qaytar ekan, qo‘shin juda mashaqqatli sinovlarni boshdan kechirdi. O‘g‘ir qiyinchiliklarga qaramay Bobilga yetib keldi. Lekin hech qancha vaqt o‘tmay mash’um voqeya sodir bo‘ldi. Miloddan avvalgi 323-yil 29-may kuni bo‘lgan bazimda Aleksandr Makedonskiy o‘z askarlari tomonidan zaharlandi [2, 136-b].

Ikki haftalik og‘ir betoblikdan so‘ng, miloddan avvalgi 323-yil 13-iyun kuni Aleksandr vafot etdi va ayni paytda buyuk sarkarda o‘ttiz uch yoshda edi. Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 334-yildan 323-yilgacha dunyo tarixidagi eng yirik imperiyalardan biriga asos soladi.

Aleksandr vafotidan keyin amalda yagona davlatning oliy hokimi bo‘lgan Perdikka Bobilda makedon podshosining eng yaqinlari o‘rtasida satrapliklarni taqsimlagan edi. Yunoniston va Makedoniya Antipatrga, Frakiya Lisimaxga, Misr - Pitolomeyga, Kappadokiya va Paflagoniya - Yevmenga, Gellesfont Frigiyasi - Leonardga, Buyuk Frigiya - Antigonga, Suriya - Laomedontga,

Midiya - Pifonga berildi. Barcha yangi saylangan hokimlar o‘z qo‘shinlari bilan o‘z mulklariga jo‘nab ketdilar. Aleksandrning aynan ana shu sobiq safdoshlari (diadoxlar) Aleksandr merosi uchun qonli kurashni boshladilar.

Aleksandr o‘limidan keyingi ikki yil davomida Yunoniston makedon zulmidan ozod bo‘lishga urindi. Antipatr yunon qo‘shinlarini tor-mor qilib, bu yerga makedon garnizonlarini joylashtirdi. Mil.avv. 321-yilda Misrda o‘mashib olgan va Perdikkani regentligini tan olmagan Ptolemeyga qarshi yurishda Perdikka halok bo‘ldi. Endilikda davlat regenti qilib Yunoniston va Makedoniyaning hokimi keksa Antipatr saylandi. Uning buyrug‘i bilan podsho oilasi Makedoniyaga ko‘chirildi.

Antipatr topshirig‘i bilan mil.avv. 321-yilda satrapliklar qisman qayta taqsimlandi. Natijada kelajakdagi eng yirik Osiyo davlatining asoschisi Salavka Bobilni o‘z qo‘liga oldi. Shundan ikki yil keyin mil.avv. 319-yilda Antipatr vafot etdi. U regentlikka voris qilib, keksa va tajribali harbiy boshliq Poliperxontni tayinlashga ulgurgan edi.

Ammo bu Aleksandrning sobiq yaqinlari yosh g‘ayratli lashkarboshilarni qondirmadi. Jumladan, Antipatrning bu qaroridan o‘g‘li Kassandr norozi bo‘lib, Poliperxontdan bu lavozimni tortib olish uchun Sharqdagi satraplar Lisimax, Antigon va Ptolemey bilan ittifoq tuzdi. Mil.avv. 316-yilda Poliperxont regentlikdan chetlashtirildi, Kassandr butun Yunonistonni egallab oldi. Lekin Antigon va Aleksandrning sobiq kotibi Yevmen Kassandrni kuchayib ketishidan norozi boldilar. Aleksandr davlatini yaxlitligini saqlab qolishga uringan separat kayfiyatlarga qarshi natijasiz kurashgan birdan-bir kishi Yevmen edi. U makedon podsholigining «Qonuniy» podsholari nomidan harakat qilgan, qator sabablarga ko‘ra hech qanday hudud va qo‘shinga ega bo‘lmagan birdan-bir diadox edi. Lekin uning qo‘lida Aleksandr sobiq davlatining turli shaharlarida bosib olingan katta miqdordagi moliyaviy mablaglar bor edi. Yevmen ana shu mablaglar hisobiga katta yollanma qo‘shin to‘plab Bobil va Eronni bosib olishga urindi. Bu xavfga qarshi Antigon Bobil va Midiya satraplari Pifon va Salavk bilan ittifoq tuzdi va Yevmenga qarshi yurish qildi. Mil.avv. 316-yilda Gabiyn yonida (Midiya va Eron chegarasi) Yevmen bilan Antigon o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘ldi. Yevmenning yollanma qo‘shinlaming xoinligi jangni Antigon foydasiga hal qildi. Yevmen qo‘lga olinib qatl qilindi.

Mil.avv. 317-yilda Aleksandrning onasi Olimpiada hokimiyatni Roksananing o‘g‘liga qoldirish uchun Filipp Arridey va uning xotini Evridikani o‘ldirishga buyruq berdi. Shundan so‘ng uning o‘zi Kassandr tomonidan qatl qilinadi, Roksana va Aleksandr IV Kassandrni asirligida bir

necha yil ushlab turilib o‘ldiriladi (mil.avv. 311 -yil yoki 310-yil). Yuzaga kelgan bu vaziyat diadoxlarni o‘z hududlarida o‘z podsholik hokimiyatlarini o‘rnatishga intilishlari uchun hech qanday rasmiy to‘siq qolmaganini bildirar edi.

Diadoxlar o‘rtasidagi urushlar uzoq davom etib, Yunoniston, Misr, Kichik Osiyo va Mesopotamiya asosiy jang maydonlariga aylandi. Mil.avv. 306-yilda Antigonning o‘g‘li Demetriy Poliorket («shaharlarni qamal qiluvchi») makedon garnizonlarini Yunonistondan haydab yubordi, Afina va Megarada erkinlik va demokratiya e’lon qilindi. Mil.avv. 306-yilda Antigon, keyinroq Ptolemey, Lisimax, Salavk va Kassandr o‘zlarini podsho deb e’lon qildilar.

Mil.avv. 301-yilda Antigon, 297-yilda Kassandr, 285-yilda Demetriy Poliorket, 281-yilda Lisimax, 283-yilda Ptolemey Lag, 281-yilda Salavk o‘ldi. Aleksandrning safdoshlari va bevosita merosxo‘rlaridan so‘nggi diadox bo‘lgan Salavkning halokati bilan diadoxlar davri tugadi. Ularning o‘rniga Ellin podsholari (Epigonlar) avlodi keldi.

Aleksandr vafotidan so‘ng, uning eng yaqinlari diadoxlar o‘rtasidagi 40 yillik urush natijasida Aleksandr davlati xarobalarida 3 asosiy eng yirik podsholiklar Makedoniya (unga bo‘ysundirilgan Yunoniston), Misr (Suriyaning janubiy qismi va Kichik Osiyoning ba’zi viloyatlari) va Salavkiylar davlati (Osiyo mulklarining asosiy qismi) tashkil topdi. Ulardan tashqari ellin davrida bir qancha katta-kichik davlatlar birlashmalari Pergam, Vifiniya, Pont, Kappadokiya, Yunon-Baqtriya va Parfiya podsholiklari vujudga keldi. [7,bet-290-292]

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Aleksandr Makedonskiy qisqa vaqt davomida ya’ni, miloddan avvalgi 334-323-yillarda ulkan imperiya asoschisiga aylandi. Uning harbiy mahorati hamda o‘ziga xos jang olib borish strategiyasi unga bu imperiyani tuzishga va katta-katta hududlarni egallashga qo‘l keldi. Bugungi kunda ham uning bunday mohirona strategiya bilan davlatni boshqarganiga ajablansa arzidi. Aleksandr vafoti etgan vaqtida makedon taxtiga qonuniy da’vogarlar bo‘lmagan. Bu o‘z navbatida taxt uchun kurash bo‘lishini bildirgan. Taxt uchun Iskandarning xotini so‘g‘d malikasi Roksana hali bo‘lganligi, fors satrapi Artabazning qizi Barsinadan 4 yoshli noqonuniy o‘gil Geraki va taxtga Filipp II ning noqonuniy o‘gli aqli zaif Arridey ham da’vo qilishgan. Roksananing o‘g‘liga go'dakligi davrida hokimiyatni tajribali sarkarda Perdikka boshchiligidagi davlat kengashiga topshirish kerak deb hisobladilar. Harbiy boshliqlar va saroy ayonlarining boshqa bir guruh Arridey nomzodini yo‘qlab chiqdilar. Obroli lashkarboshi Nearx makedon taxtiga birdan-bir da’vogar Geraki bo‘lishi

mumkin deb hisoblagan. Aleksandrning safdoshi, lashkarboshi Ptolemey boshchiligidagi yana bir guruh podshoni saylash kerak emas, chunki Aleksandrni o‘g‘illarining onalari Sharq ayollari, uning asiralaridir, oqibatda bunday da’vogarlarni taxtga chiqarish hamma vaqt noqonuniy bo‘ladi deb hisoblashlari katta urushlarga sabab bo‘lganligi bejiz emas. Taxt vorisi to‘g‘risidagi munozaralar natijasida Perdikka regentligi bilan Arrideyni podsho deb e’lon qilingan. Xuddi shu vaqtda Roksana o‘g‘il tug‘adi. Makedon taxtiga birdaniga Arridey Filipp III nomi bilan Roksananing o‘gii Aleksandr IV nomi bilan podsho deb e’lon qilindi. Osiyodagi qo‘shinlar qo'mondonligini o‘ziga olgan Perdikka yana regent etib tayinlandi, shunday qilib, u Aleksandr davlatining amaldagi hokimiga aylandi. Ammo bu keyinchalik davlat parchalanishidan saqlab qolomadi. Bir so‘z bilan aytganda Aleksandr Makedonskiy o‘z davrining mohir sarkardasi, buyuk imperiya asoschisi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan bo‘lsa-da uning vafotidan so‘ng davlat urushlar girdobiga tushdi va Aleksandr davlati bir necha qisimlarga bo‘linib ketishiga sabab bo‘ldi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

[1]. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov “Vatan Tarixi” birinchi kitob «Sharq» nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2010.

[2]. D.J.Urakov, A.A.Biykuziyev, B.B.Xaynazarov “Jahon Tarixi” Tom II Qism, “Qadimgi Yunoniston va Rim Tarixi” «Metodist Nashriyoti» Toshkent-2023.

[3]. S.A. Toshtemirova “Tarixshunoslik” (o‘quv qo‘llanma) «Zebo Print» Toshkent-2022.

[4]. Nurbek Ilhomiddin o‘g‘li Shafoatov tarix fanini o‘qitishda makedoniyalik aleksandr davlatining inqirozi // Scientific progress. 2021. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tarix-fanini-o-qitishda-makedoniyalik-aleksandr-davlatining-inqirozi (дата обращения: 11.12.2023).

[5]. Бойназаров Ф. Қадимги дунё тарихи. – Т.: Иқтисод-молия. 2006. 83-бет.

[6]. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov. “Vaqtan Tarix” «ShARq» nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati toshkent — 2010. bet-49

[7]. R. Rajabov “Qadimgi dunyo tarixi” Toshkent-2010. Bet-290-292

# ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MOVAROUNNAHR VA HINDISTON TARIXIDAGI O‘RNI

***Norqobilova Durdona Shabonovna***
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning Movarounnahr va Hindiston tarixidagi o‘rni haqida so‘z boradi. XV asr oxiri va XVI birinchi yarimida Movarounnahr va Hindiston bo‘lib o‘tgan siyosiy jarayonlarda Boburning o‘rni yoritilgan va bu haqida fikr-mulohazalar yuritib o‘tilgan.

**Kalit so‘z:** Movarounnahr, "Boburnoma", sulola, Samarqand, Shayboniyxon, xiyonat, Afg‘oniston, Hindiston, Lo‘diy.

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan shoh, adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Bobur hayotida kechgan voqealarni o‘zining “Boburnoma” asarida yozib qoldirgan. U “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy olgan.

Boburning tarix sahnasiga chiqqan holda faoliyat boshlanishi 1494 — yilda Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon, Samarqand podshosi Sulton Ahmad Mirzo ittifoq tuzib, biri Sirdaryoning janubidan, ikkinchisi shimoldan Axsi ustida qo‘shin bilan hujum qilishayotgan vaqtga to‘g‘ri keladi. Shu orada falokat yuz berib, Axsi qo‘rg‘onida jar yoqasida turgan Umarshayx Mirzo kaptarxonasi bilan birga qulab, halok bo‘ladi. Shu kundan boshlab u ulug‘ bobosi Amir Temurning buyuk davlatini qayta tiklash va mustahkamlashni maqsad qilib qo‘ydi. Bobur hayotini muhim rol o‘ynagan janglar ham Samarqand bo‘lgan. Bu janglar uning hayotini ostin-ustun qilib yuborgan va Boburning shamshirini Hindistonga qaratishga sabab bo‘lgan.

1495-yilda Samarqand Sulton Ali qo‘lida edi. Ammo Sulton Mas’ud va Boysung‘ur Mirzolar ham Samarqand uchun kurash boshlaydilar. Amakivachchalaridan ilhomlangan Bobur ham bu kurash girdobiga qo‘shiladi. Bir muddat Samarqandni qamal qiladi. Ammo do‘stlik va sulh taklifi bilan chiqqan Sulton Alining so‘zini qabul qilib, ortga qaytadi. Boysung‘ur Mirzo esa Samarqandni egallaydi. 1497-yilda Bobur yana Samarqandga yurish boshlaydi. Boysung‘ur Mirzo Shayboniyxondan madad so‘raydi. Yetti oy

davom etgan jangdan so‘ng Boburning qo‘li baland keladi. Ammo Boburning g‘alaba nashidasi uzoq davom etmaydi. Talon-taroj natijasida Samarqand nochor ahvolga tushib qoladi. Qo‘shin ta’minotidan ham qiynalishadi. Natijada, uylarini ham sog‘ingan cherik ahli birin-ketin Andijonga qochib keta boshlaydi. Hatto, ishongan beklari – Ahmat Tanbal, Xonqulli, Ibrahim Bekchik kabilar ham Samarqandni tark etadi.[1, b- 273].

Ayni shu paytda Andijonda ham notinchlik boshlangandi. Uning sababi Ahmat Tanbal va Axsini vaqtincha boshqarish uchun qoldirgan Uzun Hasanning

xiyonat yo‘lini tutishi, ya’ni Boburning ukasi Jahongir Mirzoni Andijon hokimi etib tayyorlash rejasini tuzishi edi. Shu tariqa Bobur volidasi va piri Xoja Qozi yo‘llagan maktublari va da’vatlari sababli Samarqandni tark etishga majbur bo‘ldi.

1498-yil fevral oyida Andijon sari yo‘l oldi. U Xo‘jandga yetganda, Andijonning muxolifatchilar qo‘lida ekanligini eshitadi. O‘rtada ham Samarqand, ham Andijondan ajralgan Bobur qattiq ruhiy iztirobga tushadi. Shundan keyin uning hayotida o‘g‘ir va sinovli kunlar boshlanadi. U ikki yilga yaqin Xo‘jand, O‘ratepa atrofida na davlat, na mulksiz mashaqqatli hayot kechiradi. 1499 — yilning yoz oylarida O‘ratepa atrofida Ali Do‘st Tag‘oyidan xabar keladi, xabarda agar gunohlari afv etilsa, Marg‘ilonni Boburga topshirish niyatida ekanligini aytadi. Bu taklifni Bobur o‘ylab o‘tirmay qabul qiladi. Bir necha kun yo‘l yurib Marg‘ilonga yetib keladi. Ahmad Tanbal va Uzun Hasanning zulmidan charchagan xalq Boburni mamnunlik bilan qarshi oladi. Bir necha kunlik jangdan so‘ng Andijon qayta qo‘lga kiritiladi. Ammo Ahmad Tanbal Jahongir Mirzoni podshoh qilib ko‘tarish rejasidan qaytmagan va janglar davom etar edi. Nihoyat, urush sulh bilan yakunlandi.

Bobur 1500 — yilda Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oyshabegimga uylandi. Shu yildan Boburning she’rlar yoza boshlagani ma’lum. Uning dastlabki she’rlari fors tilida edi. Boburning saltanat uchun olib borgan kurashida eng avvalo bobosining davlatini tiklash istagi turar edi. Shu orada Turkistondagi o‘zbeklar xoni Shayboniyxon Buxoro va uning atroflarini egallab, Samarqandga tahdid solib kelar edi. Sulton Ali Boburga murojaat qiladi, shunda Bobur shoshilinch Samarqand tomonga yuradi. Sangzor bo‘yiga yetganda, shahar Xoja Yahyo qo‘lida ekanligi ma’lum bo‘ladi va u Samarqandni Boburga jangsiz topshiradi. Ayni paytda chopar Shayboniyxonning katta kuch bilan Samarqandga yo‘l olgani haqida xabar keltiradi. Bobur kuch to‘plash uchun Shahrisabzga jo‘naydi. O‘n kun o‘tmay Shayboniyxon Samarqandni qo‘lga kiritadi. Ma’lum bo‘lishicha, Sulton Ali

Mirzoning onasi Zuhrabegim Shayboniyxonga xufiyona xat yozadi, unga uylansa, Samarqandni o‘g‘lidan olib berishini bildiradi. Shayboniyxon bundan ustalik bilan foydalanadi va shaharni jangsiz oladi. So‘ng Zuhrabegimni navkarlaridan biriga in’om qilib yuboradi. Sulton Alini gumdon qiladi. Xoja Yahyoni ham ikki o‘g‘li bilan o‘ldirib yuboradi. [2, b-9-10].

Samarqandni qo‘ldan chiqqanini eshitgan Bobur, 240 kishilik qo‘shini bilan tavakkal qilib yana shahar darvozasidan kirishga ahd qiladi va buni uddasidan chiqadi. Shu tariqa 19 yoshida Bobur yetti mingga yaqin qo‘shinga ega bo‘lgan tajribali podshoh Shayboniyxon qo‘lidan Samarqandni 240 kishisi bilan tortib oladi. Afsuski xursandchiliklar uzoq cho‘zilmadi. Shayboniyxon shaharni uzoq muddatda qamal qildi va shu vaqt oralig‘ida Boburga sulh taklif qildi. Bobur esa shahar aholisi omon qolishi uchun sulhga rozi bo‘ldi. Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi.

1503-yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tor-mor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir Mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur bo‘ladi. 1504-yilning oktyabrida hududi ancha kichik bo‘lgan Farg‘ona viloyatini tashlab, sarson-sargardonlikni boshidan kechirgan Bobur Mirzo Kobul va G‘aznani jangsiz qo‘lga kiritib, ulkan davlat taxtini egallaydi [3] Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. 1507-yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi, ammo bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi [4].

Bobur Mirzo 1508-yilida Afg‘onistonning podshosi deb e’lon qiladi va Qobul davlat poytaxti bo‘ldi.

1510- yilda Muhammad Shayboniyxon o‘limidan so‘ng Bobur Mirzo Eron shohi Shoh Ismoildan yordan olib, Movarounnahr yurish boshladi. 1511 yilda Shoh Ismoil qo‘shinlari yordamida shayboniylar qo‘l ostidagi Hisor, Ko‘lob, Qunduz, Badaxshon va Qarshi erlarini egallab, Samarqandni ham uchinchi marta qo‘lga kiritdi. Movarounnahrni butunlay qo‘lga kiritish niyatida

bo‘lgan Boburga Safaviylarning tajribali sarkardasi Najmiddan Soniy boshchiligidagi 12 ming qo‘shini kelib qo‘shildi [5].

Bobur Samarqandni egallagach, noilojlikdan islomning shialik yo‘nalishiga e’tiqod qiluvchi shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e’lon qildi. Bu esa Samarqand xalqining Bobur Mirzodan yuz o‘girishiga sabab bo‘ldi. Chunki Movarounnahr aholisi, Boburning o‘zi ham islomning sunniylik yo‘nalishiga e’tiqod qilganlar. Bu esa shia va sunniy adovatlari yanada avj olishiga sabab bo‘ldi. Boburning ittifoqchilari, shia mazhabidagi eroniy qizilboshlilarning[30] talon-tarojlar (ayniqsa, Samarqand va Qarshi shaharlarida) tufayli mahalliy aholi Boburni qo‘llab-quvvatlamadi. Bobur va eroniylarning birlashgan qo‘shinlari bilan Shayboniylar o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1512 yilning noyabrida G‘ijduvon yaqinida bo‘lib o‘tadi. Mazkur jangda Shayboniyxonning jiyani, Sulton Mahmudning o‘g‘li Ubaydulla Sulton tomonidan ittifoqchilar qo‘shnini tor-mor etildi. Bu mag‘lubiyatdan so‘ng Bobur Movarounnahrdan butunlay chiqib ketdi va Qobul hamda uning atroflarida o‘z hukmronligini to‘la mustahkamladi [6]. Bobur Mirzoning bundan keyingi maqsadi Hindiston sari bo‘ldi.

1505-yildan Hindistonga dastlabki yurishini boshladi. Bobur Hindistonga besh marta yurish qildi. Dastlabki to‘rt yurishi o‘ziga xos sinov yoxud tayyorgarlik yurishlari bo‘ldi. Birinchi yurishda ( 1519-yilda ) u Bajur va Behra viloyatlarini bo‘ysundirib qaytgandi. Biroq har ikkala viloyat ham Bobur orqaga qaytishi bilanoq mustaqil siyosat olib boraverdi. Shu yili u yana Hindistonga yurish qildi-yu, biroq bus afar Peshovardan qaytib ketdi. Uchinchi bor yurishida Bobur ( 1520-yilda ) Panjobgacha kirib keldi va Sialkot hamda Sayidpur qal’alarini o‘ziga bo‘ysundirdi. To‘rtinchi marta u Hindistonga 1524-yilda yurish qildi va bus afar Lohur va Dibolpurgacha bo‘lgan hududlarni egalladi. U Davlatxon Lo‘diyning Panjobni o‘z ixtiyorida olib qolish niyatidan ranjigan edi. Lekin u Olamxon Lo‘diy va Dilovarxon Lo‘diyga muruvvat qildi. Panjobni ular ixtiyorida qoldirib, o‘zi Kobulga qaytdi. U qaytishi bilanoq, Davlatxon yana Panjobni bosib oldi. 1525-yilgi yurishda Bobur Hindistonni butunlay ishg‘ol qilish niyati bilan safarga otlangan edi. Nihoyat, 1525-yilda Bobur 12 ming qo‘shin bilan Hindistonga yurish boshladi. 1526 — yili 21-aprelida Panipatda Boburning 12 minglik qo‘shini Hind sultoni Ibrohim Lo‘diyni 100ming kishilik askari bilan to‘qnashadi. Bu jangda Bobur qadim turk jang usulidan ya’ni buyuk bobosi Temur tajribasidan mohirona

[30]Safaviylarning asosiy tayanch kuchi bo‘lgan turk ko‘chmanchilari XV asrning 2-yarmida “qizilboshlilar” deb atalgan. Bu harbiy ko‘chmanchilar shia imomlari sharafiga boshlariga 12 qizil chiziqli salla o‘rab yurganlar.

foydalanadi. Shu tariqa jangda Boburning qo‘li baland keladi va Hindistonga uning nomi bilan ataladigan mustahkam bir davlat maydonga keladi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1527-yilda Qanva yaqinida ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. 1528-yilda Chandiriydagi jangda ham ustunlik Bobur tomonda bo‘ldi. 1529-yilda Gagra yonidagi janda Ibrohim Lo‘diyning ukasi Mahmud Lo‘diy bilan bo‘lgan to‘qnashuvda Bobur lashkari yana g‘olib keldi. Shu yilda Bengal shohi Nusratshoh bilan do‘stona aloqalar ham o‘rnatdi.

Bobur Hindistonda ham xuddi Afg‘onistonda bo‘lganidek, ko‘plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o‘zaro ichki nizo, qirg‘inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilm-u hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. 1526- yilning 21-aprelida Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayli omon qoladi. Biroq Boburning sog‘ligi yomonlashib boradi, 1527 — yilning 13- oktyabrda og‘ir xastalanib yotib qoladi. Bobur 1530 — yilning 26- dekabrda Agrada vafot etadi. [7, b-75.] 1539-yil, vasiyatiga muvofiq, xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod ettirgan «Bog‘i Bobur»ga qo‘yildi.

Hind xalqining buyuk farzandi Javoharlal Neru «Hindistonning kashf etilishi», «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Bobur Mirzo va uning nabirasi Akbarga yuksak baho bergan. U shunday deb yozadi: «Bobur — dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukm- dori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi».[8]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi xalqimizning farzandlaridir. Ular o‘zlarining serqirra faoliyati va ijod durdona asarlari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo‘shdilar. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining buyuk shoiri, iqtidorli sarkardasi, tarixchi va din peshvosi sifatida tanilgan ulug‘ siymolardan biri hisoblanadi. Biz shunday bobokalonlarimizning avlodlari bo‘lganimizdan doimo faxrlanib ularga mos avlod bo‘lishga harakat qilmog‘imiz kerak. Zero kelajak bizning qo‘limizdadir.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

[1]. MA'NAVIYAT YULDUZLARI . « 0'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent — 2011. Bet- 273.
[2]. G'offurjon Sotimov. BOBURIYZODALAR." Ma'naviyat" nashriyoti. Toshkent — 2003. Bet — 9-10.
[3]. Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. - Toshkent. Sharq. 2011. 24-bet.
[4].https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bobur
[5]. B.J.Eshov, A.A.Odilov "O'zbekiston tarixi" I – jild Toshkent-2013. Bet-346
[6]. B.J.Eshov, A.A.Odilov "O'zbekiston tarixi" I – jild Toshkent-2013. Bet-346
[7]. N.G'. Nizomiddinov. BUYUK BOBURIYLAR TARIXI ( XVI- XIX asr) Managrafiya — T: "Fan va Texnalogiyalar" nashriyoti. Toshkent -2012. Bet -75.
[8]. НеруД.Открытие Индии. М., Политиздат, 1989, стр. 272-273.

## JADIDCHILIK ASOSCHISI ISMOIL G'ASPIRALI FAOLIYATIGA TASNIF.

**Jo'rayeva Zuhra Jalol qizi**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Turkistonda jadidchilik harakati va yangi ziyolilarning shakllanishida Ismoil G'aspiralining faoliyati, ayniqsa, u nashr qilgan "Tarjimon" gazetasi muhim rol o'ynagan. Turkiston jadidlarining I. G'aspiraliga bo'lgan munosabatini aniqlash ularning ijodi va faoliyatini batafsil tahlil qilishni taqozo etadi. Jadidlar milliy birlik, ma'navi-marifiy islohotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganlar.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik, Ismoil G'aspirali, Majid G'anizoda, Tarjimon Gazetasi, "Moskovskiye vedomosti" gazetasi, "usuli jadid", "usuli savtiya", Zinjirli madrasasi.

Insoniyat tarixida shunday siymolar borki, ular ma'rifat va madaniyat sohasidagi ulkan xizmatlari bilan nafaqat o'zlari mansub bo'lgan millatning,

balki qardosh va qondosh millatlarning ham yangi tarixiy taraqqiyot bosqichiga koʻtarishga munosib hissa qoʻshganlar va qoʻshib kelmoqdalar.

Turkiy xalqlarning madaniy taraqqiyotiga shunday katta va bebaho hissa qoʻshgan siymolaridan biri Ismoil Gʻaspiralidir. Ismoil oiladagi ikkinchi oʻgʻil boʻlib, 1851-yilning 21-martida Ovchikoʻy qishlogʻida tugʻildi. U toʻrt yoshga toʻlganida oilasi Bogʻchasaroy shahriga koʻchib oʻtadi va u yerda joylashib qoladi.

Yosh Ismoil ilk savodini Bogʻchasaroyda, Zinjirli madrasasida Hoji Ismoil degan muallim qoʻlida chiqaradi. Uning bu tahsili 10 yoshga toʻlguniga qadar davom etadi. Ayrim tadqiqotlarda uning tahsili madrasada 7 yil davom etganligi ta'kidlansa, ba'zilarida esa Gʻaspiralining madrasadagi tahsili juda oz boʻlib, hatto ona tilidan ham yaxshi savod olmagan, degan fikrlar aytiladi. Lekin uning oʻz ona tilisi boʻlgan qirim-tatar tilini yaxshi bilmasligi mumkin emas.

Har holda u 10 yoshiga qadar oilasi bagʻrida boʻldi va mahalla maktabi hamda madrasada tahsil oldi. Aynan 10 yoshga toʻlganida otasi Mustafobey oʻgʻlining oʻqishini Maskvaga koʻchirtiradi. Moskva shahrida yosh Ismoil "Moskovskiye vedomosti" gazetasining bosh muharriri professor Ivan Katkov oilasida istiqomat qiladi. 1868-yili 17 yoshga toʻlgan Gʻaspirali Moskvadagi oʻqishini tashlaydi va Bogʻchasaroyga qaytib keladi[31]. Shu bilan birga Gʻaspirali diniy va dunyoviy bilimlarni oʻrganib, xalqqa targʻib qilishni, butun Turkiston boʻylab yoyishga harakat boshladi. U turkiy xalqlardagi jaholatni yoʻq qilish, ma'naviyat-ma'rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar darajasiga koʻtarish harakatini boshlab berdi. Maorifni isloh qilish, maktablarda dunyoviy fanlarni oʻqitish masalalarini yuqori oʻrinlarda qoʻydi. Shu tariqa butun turkiy xalqlar orasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisiga aylana bordi.

I. Gʻaspirali sharq bilan gʻarbni taqqoslab, musulmonlar va turkiylar dunyosi, xususan Rossiya tasarrufidagi musulmonlarning jahon taraqqiyotidan uzilib qolayotganini birinchi boʻlib angladi. Ular turkiy xalqlardagi jaholatni yoʻq qilish, ma'naviyat-ma'rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar darajasiga koʻtarish harakatini boshlab berdi. Maqsad jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi.

Turkistondagi jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rossiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga boʻyida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga

[31] Исмоилбек Гаспринский ва Туркистон./Масъул мухаррир Наим Каримов./ — Т.;- "Шарк", 2005. 288 б.

keldi. Bu chor hukumatining Turkiston va umuman g‘ayri-rus musulmonlar maorifi borasidagi rasmiy nuqtai nazari, amaldagi joriy siyosati edi. Shunga qaramay, Ismoilbek yangi maktab g‘oyasidan voz kechmadi. Aksincha, u haqdagi fikrlarini tezroq shakllantirishga, o‘ylab yurgan rejalarini amalga oshirishga kirishdi.

1884-yilda “usuli jadid” nomi bilan yangi maktab ochdi. U qisqa muddatda keng jamoatchilikning diqqatini tortdi. “...1884-sanasi Boqchasaroyda bir maktab(n)i usuli jadidga qo‘ymish edim,-deb yozadi Ismoilbek. - Samarasi umidim — dan ziyoda o‘ldi. Bir qoch (qancha) maktablar usulim(n)i qabul ila isloh o‘ldilar. Soir (ko‘p) viloyatlardan usul ko‘rniiya (ko‘rm akka) kelub-kedanlar o‘lub, bu soyada har tarafdan ikki yuzdan mutajovuz (ortiq) maktablar usulimi qabul etdilar...”[32]. Aynan G‘aspirali ochgan yangi jadid maktabi uchun o‘zi tuzgan ta’lim dasturi asosida darslik tayyorlay boshladi. Shu dastur bo‘yicha 40 kun ichida 12 ta o‘quvchining savodini chiqargan. Bu usulni "usuli savtiya" - harf tovush usuli bo‘lib, "usuli jadid" nomi bilan keng tarqaldi. Shu tariqa, o‘qitiladigan darsning mazmunidan uni o‘qitish usuli va baholash jarayonigacha, o‘quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvali-yu, qishki va yozgi ta’tiligacha, maktabning joylashish o‘rnidan, sinf xonalarining jihozi-yu yorug‘lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko‘rib chiqilib, maktab ta’limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Bu dastur “usuli jadid” nomi bilan shuhrat topdi.

Jadid atamasining ommalashuvi ham, birinchi navbatda, mana shu “usuli jaded” bilan bog‘langandir. I. G‘asprali Rossiyadagi musulmon turklar olamiga o‘qish-o‘qitishning yangi usulini olib kirdi va shu bilan birga uning bevosita amaliyoti bilan ham shug‘ullandi. 1893-yili G‘aspirali shirvonlik shogirdlaridan Majid G‘anizoda bilan Turkistonga yo‘l oldi. Samarqandni tomosha qildi. Amir Abdulahadxon yuborgan foytunga o‘tirib, Shahrisabzni ziyorat qildi. Samarqand va Buxoroda “usuli jadid” maktablari ochdi. Majid G‘anizoda Ismoilbekdan izn olib, Samarqandda 40 kun qoldi va “usuli savtiya” o‘rgatdi.

A.V. Pyaskovskiyning ma’lumot berishicha, 1895-1901-yillarda Toshkentda to‘rtta usuli jadid maktabi tashkil topgan edi. 1900-yili Andijonda ochildi... Bularning ma’lum qismi tatar maktablari edi. Hukumat tubjoy xalqning ko‘zi ochilishiga qattiq qarshilik ko‘rsatib bordi. Jumladan, 1901-yili Munavvarqorining, 1904-yilda Avloniyning “usuli jadid” maktabi ochish haqidagi arizalari bir necha bor rad etilgani haqidagi hujjatlar arxivlarda

[32].Ismoilbek Gasprinskiy. Rahbari m uallim in yoki muallimlarga yo‘ldosh. Simferopol, 1898. 4-b.

saqlanib qolgan. Ayni paytda Rusiya hukumati rus-tuzem maktablariga zo‘r berdi. Mahalliy xalqni ruslashtirishda asosiy vosita deb qaralgan bu maktablarni Ismoilbek 1881-yilda rus-tatar xalq maktablari misolida maqsad-maslagidan tortib, o‘qish-o‘qitish tizimigacha keskin tanqid qilib chiqqan edi[33]. Shunday maktablar 1884- yildan Turkistonda ham ochila boshladi. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yilning 19-dekabrida Toshkentda tashkil etilgan. 1891-yili Xivada ochilgan. 1892-yilda Turkiston o‘lkasidagi rus-tuzem maktablarining soni 21 taga yetgan. 1894-yili Buxoroda ham tashkil qilingan. 1917-yilning boshlarida Turkistonda 170ga yaqin rus-tuzem maktabi bor edi [34].

Shularga ko‘ra bu maktablar bolalarni shunchaki xat tanishga o‘rgatish emas, ijtimoiy-siyosiy savodini chiqarishda ham muhim rol o‘ynaydi. Lekin yangi maktab masalan, Turkistonda xususan Buxoroda osonlikcha o‘ziga yo‘l ochgani yo‘q. Bir tomondan chor hukumati yo‘l bermaydi, ikkinchi tomondan-mutaassiblik. 1909-yili Buxoroda “usuli jadid” maktabi atrofida katta janjal ko‘tarildi. 3-4 yildan buyon ishlab turgan yangi usul no‘g‘oy maktablari, 1908-yilda bir tojik maktabining “usuli jadid”ga aylantirilishi, imtihonlar va ularning favqulodda natijalari bu maktablarga katta shuhrat keltiradi. Yangi maktab, umuman, yangi fikr mana shunday qiyinchiliklar bilan kirib kelgan edi.Ismoil Gaspirali 1914-yil 24-sentyabrda Baxchisaroy shahrida vafot etgan va Zinjirli madrasasi hududida dafn etilgan. Simferopol va Baxchisaroyda Ismoil G‘aspiraliga haykallar o‘rnatilgan. Ko‘chalar va kutubxona Ismoil G‘aspirali nomi bilan ataladi[35].

Mustaqillik yillardan keyin Ismoil G‘aspirali medali Qrim Respublikasga taqdim etildi. 2016-yilda Qrim Respublikasi Davlat kengashi tomonidan Qrim Respublikasi xalqlarining madaniy va ma’naviy rivojlanishiga qo‘shgan muhim shaxsiy hissasi, Qrim Respublikasi manfaatlari yo‘lida an’anaviy konfessiyalarni mustahkamlashga qo‘shgan hissasi uchun, Qrimda millatlararo va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlashdagi alohida shaxsiy xizmatlari uchun tashkil etilgan Baxchisaroyning muhim tarixiy yodgorliklari Ismoil Gaspirali uy-muzeyi va Zinjirli madrasasidir. Restavratsiyadan so‘ng muzey sayyohlar uchun mehmondo‘st eshiklarini ochdi.Simferopol va Baxchisaroyda Ismoil G‘aspiraliga haykallar o‘rnatilgan. Ko‘chalar va kutubxona Ismoil G‘aspirali nomi bilan ataladi.

---

[33] Ismoilbek Gasprinskiv. Iz naslediva. Sim feropol. «Tavriya». 1991.4 2-43-b

[34] O‘zbekiston Respublikasi. Ensiklopediva — T.: Qom uslar Bosh tahririvali.1997. 376-b.

[35] ://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/ismoil-gaspirali-sultonlar-suhbati-mukolamai-salotin-rosti-rasti.html „ИСМОИЛ ГАСПИРАЛИ СУЛТОНЛАР СУҲБАТИ - МУКОЛАМАИ САЛОТИН (РОСТИ РАСТИ)“

Xulosa qilib aytganda, Ismoilbek G‘aspralining hayoti va sermazmun faoliyatini Turkistonsiz, uning tarixi va taqdiri haqidagi o‘ylarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ulug‘ mutafakkir Turkiston xalqlarining boy ma’naviy merosini Rossiya musulmonlari borasidagi yangilanish va islohotchilik harakatlari uchun ma’naviy omil deb biladi. Ayni paytda, butun vujudi bilan Turkiston uchun ham najot yo‘lini izlaydi va buni yangilanishda, islohotda ko‘radi. Shunga ko‘ra, uning qarashlari ham Turkiston bilan teran bog‘langan edi. Shu sababli, bu fikr- qarashlar Turqistonda aks-sado topdagina emas, turkistonlik taraqqiyparvar ziyolilar uchun dasturulamal vazifasini bajardi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

[1].Исмоилбек Гаспринский ва Туркистон./Масъул мухаррир Наим Каримов./ — Т.;- “Шарк”, 2005. 288 б.

[2].Ismoilbek Gasprinskiy. Rahbari m uallim in yoki muallimlarga yo‘ldosh. Simferopol, 1898. 4-b.

[3].Ismoilbek Gasprinskiv. Iz naslediva. Sim feropol. «Tavriya». 1991.4 2-43-b

[4].O‘zbekiston Respublikasi. Ensiklopediva — T.: Qom uslar Bosh tahririvali.1997. 376-b.

[5]://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/ismoil-gaspirali-sultonlar-suhbati-mukolamai-salotin-rosti-rasti.html „ИСМОИЛ ГАСПИРАЛИ СУЛТОНЛАР СУҲБАТИ — МУКОЛАМАИ САЛОТИН (РОСТИ РАСТИ)“

## O‘RTA OSIYOGA KO‘CHIRIB KELTIRILGAN SANOAT KORXONALARI VA UNING O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI

***Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi***
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada O‘rta Osiyoga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalari va uning O‘zbekistonga ta’siri boyicha fikrlar yuritilgan bo‘lib, ikkinchi jahon urushi tufayli kochirilishga majbur bo‘lgan sanoat korxnonalari O‘zbekistonda qayta ishga tushurilganligi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘z:** “Россельмаш”, evakuatsiya, “Kommunar”, Ohunboboyev nomli tikuvchilik fabrikasi, front “Katyusha”

1941 yilning so‘nggi ikki oyi SSSR sanoati tarixidagi eng og‘ir va iqtisodiyot jihatdan ham muhim davr bo‘ldi deb aytishimiz mumkin. Sababi ushbu davrda mahsulot ishlab chiqarish to‘xtagan, ba’zi bir mintaqalarda korxonalar hali ham tiklanib ulgurmagan edi. Aynan mana shu davrda bir qancha korxona va zavodlar evakuatsiya qilingan edi. Urush bo‘layotgan va dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini, kolxoz, sovxoz va MTS larning mulklarini, madaniy boyliklar va o‘quv yurtlarini Sharqqa, jumladan, O‘zbekistonga zudlik bilan ko‘chirib keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi.

Fashistlar tomonidan vayron qilingan shaharlar va qishloqlarning aholisi, ota-onalari halok bo‘lgan bolalar, million-million kishilar ulkan oqim bo‘lib ko‘chib kela boshladilar.

O‘zbekistonda yuzga yaqin sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metall ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbobuskunalari ko‘chirib keltirildi. Zudlik bilan barpo etilgan binolarga joylashtirildi va montaj qilindi. Ishchi, xomashyo jihozlari bilan ta’minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Toshkentda joylashtirilgan Rostselmash zavodi “Katyusha” va minomyot snaryadlari, aviatsiya zavodi jangovar samolyotlar yetkazib bera boshladi. [1]

Sanoat korxonalari qisqa vaqt ichida harbiylashtirilib, minomyot va avtomatlar, samolyot va tanklar uchun ham ehtiyot qismlari va boshqa harbiy qurollar ishlab chiqara boshladilar. Andijondagi “Kommunar”, “Stroymashina” zavodlarida samolyot va tanklarga kerakli mahsulotlar, Qo‘qon shahridagi Ohunboboyev nomli tikuvchilik fabrikasi harbiy kiyimlar ishlab chiqarishga iqtisoslashtirildi. 1941 yil dekabrigacha Toshkentdagi 137 sanoat korxonalarining 64 tasi qurol-yarog‘lar va front uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishdi. [2]

Ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarini joylashtirish, montaj qilish va qisqa fursatda ishga tushirish uchun juda katta kuch-g‘ayrat sarf qilingan. Mazkur zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o‘qituvchilar, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar qatnashganlar. Urushdan oldingi vaqtda yillar mobaynida qilinadigan ishlar bu vaqtda kunlar va oylar mobaynida bajarilgan.

Urush davrida O‘zbekistonga 104 ta zavod va fabrika evakuatsiya qilingan bo‘lib, ular orasida Leningrad to‘qimachilik mashinalari, “Россельмаш”, Rostovdan keltirilgan “Красньй Аксай”, Sumsk zavodlari, Moskvadagi “Электрокабель” va “подьёмник” zavodlari, Temir yo‘llar xalq

komissarligining mashinasozlik zavodi, eng yiriklari Chkalov nomli 84-aviatsiya zavodi, “Красный пут” zavodi, Kiyevdagi “Трассигнал” zavodi, Stalingrad kimyo kombinati [3] va boshqa zavod, fabrikalar joy olgan edi.

Mana shu ko‘chirib keltirilgan korxonalarning ko‘pchiligi Toshkent shahriga joylashtirilgani sababli ham bu shahar SSSRning eng katta sanoat markazlaridan biri bo‘lib qoldi. Respublika sanoat korxonalari quvvatlarining kengayishi, ko‘chirib keltirilgan zavodlarning ishga tushishi birinchi navbatda elektr energiyasi va yoqilg‘i ishlab chiqarishni keskin oshirishni talab qildi, mavjud energetika quvvatlari bunday talabga javob berolmas edi.

1944-yil yanvaridayoq Gorkiy va Stalinogorsk kimyo kombinatlaridan ko‘chirib keltirilgan uskunalar asosida qurilgan Chirchiq elektrokimyo kombinatining ikkinchi navbati ham muhim kimyo mahsuloti ammiak ishlab chiqara boshladi. 1943-yilda Quvasoy kimyo zavodi, Qo‘qon superfosfat zavodi, Farg‘ona gidroliz zavodi qurilib ishga tushirildi. Kimyo sanoati mahsulotlari salmog‘i 1940-yilga nisbatan 1945-yilda 6,1 baravarga ko‘paydi[4].

Urush yillarida qurilish materiallari sanoati, to‘qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Sanoat korxonalarining kengayishi, yangi qurilgan zavod-fabrikalarning ishi, muvaffaqiyati ularni malakali ishchilar bilan ta’minlashga bog‘liq edi. Yuz minglab kishilarning, xususan, tajribali xodimlarning frontga safarbar etilishi katta qiyinchiliklar tug‘dirardi. Keksalar, ayollar, ayniqsa armiyaga chaqirish yoshiga yetmagan o‘smirlar va qizlar korxonalarga jalb etildi.1941–1942-yillarda respublikaga evakuatsiya qilingan korxonalar bazasida 16 ta yirik mashinasozlik zavodlari tashkil etildi. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmoqlarining yuqori sur’atlar bilan rivojlanishi metallurgiya ishlab chiqarish bazasini barpo etishni talab qilayotgan edi[5].

Birgina urushning dastlabki uch oyida 1523 yirik korxona evakuatsiya qilindi, shundan 1360 tasi harbiy ahamiyatga ega edi. Evakuatsiya muddati juda qattiq va qisqa edi. Masalan, 1941 yil avgust oyining oxiriga kelib Leningraddan mamlakat orqa tomoniga 100 ga yaqin yirik korxonalar yuborildi va bu zavod korxonalarning 226 tasi Volga mintaqasiga, 667 tasi Uralga, 244 tasi G‘arbiy Sibirga, 78 tasi Sharqiy Sibirga, 308 tasi Qozog‘iston va O‘rta Osiyoga yuborilgan. 10 milliondan ortiq odam temir yo‘l orqali, 2 milliondan ortiq odam suv yo‘li bilan tashilgan[6].

Xulosa qilib aytganda Ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarini joylashtirish, montaj qilish va qisqa fursatda ishga tushirish uchun juda katta

kuch-g‘ayrat sarf qilingan. Hattoki, bu zavod va fabrikalarda ayollar va qizlar, talabalar, uy bekalari, fan hodimlari, xizmatchi va kalxoschi ayollarning hissasi juda katta bo‘ldi. Shu kabi ko‘chirib keltirilgan korxonalar tarixda misli ko‘rilmagan qisqa muddatlarda 4-5 oyda, ayrimlari hatto 1-2 oy davomida qurib bitkazilib, front uchun harbiy mahsulotlar bera boshladilar. Bu esa avvalambor O‘zbekistonga juda kata o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

[1] O‘zbckiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik/Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T: “IQTISODIYOT MOLIYA”, 2006, 520 b.

[2] Неру Д. Взгляд на всемирную историю. Т. 2. — М.: Прогресс, 1989. С. 354.

[3] O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi[Matn]. S. Saidolimov, M. Rahimov, K. Sadullayev, R. Nazarov, X. Babadjonov. –Toshkent: “O”zbekiston” NMIU,2020. 320-b

[4] O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar): Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o‘quvchilari uchun darslik / Mas’ul muharrir: Q. Rajabov.-T.: “Sharq”, 2010- 256 b.

[5] Vatan tarixi (Uchinchi kitob); R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. -T.: “Sharq”, 2010. -496-b.

[6] Зоркальцев В.И., Харитонова В.Н. Борис Павлович Орлов — экономист и историк. // Наука Сибири. — 2012. 26-b.

## AL-FARG‘ONIY ILMIY ME‘ROSINING HOZIRGI KUNDA O‘RGANILISHI

***Olimova Gulshoda Bayramali qizi***
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Abbosiylar sulolasi davrida yashab ijod qilgan, buyuk matematik va astronom Al-Farg‘oniyning ilm -fan taraqqiyotidagi hissasi, olib borilgan faoliyati hamda yozgan asarlari hozirgi kunda o‘rganilishi haqida fikr yuritilgan. Al-Farg‘oniyning astronomiyaga oid asarlari Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida hanuzgacha saqlanganligi, ularning Oliy o‘quv yurtlarida darlik sifatida qo‘llanilganligi va buyuk

Yevropa olimlari tomonidan e‘tirof etilganligi haqida fikr mulohazalar olib borilganini ko‘rishimiz mumkin

**Kalit so‘z:** “Alfraganus” “Almagest” “Baytul-hikmat”, „Farg‘ona farzandi“, Nurulloxon hoji Abdulloh o‘g‘li „Bashar allomasi“),. Bag‘dod va Damashqdagi rasadxonalar, YUNESKO, Qohira shahri, D‘alamber, Brokelman, X. Zuter.

Saxovatli keng ona tuprog‘imiz, O‘zbekiston nomini faxr va g‘urur his-tuyg‘usi bilan uzoq-uzoq avlodlarga ko‘z-ko‘z qilishga arzigulik ulug‘ siymo va allomalardan biri bu Ahmad-al Farg‘oniydir. IX-XII asrlarda yashab ijod etgan O‘rta Osiyo xalqlari va butun dunyo tabiiy-ilmiy fanlarning rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir o‘rta asrlarda yashab, O‘rta Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik, geograf sifatida asosiy o‘rinni egallaydi. Al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi ma‘lumotlar juda kam bo‘lganligiga qaramay, o‘rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo‘lib, Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVIII asr ) kabi Sharq allomalari uni o‘z asarlarida salohiyatli olim sifatida eslatishadi [1, 445-b]. Al Farg‘oniy o‘zi o‘rgangan barcha ilmlar ichida, ayniqsa, astronomiya (ilmi nujum)ga katta mehr qo‘ydi. So‘ng o‘z bilimlarini oshirish, o‘qish va o‘rganish uchun o‘sha davrning ilmiy markazlaridan bo‘lgan Bag‘dodga kelib, u erda “Baytul-hikmat” (Donishmandlar uyi) da ustozlardan saboq olib, o‘zi ham ilmiy tadqiqotlar olib boradi. U bu erdagi olimlar bilan birlikda va hamkorlikda hind, fors va yunon tillaridan arab tiliga tarjimalar qiladi.

Ahmad Farg‘oniy jahon faniga buyuk xissa qo‘shgan buyuk alloma sifatida tilga kirdi. Ahmad Farg‘oniyning yoshlik davri o‘z yurtida o‘tadi. U Farg‘onadan Xo‘jand orqali Samarqandga so‘ng, Buxoro orqali Marvga al-Ma‘mun ibn Horun ar-Rashid huzuriga boradi hamda, uning o‘g‘li al-Ma‘mun davrida Bag‘dodda ilm-fanning yuqori cho‘qqilarga ko‘tarildi, [2, 16-b] arab tili davlat va ilm-fan tiliga aylandi. Bag‘dod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga shaxsan o‘zi ishtirok etdi. Tarix, adabiyot, tilshunoslik, islom qonunshunosligi, tafsir, hadisshunoslik va boshqa ilmiy ishlar keng ko‘lamda taraqqiy etdi. Kitobu-hattotlik sanoati rivojlanib, minglab qo‘lyozmalar ko‘chirildi, kutubxonalar ko‘paydi. Horun ar-Rashid asos solgan “Ma‘mun akademiyasi” “Bayt ul-hikma” da to‘plangan buyuk olimlar aniq fanlar sohasida olamshumul ilmiy ishlar olib bordilar. Halifa al-Ma‘mun “Bayt ul hikma uyi” [3] faoliyati uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berdi va uni moddiy jihatdan to‘la ta‘minlab berdi.

Al-Ma‘mun davrida ikki rasadxona bino qilindi. Ularning biri Bog‘dodning Shamsiya degan joyida, ikkinchisi esa Damashqdagi Nasikan tepaligida edi. Rasadxonalar qurilishida Ahmad Farg‘oniy boshchiligidagi Abbos ibn Said al-Javxariy, Said ibn Xomid, Yahyo ibn Abu Mansur kabi olimlar ishtiro etgan. Al-Ma‘mun iltimosiga ko‘ra al-Farg‘oniy rahbarligidagi astronomlardan uch aka-uka Muhammad, Ahmad va Hasan, Muhammad ibn Muso ibn Shokir Xorazmiylar va bir nechta olimdan iborat maxsus hay‘at tuzildi. Ular o‘lchash ishlarini o‘z davriga nisbatan muvaffaqiyatli hal etdilar. Bag‘dodning Raqoq nomi bilan ataluvchi mavzesida qurilgan rasadxona qoshida tashkil etilgan falakiyotshunoslik maktabiga ham rahbarlik qildi. [4, 225-b]. Ahmad Farg‘oniy Bag‘dodda “Baytul-hikma” ning etakchi olimlaridan biri sifatida tanilib, shu erda yashab, ijod etadi. Hozirgi kunda Ahmad al-Farg‘oniyning 8 ta asari bizgacha yetib kelhan bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga oiddir. Ular quyidagilar:

1.Astronomiya asoslari haqida kitob (arabcha: “Kitob fi usul imi annujum”-ya‘ni 19 “Astronomiya ilmining usullari” haqidagi kitob). 2. “Usturlob bilan amal qilish haqida kitob” (birgina qo‘lyozma holda Rampur (Hindiston)da saqlanmoqda). 3. “Oyning er ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola”. 4. “Etti iqlimni hisoblash haqida” (qo‘lyozmalari Gotada va Qohirada saqlanmoqda). 5. “Quyosh soatini yasash haqida kitob” (qo‘lyozmalari Halab va Qohirada saqlanmoqda). 6. “Al-Horazmiy “Zij” ining nazariy qarashlarini asoslash” asari (qo‘lyozmasi topilmagan). 7. “Al-Farg‘oniy jadvallari” (qo‘lyozmasi Patna (Hindiston)da saqlanadi). 8. “Samoviy harakatlar va umumiy ilminujum kitobi” (arabcha: “Kitob al-harakat as-samoviya va javomi‘ ilmi annujum”) [5, 18-19-b]. . Ahmad Farg‘oniy asarlari hozirga qadar sharq va g‘arb mamlakatlari tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda. Uning bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan va munosib hissa qo‘shdi. Bu asarlarning deyarli barchasi saqlanib qolgan hamda hozirgi kunda ularning ko‘pchiligi oliy ta‘limlarda fan darslik sifatida foydalanilmoqda. Allomaning bunday faoliyat olib borishi hamda astranomiyaga oid ko‘plab asarlarning muallifi bo‘lganligi tufayli ham XII asrdayoq Yevropada buyuk mutafakkirni lotinchada “Alfraganus” nomi bilan atay boshladilar.

Al-Farg‘oniyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o‘zining “Yulduzlar ilmi usuli kitobi” asarida I-asrda yashab o‘tgan mashhur Klavdiy Ptolemeyning falakiyot sohasida asosiy qomus hisoblangan “Almagast” asaridagi talay xatolarni aniqlab, to‘g‘rilab berdi. Ushbu asar yana yetti nomda shuhrat qozongan. “Osmon jismlari harakati va yulduzlar ilmi to‘plami”,

“O‘ttiz fasldan iborat falakiyot kitobi”, “Almagest” muqaddimasi uchun o‘ttizta fasl, “Osmon sferalari sabablari”, “Osmon sferalarining tuzilishi”, “Almagest” (“Almajistiy”), “Astronomiya fani” nomlari bilan atalib, hozirda uning qo‘lyozmalari Bag‘dod (2959 oltinchi nomda), Dublin (Bitti, 4114), Qoxira (Mikat, 944, 194, 310, 311), Leyden (8418/5), Sankt-Peterburg (3059/3), Moskva (154/2), Oksford ( 1, 879/1- ikkinchi nomda), Parij (2504/3- uchinchi va to‘rtinchi nomda), Prinston (Garr, 967 - yettinchi nomda), Istanbul (Aya Sofiya, 2843/2 - to‘rtinchi nomda), Tunis (Millat kutubxonasi, 02103/1 - ikkinchi nomda), Fes (Zaviy, 56- sakkizinchi nomda) kabi bir qator davlat va shahar kutubxonalarida saqlanmoqda [6].

Ahmad al-Farg‘oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-y. da tosh bosma usulida nashr etildi. 1669-y. mashhur golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius Ahmad al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so‘ng uning shuhrati yanada ortdi. Yevropa Uyg‘onish davrining mashhur olimi Regiomontanda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyaga doir ma’ruzalarini Ahmad al-Farg‘oniy asarlari asosida o‘qigan. Uning nomi Dante va Shiller tomonidan tilga olinadi . Yevropa olimlaridan D‘alamber, Brokelman, X. Zuter, I. Yu. Krachkovskiy, P. Yushkevich va B. Rozenfeld Ahmad al-Farg‘oniyning ijodiga va qoldirgan ilmiy merosiga yuqori baho berganlar.

Umuman Ahmad alFarg‘oniyning “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” asari o‘rta asr musulmon Sharqi mamlakatlaridagi, so‘ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Qadimgi yunon ilmi, jumladan, astronomik ilmlar ham birinchi bor arabchadan tarjima qilingan risolalar orqali ma‘lum bo‘ldi. AlFarg‘oniyning bu asari astronomiyadan eng sodda darslik bo‘lib, unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar keltirilmagan. Bu esa astronomiyadan boshlang‘ich ma‘lumotlarni o‘zlashtirishni ancha osonlashtirgan. Balki buyuk Regiomontan asarning shu xususiyatini anglab, o‘zining universitetlardagi ma‘ruzalari uchun qo‘llanma sifatida Al-Farg‘oniyning mana shu asarini tanlagandir. Shundan ko‘rinadiki Al Farg‘oniy o‘z zamonasining zamondoshlari singari haqiqiy dahosi va yer yuzining shamchirog‘i bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ahmad al-Farg‘oniyning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin boshlandi. 1998-yil Al-Farg‘oniyning 1200-yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Farg‘ona shahrida Al-Farg‘oniy nomi bilan ataladigan istirohat bog‘i va qadimiy Quva shahrida Al-Farg‘oniy haykali o‘rnatildi. YUNESKO ning 1998-yildagi tadbirlari,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200-yilligini nishonlash to‘g‘risida“gi qarori (1997-yil 27-noyabr)ga ko‘ra alloma hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar, badiiy ko‘rgazmalar o‘tkazildi, yangi kitoblar nashr etildi, spektakllar (dramaturg Hayitmat Rasulning „Piri koinot“, Yo‘ldosh Sulaymonning „Farg‘ona farzandi“, Nurulloxon hoji Abdulloh o‘g‘li „Bashar allomasi“) [7]. sahnalashtirildi, filmlar suratga olindi. Farg‘oniy ilmiy meroslarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bu olim Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida tabiiy fanlar, ayniqsa matematika, astronomiya va geografiya rivojiga g‘oyat muhim va benazir hissa qo‘shdi. Shu bilan bir qatorda ushbu olimning ilmiy meroslariga hurmat ehtirom ko‘rsatib, yurtimizda balkim, Qohira shahrida ham ulug‘ bobomiz sharafiga 2007-yilda Misr hukumati tomonidan haykal o‘rnatildi. Ahmad al-Farg‘oniy astronomiya fanining otasi sifatida tarix zar varqalariga o‘z nomini muhrlagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Ahmad Farg‘oniy jahon faniga hissa qo‘shgan buyuk alloma sifatida tilga kirdi. Uning faoliyati Yevropa olimlari D‘alamber, Brokelman, X. Zuter, I. Yu. Krachkovskiy, P. Yushkevich va B. Rozenfeld Ahmad al-Farg‘oniyning ijodiga va qoldirgan ilmiy merosiga yuqori baho berganlar. Shundan ko‘rinadiki, Al-Farg‘oniy o‘z zamonasining zamondoshlari singari haqiqiy dahosi va yer yuzining shamchirog‘i bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sagdullayev A.S.S 16 O‘zbekiston tarixi, I kitob [Matn] / A.S. Sagdullayev. - Toshkent: «Donishmand ziyosi» MЧЖ, 2021. - 624 b
2. Ahmad Farg‘oniy. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2022. B. 2.
3. Movaraunnaxr va Xurosonda moddiy va ma‘naviy taraqqiyotning yangi bosqichga ko‘tarilishi" http://xorazmiy.uz
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh.Vatan tarixi. K.1 / Mas‘ul muharrir: A.Sagdullayev; Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. — T.: «Sharq», 2010. — 512 b.
5. Namozov, Bobir Sharq allomalarining ilmiy-ma‘naviy merosi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / B.Namozov .-Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-? b
6. https://corp.uzairways.com/uz/ahmad-al-fargoniy-797-865
7. Namangan davlat universiteti https://doi.org/10.5281/zenodo.8031656

# TOSHKENT VILOYATIDAGI ZIYOLILARNING QATAG‘ONGA UCHRASHI: ELBEK, OLTOY VA XOLID SAID MISOLIDA

**Gulyamov Dostonbek Umid o‘g‘li**
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sovet tuzumi davrida olib borilgan qatag‘on siyosatining borishi va uning ayanchli oqibatlari Toshkent viloyati misolida tahlil qilingan. Bunda Elbek, Oltoy va Xolid Said hayotiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Ularning hayoti va ijodiga tegishli ayrim mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qatag‘on, sovetlar, shoir, Oltoy, Xolid Said, Elbek, repressiya, surgun.

*Ma’lumki, qatag‘on yillarida xalqimizning minglab farzandlari sovetlarning vahshiy siyosatining qurboni bo‘lishdi. O‘zlari to‘qigan uydirmalarni, nohaq ayblovlarni asosan xalqimizning ziyoli qatlamining bo‘yniga qo‘yishdi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa xalqning ma’naviyatini yo‘qotish edi. Ma’naviyatsiz, ilm-ma’rifatdan yiroqda bo‘lgan millatni esa boshqarish oson.* 1930-yillarda sobiq Sovet Ittifoqi hududida amalga oshirilgan qatag‘on siyosati o‘zining eng og‘ir, ayovsiz ko‘rinishini O‘zbekistonda, xususan, Toshkent viloyatida namoyon etdi.

*Sovetlar qilgan nohaqliklarni oddiygina sud jarayonlarining o‘zi ham tasdiqlaydi. “Yuqoridagilar”ning qarori bilan aybdor deb topilganlarning ro‘yxati shakllantirilib, undagi shaxslar kategoriyalarga ajratilgan. Birinchi kategoriyaga jazoning oliy chorasi, ikkinchi kategoriyaga 10 yildan 15 yilgacha turma qamog‘iga yoki mehnat tuzatuv lageriga (MTL) yuborilgan va uchinchi kategoriyaga 5 yildan 8 yilgacha MTLga hukm qilinadiganlar kiritilgan. Siyosiy byuro a’zolari imzolagan ro‘yxatlar oliy sud harbiy kollegiyasiga berilgan.*

*Sud marosimi rasmiy tartib chegarasi yo‘q darajada yuzaki o‘tkazilgan. Ishlar guvohlarsiz 5-10 daqiqa muddatda ko‘rib chiqilgan, ayrim holatlardagina yarim soatgacha cho‘zilib ketgan. Shu vaqt ichida sudlardan uchtasi «sudlanuvchiga uning huquqlarini tushuntirib berishlari, ayblov xulosalarini o‘qib eshittirishi, ayblov mohiyatini tushuntirishi, ayblanuvchini «sodir etgan jinoyatga nisbatan munosabatini aniqlashi, uning ko‘rsatmalarini va so‘nggi so‘zini eshitishi, maslahatchi xonada bo‘lishi, u yerda hukmni yozishi, sud yig‘ilishi zaliga qaytib kirishi, hukmi e’lon qilishi amalga*

*oshirilgan. O‘lim hukmlari sudlanuvchiga e’lon qilinmagan, ular o‘z taqdirlarini bevosita qatl qilinishi oldidangina bilib qolganlar. Quyida mazkur vahshiy siyosatning qurboniga aylangan ayrim ajdodlarimizning ayanchli qismatiga to‘xtalamiz.*

Bois Qoriyev. Bois Qoriyev 1903-yil Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida tug‘ilgan. U XX asrning 20-30-yillarida “Oltoy” taxallusi bilan ijot qilgan shoir va jurnalist. Lev Tolstoy bilan uchrashgan taniqli ulamo Abduvohid Qoriyevning o‘g‘li. 1924-yil o‘zbek bilim yurtini tugatadi, shu o‘quv yurtida pedagog bo‘lib ishlagan. Fitrat va Cho‘lpon kabi shoirlarga yaqinlashib, she’rlar yoza boshlagan. 1925-yilda “Yosh leninchi” gazetasiga muharrir etib tayinlangan. Shu yillarda “Qizil qalam” jamiyatining rahbarlaridan biri bo‘lgan. 1929-yilda Maorif xalq komissarligiga ishga o‘tgan va ko‘p o‘tmay, xalq komissarligi tizimidagi xodimlarning katta bir guruhi, shu jumladan, Bois Qoriyev ham qamoqqa olingan. U dastlab oliy jazoga hukm qilingan, keyin jazo 10 yillik qamoqqa muddati bilan almashtirilgan. 1940-yilda o‘lim lagerlaridan qaytib kelgan Bois Qoriyev yana bir necha marta qayta qamoqqa olinib, Stalin vafotidan keyin, 1955-yil mart oyida ozodlikka erishgan. Oltoy 1959-1966-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida, 1966-1975-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. 1963-yilda filologiya fanlar nomzodi. 1975-yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi bo‘ladi.

Xolid Said Xo‘jayev — tilshunos olim. Xolid Said Xo‘jayev 1888-yilda Toshkent viloyati Baytqo‘rg‘on qishlog‘i tavallud topgan va Boku shahrida 1937-yilda hibsga olingan va o‘sha yilning 12-oktyabr kuni otib o‘ldirilgan.

U dastlabki bilimlarini Qo‘shqo‘rg‘on qishlog‘idagi boshlang‘ich maktabda olib uni tugatgach, Toshkentdagi madrasalarning birida tahsil olgan. Turkiyaga borib, Istanbul universitetining tibbiyot fakultetini bitirgan (1911-1913), so‘ngra tarix va adabiyot (1914-1918) fakultetida ta’lim olgan. 1918 yili Istanbul universiteti talabalari bilan birga turk armiyasiga olinib, Nuri Posha qo‘mondonlik qilgan harbiy qism tarkibida Ozarbayjonga yuborilgan. Xolid Said xizmat qilgan qism turk armiyasi uchun aholidan oziq-ovqat solig‘ini undirish bilan shug‘ullangan. Oradan 1 yarim yil o‘tgach, armiya Ozarbayjondan chiqarib yuborilgan va u Qirovobodda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1920-yilda Toshkentga kelib, o‘qituvchilik faoliyatini davom ettirgan. 1937-yilda hibsga olingunga qadar Ozarbayjon pedagogika institutida o‘qituvchi, SSSR FA Ozarbayjon filialida ilmiy xodim bo‘lib xizmat qilgan. Xolid Said 1926-yilda Bokuda bo‘lib o‘tgan turkologlar syezdida qatnashib, turkiy tillarning lotin yozuviga o‘tishi masalalari bilan mashg‘ul bo‘lgan. U-

124 nomdagi kitob, risola va maqolalar muallifi. Afsuski, bu asarlarning aksari, xususan, M.Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarining Xolid Said tomonidan amalga oshirilgan turkiy tilga tarjimasi (izohlar bilan) tintuv paytida olib ketilib, yondirib tashlangan. Uning “Usmonli, o‘zbek, qozoq tillarining qiyosi grammatikasi” (1926) shu sohadagi dastlabki ilmiy asarlardan biri sifatida ahamiyatga molik. Xolid Saidning bizgacha yetib kelmagan tadqiqotlari orasida “Stilistika nazariyasi”, “Turkiy tilning tarixiy grammatikasi”, “Chig‘atoy adabiyoti to‘g‘risida mulohazalar”, “Turkiy adabiyot nazariyasi”, “Turkiston tarixining qisqacha ocherki”, “Urxun yozuvlarining izohli tadqiqi” singari ilmiy asarlar bo‘lgan. Uning “TBG” da chop etilgan “Julqunboy bilan mubohasa” degan maqolasi (1914), adib dunyoqarashining endigina shakllanib kelayotganidan darak beruvchi hujjat sifatida ahamiyatga bo‘lgan. Xolid Said 1920-yilda, manbalarda aytilishicha, Toshkentdagi “oliy pedagogika maktabi”ga mudirlik qilgan. Bokuga ko‘chib borganidan keyin 1922-1926 yillarda O‘zbekistonning Ozarbayjondagi vakili bo‘lib ishlagan va o‘sha yillarda Bokuga o‘qishga yuborilgan talabalarga yaqindan yordam ko‘rsatgan. Xolid Said ilmiy-pedagogik faoliyatdan tashqari, badiiy tarjima bilan ham shug‘ullangan. U Qamchinbek bilan birga Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini ozarbayjon tiliga tarjima qilib, 1928-yilda nashr etilgan.

Xolid Saidning rafiqasi Roza xonim Stalinning o‘limidan keyin 1955-yil 16-aprel kuni huquq-tartibot idoralari rahbarlari va siyosiy arboblardan erining ishini qayta ko‘rib chiqish kerakligini so‘ragan. Xolid Said SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1957-yil 16-may kuni chiqargan qaroriga muvofiq to‘liq oqlangan.

Elbek taxallusi bilan o‘z ijodini olib borgan yana bir adabiyimiz Mashriq Yunusov. Elbek Shoir, tilshunos va folklorshunos bo‘lib, U 1898-yil Toshkent viloyati Bo‘stonlik tumani Xumson qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. 1905-yilda qishloq maktabida 4 yil o‘qib, o‘qishni va yozuvni o‘rgangan. Otasi ko‘p bolali oilasini boqa olmaganligi uchun 1911-yilda Toshkentga kelib, qarol bo‘lib ishlagan, ammo zulm uni boy uyidan qochishga majbur etgan va Elbek shu yili Devonbegi mahallasidagi “Xoniy” maktabiga o‘qishga kirgan. Bolaligi og‘ir iqtisodiy sharoitda kechgan shoir 1914-yili, sarson-sargardonlik yillaridan keyin, Shayxontohur dahasidagi 7 yillik maktabning 6-sinfiga o‘qishga kirgan va 2 yillik tahsildan so‘ng muallimlik qila boshlagan. Elbek shu yillarda ko‘p o‘qib, o‘zida adabiyotga, badiiy ijodga mayl uyg‘ona boshlaganligini sezgan. Elbek 1919-yilda Fitrat rahbarlik qilgan “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti yig‘ilishlarida faol qatnashadi. 1920-yilda Narimov nomidagi ta’lim va tarbiya texnikumida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanadi. MXK qoshidagi Ilmiy

kengashning a'zosi sifatida tilshunos va folklorshunoslik yo'nalishlarida samarali mehnat qiladi. 1932-1934-yillarda esa Madaniy qo'rilish ilmiy-tekshirish institutida xodim bo'lib ishlaydi. Uning "Armug'on" degan ilk masallar to'plami 1921-yilda nashr etiladi. Elbek, boshqa qalamkash zamondoshlari singari, tarixning burilish davrida yashadi. 20-yillarda bolsheviklar boshlagan yo'lning xalq va mamlakatni qayerga olib borishi, ularning esa qanday karomat ko'rsatishlari noma'lum edi. Shuning uchun Elbek singari shoir va yozuvchilar 1917-yildan keyingi hayotni "yangi hayot sifatida" qabul qilib, avvalgi turmushni esa "qora o'tmish" sifatida tasvirlay boshlaydi. Afsuski, shoirning ijod chashmasi avji qaynab-jo'shib turgan bir vaqtda "xalq dushmani" sifatida ayblanib, 1937-yilda qamoqqa olinadi va NKVD "uchligi"ning 1938-yili 4-oktyabrdagi qaroriga ko'ra, 12 yillik jazo muddatini o'tash uchun Qolimaga yuboriladi. U 1939-yil 11-fevralda Magadandagi Nogironlar shaharchasidagi kasalxonada vafot etadi. O'limidan so'ng Elbek 1957-yil 1-avgustda oqlangan.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent viloyatida qatag'on siyosati Xolid Saidov, Bois Qoriyev va Elbek kabi shaxslar taqdiri orqali Toshkent viloyatida amalga oshirilgan qatag'on siyosatining ayrim ayanchli taqdirlarini ko'rish mumkin. Bu siyosat nafaqat siyosiy raqiblarni, balki ilm, adabiyot, madaniyat va jamoatchilikning eng ilg'or vakillarini yo'q qilishga qaratilgan edi. Natijada butun bir avlod ziyolilari, ijodkorlari va islohotchilar yo'q qilindi, jamiyat intellektual salohiyatidan ayrildi, mustaqil fikrga bo'lgan har qanday urinish esa jazolandi. Bugun ushbu tarixiy voqealarni chuqur o'rganish va yodda saqlash, qatag'on qurbonlarini xotirlash va ularning orzularini ro'yobga chiqarish har bir ongli fuqaroning burchidir. Bu o'tmishdan saboq olish, kelajakda bunday zulmga yo'l qo'ymaslik uchun muhimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari. (birinchi kitob)-Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2012

2.Karimov N. Abdulla Qodiriyning zamondoshlari.- Toshkent: "Akademnashr" nashriyoti, 2020.

3.Рустамбек Шамсутдинов Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб) «SHARQ» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ – 2012.

4.Земсков В.Н. Спецпоселенцы в СССР 1930-1960. Москва, «Наука», 2003.

5. Ивницкий Н.А. Судьба раскученных в СССР. Москва, «Собрание», 2004.

## “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA TOSHKENT SHAHRI VA VILOYATINING LINGVOKULTURLOGIK BELGILARI

**Uluqova Shahodat Maxmatmo’minovna**
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola orqali biz bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasiga yangi qo‘shilayotgan lingvokulturlogiyani O‘tkir Hoshimovning “ Dunyoning ishlari” asari orqali ko‘rib chiqamiz va uning jihatlari bilan birgalikda tahlil qilamiz.

KALIT SO‘ZLAR: Lingvokulturlogiya, sheva, dialektika, Do‘mbirobod, tilshunoslik, poshsho, egachi, kavshandoz, hokandoz, sarpoychan, qiroatxona.

ANNOTATION: Through this article, we will examine the new linguistic and cultural studies that are currently being added to the field of literary studies through the work of O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” and analyze its aspects together.

KEYWORDS: Linguistic and cultural studies, dialect, dialect, Do‘mbirabad, linguistics, poshsho, egachi, kavshandoz, hokandoz, sarpoychan, qiraatkhona.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib xizmat qiladi[1].

Har bir joyning o‘z shevasi, o‘z madaniyati, urf odati bor va ular bir – biridan farq qiladi. Biz “Dunyoning ishlari” asari orqali Toshkent va Toshkent atrofi madaniyati, shevasi, urf-odati, ijtimoiy hayoti haqida fikr yuritamiz. Fikrimiz davomida ularni lingvokulturlogiya asosida tartiblab chiqamiz.

1.Sheva lingvokulturlogiyasi: “Omonliq-somonliq” "Omonliq-somonliq" so‘zi o‘zbek tilida majoziy ma'noda ishlatiladi. Bu ibora odam yoki holatning yomon yoki zararli holatga tushmasligini ifodalash uchun ishlatiladi. Yana asarning bir joyida keltirilgan “opovsi” iborasi ham aynan Toshkent viloyati dialektikkasiga oid bo‘lib, tanish bo‘lmagan ayollarga nisbatan qo‘llanadi. Hozirgi ko‘rinishi “opoqi”. Bundan tashqari, O‘tkir Hoshimovning onasiga hamma “ poshsha “ deb murojaat qilgan buning sababi O‘.Hoshimovning oilasi xo‘ja ( eshon)lardan bo‘lgan. Bu haqida adibning ayoli shunday deydi:

“Bobolari, otasi ziyoli, o‘qimishli odamlar bo‘lishgan, savdo-sotiq, dehqonchilik bilan shug‘illanishgan. Ularning bobolari “ Abulqosim madrasasi”ni qurdirgan, o‘sha davrdagi shahar va muzofotning eng e’tiborli kishisi Abulqosim eshon bo‘lgan. Qaynonam Hakima aya mehnatkash, sodda, kamtar, xalq og‘zaki ijodini yaxshi biladigan ayol edilar. Mahalla-ko‘y u kishini “poshsho oyi” deb chaqirsa, qaynonam meni erkalab “poshsho kelin” deb chaqirardilar.

Sarpoychan- yalang oyoq, oyoqqa paypoq kiymay yoki paytava o‘ramay poyabzalini kiyishi. (20b)

Kavshandoz – uyning oyoq kiyimi yechib qo‘yiladigan maxsus yeri; daxliz (20b)

Qiroatxona – 1. Qur’onni yodlash va qiroat bilan o‘qishni o‘rgatadigan eski maktab 2. Gazeta, jurnal va kitoblar o‘qish , mutolaa qilish uchun ajratilgan xona, o‘quv zali (31b)

Hokandoz- olov, kul, ko‘mir, supurindi va shu kabilarni olish, tashish uchun ishlatiladigan dastali asbob. (38b)

Egachi- 1. Bir ota-onadan tug‘ilgan qizlardan kattasi (kichigiga nisbatan; tarixan va ba’zi shevalardda o‘g‘il ukaga nisbatan ham qo‘llanadi). 2. Ayol kishining o‘zidan katta yoshdagi ( shuningdek, xurmat yuzasidan kichik yoshdagi) ayolga murojaat qilish. (53b)

Akashak- mushaklarning qattiq tortishuvi natijasida qo‘l-oyoqlarning yig‘ilib , tortishib qolishi[2].(45b)

Lingvokulturlogika faqatgina dialektikasidan iborat emas. Unda madaniyat , urf-odat, ijtimoiy hayot va dini ham kiradi. “Dunyoning ishlari” asarida bu jihatlarni ham ko‘rib chiqamiz.

2. Milliy urf-odatlar lingvokulturlogiyasi: Asarda milliy urf-odatlar va marosimlar katta o‘rin tutadi. Jumladan: To‘y marosimlari: Asarda o‘zbek xalqining to‘y marosimlari, undagi odatlar, mehmondorchilik va ziyofatlar tasvirlanadi. To‘y o‘zbek xalqi hayotida muhim marosimlardan biri bo‘lib, bu milliy qadriyatlarni ifodalaydi. To‘ylar davomida aytiladigan xalqona iboralar, to‘y kuy-qo‘shiqlari asar fabulasiga chuqur singdirilgan.

3. Madaniy lingokulturlogiya: Asarda xalqning milliy kiyim-kechaklari, taomlari va turmush tarzi bilan bog‘liq madaniy realiyalar keng o‘rin olgan: Milliy liboslar: Asarda qahramonlarning milliy liboslariga alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa, ayollarning atlas va adras ko‘ylaklari, erkaklarning chopon va do‘ppilari tasvirlanadi. Bu liboslar o‘zbek xalqining madaniy boyligini ifodalaydi va asardagi obrazlarning milliy ruhda yaratilganligini ko‘rsatadi.

4. Til lingvokulturlogiyasi: O‘tkir Hoshimov asarida o‘zbek tilining boyligi va ifodaviy vositalari juda mohirona qo‘llanilgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish, maqollar, matallar va xalqona iboralardan keng foydalanish asarni yanada jonli qiladi. Masalan: Maqollar va matallar: Asarda xalq orasida keng tarqalgan maqollar va matallar ko‘p uchraydi. Bu maqollar milliy mentalitetni ifodalashda katta rol o‘ynaydi. Misol tariqasida, “Dunyoning ishlari” asaridagi “Dunyo ishlaridan qochib bo‘lmaydi” kabi gaplar xalq hayotiga xos haqiqatlarni aks ettirad.

5. Ijtimoiy lingvokulturlogiya: O‘zbek xalqining o‘tgan asr oxiridagi ijtimoiy hayoti, iqtisodiy qiyinchiliklar va jamiyatdagi o‘zgarishlar tasvirlanadi: Mahalla tizimi: Asardagi mahalla o‘zbek xalqining ijtimoiy hayotida katta ahamiyatga ega. Yozuvchi mahalla doirasidagi munosabatlar, qo‘shnichilik, yordam va hamjihatlik kabi qadriyatlarni realistik tarzda tasvirlaydi. Mahalla – bu nafaqat yashash joyi, balki jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. Urush va mehnat mavzusi: Asarda urushdan keyingi davr va mehnatkash xalqning turmush tarzi, ularning urushdan keyingi hayoti realistik tarzda tasvirlangan. Bu realiyalar xalqning boshidan kechirgan qiyinchiliklari va ular bilan qanday kurashgani haqida ma'lumot beradi.

6. Diniy lingvokulturlogiyasi: Asarda diniy lingvokulturlogiya ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalqining islom dini va uning qadriyatlariga bo‘lgan e’tiqodi asar qahramonlarining hayotida namoyon bo‘ladi: Ramazon va Qurbon hayitlari: Asarda Ramazon va Qurbon hayitlari kabi muhim diniy marosimlar ham tasvirlangan. Ushbu marosimlar orqali xalqning diniy qadriyatlari, odatlari va an'analariga bo‘lgan e'tiqodi ko‘rsatilgan. Hayit paytida amalga oshiriladigan sadaqa, qo‘shnilarga yordam kabi qadriyatlar asar qahramonlarining hayotida aks etadi. Diniy iboralar va duo qilish: Asarda qahramonlar tilidan diniy iboralar, duo qilish va Allohga bo‘lgan e’tiqod ko‘p uchraydi[3].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “Dunyoning ishlari ” asarida Toshkent shahri va Toshkent viloyatining madaniyati, urf-odati va tilini obrazlar orqali shunchalik aniq qilib yaratgangi, asarni o‘qigan inson o‘sha asar bilan birga yashagandek bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Anvarovna, N. S. (2017). THE ISSUE OF LEXICAL COMPETENCE FORMATION IN THE PROCESS OF TEACHING CHINESE LANGUAGE. ББК 66.4 (5 Кит) А 251, 143

2.Hoshimov O‘tkir Dunyoning ishlari. [matn]: qisa\ O‘. Hoshimov;-T.: “ Nurli dunyo” nashriyot uyi,2024. – 224b.

3.Hoshimov, O‘tkir. «Dunyoning Ishlari». Toshkent: O‘zbekiston, 1985.

## CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI

**Omonboyeva Sevinch Shokirjon qizi**
**Gumanitar fanlar fakulteti**
**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyatida joylashgan Chirchiq shahrining shakllanish tarixi, hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so’zlar. Chirchiq shahri, Chirchiq tarixi, Chirchiq buguni va iqboli, Chirchiq iqtisodiyoti, Chirchiq aholisi, Chirchiq ta’limi, Chirchiq infratuzilmasi, Chirchiqning tashkil topishi, Sovet davrida Chirchiq, Chirchiqda transport tuzimi, Chirchiqning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, Chirchiqda yangi loyihalar, Chirchiqda turizm imkoniyatlari, Chirchiq ekologik holati va rivojlanishi.

Annotation. This article covers the history of the formation of the city of Chirchik, located in the Tashkent region, its current socio-economic situation and future development prospects.

Keywords. Chirchik city, Chirchik history, Chirchik present and future, Chirchik economy, Chirchik population, Chirchik education, Chirchik infrastructure, Chirchik formation, Chirchik in the Soviet era, Chirchik transport system, Chirchik economic development prospects, New projects in Chirchik, Tourism opportunities in Chirchik, Chirchik ecological situation and development.

Аннотация. В статье рассматривается история становления города Чирчик, расположенного в Ташкентской области, его современное социально-экономическое положение и перспективы дальнейшего развития.

Ключевые слова. Город Чирчик, история Чирчика, настоящее и будущее Чирчика, экономика Чирчика, население Чирчика, образование Чирчика, инфраструктура Чирчика, формирование Чирчика, Чирчик в советское время, транспортная система Чирчика, перспективы экономического развития Чирчика, новые проекты в Чирчике, туристические возможности Чирчика, экологическое состояние и развитие Чирчика.

Bugungi kunda Chirchiqning sanoat, ta’lim va infratuzilma sohalaridagi yutuqlari, aholining turmush darajasi va ekologik holati tahlil qilinadi. Shuningdek, shaharning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari, investitsion loyihalar, turizm salohiyati va barqaror taraqqiyot imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Maqola Chirchiq shahrining hududiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Toshkent viloyati Chirchiq shahri 1932-yilda daryo bo‘yidagi Qirg‘izquloq, Qipchoq, Niyozbek qishloqlari o‘rnida yirik elektrkimyo qurilishi munosabati bilan vujudga kelgan. Yangi sanoat korxonalari qurilishi bilan aholi soni ham tez o‘sdi 1939-yil— 15 ming kishini, 1959-yil— 65 ming kishini, 1970-yil— 107,4 ming kishini tashkil qildi. 30— 40-yillarda Industrial texnikumi binosi, 50-yillarda elektrkimyo korxonasining Madaniyat saroyi va boshqa jamoat binolari qurildi. 1966—67 yillardan ko‘p qavatli yirik panelli binolar qad ko‘tardi. Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan chirchiqliklar xotirasiga o‘rnatilgan yodgorlik, madaniyat va istirohat bog‘lari, xiyobonlar, maktablar, poliklinika, kasalxona va boshqa binolar bunyod etildi. Shahar yonida aholining dam olish joylari mavjud. Shaharda 26 ta qo‘shma korxona 850 dan ziyod kichik korxona faoliyat ko‘rsatadi. Qurilish materiallari, temirbeton konstruksiyalari ishlab chiqariladi. G‘isht, asfaltbeton zavodlari, go‘sht, non ktlari, poyabzal va tikuvchilik fabrikalari mavjud. Chirchiq aholisi 170 000 ming odam atrofida sanaladi. Chirchiq ko‘p millatlarni o‘z bag‘riga sig‘dirgan shahar. Chirchiqda o’zbek, rus, tojik, tatar, qoraqalpoq, qirg’iz, kareys va boshqa millat vakillari yashab kelmoqda.So’ngi yillarda yangi turar joylar qurilib shahar infrastrukturasi rivojlanmoqda. Aholisi asosan o‘zbek, rus va qozoq tillarida gaplashishadi. Chirchiq oliy tank komandirmuhandislik bilim yurti, 25 umumiy ta’lim maktabi, 7 o‘rta maxsus bilim yurti, 12 kutubxona, 3 madaniyat muassasasi, muzey, madaniyat va istirohat bog‘i bor. Kasalxona, poliklinika, dorixona va boshqa tibbiy muassasalar o’z faoliyatini olib boryabdi. 2017-yili Chirchiqda yangi Pedagogika Insituti ochildi. 2022-yili Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti bo’ldi. Hozirgi kunda ta’lim yo’lida o’z faoliyatini samarali olib bormoqda.

Chirchiq shahri o‘zining boy tarixi, rivojlangan sanoati, ta’lim va madaniyat sohalaridagi yutuqlari bilan Toshkent viloyatining muhim shaharlaridan biridir. Shahar istiqboli sanoat va infratuzilma rivojlanishi, ta’lim va madaniyat sohalarida yuksalish, shuningdek, turizm sohasida o‘sish bilan bog‘liq. Chirchiqning tarixiy va madaniy merosi, zamonaviy rivojlanish jarayonlari shaharning istiqbolli rivojlanishiga asos bo‘ladi. Chirchiqda ta’lim rivojlanishi kuchli. Hozirda Chirchiq Davlat Pedogogika universitetida

professor domlalar ishlab talabalarga bilim berib kelishmoqda. Chirchiq tog'li hudud bo'lgani uchun havosi sof va musaffo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova, Z. M. (2012). O'zbekiston shaharlarining urbanizatsiyasi: tarix va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Chustiyev, N. (2008). Chirchiq shahri tarixi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: "Sharq".
3. Tursunov, A. (2018). Chirchiq sanoat markazi sifatida: tarix va hozirgi holat. "Ijtimoiy fanlar" jurnali, №3, 45–53-betlar.
4. Chirchiq shahar hokimligi rasmiy veb-sayti – www.chirchiq.uz (http://www.chirchiq.uz/) (murojaat qilingan sana: 2025-yil 10-may).
5. Toshkent viloyati investitsiya dasturi (2024). Chirchiq shahrining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish strategiyasi. Toshkent: Investitsiya qo'mitasi.

## TOSHKENT VILOYATIDAGI URF-ODATLAR VA TO'Y MAROSIMLARI

**Saidxo'jayeva Robiya**
**Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Toshkent viloyatida o'tkaziladigan to'y marosimlarining tarixiy ildizlari, ularning shakllanish bosqichlari va zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlari tahlil qilinadi. To'y marosimlarining ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni, yosh avlod tarbiyasiga ta'siri, urf-odatlarning davomiyligi va zamon talablari bilan uyg'unlashuvi muallif tomonidan amaliy kuzatuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: To'y marosimi, an'ana, urf-odat, zamonaviylik, ma'naviyat, oila, qadriyat.

Annotation: This article analyzes the wedding ceremonies held in the Tashkent region, their historical roots, and the transformation of traditions over time. The author examines the integration of modern elements into traditional rituals, and discusses the social and cultural significance of wedding ceremonies based on practical observations.

Keywords: wedding ceremony, tradition, customs, modernity, spirituality, family, values

Аннотация: В данной статье рассматриваются свадебные обряды, проводимые в Ташкентской области, их исторические корни и изменения

в условиях современного общества. Автор анализирует сочетание традиционных и современных элементов, а также социально-культурное значение свадебных

Ключевые слова: свадебный обряд, традиция, обычаи, современность, духовность, семья, ценности

O‘zbek xalqining boy madaniyati, asosan, urf-odat va marosimlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, to‘y marosimlari xalq hayotining eng muhim va nishonli voqealaridan biri bo‘lib, u nafaqat ikki yoshning oila qurish jarayonini, balki jamiyatning ijtimoiy munosabatlarini, ma’naviy birligini, qadriyatlar tizimini namoyon etadi. Toshkent viloyatida o‘tkaziladigan to‘ylar o‘ziga xos an’analari, o‘zgaruvchan ko‘rinishlari va urf-odatlari bilan boshqa hududlardan ajralib turadi.

Toshkent viloyatidagi an’anaviy to‘y marosimlari:

To‘y marosimlari avloddan-avlodga o‘tgan an’analar asosida amalga oshiriladi. Bular quyidagilar:

Fotiha to‘yi – ikki tomon roziligi va og‘zaki nikoh va’dasi.

Soch oshi – kelin uchun yaqin ayollar davrasida o‘tkaziladigan marosim.

Nikoh to‘yi – diniy nikoh o‘qitilib, jamiyatda tan olinishi.

Asosiy to‘y marosimi – mehmonlar ishtirokidagi tantana, kuyov tomondan uyushtiriladi.

Kelin tushirish va kelin salom – yangi oila a’zosi sifatida kelinning hurmat ko‘rsatishi.

Ushbu bosqichlar faqat marosim emas, balki ijtimoiy bog‘liqlik, qarindoshlik rishtalarining mustahkamlanishidir.

To‘y marosimlaridagi zamonaviy o‘zgarishlar

Bugungi kunda to‘y marosimlarida quyidagi o‘zgarishlar kuzatilmoqda. To‘ylar ko‘proq restoran va to‘yxonalarda o‘tkaziladi.Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ostida vizual ko‘rinishga katta e’tibor qaratiladi (fotosessiya, videotasvir, dronlardan foydalanish). Marosimlar qisqartirilmoqda, ayrim an’anaviy bosqichlar o‘tkazilmayapti yoki yagona tadbirga birlashtirilmoqda.

“Nikoh kechasi”, “kelin libos ko‘rgazmasi” kabi yangicha elementlar kirib keldi. Bu o‘zgarishlar texnologik taraqqiyot, shahar hayoti va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, an’analarga zamonaviy ruh bag‘ishlamoqda.

Ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati

To‘ylar faqatgina ikki insonning oila qurishi emas, balki:

- Yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi,

- Qarindoshlik va qo‘shnichilik aloqalarining mustahkamlanishi,
- Ma’naviy qadriyatlarning amalda aks etishi,
- Milliy birlik va madaniyatni avloddan-avlodga yetkazish vositasidir.

Shuningdek, to‘ylar orqali xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, kiyim-kechak, pazandachilik va bezak san’ati kabi ko‘plab an’anaviy elementlar saqlanib qolmoqda.

Xulosa. Toshkent viloyatida o‘tkaziladigan to‘y marosimlari xalqning boy madaniy merosi, ma’naviy olami va zamonaviy yondashuvlarining uyg‘unlashgan ifodasidir. Bu marosimlar orqali oila institutining mustahkamlanishi, ijtimoiy birdamlik va milliy qadriyatlarning yashab qolishi ta’minlanadi. Shuningdek, ularning zamon bilan hamnafas bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining ijobiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganov Q. “O‘zbek xalq marosimlari”, Toshkent, 2018.
2. Madraximov A. “An’analar va urf-odatlar: zamon bilan uyg‘unlikda”, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2020.
3. “Toshkent viloyati etnografiyasi” – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi materiallari, 2022.
4. Intervyu va amaliy kuzatuvlar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar (2024 yil, Toshkent viloyati).
5. O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”, 2023 yilgi tahriri.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT VILOYATI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT: XAYRIDDIN SULTONOV IJODIY FAOLIYATI

**Haytboyeva Fazilat Qurolboy qizi**
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Toshkent viloyatida ijodiy va mehnat faoliyatini yuritgan davlat va jamiyat arbobi, publitsist, yozuvchi Xayriddin Sultonov hayoti va ijodi keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti, Toshkent viloyati ijodkori, adabiy-estetik tafakkur, badiiy tafsir, milliy g‘oya va ma’naviyat, Vatanparvarlik motivlari, adabiy jarayon.

Annotation: In this article, the life and work of Khairiddin Sultanov, publicist, writer, publicist, publicist, writer and publicist, who carried out

creative and labor activities in the Tashkent region in the years of independence, will be covered in detail.

Key words: Uzbek literature, literature of the period of independence, creator of Tashkent region, literary and aesthetic thinking, artistic interpretation, national idea and spirituality, patriotic motives, literary process.

Аннотация: В данной статье будет освещена жизнь и деятельность Хайриддина Султанова, публициста, писателя, публициста и публициста, творчески и трудолюбившего в Ташкентской области в годы независимости.

Ключевые слова: узбекская литература, литература периода независимости, создатель Ташкентской области, литературно-эстетическое мышление, художественная интерпретация, национальная идея и духовность, патриотические мотивы, литературный процесс.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo‘lganidek, madaniyat va san’at sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Toshkent viloyatida bu jarayonlar ayniqsa sezilarli bo‘ldi. Viloyat madaniy hayotining rivojida yangi bosqich boshlandi — zamonaviy infratuzilma yaratildi, ijodkorlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Madaniy taraqqiyotning asosiy ko‘rinishlaridan biri — viloyatdagi madaniyat muassasalarining qayta tashkil etilishi va zamonaviylashtirilishidir. Har bir tuman va shaharda madaniyat va istirohat bog‘lari, san’at maktablari, kutubxonalar faoliyati yangicha asosda yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, bolalar musiqa va san’at maktablari, teatrlar, muzeylar faoliyati kengaydi. Bu maskanlar nafaqat yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashga, balki ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar uchun ham yangi ijodiy sharoitlar yaratildi. Mustaqillik yillarida ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning asarlarini chop etish, adabiy tanlovlar va ko‘rik-festivallar tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Toshkent viloyati bo‘ylab “Yosh ijodkorlar” uchrashuvlari, “Adabiyot va san’at haftaligi”, “Zamon shoirlari” kabi tadbirlar muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. Bu anjumanlar yosh ijodkorlarning kamol topishida, ularning asarlarini targ‘ib qilishda muhim o‘rin tutmoqda. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyati bo‘limi ham o‘z faoliyatini jonlantirib, ijodkorlar bilan samarali ishlashga e’tibor qaratdi. Ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari, nashriyotlar bilan hamkorlik ishlari orqali adabiy jarayon faollashdi. Shu bilan birga, yozuvchilar va shoirlarga mukofotlar, stipendiyalar, tavsiyanomalar berilishi ularning ijtimoiy hayotda

munosib o‘rin egallashiga zamin yaratdi. Umuman olganda, mustaqillik yillarida Toshkent viloyatida madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi shakllandi. Bu taraqqiyot nafaqat moddiy jihatdan, balki ma’naviy-mafkuraviy jihatdan ham katta yutuqlarga erishishga xizmat qildi. Yaratilgan imkoniyatlar tufayli bugun Toshkent viloyati adabiyoti va madaniy hayoti yangi avlod ijodkorlari bilan boyib bormoqda. Xayriddin Sultonov 1956-yil 15-yanvarda Toshkent viloyatining Qibray tumanida tug‘ilgan. U 1973-1978-yillarda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan va o‘qish davomida ijodiy faoliyatini boshlagan. Talabalik yillarida yozuvchilikka bo‘lgan qiziqishi yanada oshib, u “Guliston” jurnalida ilk bor yozuvchilik faoliyatini boshladi. 1980-yildan 1985-yilgacha "Yoshlik" jurnalida ishlagan, shuningdek, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrirlik vazifasini bajarib, yozuvchilarning asarlarini chop etishda faol ishtirok etdi.

Xayriddin Sultonovning ijodi o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Bugungi o‘zbek nasrida o‘ziga xos ovoz, o‘ziga xos yo‘l bilan borayotgan yozuvchilardan biri bu - Xayriddin Sultonovdir. Xayriddin Sultonov ijodining boshidanoq adabiyotga dadil qadamlar bilan kirib keldi. U nafaqat nasr yozuvchisi, balki publitsist va dramaturg sifatida ham tanilgan. Adibning birinchi hikoyasi, “Chol”, 1970-yillarda "Toshkent oqshomi" gazetasida chop etilgan. Keyinchalik uning “Quyosh barchaga barobar” (1980), “Bir oqshom ertagi” (1983), “Onamning yurti” (1987), “Umr esa o‘tmoqda” (1988), “Boburning tushlari” (1992), “Yo‘qchilik va to‘qchilik” (1995), “Boburiynoma” kabi qissa va romanlari yuzlab o‘quvchilarni maftun etdi. Sultonovning asarlarida kishilarning ichki kechinmalari, hayotdagi murakkab vaziyatlar va tarixiy haqiqatlar badiiy tarzda aks ettiriladi. U, odatda, o‘z asarlarida o‘rta asrlar va zamonaviy davrni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarga murakkab insoniy his-tuyg‘ularni, ijtimoiy muammolarni tasvirlab beradi. Xayriddin Sultonov o‘z faoliyati davomida ko‘plab mukofotlar va sovrinlarga sazovor bo‘lgan. U Mehnat shuhrati ordeni bilan taqdirlangan. Uning ijodi nafaqat adabiy tanqidchilar tomonidan, balki keng jamoatchilik tomonidan ham yuqori baholanadi. Bugungi kunda Xayriddin Sultonovning asarlari o‘zbek adabiyotining eng yorqin namunalari sifatida qadrlanadi va ularning ahamiyati hali ham davom etmoqda. Ijodkorning asarlari o‘zining zamonaviyligini, tarixiy haqiqatga bo‘lgan ehtirosini va insoniy qadriyatlarni ulug‘lashdagi yuksak mahoratini namoyon etadi. Adibning ilk hikoyalari talabalik yillarida matbuotda bosilib chiqqan. “Toshkent oqshomi” gazetasida e’lon qilingan “Mikrarim chol” hikoyasini yozuvchi o‘zining matbuotda e’lon qilingan

birinchi asari eb dhisoblaydi. Yozuvchining qissa, hikoyalarida qalamga olingan voqealar hayotdagi hodisalarga o‘xshaydi. Ulardagi qahramonlar xuddi hayotdagi odamlar kabi ko‘rinadi. Bu qahramonlarning o‘y-kechinmalari, dard-tashvishlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Xayriddin Sultonov asarlarida hayotdagi oddiy hodisalar qalamga olinadi. Kishilarning kundalik hayoti, tashvishi, intilishlari, o‘zaro munosabatlari haqida hikoya qilinadi. Yozuvchi qissa, hikoyalar uchun, asosan, oddiy odamlarni qahramon qilib oladi. Ularnng ruhiy kechinmalarini ishonarli tasvirlash orqali muallifga muvaffaqiyat nasib etadi. “Yonbosh qishloqqa kuz erta tushdi” hikoyasida muallif bunday tasvirlaydi: “Yonbosh qishloqqa kuz erta tushdi. Kechagi yashilligidan ajrilgan za’faron barglar mungli shivirlab, so‘ngsiz hasratini ifoda qilmoqchiday qo‘nimsiz tentiraydi. Achchiq izg‘irin allaqayerdan qor sharpasini haydab keldi, g‘ofil kimsalarni qilichini ko‘tarib qish kelayotganidan ogoh etgan kabi birdan qora sovuq tushdi. Odamlar o‘tin-ko‘mir, issiq kiyim ilinijda yugurib qolishdi, allanechuk yuvosh tortgan nozik-nihol kishilarning tashvishi kuchaydi: seryog‘in, namchil havo ko‘p dardlarni yangilab yubordi” [Sultonov, 1983, 38].Yozuvchi qahramonlari harakat-holatini ularni qurshab turgan tabiatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. “Nomus” hikoyasidagi mana bunday o‘rinlar e’tiborni tortadi: “Kun peshindan oqqan, quyoshning zabti pasaygan edi. Tuya o‘rkachiga o‘xshash suyri adirlar etagiga to‘shalgan soyalar tobora uzaya boshladi. Chol hamon surgalib yurar, sochilgan o‘tlarni sabr-toqat bilan bir joyga yig‘ar, bog‘lar va o‘zini, xuddi shu ishlarni qilmasa, qolgan besh kunlik umrida muhim bir narsa yetishmaydigandek his qilar edi. Qosh qorayib, hori‘g‘in quyosh ufqning bag‘rini do‘lg‘alarcha bepa-yon zamin-u bo‘syunmas odamlarqa mayus termulganchaa ko‘yi botib borarkan, tishlari mahkam qisilgan, o‘zi singari g‘arib chol aslida hanuz kuymanib yurgan jonsarak bir cholga qarab bosh chayqadi” [Sultonov, 1980, 27].Xayriddin Sultonov hikoyalarida qisqa vaqt oralig‘ida ro‘y bergan voqea-hodisalarni shu tarzda jonli gavdalantiradi.

Xayriddin Sultonov o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri sifatida mustaqillik yillarida adabiyotga katta hissa qo‘shgan ijodkordir. Uning asarlarida hayotning murakkab va ko‘p qirrali jihatlari tasvirlanib, o‘quvchilarni chuqur fikrga chorlaydi. Xayriddin Sultonovning badiiy asarlari o‘zining tarixiy, ijtimoiy va insoniy jihatlari bilan nafaqat o‘z davrida, balki kelajakda ham o‘qish va o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib qoladi. Adibning ijodi o‘zining chinakam insonparvarligi, xalqchilligi va zamon ta’sirida yuzaga kelgan fikrlar bilan ajralib turadi. Uning asarlaridagi zamonaviylik va tarixiy haqiqatni uyg‘unlashtirish, kishilarning ichki

dunyosini tasvirlash orqali o‘quvchiga haqiqiy ma’naviy quvonch baxsh etadi. Xayriddin Sultonovning yozuvchilik faoliyati, shubhasiz, o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonov, X. (1990). Bir oqshom ertagi. Toshkent: Adabiyot nashriyoti.
2. Sultonov, X. (1985). Onamning yurti. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Sultonov, X. (2000). Yo‘qchilik va to‘qchilik. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
4. Sultonov, X. (2010). Boburiynoma. Toshkent: O‘zbekiston.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xayriddin_Sultonov
6. www.ziyouz.com
7. inlibrary.uz

## XIX-XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI:RAUF PARFI IJODIYOTI

**To‘ychiyeva Oygul**
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent vohasida tug‘ilib o‘sgan, o‘zbek she’riyatiga munosib hissa qo‘shgan serqirra ijodkor Rauf Parfi ijodi haqida, uning ijodidagi mushtarak xususiyatlar haqida so‘z ketadi. Rauf Parfining mustaqillik yillarida yaratgan she’riy merosi tahlil qilinadi. Shoirning asarlarida milliy ong, tarixiy xotira, Turkiston timsoli va ruhiy ozodlik g‘oyalari qanday aks etgani ochib beriladi.

Annotation: This article talks about the work of Rauf Parfi, a prolific artist who made a significant contribution to Uzbek poetry during the period of independence, and about the common features of his work. Rauf Parfi's poetic heritage created during the years of independence is analyzed. It is revealed how the ideas of national consciousness, historical memory, symbol of Turkestan and spiritual freedom are reflected in the works of the poe

Аннотация: В данной статье рассказывается о творчестве Рауфа Парфи, плодовитого художника, внесшего значительный вклад в узбекскую поэзию в период независимости, и об общих чертах его творчества. Анализируется поэтическое наследие Рауфа Парфи, созданное в годы независимости. Выявлено, как идеи национального самосознания, исторической памяти, символа Rauf Туркестана и духовной свободы отражаются в произведениях поэта.

Kalit so‘zlar:Parfi, mustaqillik adabiyoti, Turkiston g‘oyasi, milliy uyg‘onish, falsafiy she’riyat, tarixiy xotira, ruhiy ozodlik

Keywords :Rauf Parfi, independence literature, the idea of Turkestan, national revival, philosophical poetry, historical memory, spiritual freedom

Ключевые слова :Рауф Парфи, литература независимости, идея Туркестана, национальное возрождение, философская поэзия, историческая память, духовная свобода

Biz o‘zbek adabiyotini o‘rganish jarayonida Toshkent vilayotida unib-o‘sgan bir qanvha ijodkorlar ijodi bilan tanishdik. Ular ichida mening mehrimga sazovor bo‘lgani serqirra ijodkor Rauf Parfi bo‘ldi. Rauf Parfi (Tursunali Parfiyev) 1943-yil 27- sentabrda Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumanidagi Sho‘ralisoy qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab o‘rta maktabda o‘qidi. Keyin ToshDUning filologiya fakultetida tahsil oldi. Shoirning «Karvon yo‘li» nomli birinchi she’rlar to‘plami 1968- yilda nashrdan chiqdi. Shundan keyin uning «Aks-sado», «Tasvir», «Xotirot», «Ko‘zlar», «Qaytish», «Sabr daraxti», «Sukunat», «Tavba», «So‘nggi vido», «Sakina» kabi she’riy to‘plamlari chop qilindi. Tarjimon sifatida u Bayronning «Manfred», Nozim Hikmatning «Inson manzaralari», Karlo Kaladzening «Dengiz xayoli», A. Tvardovskiyning «Zaytun novdasi» asarlari va boshqa ko‘plab jahon adabiyoti namoyandalarining she’rlarini o‘zbek tiliga o‘girdi. Rauf Parfining o‘zbek she’riyatiga qo‘shgan hissasi yuksak baholanib, unga 1999-yil «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi. «Tong otmoqda», «Yomg‘ir yog‘ar», «Yoz kechasi», «Yana qaytib keldim... », «Yurak» she’rlari ijodkorning nechog‘li favqulodda iste’dod sohibi ekanligidan, tabiat lirikasi bilan inson «men»i uyg‘un va hamohang shaklda tarannum etilganidan darak berib turibdi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarda, balki madaniyat, san’at va adabiyotda ham tub burilish yasadi. Ijodkorlar oldida milliy ruhni tiklash, xalqning tarixiy xotirasini uyg‘otish, ozod tafakkur va erkin fikrni ifodalashdek yuksak maqsadlar turgan edi. Ayniqsa, o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab ijod qilgan shoir va yozuvchilar adabiyotga yangicha ruh, yangi mazmun olib kirdilar.Bu jarayonda Rauf Parfi o‘zining betakror ovozi, dadil va teran fikrlari bilan alohida ajralib turdi. U ijodda mustaqillik ruhini, milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini, tarixiy adolatni tiklash istagini ifoda etdi. Rauf Parfi she’riyati mustaqillik davrining milliy ong, tarixiy xotira va ruhiy uyg‘onish bilan sug‘orilgan badiiy obrazlariga boy bo‘lib, u adabiyotda o‘z yo‘lini, o‘z maktabini yaratgan shoir sifatida qadrlanadi. Mazkur maqolada Rauf Parfining aynan mustaqillik yillaridagi ijodiy yo‘nalishi, uning milliy tafakkur va falsafiy mushohadalar

bilan boyigan she'riyati tahlil qilinadi. Shoirning Turkiston g'oyasi, vatanparvarlik timsollari, tarixiy va ruhiy izlanishlarga yo'g'rilgan asarlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib beriladi. Mustaqillik inson qalbida eng avvalo o'zligiga qaytish, tarixini anglash, madaniy ildizlarini tan olish hissini uyg'otadi. Rauf Parfi bu ruhiy holatni chuqur anglagan holda o'z she'riyatida milliy o'zlikni tiklash g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, ozodlik faqat siyosiy-huquqiy kategoriya emas, balki xalqning tarixiy xotirasini uyg'otish, o'zligini anglash orqali to'la hayotga tatbiq etiladigan ma'naviy holatdir. Bu misralar Rauf Parfi uchun ozodlik va vatan sevgisi — faqat real makon emas, balki ichki ruhiy ehtiyoj, qalbda yashaydigan orzu, ma'naviy qadriyat ekanini anglatadi. U she'riyat orqali o'z avlodiga milliy o'zlikni eslatish, uni saqlash va qadrlash zarurligini bildiradi.Shoirning asarlarida ozodlik g'oyasi ochiq va dadil ifoda etilgan. U mustaqillikni faqat siyosiy yutuq sifatida emas, balki xalq ruhiyatidagi uyg'onish, mustaqil fikrlash va tarix bilan yuzlashish jarayoni deb qaraydi. Ayniqsa, o'tgan davrda so'z erkinligi, milliy til va madaniyat tahqirlangan sharoitda ijod qilgan Rauf Parfi uchun mustaqillik — chinakam ilhom va dadillik manbai bo'ldi .She'r – ruhning silkinishidir. Shu bois unda botiniy keskin burilishlar, uzilishlar, qaqshatqich urilishlar – hamma-hammasi aks etadi. She'r – poetik yolg'onning eng rost, eng mukammal shakli. Biz she'r o'qiyotganda uning izmiga tushamiz, lirik qahramonning dard-u dunyosiga qorishib ketamiz. Undan bosh chiqarib tashqi olamga nazar tashlaganda esa tamoman boshqa bir manzaraning guvohi bo'lamiz. Shunda shoirning botiniy va jug'rofiy mamlakati o'rtasida kontrast tafovutni ko'ramiz. Botiniy mamlakatda shoir o'zi xohlaganday o'ylashi, tafakkur qilishi, yashashi mumkin, jug'rofiy mamlakatda esa yo'q. Chegaralar, qonunlar mavjud.

She'r yozguvchi va she'r o'qiguvchilar ko'pincha ikki olam orasida ikki odam bo'lib yashaymiz: she'rning ichida boshqa, she'rdan tashqarida tamoman boshqa bir odamga evrilamiz. Biroq bizning bu mulohazalarimiz Rauf Parfi shaxsiga tegishli emas. Chunki Rauf Parfining she'rda hayotdagidek va hayotda she'rdagidek yashab o'tganini tarixiy dalillar tasdiqlaydi.Rauf Parfi ijodi davomida ozod insonni kuylab o'tgan shoirdir. Uning she'rlarining tarhi, memorial ko'rinishi va ichki bezaklari ham ozodlik, erk, vatan, umumturkiylik degan yaxlit bir chiziqdan o'tadi. Rauf Parfining she'rlarini kuzatar ekansiz, erk va ozodlik kurashchilari bo'lgan jadidlarga bag'ishlangan asarlarga tez-tez duch kelamiz. Shoir dunyoning qaysi burchida bo'lmasin, vatan uchun kurashgan, Ozodlik uchun jon bergan insonlarga bag'ishlab asarlar bitadi."Rauf Parfi she'riyatining asosiy mavzusi bu – shaxs erki, Vatan mustaqilligi va Turkiston, turk dunyosining birligidir; XX asr turk odamining

abadiy shuurini, keskin foje ruhiyatini muqaddas turkiy tilda ifodalashga jazm etgan va murodiga yetgan jasoratli she'riyatdir"

Mana shoirning "Vatan haqida Bernd Iyentshga maktubim" she'ri:

Vatan haqida senga, Bernd,
Shu maktubni yozayotgan paytim
Tashqarida qor yog'moqda ezgin-ezgin,
Oppoq-oppoq, lo'ppi-lo'ppi. Nelarni yog'ar qor?
Taxayyul yog'ar. Taxayyul otiga mingan osmon.
Bernd, bunday yashash axir, ko'p qiyindir balkim.
Bernd, balkim xastalagan bizni bemavrid
Yigirmanchi asr, deb nomlangan og'riq.
O'tinaman, balandparvoz so'zlar, deb o'ylama tag'in,
Ehtimol, yechib tashlashimiz kerakdir qora ro'molini
dardli xotirotning munglug' boshidan.

Bu minbarlarda hayqirib o'qilgan she'rlardan keskin farq qiladi: misralarda og'riq bor, dard bor, iztirob bor. Go'yoki shoir olmon ijodkori bilan hasratlashuv bahonasida Vatanning o'tmishini, kechmishini, u haqdagi tushunchalarini she'rga singdiradi. Bu she'rning tag ma'nosida otlarning dupuri, odamlarning hayqiriqlari, tanklarning ovozi bor. Oppoq, lo'ppi-lo'ppi yog'ayotgan qor ertangi baxtli va osuda hayot uchun bashoratday taassurot qoldiradi. Xullas, Vatan haqida hayqirmasdan turib ham go'zal va ichkin she'r yozish mumkinligini Rauf Parfining ushbu she'ri isbotlab beradi. Rauf Parfi uchun Vatan jug'rofiy tushuncha hosil qilmaydi. Dunyoning qaysi burchida bo'lmasin, qiynalgan, zulmga yo'liqqan odam borki, uning vatandoshidir. Uning "Karlo Kaladze diyorida", "Mikalenjelo sevgisi", "Viktor Xaraning so'nggi qo'shig'i", "Pablo Neruda o'limiga" kabi har bir she'rida Rauf Parfi uchun Vatanning cheki va chegarasi bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Uning she'rlariga singigan turkchilik g'oyasi, Turkiston, Turon mavzusi esa, vatanning chegaralanishi ma'nosida emas, qadimiy tushunchalarning asrab-avaylanishi, qadriyatlarga munosiblik mazmuniga ko'chadi."

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida milliy o'zlik, tarixiy xotira va vatanparvarlik kabi yuksak tushunchalarning qayta talqin etilishiga zamin yaratdi. Bu davrda Rauf Parfi ijodi o'zbek she'riyati uchun yangi bosqich, yangi ruh va yangi pozitsiya olib kirdi. Uning she'rlari nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki tarixiy haqiqat, milliy uyg'onish va ozodlik g'oyalarini targ'ib etuvchi kuchli ijtimoiy-huquqiy xitob sifatida ham qadrlidir.Parfi she'riyati orqali o'zbek o'quvchisi o'z tarixini qayta anglaydi, xalq taqdirini o'z qalbi bilan his etadi va mustaqillikning

haqiqiy ma’nosini chuqur tushunadi. Shoirning Turkiston g‘oyasi, erkin fikr, ruhiy uyg‘onish va milliy birlikka da’vati bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.Shu ma’noda, Rauf Parfi mustaqillik davri adabiyotining nafaqat badiiy timsoli, balki ruhiy yo‘lboshchisi, vijdon va haqiqatning jarangdor ovozidir. Uning merosi bugungi va kelajak avlodlar uchun g‘oyaviy-ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, M. O‘zbek she’riyati va milliy uyg‘onish. — Toshkent: Fan, 2006.

2. G‘afurov, A. Mustaqillik va o‘zbek adabiyoti. — Toshkent: Sharq, 2011.

3. Mirvaliev, B. O‘zbek poeziyasi taraqqiyoti. — Toshkent: Yozuvchi, 1999.

4. Parfi, R. Iymon asiri. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 1991.

5. Parfi, R. Qiyomat qo‘shiqlari. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 1993.

6. Qo‘chqor, N. She’r va haqiqat: Rauf Parfi fenomeni. — Toshkent: Ma’naviyat, 2014.

7. To‘xtaboyev, M. Yangi davr adabiyoti va milliy tafakkur. — Toshkent: Akademnashr, 2018

8. Xudoyberdiyev, H. She’riyatda milliy uyg‘onish ruhi. — Toshkent: Fan, 200

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI

**Abirova Jasmina Turdimurat qizi**
**Chirchiq davlat pedagogika universteti talabasi**

Annotatsiya: Mazkur ishda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Toshkent shahrining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi taraqqiyoti yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Toshkent, mustaqillik, ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy islohotlar, madaniyat, modernizatsiya, infratuzilma, urbanizatsiya, san’at, xalqaro hamkorlik.

Аннотация: В данной работе освещается развитие Ташкента в социальных, экономических и культурных сферах после обретения независимости Узбекистаном.

Ключевые слова: Ташкент, независимость, социальное развитие, экономические реформы, культура, модернизация, инфраструктура, урбанизация, искусство, международное сотрудничество.

Annotation: This paper highlights the social, economic, and cultural development of Tashkent after Uzbekistan gained independence.

Keywords: Tashkent, independence, social development, economic reforms, culture, modernization, infrastructure, urbanization, art, international cooperation.

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, poytaxt Toshkent shahrining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub burilishlar yuz berdi. Bu davr poytaxt tarixida yangi bosqichni boshlab berdi — erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan, milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligida shakllangan taraqqiyot yo‘li belgilandi. Mustaqillik yillarida poytaxtda amalga oshirilgan islohotlar, urbanizatsiya jarayonlari, yangi infratuzilma va arxitektura obyektlarining qurilishi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi yuqori sur’atlarda tezlashdi. Shuningdek, Toshkentning milliy va xalqaro darajadagi madaniy hayoti, san’at va madaniyat muassasalarining faoliyati, xalqaro festival va tadbirlar keng tus ola boshladi. Poytaxtning o‘ziga xos modernizatsiya yo‘li, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar va madaniy boyliklarni asrab-avaylash yo‘lidagi sa’y-harakatlari rivojlandi.

Mustaqillik yillarida Toshkentda aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ijtimoiy dasturlar amalga oshirildi. Yangi mahallalar, zamonaviy uy-joy massivlari, sog‘liqni saqlash va ta’lim muassasalari qurildi. Mahalla institutining mustahkamlanishi, oilaviy qadriyatlarning e’zozlanishi, yoshlar siyosati va ayollarni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi yutuqlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent viloyati — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Respublikaning shimoli-sharqida. 1938-yil 15-yanvda tashkil kilingan. Shimoliy va shimoli-g‘arbdan Qozog‘iston Respublikasi, shimoli-sharqdan Qirg‘iziston Respublikasi, sharqdan Namangan viloyati, janubidan Tojikiston Respublikasi, janubi-g‘arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni (Toshkent shahri maydonisiz) 15,3 ming km². Aholisi (Toshkent shahri aholisisiz) 2.4 million kishidan ziyod (2004). Viloyat tarkibida 15 ta tuman (Bekobod, Bo‘ka, Bo‘stonliq, Zangiota, Oqqo‘rg‘on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo‘l, O‘rta Chirchiq, Qibray, Quyi

Chirchiq), 17 shahar (Angren, Bekobod, Bo‘ka, Do‘stobod, Keles, Olmaliq, Oqqo‘rg‘on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, To‘ytepa, Chinoz, Chirchiq, Yangiyo‘l, Yangiobod, G‘azalkent), 18 shaharcha (Alimkent, Bo‘zsuv, Gulbahor, Zafar, Iskandar, Krasnogorsk, Nurobod, Olmazor, Salor, Tuyabo‘g‘iz, Chig‘iriq, Chorvoq, Eshonguzar, Yangibozor, Yangi chinoz, Yangihayot, O‘rtaovul, Qibray), 146 qishloq fuqarolari yig‘ini bor. Markazi — Nurafshon shahri.

Tabiati — Viloyatning shimoliy va shimoli-sharqiy qismlari G‘arbiy Tyanshan tog‘lari va uning tarmoqlari (Qurama, Piskom va Ugom tog‘lari) bilan band. Eng baland joyi Piskom tizmasidagi Manas tog‘i (4484 m). Chatqol va Qurama tog‘lari orasida Ohangaron daryosi kesib o‘tgan, Ohangaron platosi joylashgan. Viloyat hududining katta qismi Sirdaryo tomon qiyalanib boradigan tog‘ oldi tekisligi (Chirchiq-Ohangaron vodiysi)dan iborat. Ohangaron daryo vodiysi, Qurama tog‘i, Angren-Olmaliq atrofida foydali qazilmalardan mis, polimetall rudalari, oltin, kumush, qo‘rg‘oshin, alyuminiy xom ashyosi, qo‘ng‘ir kumir, molibden konlari, plavik shpati va dala shpati, turli xil qurilish materiallari bor. Termal va mineral suv zaxiralari kup. Viloyat kuchli seysmik zonada joylashgan. Ayniqsa, Chirchiq va Ohangaron havzalarida aniq seziladigan zilzilalar buning ifodasidir. Juda kuchli zilzila 1868-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tdi va 1966-yilda takrorlandi. Turli intensivlikdagi yer osti silkinishlar vaqtvaqti bilan hozirgi kunda ham davom etmoqda.[2]

Toshkent shahri respublika iqtisodiyotining yuragi sifatida sanoat, xizmat ko‘rsatish va savdo tarmoqlarida yetakchi o‘rin egalladi. Yirik sanoat korxonalari modernizatsiya qilindi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faol rivojlandi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda Toshkentda infratuzilmani rivojlantirish, yo‘l-transport tarmog‘ini yangilash, ekologik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha izchil ishlar olib borildi.

Toshkent madaniy hayoti mustaqillikdan so‘ng yangi bosqichga ko‘tarildi. Milliy teatri, san’at galereyalari, madaniyat saroylari, muzeylar va kutubxonalar faoliyati kengaydi. Har yili Toshkentda xalqaro kino festivali, “Sharq taronalari”, “Navro‘z” bayrami, “Art Week” kabi yirik madaniy tadbirlar o‘tkazilib, shahar xalqaro miqyosda tanildi. Madaniyat orqali milliy o‘zlikni anglash, urf-odatlarni asrab-avaylash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda bo‘lgan ikkinchi sessiyasida mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiyada O‘zbekistonning davlat mustaqilligi e’lon qilindi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasining

davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra o‘z davlat belgilariga ega va yangi konstitutsiyasi ishlab chiqish vazifasi belgilangan edi.

O‘zbekiston 1991-yil 1-sentyabrda mustaqillikni e’lon qilgan paytda mamlakat iqtisodiyoti og‘ir edi. O‘tgan yili prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mustaqillik bayrami arafasida shunday degan edi: «Mustaqillikka erishish oson bo‘lmagan».

Mustaqillik qabul qilinish yillarini Islom Karimov shunday eslagan: «Avvalo, fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoyalash borasida aniq ishlar qilish lozim…O‘sha paytda biz qilgan birinchi ish shu bo‘ldiki, odamlarga yer bera boshladik».

Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti Jahongir Ostonov aytishicha 90-yillar oxirida iqtisodiy qiyinchilik so‘mning qadrsizlanishi bilan birga kechdi.

«2017-yilga qadar mamlakatda naqdsiz to‘lov va naqd pul muammosi mavjud edi. Naqd pulsiz savdo qilish deyarli imkonsiz holga yetib kelgan, banklarda yetarli ATM mashinalari yo‘q edi. Buning natijasida turli savdo shahobchalaridan naqdlashtirishda yuqori foiz ustamalari to‘lanar edi. Bank kartasidan pulni naqdlashtirishda 30 foizgacha to‘lashga to‘g‘ri kelgan. Bu daromadning uchdan birini shunchaki yo‘qotish degani. 2017-yilda bu muammoning bartaraf etilishi odamlarning moliyaviy imkoniyatlarini iqtisodiy jihatdan yaxshi tomonga o‘zgartirdi», – dedi Jahongir Ostonov.

Uning so‘zlariga ko‘ra, SSSR parchalanishi ortidan e’lon qilingan mustaqillik o‘sha vaqtdagi mustaqil respublika sifatida boshqarish oson bo‘lmaganini ko‘rish mumkin.

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktor o‘rinbosari Farxod Axrorov aytishicha, 1996-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmi yilma-yil pasaygan.

«Masalan, 1995-yilda 1991-yilga nisbatan real yalpi ichki mahsulot hajmi 18%ga pasayib ketgan edi. 1996-yildan boshlab mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan «O‘zbek modeli» ga o‘tilishi YAIMda ham o‘z aksini topdi va 91-yilga nisbatan 1,7% o‘sishga erishildi. 2001-yildan boshlab esa sobiq SSSR davlatlaridan birinchi bo‘lib O‘zbekiston 80-yillardagi ko‘rsatkichlarga chiqdi. 2001-2005- yillarda yillik yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati yiliga o‘rtacha 5,4%ni, 2006-2010 yilgacha o‘sish sur’ati 8,5%ni tashkil etgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi barqaror o‘sishda davom etmoqda va 80 mlrd AQSH dollardan ko‘proqni tashkil etadi»,– dedi Farxod Axrorov.

Uning so‘zlariga ko‘ra, 2000-yillargacha O‘zbekistonda ishlab chiqarish sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi pasayib borgan. Ammo 2000-yillardan boshlab ishlab chiqarish hajmi ham o‘sib bordi. Masalan, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarish hajmi 3.8%ga oshgan. Iqtisodiyotimizga investitsiyalar hajmi 2022-yilda 1996-yilga nisbatan 20 barobarga ko‘p bo‘ldi. Shunga qaramasdan inflyatsiya sur’ati ham yuqoriligicha saqlanmoqda. Inflyatsiyaning asosiy manbai bu iste’mol tovarlari narxlari hisoblanadi. Misol, 2022-yil birinchi choraklikda o‘tgan yilga xuddi davrga nisbatan iste’mol tovarlari narxi o‘rtacha 2.7%ga oshgan, dedi Axrorov.

«Tashqi savdo aylanmasi 2022-yilda $50 mlrd tashkil etdi. Bunda eksport hajmi $19 mlrd hamda import hajmi $30 mlrd tashkil etgan. Bugungi kunda O‘zbekiston asosan Janubiy Osiyo davlatlari: Koreya, Xitoy, Yaponiya hamda hamdo‘stlik davlatlaridan Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston kabi davlatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Mamlakatimizda 2021-yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 18,7%ga o‘sgan. Shu jumladan, MDH davlatlari bilan eksport hajmi 44,8%, import hajmi esa 15.3%ga oshgan», – dedi iqtisodiyot fanlari nomzodi. Ko‘rishimiz mumkinki, respublikamiz tashqi dunyo bilan savdo aloqalari kengayib bormoqda. Farxod Axrorovning aytishicha, eksport tarkibi 2022-yilda 2000-yillarga nisbatan diversifikatsiyalashgan va sanoat mahsulotlarining umumiy eksport hajmidagi ulushining 10% dan 20%ga chiqishi ishlab chiqarish sanoatining rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining bugungi jozibadorligi investitsiyalar hajmida ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, O‘zbekistonda 2022-yilda 13,66 mingta korxonaning faoliyatida xorijiy sarmoyalar jalb etilgan. Bunda 17,5% jami xorijiy kapital Rossiya hissasiga to‘g‘ri kelgan.

1991-yil 31-avgust kuni mustaqillik e’lon qilindi. 1992-yil Toshkentdagi «Mustaqillik» maydonida bayram sifatida keng nishonlandi. (Tantana 2011-yilgacha «Mustaqillik» maydonida nishonlanib kelingan)

Mustaqillik yillarida Toshkent shahrida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar poytaxtning bugungi taraqqiy etgan zamonaviy shahar sifatidagi mavqeini belgilab berdi. Aholining turmush darajasi oshdi, infratuzilma yangilandi, shahar arxitekturasi va madaniy hayoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Yangi korxonalar, savdo markazlari, ta’lim va tibbiyot muassasalari, madaniyat va san’at maskanlari Toshkentni nafaqat O‘zbekistonning yuragi, balki Markaziy Osiyodagi yetakchi shaharlardan biriga aylantirdi. Bu taraqqiyotlar mustaqillik, milliy qadriyatlar va zamonaviylik uyg‘unligining yorqin namunasi bo‘lib, poytaxtning kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: O‘zbekiston, 1997.

3. Xasanov A., G‘ulomov S. Toshkent tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari to‘plami. — 1991–2024 yillar.

5. Toshkent shahar hokimligi rasmiy sayti: https://tashkent.uz

6. Qodirov A. O‘zbekiston iqtisodiyoti: mustaqillik yillarida rivojlanish bosqichlari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

**MUNDARIJA**


| | |
|---|---|
| **Sh.Azimova** XIX ASR VA XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT BOZORLARI. BOZORLARNING HOZIRGI ZAMON KO‘RINISHI. | 5 |
| **Sh.Bahramov** MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY – IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI | 13 |
| **U.Soatov** SALIB YURISHLARI VA ULARNING YAQIN SHARQ TARIXIGA TA’SIRI | 14 |
| **O.Bahronov** ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IMPERIYAGA ASOS SOLISHI | 17 |
| **S.Baxronova** BO‘STONLIQ TUMAN MARKAZI G‘AZALKENTDA “ELBEK BOG‘I” | 20 |
| **K.Bazarova** ANQARA JANGI HAQIDA QISQACHA MULOHAZALAR | 25 |
| **Z.Karimova** QO‘QON XONLIGIGA QARSHI HARBIY YURISHLAR, XONLIKNING TUGATILISHI | 29 |
| **A.Berdinazarov** MINGO‘RIK QADIMGI SHAHAR | 32 |
| **I.Yuldashova** VI-VIII ASRLARDA CHOCHNING SIYOSIY VA IQTISODIY MAVQEYI | 37 |
| **N.Bobomurodov** O‘RTA ASIRLARDA TURKIYA | 42 |
| **B.Boboxonov** BUXORO AMIRLIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGIDA AHMAD DONISH ASARLARINING O‘RNI | 45 |
| **A.Ummataliyeva** SALIB YURISHLARI BOSHLANISHI VA ULARNING OQIBATLARI | 48 |
| **O.Boltayeva** MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENTNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY AHVOLI | 51 |
| **H.Durmonova** ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING BIZGA QOLDIRGAN ILMIY VA QOMUSIY MEROSI | 54 |
| **S.Bo‘riyev** O‘TGAN ASRDA GERMANIYADA TAHSIL OLGAN TALABALARIMIZ FAOLIYATI HAQIDA MULOHAZALAR | 58 |
| **M.Bo‘riyeva** SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDINING MOG’ULLAR BOSQINIGA QARSHI HARAKATI | 62 |
| **R.Boymatova** QADIMGI SHARQ TARIXI MANBAASHUNOSLIGI | 67 |
| **M.Boymurodova** AXSIKENT YODGORLIGI TARIXIDAN | 69 |
| **N.Boyqabilov** AMIR TEMUR VA MUHAMMAD SHAYBONIYXON SHAXSIYATLARI HAMID ZIYOYEV TALQINIDA | 75 |
| **A.Chariyeva, M.Aminjonova** IX-XII ASRLARDA MAMLAKATIMIZ HUDUDIDA RO‘Y BERGAN MADANIY UYG‘ONISH, BUYUK ALLOMALARNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO‘SHGAN HISSASI | 78 |
| **K.Choriyeva** TOSHKENT VOHASIDAGI KO‘LBULOQ VA SHOSHTEPA MANZILGOHINING O’RGANILISH TARIXI | 82 |
| **B.Bozorov** SOSONIYLAR VA EFTALIYLAR O‘RTASIDAGI SIYOSIY MUNOSABATLAR | 86 |
| **K.Davronova** SAKKOKIY VA O‘ZBEK MUMTOZ G’AZALCHILIK | 90 |

| | |
|---|---|
| AN'ANALARI | |
| **D.Normurodov** BO'STONLIQ TUMANI "SIJJAK" MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA | 93 |
| **D.Muhammadiyeva** TOSHKENT VILOYATI HAQIDA | 96 |
| **S.Ergasheva** XO'JA AHROR VALIY BUYUK SIYMO | 100 |
| **R.Do'smuratov** CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI | 103 |
| **Sh.Ashurova** SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY FAOLIYATIDAGI TUTGAN O'RNI | 107 |
| **D.Egamov** QADIMGI TOSHKENT VOHASI | 111 |
| **N.Iskandarova** O'ZBEKISTONDA QADIMGI TOSHKENT | 113 |
| **A.Egamurodov** O'ZBEKISTON–FRANSIYA DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT YO'LI (1991–2024) | 116 |
| **X.Eralov** TOSHKENT VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI ( CHOCH VA BINKAT) | 120 |
| **Ch.Ergasheva** O'ZBEKISTON VA VENGRIYA O'RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK: ZAMONAVIY BOSQICH VA ISTIQBOLLAR | 126 |
| **Sh.Erimbetova** QADIMGI O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI | 129 |
| **A.Erkinov** QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI | 132 |
| **S.Erlapasov** XII-XV ASRLARDA RUSDA SIYOSIY IQTISODIY-IJTIMOIOY RIVOJLANISHI | 135 |
| **S.Eshboboyev** EFTALIYLAR DAVRIDA CHOCH | 137 |
| **Y.**Usmonova DAVAN DAVLATI: FARG'ONANING QADIMGI SIYOSIY TUZUMI VA XITOY BILAN MUNOSABATLARI | 140 |
| **F.Eshimova** SHARQIY TURK XOQONLIGI | 143 |
| **R.Yolg'oshov** SHOSHTEPA – TOSHKENTNING ENG QADIMGI MANZILGOHI | 146 |
| **D.Eshmuhamedova** CHIRCHIQ SHAHRINING VUJUDGA KELISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLI | 149 |
| **M.Eshquvvatova** MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI | 154 |
| **S.Esonova** MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI | 157 |
| **L.Ochilodiyev** AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXNAVISLIGI | 160 |
| ***M.Rixsiboyeva*** BUYUK TEMURNING TOLERANTLIK SIYOSATI, YHUD ISLOM DINIGA BO'LGAN MUNOSABATI | 165 |
| ***D.Gulyamov*** SOHIBQIRONGA YO'LBOSHCHI BO'LGAN PIRLAR | 168 |
| **Z.Xurramova** SOHIBQIRON AMIR TEMURNING O'ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O'RNI | 176 |

| | |
|---|---|
| ***E.Allamurodov*** ABDURAUF FITRATNING HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR | |
| ***S.Bo'riyev*** AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI XUSUSIYATLARI | 183 |
| ***D.Gulyamov*** AMIR LASHKARBOSHI SHERMUHAMMADBEK G'OZIY | 186 |
| ***S.Jumaboyeva*** ULUG`BEK AKADEMIYASI | 190 |
| ***H.Karimjonova*** TURKISTON JADIDLARINING ILM FANGA QO'SHGAN HISSALARI | 193 |
| ***Sh.Muxamedov*** TEMURIYLAR DAVRIDA TA'LIM | 196 |
| **N.Qo'chqorova** MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOVNING TA'LIMGA QO'SHGAN HISSASI | 201 |
| ***B.Shavkatjonov*** SOMONIYLAR DAVLATIDA ILM-FAN, MADANIY HAYOT VA DIN | 204 |
| ***R.Yolg'oshov*** MAHMUDHO'JA BEHUDIYNI TALIMGA QO'SHGAN XISSASI | 209 |
| ***Sh.Abdiraximova*** O'ZBEKISTONDA HARBIY ISHNING SHAKLLANISHI" | 212 |
| **К.Алимбекова** ТАШКЕНТ В ГОДЫ ВЕЛИКОЙ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ВОЙНЫ: ЭВАКУАЦИЯ, ВКЛАД И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ СУДЬБЫ | 214 |
| **М.Умарова** ТЕРРОРИЗМ, ЭКСТРИМИЗМ И РЕЛИГИОЗНЫЕ УГРОЗЫ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: АДАПТАЦИЯ И ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ БОРЬБА | 218 |
| **М.Умарова** ВОЕННАЯ ТЕХНИКА АЛЕКСАНДРА МАКЕДОНСКОГО | 223 |
| ***R.Savriddinov*** JADIDCHILIK HARAKATINING YO'LBOSHCHISI-MAHMUDXO'JA BEHBUDIY | 234 |
| ***D.Suvanova*** AHAMONIYLAR IMPERIYASI MADANIYATI | 236 |
| ***J.Umidova*** ABU ALI IBN SINO - QOMUSIY ILM SOHIBI | 239 |
| ***B.Murtazoqulova*** BUYUK IPAK YO'LI | 242 |
| ***X.Xalmuratova*** JADIDLARNING ILM - FAN VA TA'LIMGA OID ISLOHOTLARI | 246 |
| ***M.Ganibayeva*** TURKISTON HUDUDIDA JADIDCHILIK HARAKATI | 249 |
| ***D.Turg'unov*** O'RTA OSIYONI O'RGANISH BO'YICHA BIRLAMCHI MANBALAR | 252 |
| **U.Abduqaxxorov** MUHAMMAD SHAYBONIYXON FAOLIYATI VA ISMOIL SAFAVIY O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR | 258 |
| **Z.Xurramova** MUSTAQILLIK G'OYALARINING TARIXIY ASOSLARI TURKUMIDAN: TURKISTON MUXTORIYATI | 265 |
| **Z.Xurramova** G'AZNAVIYLAR VA QORAXONIYLAR O'RTASIDAGI ELCHILIK MUNOSABATLARI | 268 |
| ***S.Shukurullayev*** ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING HARBIY YURISHLARI VA IMPERIYANING INQIROZI | 271 |
| ***D.Norqobilova*** ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MOVAROUNNAHR VA HINDISTON TARIXIDAGI O'RNI | 278 |
| **Z.Jo'rayeva** JADIDCHILIK ASOSCHISI ISMOIL G'ASPIRALI | 283 |

| | |
|---|---|
| FAOLIYATIGA TASNIF. | |
| ***Sh.Quldosheva*** O‘RTA OSIYOGA KO‘CHIRIB KELTIRILGAN SANOAT KORXONALARI VA UNING O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI | 287 |
| ***G.Olimova*** AL-FARG‘ONIY ILMIY ME‘ROSINING HOZIRGI KUNDA O‘RGANILISHI | 290 |
| **D.Gulyamov** TOSHKENT VILOYATIDAGI ZIYOLILARNING QATAG‘ONGA UCHRASHI: ELBEK, OLTOY VA XOLID SAID MISOLIDA | 295 |
| **Sh.Uluqova “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA TOSHKENT SHAHRI VA VILOYATINING LINGVOKULTURLOGIK BELGILARI** | 299 |
| **S.Omonboyeva CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI** | 302 |
| **R.Saidxo‘jayeva TOSHKENT VILOYATIDAGI URF-ODATLAR VA TO‘Y MAROSIMLARI** | 304 |
| **F.Haytboyeva MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT VILOYATI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT: XAYRIDDIN SULTONOV IJODIY FAOLIYATI** | 306 |
| **O.To‘ychiyeva XIX-XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI:RAUF PARFI IJODIYOTI** | 310 |
| **J.Abirova MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI** | 314 |

**QAYDLAR UCHUN**

# TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

**Mas'ul muharrir:**
G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

**Tahrir hay'ati:**
R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor
Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor
D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent
S.Toshev – katta o'qituvchi

***Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.***

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.
© «Zebo print» nashriyoti, 2025.